

**Z.Xudoyberganova
X. Hamidov**

**TURK TILI NAZARIY
GRAMMATIKASI**

**“Tafakkur Bo‘stoni”
Toshkent – 2015**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ZILOLA XUDOYBERGANOVA
XAYRULLA HAMIDOV**

**TURK TILINING
NAZARIY
GRAMMATIKASI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim
vazirligi 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (turk tili) ta‘lim
yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim oluvchi talabalar uchun
o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan*

Toshkent – 2015

UO'K: 811.512.161(075)

81.2Tuk-923

T89

Xudoyberganova Z.

Turk tilining nazariy grammatikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / Z.Xudoyberganova, X.Hamidov – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015. -320 b.

KBK-81.2Tuk-923

ISBN - 978-9943-4546-7-5


Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari "Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, turk tilida morfologik va sintaktik sathiga oid nazariy ma'lumotlarni qamrab olgan. Qo'llanmadagi ma'lumotlar "Lingvistika(turk tili)" magistratura mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, shu yo'nalishda ish olib borayotgan mustaqil tadqiqotchilar uchun nazariy ko'mak beradi.

Mazkur o'quv qo'llanmaning morfologiyaga oid bo'limi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Tarjima nazariysi va amaliyoti kafedrası dotsenti X.Hamidov tomonidan, sintaksisga oid bo'limi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Turkiy tillar kafedrası professori, filologiya fanlari doktori Z.Xudoyberganova tomonidan yozilgan.

Mas'ul muharrir: *Sh.Usmonova - filologiya fanlari doktori, professor*

Taqrizchilar: *B. Abdushukur - filologiya fanlari nomzodi*

Q.Omonov - filologiya fanlari nomzodi



ISBN - 978-9943-4546-7-5

© "Tafakkur Bo'stoni", 2015

© Z. Xudoyberganova va boshq., 2015

© "Ilm Ziyo nashriyot uyi", 2015

SO'ZBOSHI

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi natijasida respublikamiz bilan dunyoning qator rivojlangan mamlakatlari, jumladan, Turkiya o'rtasida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. Tarixi, dini va madaniyati bir bo'lgan o'zbek va turk xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash, mamlakatlarimizning o'zaro manfaatli hamkorligini kuchaytirish iqtisodiy aloqalarda muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Bas, shunday ekan, bu borada chet tillarida (shu bilan birga, turk tilida) bema'lol muloqot qilish va o'z munosabatini ifoda eta olish malakasiga ega bo'lish bugungi kunning asosiy talablaridan biri o'laroq kun tartibiga qo'yiladi. Shu sababli so'nggi yillarda chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi. Ayni paytda turk tili o'qituvchilari va turk tili bo'yicha tarjimonlarga ehtiyoj kuchaydi. Bu esa, o'z navbatida turk tili bo'yicha yetuk mutaxassislarni tayyorlash zaruratini kun tartibiga qo'ydi. Turk tilining o'rganilishiga oid bir qator o'quv va uslubiy qo'llanmalar nashr etilgan bo'lsa-da, shu paytga qadar bu tilning nazariy grammatikasiga oid maxsus o'quv adabiyoti nashr etilmagan. Shu jihatdan qaraganda, ushbu o'quv qo'llanma mazkur yo'nalishdagi ilk o'quv adabiyoti hisoblanadi.

Mazkur qo'llanma filologiya (turk tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi 3- va 4-bosqich talabalariga mo'ljallangan bo'lib, turk tilidagi so'z turkumlari, so'z birikmasi va gap sintaksisiga oid nazariy ma'lumotlarni qamrab olgan. So'nggi yillarda kuzatilgan, o'rganilgan va amalda qo'llanib kelinayotgan tajribalar asosida qalamga olingan va bugun sizning qo'lingizga tekkan ushbu qo'llanmada turk tilshunosligining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan morfologiya va sintaksisiga oid masalalarni yoritishga harakat qilindi.

Qo'llanmada turk tilidagi so'z turkumlari va ularning grammatik kategoriyalari, so'z birikmasi, uning turlari va bog'lanish usullari, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, ularning ifoda materiallari, turlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, turk tilidagi gapning tuzilishi, ifoda maqsadiga ko'ra turlari, modallik va emotsionallikka ko'ra xillari tasniflangan hamda ayni gap turlarining hosil bo'lish usullari ko'rsatilgan.

Bu qoʻllanmani yaratishdan maqsad talabalarda turk tilining morfologik va sintaktik sathi, tilning asosiy morfologik va sintaktik birliklari haqida bilim berish, egallangan bilimlarni ilmiy-pedagogik faoliyatda qoʻllash koʻnikmasi va malakasini shakllantirishdan iborat.

Qoʻllanmada turk tilidagi soʻz turkumlari, soʻz birikmasi va gap haqida keng tushuncha berishdan tashqari, talabalarda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllash koʻnikmasini shakllantirish, turk tilshunosligidagi morfologik va sintaktik birliklarni tadqiq etishda munozarali boʻlgan asosiy yondashuvlar, qarashlar haqida maʼlumot berish, talabalarni ularga munosabat bildirishga oʻrgatish koʻzda tutiladi.

Qoʻllanma ikki asosiy qismdan tashkil topgan: 1- qismda turk tilining morfologiyasiga oid, 2-qismda turk tilining sintaksisiga oid nazariy maʼlumotlar jamlangan.

Turk tili grammatikasini oʻrganayotgan talabalarga oson boʻlishi uchun baʼzi oʻrinlarda turk tili grammatikasini oʻzbek tili grammatikasi bilan chogʻishtirishga harakat qilindi. Shuningdek, kitobda soʻz turkumi haqida maʼlumot berilgandan soʻng ushbu guruhga mansub soʻzlarning yasalishi haqida qisqacha maʼlumot berilib, soʻz yasovchi qoʻshimchalar sanab oʻtilgan va misollar keltirilgan. Barcha mavzu nomlari, muhim grammatik atamalarning oʻzbekchasi keltirilib, ularning turkcha muqobillari qavs ichida koʻrsatilgan.

Maʼlumki, hozirgi zamon turk tili va oʻzbek tilida ayrim hodisalar har ikki tilda ham mavjud. Lekin bu grammatik hodisalar oʻziga xos xususiyatlari bilan birga baʼzi farqililiklarga ham ega. Qoʻllanmada bunday farqli xususiyatlar aytilib, ularning sabablari taʼkidlandi. Shuningdek, oʻzbek tili grammatikasida kategoriya sifatida mavjud, ammo turk tilida ajratilmaydigan baʼzi kategoriyalar aytib oʻtildi.

2-qism besh boʻlimdan iborat. I boʻlimdan turk tilidagi soʻz birikmasi, soʻz qoʻshilmasi tushunchalari, ularning tarkibiy xususiyatlari, soʻz birikmasining tarkibi va tuzilishiga koʻra turlariga oid mavzular oʻrin olgan. II boʻlimda gapning bosh boʻlaklari – ega va kesim, ularning ifoda materiallari, tuzilishiga koʻra turlari, shuningdek, ega va kesimning moslashishiga doir mavzular berilgan. III boʻlim gapning ikkinchi darajali boʻlaklari – aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol

va uning ifodalanishidagi o'ziga xosliklar, bu gap bo'laklarining semantik va tuzilishiga ko'ra turlariga oid mavzularni qamrab olgan. IY bo'lim turk tilidagi gapning tuzilishiga, ifoda maqsadiga, modallikka, emotsionallikka, gap bo'laklari ishtirokiga ko'ra turlari xususidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Y bo'lim turk tilidagi murakkablashgan sodda gap, ularning turlari, shakllanishidagi o'ziga xosliklar to'g'risidagi mavzularga bag'ishlangan.

Har bir bo'limda talabalar bilimni nazorat qilish uchun savollar va topshiriqlar berilgan.

Mazkur qo'llanma turk tili grammatikasini o'rgatish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilgan dastlabki ishlardandir. Shu bois kitobda muallif nazaridan chetda qolgan ayrim xususiyatlarning ham uchrashi tabiiy. Shuni hisobga olib, muallif kitob va unda qalamga olingan mavzular yuzasidan bildirilgan barcha samimiy maslahat, fikr-mulohazalarni chin dildan qabul qiladi va yaqin kelajakda bu borada davom ettiriladigan ishlarda e'tiborga oladi.

O'quv qo'llanma bo'yicha fikr-mulohazalaringizni va takliflaringizni quyidagi manzilga yo'llashingizni so'raymiz:

ÖN SÖZ

Özbekistan Cumhuriyeti bağımsızlığını ilan ettikten sonra dünyanın yüzden fazla ülkesiyle ilişkiler kurmaya başladı. Özellikle, dünyanın gelişmiş ülkelerinden biri olan Türkiye'yle ekonomik, kültürel ilişkiler kuruldu. Tarihi, kültürü, gelenek ve görenekleri aynı olan Özbek ve Türk halkları arasındaki ezeli dostluk bağlarının daha da sağlamlaştırılması, iki ülke arasındaki işbirliğinin geliştirilmesi ekonomik ilişkilerin önemli etkeni olarak meydana gelmiştir.

Eğitim alanında, öğrencilerin yabancı dilde (örneğin, Türkçe) konuşabilmeleri, düşüncelerini hem sözlü, hem yazılı şekilde rahat ifade edebilmeleri dönemin gerektirdiği koşullardandır. Yabancı dillere olan ilginin arttığı son yıllarda Türkçe uzmanları, özellikle, eğitmen ve tercümanlara olan ihtiyaç da yükselmektedir. Dolayısıyla, yüksek seviyeli Türkçe uzmanlarının yetiştirilmesi gündemin önemli konusu olmaktadır.

Bağımsızlık yıllarında Özbekistan'da Türkçe eğitimle ilgili bir çok ders ve çeşitli el kitapları yayınlanmış olsa da, Türkçe dilbilgisinin tüm bölümlerini kapsayan bir gramer kitabı yayınlanmamıştır. Bu bakımdan elinizdeki kitap günümüzde Türkçe eğitim alanında hissedilmekte olan eksikliği bertaraf edecektir diye düşünüyoruz.

Türkçenin Şekil Bilgisi ve Söz Dizimiyle ilgili geniş bilgileri içermekte olan bu kitap Özbekistan'ndaki Yüksek Eğitim kurumları, üniversitelerin Türk Filolojisi bölümleri'nde Lisans eğitimi görmekte olan 3. ve 4. sınıf öğrencileri için ders kitabı olarak kullanılabilir. Son yıllarda karşılaşılmakta olan sorunlar dikkate alınarak, Türkçe eğitiminde biriktirilen deneyimlere dayanılarak hazırlanmış olan kitapta Türkçe Gramerinin tüm meseleleri aydınlatılmıştır.

Kitapta, özellikle, Türkçenin kelime grupları ve gramer kategorileri, kelime öbeklerinin oluşması ve çeşitleri, basit ve birleşik cümlelerin öğeleri, oluşması, yapısı ve cümlenin çeşitleriyle ilgili teorik bilgiler yer almaktadır.

Kitap Türkçenin Şekil Bilgisi ve Söz Dizimiyle ilgili sahip olunmuş bilgilerin eğitim ve bilimsel araştırmalar sırasında kullanma bacerisi ve kelime grupları, kelime öbekleri ve cümleyle ilgili edinilen bilgileri pratikte uygulama becerisinin şekillendirilmesini hedef almakta, araştırmalar sırasında tartışmalı yaklaşımlar, farklı bakışları ortaya atmaktadır.

Kitap iki kısımdan oluşmakta, 1- kısım Türkçenin Şekil Bilgisi, 2-kısım da Türkçenin Söz Dizimi olarak adlandırılmaktadır. Türkçenin Grameriyle ilgilenen öğrencilere kolaylık sağlama amacıyla bazı yerlerde konular Özbekçenin gramerile karşılaştırılmıştır. Türkçenin Şekil Bilgisi kısmında belli bir kelime grubuyla ilgili teorik bilgiler o cinsten olan kelimelerin yapı özellikleri, yapım ekleri ve örneklerle tamamlanmaktadır. Öğrencilere kolaylık sağlamak amacıyla bazı yerlerde Türkçe'nin gramer konuları, terimler Özbek Dili'nin grameri ve dilbilgisi terimleriyle karşılaştırılmıştır.

Türkçe'nin Grameriyle ilgili önemli konular incelenmekte olan bu kitapta Çağdaş Türkçe'nin kelime grupları Türkçe Dilbilgisi kitaplarından farklı şekilde, Özbekçe Dilbilgisi kitaplarında uygulanan sistem ve kelimeleri sınıflandırma temayüllerine uygun şekilde

sıralanmış, her kelime grubu sonunda bu gruba ait olan kelimelerin meydana gelmesini sağlayan yapımlar ekleri örneklerle verilmiş, tüm konu başlıkları, gramer terimleri Özbekçe ve Türkçe olarak iki dilde kitaptan yer almıştır.

Bilindiği gibi, bazı gramer kuralları Çağdaş Türkçe’de de Çağdaş Özbekçe’de de aynıdır. Ancak, bu kurallar arasında bazı farklılıklar da bulunmaktadır. Kitapta bu farklılıkları belirtmeye, onların meydana gelmesinin nedenleri, kurallarını vurgulamaya çalışılmıştır. Ayrıca, Özbek Dili’nin gramerinde ayrı grup ya da çeşit olarak var olan, ama Türkçe’nin gramerinde ayrı bir kelime grubu ya da çeşidi olarak görülmemekte olan olaylar, hususlar da ele alınıp, nedenleri açıklanmıştır. Böyle bir durum meydana geldiğinde, öğrencilerin konuyu iyi anlamaları için Özbekçe ve Rusça’daki buna benzer konular da dikkate alınmıştır.

Kitabın 2. Kısmı 5 bölümden oluşmaktadır. 1. bölümde kelime öbekleri, kelimeler arasındaki ilişkiler ve yapı özellikleri, çeşitleri, 2. bölümde cümlenin ana öğeleri olan özne ve yüklem özellikleri, çeşitleri, uyumu, 3. bölümde cümlenin ikincil öğeleri, nesne ve tümleçlerin özellikleri, yapı çeşitleri, 4. bölümde basit cümlenin anlam ve yapı çeşitleri, 3. bölümde cümlenin ikincil öğeleri, nesne ve tümleçlerin özellikleri, yapı çeşitleri, 4. bölümde basit cümlenin anlam ve yapı çeşitleri, 5. bölümde karmaşık basit cümlenin anlam ve yapı çeşitleri, özelliklerinden söz edilmiştir.

Her bölümün sonunda öğrencilerin gramer bilgilerini değerlendirme amacıyla sözlü ve yazılı sınav soruları verilmiştir.

Bu kitap ülkemizde Türkçe Dilbilgisi üzerine gerçekleştirilen çalışmalardan biridir. Dolayısıyla, kitapta yazarların dikkati dışında kalmış bazı hususların da bulunması doğaldır. Yazarlar, kitapla ilgili bildirilecek samimi fikirleri kabul eder, verecekleri fikir ve önerilerinden dolayı herkese şükranlarını sunar, ileride yapılacak çalışmalarında bildirilen değerli fikir ve önerileri dikkate alacaklardır.

Kitapla ilgili düşünce ve önerilerinizi aşağıdaki adrese göndermeniz rica olunur:

aloliz74@mail.ru, toshdshi@mail.ru, aloliz5@vahoo.com.

1-QISM

MORFOLOGIYA

KIRISH

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tili, turk tilining shakllanishiga doir ilk ma'lumotlarni berish, morfologiya, turk tilidagi mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, asosiy grammatik kategoriyalar, mustaqil so'z turkumlarining yasalishi haqida ma'lumot berish.

Tayanch tushunchalar: *turk tili (Turk Dili, Turkçe), hozirgi zamon turk tili (Çağdaş Türkçe), grammatika (gramer), "Til inqilobi" (Dil Devrimi), so'z boyligi (kelime dağarcığı), qadimgi turkiy til (Eski Türkçe), o'rta turkcha (Orta Türkçe), yangi turkcha (Yeni Türkçe), so'z yasalishi (kelime yapımı).*

Turk tili (*Türk Dili, Türkçe*) Turkiya Respublikasining davlat tili bo'lib, bugungi kunda 70 milliondan ortiq kishi ushbu tilda so'zlashadi.

Turkiy tillar oilasiga mansub hozirgi zamon turk tili (*Çağdaş Türkçe*) o'g'uz lahjasining o'g'uz-saljuq kichik guruhiga mansub bo'lib, unga xos asosiy genetik va tipologik xususiyatlar, leksikada – asosiy so'z zahirasining mushtarakligi, fonetikada – turkiy tillarga xos singarmonizm qonuni, morfologiyada – so'z yasalishi, o'zgarishi, so'z oxiriga qo'shimcha qo'shib yangi shakl va so'zlar yasalishi va sintaksisda – so'z birikmalari va gap bo'laklarining joylashish tartibida namoyon bo'ladi. Sanab o'tilgan umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda hozirgi turk tili boshqa turkiy tillardan, jumladan, o'g'uz guruhiga mansub tillardan ajralib turuvchi ba'zi farqli xususiyatlarga ham ega.

Hozirgi turk tili X – XI asrlarda O'rta Osiyodan Onado'lu yarim oroliga ko'chgan va XII asrda Saljuqiylar davlati, XIV asrning boshlaridan Usmoniylar Imperiyasini barpo etgan o'g'uz-saljuq qabilalari tilining ko'p asrlik taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan.

Turk tili o'zining butun tarixi davomida turli tizimdagi tillar, xususan, flektiv arab tili va analitik tillardan biri bo'lgan fors tili, XVIII asrdan boshlab esa, Yevropa tillarining jiddiy ta'siriga uchragan. Sanab o'tilgan tillar, xususan, arab va fors tillari bilan o'zaro munosabatlar

natijasida, xususan, devon adabiyoti orqali turk tiliga juda ko'p arabcha va forscha so'z va atamalar o'zlashib qolgan. Bu so'zlarning salmoqli qismi hozirgi kungacha turk tilida saqlanib qolgan. Masalan, turkcha *göz* 'ko'z' so'zi – arabcha 'ayn' – forscha 'chashm' dir; yoki turkcha *ak* (*beyaz*) 'oq' so'zi – arabcha 'beyaz'; turkcha *su* 'suv' so'zi – forscha 'ob' dir.

Turk tili leksikasining shakllanishiga Saljuqiy va Usmoniy turklari Kichik Osiyoni istilo qilgan davrda ular tomonidan assimilatsiya qilingan xalqlarning tillari ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, o'tmishda yirik jahon sivilizatsiyalaridan biri sanalgan Vizantiya imperiyasining tili – yunon tilini alohida ta'kidlash joiz. Turk tiliga yunon tilidan o'zlashgan so'zlarni Kichik Osiyo va O'rta Yer dengizi mintaqalarining toponimlari, shuningdek, XI – XV asrlar yunon madaniyati, dehqonchilik, dengizchilik, baliqchilik va boshqa sohalar bilan bog'liq atamalar tashkil etgan (*lodos* 'janubdan esuvchi kuchli shamol', *körfez* 'ko'rfaz', *fırın* 'pech' va h.). Ba'zi so'zlar slavyan tillaridan o'zlashgan: *pulluk* 'plug', *masa* 'stol' (rumin tilidan), *palaska* 'portupeya, qilich osiladigan kamar' (venger tilidan). İlk o'zlashmalardan bir qismini arman, kurd, italyan va o'rta asrlarda turklar bilan yaqin munosabatda bo'lgan boshqa xalqlarning tillaridan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi.

O'zlashish natijasida yuzaga kelgan so'zlar talaffuz gilinayotganda turk tilining fonetik qoidalari (turkiy singarmonizm qonuni) ko'pincha buziladi. Turkchaga xos bo'lmagan unli va undosh tovushlar ketma-ketligi va shunga o'xshash fonetik hodisalar kuzatiladi. Morfologik nuqtai nazardan, arab va fors tillarining ta'siri ba'zi o'zlashgan grammatik kategoriyalarda (bog'lovchilar, old qo'shimchalar, fe'l-masdarlar, sifatoshlar) namoyon bo'ladi.

Turk tilining shakllanishi tarixiga nazar tashlanganda, tilga tashqaridan ta'sir, asosan, XX asrning 20 – yillarigacha bo'lgan davrda kuzatilgan. Bu davrgacha juda ko'p sinovlar, turli islohatlarni boshdan kechirgan turk tili o'sha davrda jamiyatda amalga oshirilgan islohatlar orasida muhim o'rin olgan «Til inqilobi» (Dil Devrimi) natijasida yangi davrga qadam qo'ydi. Bu inqilobning asosiy maqsadi turk tilining lug'at zahirasini qayta tiklash, grammatik va uslubiy me'yorlar, imlo

qoidalarini tartibga solishdan iborat edi. Yangi ijtimoiy munosabatlar adabiy tilning elitar mazmuniga barham berish, yozuv me'yorlarini demokratlashtirish va og'zaki nutqqa yaqinlashtirishni taqozo etar edi.

Til islohatining yana bir muhim maqsadi usmoniy turkchasi (*Osmanlı Türkçesi*)ning turk tili (*Türkçe, Türk Dili*) deb o'zgartirilishi va arab yozuvidan turk tilining tovush tarkibiga to'la mos keluvchi yangi turk yozuvi (lotin alfaviti)ga o'tilishi edi. Til islohatining asosiy ilmiy va tashkiliy markazi bo'lgan Turkiya til tashkiloti (*Türk Dil Kurumu*) turk tili leksikasini ajnabiy unsurlardan tozalab, yangi turk leksikasi va atamashunosligini barpo qilishdan iborat edi.

Yangi turk leksikasi, yozuvda keng qo'llanib kelayotgan arxaizmlarning o'rnini egallashi va yangi tushunchalarni ifodalash uchun vosita bo'lishi kerak edi. Shu tarzda turk tili leksikasi va atamashunosligini qayta yaratish, tilni begona unsurlardan tozalash (*özleşme*) yo'li bilan umummilliy adabiy til me'yorlarini ishlab chiqishga kirishildi. Bunda turk tili va qardosh turkiy tillarning ichki zahiralaridan keng ko'lamda foydalanildi. Birinchi navbatda, XIII asrdan keyingi turk yozma adabiy yodgorliklaridagi genetik turkiy leksika asos olindi. Agar bu jarayonni uchga bo'ladigan bo'lsak, bulardan birinchisi, neologizmlar sifatida olingan faol arxaik leksikaning bir qismi zamonaviy turk adabiy tilining lug'at tarkibiga kiritildi va ular arabcha, forscha so'zlarning muqobillari sifatida tildan o'rin oldi. Masalan: *konuk* (ar. misafir) 'mehmon', *tanık* (ar. şahit) 'guvoh, shohid', *oran* (ar. nispet) 'nisbat', *kez* (ar. defa) 'kez, marta', *sonuç* (ar. netice) 'natija' va h. Ikkinchisi, turk tilining lahja va shevalariga xos qator so'zlar lug'at tarkibiga kiritildi. Masalan: *çömçe* 'yog'och qoshiq; kichik cho'mich', *divlek* 'pishmagan qovun', *çekel* 'kichik omoch' va h. Uchinchisi, so'z yaratishning samarali usuli - sof turkiy affiksalar yordamida va boshqa yo'llar bilan yangi leksik birliklar yuzaga keltirildi. Masalan: *gözlük* 'ko'zoynak', *öğretmen* 'o'qituvchi', *bakan* 'vazir', *yüzyıl* 'asr, yuz yil', *anayasa* 'konstitutsiya' kabi.

Turk tili leksikasi, grammatikasi va uslubshunosligini qayta qurish borasida olib borilgan tadbirlar natijasida adabiy til va og'zaki nutq me'yorlari orasida mavjud bo'lgan jiddiy farqlar barham topdi. Leksika tubdan boyidi, tilning ijtimoiy vazifasi kengaydi.

Bugungi kunga kelib hozirgi zamon turk adabiy tili to'la shakllandi va hozirda turk tilining uslubiy va atamashunoslik tizimlari me'yorlashtirilmoqda. Lekin shuncha samarali ishlar olib borilayotganiga qaramay, tilning ba'zi vazifadosh uslublarida, ayniqsa, professional uslublarda – tibbiyot, huquqshunoslik, harbiy va ilm-fanning boshqa sohalarida hozirgi zamon turk tiliga xos so'z va atamalar, baynalminal atamalar bilan parallel shaklda juda ko'p arxaik arabcha-forscha so'z va atamalarning ham qo'llanilayotgani ma'lum.

Sanab o'tilgan dalil va xususlarning hisobga olinishi hozirgi zamon turk tilidagi so'z turkumlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'z boyligi (*Kelime Dağarcığı*)

Har til o'zining asosiy so'z boyligiga ega. Vaqt o'tishi bilan bu boyluk yangi so'zlarning yasalishi va boshqa tillardan so'z o'zlashtirilishi yo'li bilan yanada boyiydi. Til tirik organizm kabi vaqt taqozosi bilan o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hamda so'z yasash, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish yo'li bilan o'z zahirasini boyitib borar ekan, ba'zi so'zlar eskirib, iste'moldan chiqib boradi. Shu nuqtai nazardan, so'z boyligi o'zgarib va yangilanib boruvchi ma'naviy xazina hisoblanadi.

Qadimgi turkiy til (*Eski Türkçe*). Ba'zi tillarning asosiy so'z xazinasini qadimdan turli manbalar evaziga shakllanib, yashab kelgan (fransuz, ingliz tillari). Ba'zi tillarda esa bunday holat kam uchraydi, ya'ni til o'z sofligini saqlab qolgan bo'ladi (turkiy tillar, nemis tili). Bu tillarning grammatikasida uchraydigan farqliliklar xalqlarning tarixda boshdan kechirgan til hodisalari bilan bog'liq.

Xunlardan kelib chiqqan xalqlar Yevropa va Osiyo qit'olari bo'ylab yoyilib ketganliklari uchun ham turkiy (xun) tillarga boshqa tillar o'z ta'sirini o'tkazgan. Turklar islom dinini qabul qilmaslaridan oldin Xitoy va Hind-Evropa tillaridan so'zlar o'zlashtirganlar. Sharqiy turkcha ta'sirida ko'pgina din va davlat boshqaruviga oid ba'zi atamalar eski o'g'uz tiliga o'tgan. Bular: sanskritchadan o'zlashgan *bal* (asal, bol), yunonchadan o'zlashgan *bez* (bo'z, latta), xitoychadan o'zlashgan *inci* (inju), forschadan o'zlashgan *şeker* (shakar), *bağ* (bog'), *kamu* (jamiyat), so'g'dchadan o'zlashgan *kağit* (qog'oz) va h.

Sharqiy turkcha xitoy tili ta'sirida qolgan bo'lsa, g'arbiy turkcha qadimdan g'arb tillaridan so'zlar o'zlashtirgan, XI asrda o'g'uz turkchasi ma'lum darajada fors tili ta'siriga uchragan. O'sha davrda ikki lahja orasidagi ba'zi so'zlar hind-yevropa tillaridan o'g'uzchaga kirib qolgan bo'lishi mumkin: *bal / ari yaği* (bol / ari yog'i), *pamuk / yün* (paxta / jun), *aftabi / kumgan* (qumg'on, oftoba) kabi.

O'rta turkcha (*Orta Türkçe*). Turklar forslar bilan yaqin aloqada bo'lgan holda musulmonlikni qabul qilgan va keyinchalik Eronda o'z davlatlarini barpo etganlar. Shu bois islom diniga oid ba'zi tushunchalar forsha so'zlar orqali o'rganilgan. Bunday so'zlardan ba'zilari turk tilida hozirgacha saqlanib qolgan: *aptest* (tahorat), *namaz* (namoz), *oruç* (ro'za), *peygamber* (payg'ambar), *günah* (gunoh) kabi. Arab tilining turk tiliga ta'siri keyinchalik yanada ortgan.

Turk tili dunyoning madaniyat tillari hisoblangan yunon va italyan tillari bilan ham yaqin munosabatda bo'lgan. Faqat ular boshqa alfavitga asoslangani uchun so'z o'zlashishi og'zaki yo'l bilan amalga oshgan: *temel* (tamal, asos), *takoz* (yog'och pona), *fırın* (duxovka, tandir), *kaptan* (kapitan, sardor), *gümruk* (bojxona) kabi.

Yangi turkcha (*Yeni Türkçe*). Turklar XIX asrning boshlarida g'arbga ochila boshlagan. Shunda fransuz tili orqali g'arbcha tushuncha va atamalar to'g'ridan-to'g'ri turkchaga kirib kelgan. O'sha davrning adabiy tili sanalgan usmonli tili bir asr davomida bu so'zlarga yangi arabcha ekvivalentlar topib so'z oqimining oldini to'sishga urindi, biroq zamonaviy milliy til sifatiga ega bo'lmagan usmonli tili imperiya bilan bir vaqtda inqirozga yuz tutdi. Shundan keyin zamonaviy tilning butun so'z boyligini o'z manbalari asosida shakllantirishni davlat qilgan Yangi turkcha maydonga kelgan.

So'zlarning tuzilishi (Kelimelerin Yapısı)

So'zlar bir yoki bir necha bo'g'indan yuzaga kelgan ma'no birliklaridir. Ular lug'atdagi boshlang'ich shakllariga ko'ra lug'at so'zlari deyiladi (*taş (tos'ı), nine (buvi), toprak (tuproq)*) va h. Gap ichida ularga so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shib, boshqa so'zlar bilan munosabat o'rnatiladi (*Ali-nin, nine-den, toprağ-a, getir-di*). Bular grammatik shakllardir.

Lug'atlarda berilgan so'zlardan ko'pchiligi bo'linmas ma'no

unsurlari hisoblanib, ularni yanada sodda parchalarga bo'lish mumkin emas: *baş* (*bosh*), *su* (*suv*), *ak* (*oq*), *kırk* (*qirq*), *sev-* (*sev-*), *deve* (*tuya*) va h. Bular soʻzning oʻzak qismidir. Baʼzilari esa maʼno oʻzgartiruvchi, maʼno yasovchi qoʻshimchalar bilan uzaytirilgan soʻzlardir: *baş-lik*, *su-lu*, *sev-dir-*, *deve-ci* kabi. Bular soʻzning negizidir. Turk tilida qoʻshma va ajnabiy soʻzlardan ham xuddi oʻzaklardan yasalgan soʻzlar kabi yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilib negizlar yasalgan: *can-sız* (*jonsiz*), *hasta-lik* (*xastalik*), *ayakkabı-cı* (*etikdoʻz*) kabi.

Qoʻshma va oʻzlashgan soʻzlardan ham xuddi oʻzaklardan yasalgan soʻzlar kabi yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilib negizlar yasalgan. Hamma holatlarda ham negizlar qaytadan yasovchi qoʻshimchalar olib oʻz maʼnolarini oʻzgartirgan: *su-lu-luk* (*suvlilik*), *ayakkabı-cı-lik* (*etikdoʻzlik*), *düşün-ce-siz-ce* (*oʻylovsiz*, *oʻylamasdan*) kabi.

Soʻz yasalishi (*Kelime Yapımı*)

Hozirgi zamon turk tilida qoʻllanib kelinayotgan soʻz va atamalar uch xil yoʻl bilan yuzaga kelgan. Bulardan birinchisi, faollashtirilgan neologizmlar sifatida zamonaviy turk tiliga kirgan arab, fors va boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarning muqobillaridir. Masalan: *kuşku* - *şüph*e (*shubha*, *hadik*), *alan* - *saha* (*maydon*) kabi. Ikkinchisi, turk tilidagi dialektlardan tanlash yoʻli bilan yuzaga kelgan: *ç*eke (*kichik omoch*), *d*ivlek (*pishmagan qovun*), *ç*ömçe (*yogʻoch qoshiq*, *choʻmich*) va h. Turk tilining dialektlar lugʻatiga kiritilgan bu soʻzlar badiiy asarlar orqali shevadan oʻzlashtirilgan. Uchinchisi, turk tilining soʻz yasash vositalaridan foydalanish yoʻli bilan yaratilgan yangi soʻzlar, neologizmlardir. Bu har qanday tilda soʻz yasalishining eng sermahsul yoʻli hisoblanadi. Bunda mahsuldor affikslarning oʻrni salmoqli: *-li*, *-siz*, *-lik*, *-ce* va b. Sof turkcha *-ak*, *-men*, *-cil* affikslari va boshqa tillardan oʻzlashtirilib, turkchalashtirilgan *-sel*, *-tay*, *-ev* affikslari kam uchraydi.

Turk tilida soʻz yasalishida konversiya usuli ham keng qoʻllanadi: *yazar* (*yozuvchi*), *bakan* (*vazir*) kabi. Soʻzlarni qoʻshish yoʻli bilan ham qator soʻzlar yasalgan: *ağırbaşlı* (*ogʻir-vazmin*), *dedikodu* (*gʻiybat*), *yüzyıl* (*asr*), *önsöz* (*soʻz boshi*), *basımevi* (*bosmaxona*) kabi.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar va oʻzaklarning toʻrttadan turi mavjud. Aslida oʻzak soʻz yasalishining asosiy xom ashyosidir. Shu

bois uni soʻz yasalihi mavzusiga tegishli deymiz, ammo bu atama ancha sodda oʻzaklarga nisbatan qoʻllanadi.

Turk tilida soʻz yasalihiining uch turi ajratiladi:

1. Otdan (ot yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilib) ot yasalihi: *yama-cı* (yamoqchi), *göz-lük-çü* (koʻzoynak yasovchi yoki uni sotuvchi), *iş-çi-lik* (ishchilik), *avukat-lik* (advokatlik) kabi.

2. Otdan feʼl yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilib feʼl yasalihi: *iz-le-mek* (taʼqib etmoq, tomosha qilmoq), *bıçak-la-mak* (pichoqlamoq), *fırça-la-mak* (choʻtkalamoq, tozalamoq) kabi.

3. Feʼlga ot yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilib (feʼldan) ot yasalihi: *sat-ıcı* (sotuvchi), *bil-im* (bilim), *kur-um* (muassasa) kabi.

Undan tashqari, turk tilshunosligida feʼl shakllarining yasalihi ham soʻz yasalihiining bir turi hisoblanadi. Shu boisdan soʻz yasalihiining toʻrtinchi turi ham ajratiladi (feʼl yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilib (feʼldan) feʼl shakllari yasalihi): *sez-dir-mek* (sezdirmoq), *gör-üş-tür-mek* (koʻrishtirmoq, uchrashtirmoq) kabi.

Soʻzning oʻzak va qoʻshimchalaridagi oʻzgarishlar xususida shuni aytish kerakki, turk tilida soʻzning yasalihi vaqti juda muhim. Chunki soʻzning oʻzagi ham, qoʻshimcha ham jonli unsurlar boʻlib, ular vaqt oʻtishi bilan oʻz shakli va maʼnosini oʻzgartirishi mumkin. Qolaversa, tilda qoʻllanmay qolgan, eskirgan oʻzak va qoʻshimchalar ham talaygina. Shu bilan birga, birdan ortiq maʼnoga ega boʻlgan oʻzak va qoʻshimchalarning qaysi maʼnoda kelayotganini yaxshi bilish kerak. Chunki soʻz shundan kelib chiqqan holda maʼno kasb etadi: *yaş* (yosh, toza), *yaşarmak* (yasharmoq), *yaşlı* (keksa), *yaşlanmak* (keksaymoq, qarimoq) kabi.

Turk tilida asl feʼllar feʼl oʻzagining maʼnosini oʻzgartiruvchi bir qancha qoʻshimchalar vositasida yuzaga keladi. Grammatika nuqtai nazaridan bunday oʻzgarishlar feʼl nisbat qoʻshimchalari qoʻshilishi natijasida yuz beradi. Lugʻaviy maʼnoda mustahkam oʻzgarish yuzaga keltirgan va yangi soʻzlar yaratuvchi feʼl qoʻshimchalarini turk tilshunoslari soʻz yasovchi qoʻshimchalar deb atashadi. Lekin umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan feʼldan feʼl yasalihi mumkin emas. Feʼldan faqat feʼl shakllari yasalihi mumkin.

Feʼl nisbat qoʻshimchalari feʼl oʻzagi maʼnosini oʻzgartirgan

holda yangi shakllar hosil qiladi. Faqat bo'lishsiz fe'l negizlari yangi shakllarda rivojlanmaydi. Shu bois nisbat (*çatı*) qo'shimchalari ham ko'zdan kechiriladi.

Fe'l shakllari yasovchi qo'shimchalar orasida tarixiy kirishuv ro'y berib kelgan. Bugungi kunda turk tilshunoslari tomonidan yasovchi qo'shimcha sifatida qabul qilingan qo'shimchalardan ko'pchiligining qadimda nisbat qo'shimchalari yoki qo'shma shakllar ekanligini ta'kidlamoq kerak.

Nazorat uchun savollar

1. Hozirgi zamon turk adabiy tilining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Turk tilining tarixiy taraqqiyoti.
3. Turk tili taraqqiyotining davrlashtirilishi.
4. Qadimgi turkiy tilning xususiyatlari.
5. O'rta turk tili davridagi til xususiyatlari.
6. Yangi turk tili davri til xususiyatlari.
7. Turk tili islohoti.
8. Turk tilidagi so'zlarning tuzilishi.
9. Turk tilida so'z yasalishi.
10. Ot yasovchi qo'shimchalar.
11. Fe'l yasovchi qo'shimchalar.

1.1.SO'Z TURKUMLARI (Kelime gruplari)

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi so'z turkumlari haqida ma'lumot berish, so'zlarni turkumlarga tasniflash tamoyillari haqida tushuncha hosil qilish

Tayanch so'z va iboralar: *morfologiya (morfoloji; biçim bilimi, yapibilimi, yapıbilgisi), so'z turkumlari (kelime gruplari), grammatik ma'nosi, grammatik shakl, so'zning leksik ma'nosi (kelimenin anlamı), so'zlarning turkumlanishi (kelimelerin sınıflandırılması).*

Tayanch tushunchalar: *morfologiya (morfoloji; şekil bilgisi, biçim bilimi, yapı bilimi, yapı bilgisi), so'z turkumlari (kelime gruplari), grammatik ma'no, grammatik shakl, leksik ma'no (kelimenin anlamı), so'zlarning turkumlanishi (kelimelerin sınıflandırılması).*

Hozirgi zamon turk tilidagi soʻz turkumlari tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi boʻlgan *Morfologiya* boʻlimida oʻrganiladi. Morfologiya turk tilshunosligida *Şekil bilgisi* yoki *Biçim bilimi* deb nomlanadi. Baʼzi turk tilshunoslari uni *Morfoloji*, *Yapı bilimi* yoki *Yapı bilgisi* deb atashadi. Soʻz turkumlari esa turk tilida *kelime gruplari* (*soʻz guruhlari*) deb nomlangan. Soʻz turkumlari turk tilshunosligida *morfologiyaga* sinonim boʻlgan grammatik atama sifatida ham qabul qilingan, chunki tilshunoslikning ushbu boʻlimi soʻzlarning grammatik turkumlarga boʻlinishi, morfologik kategoriyalar, shakllar tizimi, soʻz shaklining yasaliş yoʻllari va vositalarini oʻrganuvchi morfologiya bilan shu maʼnoda vazifadosh hisoblanadi. Tilshunoslikning muhim bir qismi nomini ifodalovchi morfologiya tushunchasi, «soʻz turkumlari» dan ancha keng grammatik tushuncha boʻlib, unda soʻzning yasalişini, uning oʻzagi, negizi va oladigan qoʻshimchalariga doir qator mavzular koʻrib chiqiladi.

Yer yuzidagi barcha tillar morfologik nuqtai nazardan tadqiq etilib, ularning manbalari va boshqa tillar bilan munosabatlari, yaqinligi xususida toʻxtab oʻtiladi. Turk tilining morfologiyasiga kelsak, u agglutinatív til, yaʼni soʻz oxiriga qoʻshimcha qoʻshish yoʻli bilan soʻz va shakl yasaluvchi til boʻlgani uchun soʻz yasalişini va uning oʻzgarishida oʻzak, negiz, qoʻshimcha va ularning birlashişini boshqa tillarga koʻra ancha farqli va oʻziga xosdir.

Soʻzning grammatik maʼnosi va grammatik shakli

Soʻz turkumlari oʻrganilayotganda muayyan bir soʻzning u yoki bu turkumga mansubligini koʻrsatuvchi, shuningdek, soʻzning maʼlum bir grammatik shakli ifodalaydigan maʼnoning qanday maʼno ekanini belgilash uchun soʻzning *grammatik maʼnosi* va *grammatik shakli* masalasiga alohida eʼtibor beriladi. Masalan, turk tilidagi *kalem* (*qalam*), *su* (*suv*), *taş* (*tosh*), *elma* (*olma*) soʻzlari uchun umumiy boʻlgan maʼno, yaʼni predmet maʼnosi grammatik maʼno hisoblanadi. Umumiy grammatik maʼno yagona ot turkumiga birlashtiradi. Shuningdek, *iyi* (*yaxshi*), *tatlı* (*totli*, *shirin*), *küçük* (*kichik*), *yeşil* (*yashil*), *görkemli* (*koʻrkam*) soʻzlari uchun umumiy boʻlgan belgi maʼnosi va *çalış-* (*ishla-*), *öğren-* (*oʻrgan-*), *gel-* (*kel-*), *yedir-* (*yedir-*) soʻzlari uchun umumiy boʻlgan harakat maʼnosi grammatik maʼno hisoblanadi.


Soʻzning leksik maʼnosidagi qoʻshimcha maʼno (yoki maʼnolar) ham grammatik maʼnodir. Bunday maʼno (yoki maʼnolar) soʻzning maxsus shakllari orqali ifodalanadi. Masalan, *kalem-im* (qalam-im), *kalem-in* (qalam-ing), *kalem-i* (qalam-i), *kalem-den* (qalam-dan) soʻzlarida egalik va kelishik shakllari yordamida ifodalanayotgan maʼno, yoki *oku-du-m* (oʻqi-di-m), *oku-yor-um* (oʻqi-yap-man), soʻzlarida zamon va shaxs-son shakllari vositasida ifodalanayotgan maʼnolar grammatik maʼnolar hisoblanadi.

Soʻzning maʼlum bir grammatik maʼno ifodalovchi koʻrinishi soʻzning grammatik shakli deyiladi. Masalan, *kitap-lar* (*kitob-lar*) soʻzida aniq bir predmetning leksik maʼnosidan tashqari, shu predmetning koʻplik maʼnosi ham ifodalanadi. Koʻplik maʼnosi leksik maʼnoga qoʻshiluvchi grammatik maʼno boʻlib, turk tilida *-ler* (*-lar*) affiksi vositasida ifodalanadi. Shunga koʻra, *kitap* soʻzining koʻplik shakli boʻlgan *kitaplar* soʻzi grammatik koʻplik maʼnosini anglatadi.

Soʻzda bir yoki undan ortiq grammatik koʻrsatkich boʻlishi mumkin. Grammatik maʼnoni ifodalovchi har bir morfema grammatik koʻrsatkich hisoblanadi. Masalan: *kitap* - bosh kelishik, birlik shakli; *kitap-lar* - bosh kelishik, koʻplik shakli; *kitap-lar-im* - bosh kelishik, koʻplik, egalik birinchi shaxs shakli; *kitap-lar-im-ı* - koʻplik, egalik birinchi shaxs, tushum kelishigi shakli va h. Soʻzlar oʻziga xos ishlov (turlanish va tuslanish qoʻshimchalari olib oʻzgarish) natijasida oʻzaro munosabatga kirishadi, soʻzlardan birikma va gaplar yasaladi.

Soʻz turkumlari orasidagi oʻzaro bogʻliqlik

Turk tilida soʻz turkumlari orasida bogʻliqlik, sizuvchanlik mavjud. Soʻzning qaysi soʻz turkumiga mansubligini faqat gap ichida egallab turgan oʻrniga koʻra aniqlash mumkin. Bu xususiyati bilan turk tili boshqa tillardan ajralib turadi. Bir soʻz bir nechta soʻz turkumiga mansub boʻla oladi. Buni quyidagi misolda koʻrish mumkin. Tilda sifat deb hisoblangan *iyi* (yaxshi), *kötü* (yomon), *güzel* (goʻzal, chiroyli, yaxshi), *çirkin* (xunuk, chirkin), *büyük* (katta, buyuk), *küçük* (kichik, kichkina) soʻzlari nutqda bajaradigan vazifasiga koʻra ot, ravish, undov soʻz boʻlishi ham mumkin. Gap ichida bir ot demoldin kelmagan va uning belgisini bildirmagan soʻzni sifat deb afab boʻlmaydi. Masalan, *iyi* soʻzining sifat boʻlishi uchun uning



iyi gün (yaxshi kun) ko‘rinishida birikma ichida bir otning belgisini bildirib, uni aniqlab kelishi kerak bo‘ladi. Masalan, turkcha *güzel* (go‘zal) so‘zining qaysi so‘z turkumiga mansubligini aniqlash uchun uni birikma yoki gap ichida ko‘rib chiqish kerak:

Dün partide bir güzel ile tanıştım (*güzel*–ot) – (Kecha ziyofatda bir go‘zal (qiz, ayol) bilan tanışdım).

O geçmişte güzel günler yaşamış (*güzel*–sifat) – (U ilgari go‘zal (yaxshi, baxtli) kunlarni boshidan kechirgan).

Ayşe Rusça’yi güzel konuşuyor (*güzel* – ravish) – (Oysha ruschani yaxshi gapiradi).

Bak, burası ne güzel! (*güzel* – undov so‘z) – (Qara, bu yer qanday go‘zal!)

İnan, sen çok güzelsin (*güzel* – ot - kesim) – (İshon, sen juda go‘zalsan) kabi.

Ko‘pchilik tillarda bo‘lgani singari turk tilida ham otlar so‘z turkumlaridan eng yirigi hisoblanadi. So‘z yasalişida ham eng ko‘p yasaluvchilar otlardir (buni otdan ot yasalişida ham, fe‘ldan ot yasalişida ham kuzatish mumkin): *diş-çi* (tish doktori), *süt-çü* (sut sotuvchi), *ön-lük* (fartuk), *yaşa-m* (hayot, turmush), *yat-ak* (yotoq, to‘shak), *dur-ak* (bekat), *yüz-geç* (suzgich), *bil-gi* (ma‘lumot) kabi.

Turk tilida kelishik qo‘shimchalari o‘zining asosiy vazifasidan tashqari yordamchi vazifalarni ham bajaradi. Masalan, *-den* (*-dan*) chiqish kelishigi qo‘shimchasi *Ahmet okuldan* çıktı (*qaerdan chiqdi?*) gapida chiqishni ifodalagan bo‘lsa, *Ahmet kanserden* öldü (*Ahmed saraton kasalidan o‘ldi*) gapida sababni ifodalaydi (*qaysi kasaldan o‘ldi?*) kabi. Yoki *Ankara’ya gideceğim* gapida *-ya* jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi (*qayoqqa?*) bevosita yo‘nalishni ifodalab kelgan bo‘lsa, *Haftaya geleceğim* gapida *-ya* qo‘shimchasi (*qachon?*) savoliga javob bo‘lib, “kelasi hafta” (*haftaya*) ma‘nosida qo‘llanadi.

Ba‘zi qo‘shimchalar ham shakl yasovchi, ham so‘z yasovchi bo‘lishi mumkin. Masalan, fe‘lning kelasi zamonini ifodalovchi *-ecek* (*-acak*) qo‘shimchasi *Ayşe bugün dönecek* (Oysha bugun qaytadi) gapida fe‘l zamonini ifodalab kelgan bo‘lsa, *Kendine yiyecek bir şeyler al!* (O‘zinga yegulik biror narsa ol!) gapida ushbu qo‘shimcha yasovchi vazifasini bajargan. Turk tilida *-ecek* qo‘shimchasi kelasi

zamon sifatdoshi yasovchi qo‘shimcha ham hisoblanadi: *oturacak yer* (o‘tiradigan joy), *gelecek adam* (keladigan odam), *görüşülecek konu* (muhoqama qilinadigan masala, mavzu) kabi.

Ta‘kidlangani kabi, so‘z o‘zining o‘zgarmasligi turk tilining muhim morfologik xususiyatidir. O‘zakning o‘zgarmasligi natijasida so‘z yuz yillar o‘tsa-da o‘z ma‘nosini saqlab qoladi. Buni besh olti asr oldin turkiy tilda yozilgan asarning hozirgi vaqtda ham qiyinchiliksiz o‘qib, tushunilishi mumkinligida ko‘ramiz.

Turk tilshunosligida so‘zlarning turkumlanishi

Turk tilshunosligida so‘zlar ma‘no va vazifasiga ko‘ra, asosan, uch katta guruhga to‘planadi (*otlar, fe‘llar va yordamchi so‘zlar*). Qo‘laversa, ot turkumining o‘zi ham to‘rt kichik guruhni o‘z ichiga oladi, bu: *ot* (*ad, isim*), *sifat* (*sifat*), *olmosh* (*zamir*), *ravish* (*zarf*). Bu uch yirik turkumdan otlar va fe‘llar ma‘noli so‘zlar, yordamchi so‘z turkumlariga kiruvchi so‘zlar esa ma‘no ifodalamaydigan, faqat muayyan vazifa bajaruvchi so‘zlar hisoblanadi. Bunga ko‘ra, turk tilidagi *ev* (uy), *çiçek* (gul), *elbise* (kostyum, ust kiyim) so‘zlari ot so‘z turkumiga oid, ma‘noga ega so‘zlar, *geliyor* (kelyapti), *uzandi* (uzandi, yotdi), *bilmeliyiz* (*bilishimiz kerak*) kabi so‘zlar muayyan ma‘no tashiydigan, har biri alohida ish-harakatni ifodalovchi so‘zlar, ya‘ni fe‘llar, *için* (uchun), *gibi* (kabi, singari), *ile* (bilan) so‘zlari esa alohida holda ma‘no kasb etmaydigan, mustaqil so‘zlar bilan birga qo‘llanib, ma‘lum vazifa bajaruvchi yordamchi so‘zlar hisoblanadi. Ular na bir predmet yoki hodisani, na bir ish-harakatni ifodalaydi, ular faqat *senin için geldim, ateş gibi yakıyor, bıçak gibi kesti* kabi gaplar ichida muayyan vazifani bajaradi, so‘z yoki birikmalarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi.

Otlar barcha jonli va jonsiz predmetlar, tushunchalar, makon va zamon ichida, inson miyasida to‘plangan butun moddiy va ma‘naviy borliq, mavjudotlarning nomlarini bildirsa, sifatlar va sonlar esa shu otlarning belgi, alomati va miqdorini, fe‘llar predmetlarning makon va zamon ichidagi harakati va holatini ifodalaydi.

Turk tilshunosligida so‘zlarni turkumlarga bo‘lishda turli xil nuqtai nazarlar mavjud, lekin ularni o‘zbek tilshunosligi tamoyillariga ko‘ra 10 guruhga: 6 ta mustaqil va 4 ta yordamchi so‘z turkumiga ajratgan holda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Bular:

1. Ot (*ad, isim*) – inson ismi va predmet, tushuncha, hodisalarning nomi bo'lgan soʻzlar (*Ahmet, araba, sût, sevgi*);

2. Sifat (*sıfat*) – predmetning belgisini bildiruvchi soʻzlar (*kırmızı, güzel, yuvarlak, sımsiyah*);

3. Son (*sayı sıfatı*) – predmetning miqdori va tartibini bildiruvchi soʻzlar (*bir, beş, üçüncü, ikışer*);

4. Olmosh (*zamir*) – bir otning oʻrnida kelib, uning oʻrnini bosa oladigan soʻzlar (*sen, bu, kendi, kim, ne, biri*);

5. Ravish (*zarf*) – holatni, harakatning belgisini bildiruvchi soʻzlar (*şimdi, içeriye, pek, çok, sabahleyin*);

6. Feʼl (*fiil*) – ish-harakat, holat, yuz berishni bildiruvchi soʻzlar (*gitmek, kesmek, sevmek, anlamak, satmak*);

7. Bogʻlovchi (*bağlaç, bağlam edatları*) – soʻz va gaplarni bir-biriga bogʻlovchi yordamchi soʻzlar (*ve, ile, ama, çünkü*);

8. Koʻmakchi (*son çekim edatları*) – nutqda vosita, sabab, zamon, makon va shu kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qoʻllaniladigan yordamchi soʻzlar (*için, gibi, kadar, göre, karşı, dek*);

9. Yuklamalar (*sona gelen edatlar*) – mustaqil soʻzlardan keyin kelib, ularga qoʻshimcha maʼno yuklovchi yordamchi soʻzlar (*dahi, da (de), ise, ki, bile, değil, yalnız, sanki, tıpkı, mi, ya, -e(a)*);

10. Undov soʻzlar (*ünlem edatları*) – his-hayajon, hayrat, tasdiq yoki inkor, shuningdek, tabiatdagi tovushlarni taqlid shaklida, bir soʻz vositasida ifodalash uchun qoʻllaniladigan yordamchi soʻzlar (*ah, vah, eyvah, ay, oh, of, hah, çat*).

Nazorat uchun savollar

1. Morfologiya atamasi va uning turkcha muqobillari.
2. Soʻzning leksik maʼnosi va grammatik maʼnosi
3. Soʻzning grammatik maʼnosi va grammatik shakli
4. Grammatik kategoriya tushunchasi
5. Turk tilshunosligida soʻzlarning turkumlanishi
6. kelishik qoʻshimchalarining yordamchi vazifalar
7. Turk tilidagi soʻz oʻzagi
8. Mustaqil maʼnoli soʻzlar
9. Yordamchi soʻzlar

1.2.OT (AD)

Ot va uning turlari (*ad ve çeşitleri*)

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi ot, uning ma'no turlari, turk tilidagi kelishik qo'shimchalari haqida ma'lumot berish; turk tilidagi otning ko'plik shakli, otlardagi egalik qo'shimchalari to'g'risida tushuncha hosil qilish.

Tayanch tushunchalar: *ot (ad, isim), aniq otlar (somut adlar), mavhum otlar (soyut adlar), atoqli otlar (özel adlar), turdosh otlar (cins adlari), ko'plik otlari (çoğul adlar), guruh otlari (topluluk adlari), sodda otlar (yalın adlar), yasama otlar (türemiş adlar), turlanish (çekim), egalik (iyelik), oidlik (aitlik), kelishik (durum, hâl), kichraytirish (küçültme), otdan ot yasovchi qo'shimchalar (isimden isim yapan ekler), fe'ldan ot yasovchi qo'shimchalar (filden isim yapan ekler).*

Ot turk tilida *ad* yoki *isim* deyiladi. Turk tilshunosligida ot keng ma'noda, bir nechta turkum (*ot, sifat, son, olmosh va ravish*)ni o'z ichiga oluvchi umumiy so'z turkumi hisoblanadi. Bularning ichidan ot turkumiga kiruvchi so'zlar predmet yoki hodisalarning asl nomlaridir: *masa (stol), kapı (eshik, darvoza), araba (mashina, arava), ışık (chiroq, yorug'lik)* kabi. Sifat predmetning belgi nomidir: *büyük (masa), demir (kapı), yeni (araba), kırmızı (ışık)* kabi. Son predmetning miqdori va siralash tartibini bildiruvchi nomdir: *bir, iki, otuz, sekizinci, yüzde elli, bire;* *onar* kabi. Olmoshlar predmetlarni atash, ko'rsatish, belgilash yo'li bilan ifodalovchi so'zlardir: *ben, sen, bu, şu, o, kim, kimi* va h. Ravishlar makon, zamon, holat nomlaridir: *ileri, aşağı, dün, şimdi, böyle, çok* kabi. Demak, turk tili grammatikasida ot deb nomlangan umumiy so'z turkumining besh xil turi (*ot, sifat, son, olmosh, ravish*) mavjud ekan.

Voqelikda yoki tasavvurda bir borliqning ism (nom)i bo'lgan so'zlarga ot deyiladi: *Turgut, Ayşe, taş, kum, kuş, nefret, düşünce* va h.

Asl otlar (Asıl adlar). Turk tilshunosligida «ot» atamasining fe'l atamasiga teskari tushuncha ekanligi ta'kidlanadi. Bu ma'noda «ot» deyilganda, otlardan tashqari sifatlar, sonlar, ravishlar va olmoshlar ham tushuniladi. Sintaktik qurshovda fe'l bilan yonma-yon keluvchi so'z – *ot* deb; sifat, son, ravish va olmosh bilan yonma-yon keluvchi

ot esa *asl ot* deyiladi. Asl otlar jonli, jonsiz barcha mavjudot va tushunchalarning nomidir: *çocuk, çiçek, İstanbul* va h.

Dunyodagi barcha jonli va jonsiz mavjudotlar. predmetlar va voqea-hodisalarni ko'rish, qo'l bilan tegish, hidlash mumkin: *ağaç, su, çocuk, ev, yağmur* va h. Lekin, *gönül, sevgi, özgürlük* kabi tushunchalar borki, ularni ko'rish, qo'l bilan tegishning iloji yo'q. Shu nuqtai nazardan otlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1. *Aniq otlar (somut adlar)*; 2. *Mavhum otlar (soyut adlar)*.

Aniq otlar (Somut Adlar) muayyan (konkret) predmet, borliqdagi barcha narsaning nomlaridir. Ularni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan tutish mumkin: *taş, kavak, güvercin, çiçek, sandalye* va h.

Mavhum otlar (Soyut Adlar). Insonning ongida mavjud bo'lgan. qo'l bilan tutib, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan tushunchalarni bildiruvchi so'zlarni mavhum (abstrakt) otlar deymiz. Ular turk tilshunosligida *soyut adlar* deyiladi. Bular *duygu (tuyg'u), şeref (nomus, shon-sharaf), aşk (ishq, sevgi), nefret (nafrat), düşünce (fikir, tushuncha), düşmanlık (dushmanlik)* kabi so'zlardir.

Ma'lumki, otlar o'z (asosiy) ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarda ham qo'llanadi. Masalan, "*stolning oyog'i*", "*kemaning burni*" kabi. Agar "*odamning oyog'i*" birikmasini olsak, "*stolning oyog'i*" birikmasidagi "*oyoq*" so'zining ma'nosi paydo qilingan, ya'ni yasama ma'no hisoblanadi. Demak, ma'no kengayishi yo'li bilan, ko'pincha, aniq ot mavhum ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, turkcha *yürek* so'zi o'z ma'nosida qo'llanganda inson tanasining muhim a'zosini bildiruvchi aniq ot bo'lsa, ko'chma ma'noda jasorat, qo'rqmaslik ma'nosini ifodalab, mavhum otga aylanadi.

Otlar asl va ko'chma ma'nolaridan tashqari munosabat va o'xshashlik yo'li bilan bir tushunchani anglatgan holda, majoziy ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, turkcha *yuva* so'zi "uya" (qush uyasi) va "uy" (insonlar yashaydigan joy. makon) ma'nosida, *ekmek* so'zi "non" (inson ozig'i) va "kun kechirish uchun ishlab topiladigan mablag'", yoki *koltuk* – "o'tiradigan uy jihozi" (mebel turi) va "lavozim", "mansab" ma'nosida qo'llanadi. Bu misollardagi majoziy ma'no to'g'ridan-to'g'ri predmetning nomini bildirmaydi, nutqda ifodaviylikni oshirish, ma'noni kuchaytirish maqsadida qo'llanadi.

Aniq otlardan bir guruhi faqatgina bir borliq yoki muayyan bir guruhni ko'rsatishga xizmat qiladi: *Turgut, Sarman* (mushukning oti), *Adana, Istanbul, Rize* va h. Bular atoqli otlar (*özel adlar*) dir.

Atoqli otlar (*Özel Adlar*). Atoqli otlar jonli mavjudotlar, predmet va narsalarning dunyoga kelgandan keyin olgan xususiy nomlaridir. Atoqli otlar dunyoda yagona, o'xshashi bo'lmagan mavjudot va predmetlarni bildiruvchi so'zlar, inson, hayvon va joy nomlaridir. Boshqa bir shaklda turk tilshunoslari ularni "taqib qo'yiladigan" ma'nosida "yorliq otlari" ham deyishadi: *Ahmet, Ibrahim, Erol, Türkan, Yılmaz, Tolga, Ankara, Almanya* kabi.

Atoqli otlar, aslida, ma'nosiz so'zlardir. Chunki bir predmetga qarab turib, uning nomini aytish mumkin (masalan: *kitap (kitob), çanta (sumka), televizyon (televizor)*), lekin bir insonga qarab, uning ismini topib aytishning iloji yo'q. Masalan, turdosh ot bo'lgan bir meva (*olma*) ga qarab turib, uning qanday meva (ya'ni, olma) ekanligini oson aytish mumkin, lekin ismi *Ahmet* bo'lgan bir kishiga qarab turib, uning ismini aytib berishning iloji yo'q. Shu bois atoqli otlar ko'p ma'noli ham bo'la olmaydi. Agar atoqli ot turdosh otdan o'zlashgan bo'lsa, asliga ko'ra ma'noga ega bo'ladi, lekin bu o'sha atoqli otning ma'nosi emas, u o'zlashgan turdosh otning ma'nosi hisoblanadi. Masalan, *Yıldırım* (erkak ismi) – «chaqmoq», *Deniz* (qiz bolaning ismi) – «dengiz», *Mert* (erkak ismi) – «mard», *Özgür* (erkak ismi) – «ozod» va h. Turdosh otligida ma'noga ega bo'lgan bu so'zlar keyinchalik atoqli otga aylangan. Atoqli ot o'zlashtirilayotganda, uning turdosh otligidagi ma'nosi ko'zda tutilgan. Ya'ni inson o'z farzandiga *Mert* (mard) yoki *Özgür* (ozod) ismini qo'yayotganda bu otlarning asl ma'nosidan kelib chiqqan.

Atoqli otlar turdosh otlar bilan aralashib ketmasligi uchun katta harf bilan yoziladi: *Oğuz, Uğur, İstanbul, Türkiye, Pamuk* (hayvonga qo'yilgan nom), *Çalikuşu* (roman) va h. So'z birikmasi shaklidagi tashkilot va muassasa nomlari, turli nashr va asar nomlari tarkibidagi so'zlar ham bosh harf bilan yoziladi: *Istanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi, Tashkent Devlet Şarkşinaslık Enstitüsü, Hürriyet Gazetesi* kabi. Shuningdek, millat, til nomlari ham atoqli otlar sifatida gapdagi o'rnidan qat'iy nazar bosh harf bilan yoziladi: *Özbek, Özbekçe* kabi.

Turdosh otlar (*Cins Adlari*). Turdosh otlar, asosan, har xil, birdan ortiq turga ega bo'lgan predmet yoki hodisa nomidir. Turdosh otlar har tilda ot turkumiga oid so'zlarning asosiy qismini tashkil etadi. Ular asl ma'noga ega va nutqda shu ma'nolari bilan qo'llanadi: *kitap (kitob), eser (asar), dağ (tog'), gemi (kema)* kabi.

Turdosh otlarning atoqli otlardan farqi shundaki, ularda so'z bilan uning ma'nosi orasida uzviy bog'liqlik, munosabat mavjud. Tilshunoslikda turdosh otlar ikkiga bo'linadi: birlik va ko'plik otlari.

Birlik otlari (*Tekil Adlar*) faqat bir narsaga nom bo'lib kelgan so'zlardir: *bal (asal, bol), elma (olma), çiçek (gul), kent (shahar)* kabi.

Ko'plik otlari (*Çoğul Adlar*) bir xil jinsda va miqdori bittadan ortiq bo'lgan narsalarga nom bo'lib kelgan so'zlardir: *okullar (maktablar), kuşlar (qushlar), masallar (ertaklar)* kabi. Ko'plik otlari birlik otlariga *-ler (-lar)* qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan yasaladi.

Guruh otlari (*Topluluk Adlari*). Ba'zi otlar ko'plik qo'shimchasi olmasdan ko'plikni ifodalaydi: *ordu (armiya, qo'shin), bölük (bo'linma), takım (jamoat, guruh, jamlanma), alay (diviziya, polk), sürü (suruv), dizi (tizim, serial), gençlik (yoshlik, yoshlar)* kabi. Turk tilida guruh otlariga ko'plik qo'shimchasi qo'shilishi ham mumkin. Unda bir nechta guruh anglashiladi: *ordular (qo'shinlar), bölükler (bo'linmalar), takımlar (jamoalar, guruhlar), sürüler (suruvlar)* kabi.

Sanab o'tilgan ot turlaridan faqat atoqli otlar ko'plik qo'shimchasi olmaydi. Lekin, ba'zan bir shaxs yoki narsaning o'xshashlarini anglatish uchun ularga ko'plik qo'shimchasi qo'shilishi mumkin. Ko'plik qo'shimchasi mashhur shaxs yoki asar qahramonlarining ismlariga qo'shilganda o'xshashlik ma'nosini ifodalaydi: *Bugün Oğuzlar sizde misafir olacak* (Bugun O'g'uzlar siznikida mehmon bo'lishadi). *Alişir Nevai'ler, Ulugbey'ler yaşamış bizim zeminde* (Alisher Navoiylar, Ulug'beklar yashagan bizning zaminda) kabi. Otlar tuzilishi (o'zak va yasovchi qo'shimchalarning mavjudligi)ga ko'ra ikkiga bo'linadi: sodda otlar (*yalın adlar*) va yasama otlar (*türemiş adlar*).

Sodda otlar (*Yalın Adlar*) birgina o'zakdan iborat bo'ladi va ularda hech qanday yasovchi affiks bo'lmaydi: *iş, güç, ay, bit* va h.

Yasama otlar (*Türemiş Adlar*) esa negizdan iborat bo'lib, ular otlar va fe'llardan (otdan ot va fe'ldan ot yasovchi affikslar vositasida) yasalgan bo'ladi: *iş-çi, bil-gi, göz-lük-çü, balta-cı, bilgi, bilim* va h.

Otlarning turlanishi

(Ad Çekimi)

Otlarning nutqda boshqa soʻzlar bilan munosabat oʻrnatish uchun kelishik, egalik, koʻplik, soʻroq qoʻshimchalari olgan holda oʻzgarishiga otlarning turlanishi (*ad çekimi*) deyiladi.

Koʻplik (son) kategoriyasi (*çoğul ekleri*). Bir ot qoʻshimchasiz holda bir predmet, mavjudot, hodisa yoki tushunchani ifodalashi mumkin: *ağaç* (*daraxt, yogʻoch*), *lamba* (*lampa, chiroq*), *yer* (*yer, joy, oʻrin*) kabi. Otlarning bunday shakli birlik (*teklik; tekil*) shakli boʻladi. Koʻplik shakli esa *çokluk*; *çoğul* atamasi bilan yuritiladi. Koʻplik qoʻshimchasi soʻzlar orasida munosabat oʻrnatmaydi, faqat oʻsha narsaning koʻpligini bildiradi: *ağaç - ağaçlar, dağ-daglar, kuzu-kuzular*. Shu tarzda otlarga qoʻshiladigan koʻplik qoʻshimchasini bir ichki munosabatni yuzaga keltiruvchi qoʻshimcha deyish oʻrinli boʻladi.

Turk tilidagi tovush uygʻunligi qonuniga koʻra, koʻplik qoʻshimchasi *-lar, -ler* shaklida boʻladi: *çiçek-ler* (*gullar*), *kuş-lar* (*qushlar*), *kız-lar* (*qizlar*), *araba-lar* (*avtomobillar*), *kuzu-lar* (*qoʻzilar*) va h. Koʻplik qoʻshimchasi har doim otning birlik shaklidan keyin qoʻshiladi. Egalik qoʻshimchasi olgan otlardan keyin kelishi istisno holatdir: *baba-m-lar* (*otamlar*), *anne-m-ler* (*onamlar, oyimlar*) kabi. Otlarga qoʻshilgan koʻplik qoʻshimchasi har doim urgʻuli boʻladi.

Egalik kategoriyasi (*İyelik Ekleri*)

Egalik qoʻshimchalari ot ifodalayotgan predmetning bir shaxs yoki predmetga tegishli ekanligini koʻrsatadi. Zotan «*iyelik*» soʻzining oʻzi ham turk tilida "*sahiplik*" soʻzining sinonimidir (hozirgi zamon oʻzbek tilida qoʻllanayotgan "egalik" soʻzi bilan ham kelib chiqish, ham maʼno jihatdan bir xil). Demak, egalik qoʻshimchasi otni otga bogʻlovchi, ikki ot orasida munosabat oʻrnatuvchi qoʻshimcha boʻlib, bir otga boshqa bir otning bogʻliq, tobe ekanligini koʻrsatadi. Egalik qoʻshimchalari shaxslarga koʻra oʻzgaradi. Bunda otga egalik qoʻshimchasi qoʻshilayotganda turkiy singarmonizm qonuniga amal qilinadi.

Egalik qo‘shimchalarini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

Shaxs	Egalik qo‘shimchalari
Birlik	
1-shaxs	-m (-im, -im, -üm, -um)
2-shaxs	-n (-in, in, -ün, -un)
3-shaxs	-i (-i, -ü, -u, -si, -si, -sü, -su)
Ko‘plik	
1-shaxs	-miz (-miz, -müz, -muz, -imiz, -imuz, -ümüz, -umuz)
2-shaxs	-niz (-niz, -nüz, -nuz, -iniz, -iniz, -ünüz -unuz)
3-shaxs	-leri (-lari)

Unli tovush bilan tugagan ot va otlashgan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari quyidagicha qo‘shiladi:

Egalik olmoshi	-e	-i	-ö	-ü
Benim	anne- M	bilgi- M	-	görgü- M
Senin	anne- N	bilgi- N	-	görgü- N
Onun	anne- SI	bilgi- SI	-	görgü- SÜ
Bizim	anne- MIZ	bilgi- MIZ	-	görgü- MÜZ
Sizin	anne- NIZ	bilgi- NIZ	-	görgü- NÜZ
Onlarning	anne- LERI	bilgi- LERI	-	görgü- LERI

Egalik olmoshi	-a	-i	-o	-u
Benim	baba- M	dayi- M		duygu- M
Senin	baba- N	dayi- N	-	duygu- N
Onun	baba- SI	dayi- SI	-	duygu- SI
Bizim	baba- MIZ	dayi- MIZ	-	duygu- MIZ
Sizin	baba- NIZ	dayi- NIZ	-	duygu- NIZ
Onlarning	baba- LARI	dayi- LARI	-	duygu- LARI

Undosh bilan tugagan ot va otlashgan so‘zlarga egalik qo‘shimchalari oxirgi bo‘g‘indagi unli tovushga ko‘ra qo‘shiladi:

Egalik olmoshi	-e	-i	-ö	-ü
Benim	el- İM	dil- İM	göz- ÜM	düş- ÜM
Senin	el- İN	dil- İN	göz- ÜN	düş- ÜN
Onun	el- İ	dil- İ	göz- Ü	düş- Ü

Bizim	el- İMİZ	dil- İMİZ	göz- ÜMÜZ	düş- ÜMÜZ
Sizin	el- İNİZ	dil- İNİZ	göz- ÜNÜZ	düş- ÜNÜZ
Onların	el- LERİ	dil- LERİ	göz- LERİ	düş- LERİ

<i>Egalik olmoshi</i>	-a	-i	-o	-u
Benim	bal- IM	kanit- IM	pul- UM	odun- UM
Senin	bal- IN	kanit- IN	pul- UN	odun- UN
Onun	bal- I	kanit- I	pul- U	odun- U
Bizim	bal- İMİZ	kanit- İMİZ	pul- UMUZ	odun- UMUZ
Sizin	bal- İNİZ	kanit- İNİZ	pul- UNUZ	odun- UNUZ
Onların	bal- LARI	kanit- LARI	pul- LARI	odun- LARI

Egalik shaklining birlik va ko'plik ikkinchi shaxslaridagi *-n* tovushi hozirda ham turk tilining shevalarida jarangsiz *-n* (*-ng*) shaklida mavjud: *baba – ng, ev – i – ng, ana – ngiz, söz – üngüz* kabi.

Birlik 3-shaxs egalik qo'shimchalari, jadvalda ko'rsatilganidek, undoshlar bilan tugagan so'zlarda *-i, -ı, -ü, -u*, unli bilan tugagan so'zlarda esa *-si, -sı, -sü, -su* dir: *el – i, baş – ı, göz – ü, boynuz – u, tepe – si, baba – sı, köprü – sü, korku-su* kabi.

Turk tilidagi *su* va *ne* so'zlarining egalik qo'shimchasini olishi istisno holatdir. Bu yerda egalik qo'shimchasidan oldin *-y-* undoshi orttiriladi. Bu so'zlarda *-y-* tovushidan keyin *-u-* (*-i*) unlisi ham qo'shiladi: *su-y-u-m, su-y-u-n, su-y-u, su-y-u-muz, su-y-u-nuz, su-lar-ı, ne-y-i-m, ne-y-i-n, ne-y-ı, ne-y-i-miz ne-y-i-niz, ne-ler-i*. “*Çarşıda mum pahalı, körün neyine*” (*Bozorda sam qimmat, ko'rga nima farqi bor*).

Turk tili kitoblarida egalik qo'shimchasini istisno shaklda oluvchi *ne* so'zining odatdagi shaxs shakllari ham mavjudligi aytib o'tiladi: *ne – m, ne – n, ne – si, ne – miz, ne – niz, ne – leri*. Bulardan faol qo'llanadigani *ne – si* va *ne – leri* shakllaridir: *Neyin nesi* (*Nimaning nimasi*, ya'ni “*Kim ozi bu?*” “*Bu qanaqa odam ozi?*”) kabi.

Ko'plik 3-shaxs egalik qo'shimchasi, aslida *-ler* (*-lar*) ko'plik qo'shimchasi bilan *-i* (*-ı*) birlik 3-shaxs egalik qo'shimchasidan tashkil topgan. Bu ko'plik shakli egalik qo'shimchasi bo'lgan otning ko'pligini ifodalab keladi. Shaxs birlikda ham, ko'plikda ham bo'lishi mumkin: *Onun iş – leri, onların iş – leri* kabi.

Ba'zi hollarda egalik qo'shimchasining ketma-ket kelganligini ham ko'rish mumkin: *bir - i - si, kim - i - si, çoğ - u - su, hep - i - si (hepsi)* kabi. Bular da birinchi qo'shimchaning egalik xususiyati yo'qolgan va ikkinchi qo'shimcha bilan kuchaytirilgan. 3-shaxslarda egalik qo'shimchasi faqat shaxslarni emas, otlarni ham ko'rsatadi: *o-n-un kapisi, bahçe - nin kapı - sı. bahçe kapı - sı, o-n-un üstü, deniz - in üstü* kabi. 3-shaxs egalik qo'shimchalari o'zidan keyin bir yordamchi *-n-* tovushi olib, boshqa qo'shimchalarga birikadi: *el - i - n - de, orta - sı - n - dan* kabi.

Turk tilida jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarish hodisasi ro'y beradi, so'z oxiridagi undosh tovush o'zining jarangli juftiga aylanadi: *ç - c, p - b, k - ğ (g): ağaç - ağacı, kitap - kitabı, bilek - bileği, renk - rengi* kabi.

Turk tilida egalik ma'nosi egalik qo'shimchalari qo'llanmasdan ham ifodalanishi mumkin: *benim ev, senin araba* kabi.

Oidlik qo'shimchasi (Aitlik Eki)

Turk tilshunosligida oidlik qo'shimchasi egalik qo'shimchalaridan alohida kategoriya sifatida ajratiladi.

Oidlikni ifodalovchi *-ki* qo'shimchasi shakl yasovchi qo'shimchalardan keyin kelishi, egalik qo'shimchasi singari yordamchi *-n-* tovushi olishi va yana bir egalik vazifasini bajarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan uni egalik qo'shimchasi sifatida qabul qilish ham mumkin: *benim - ki, burada - ki, yerde - ki - n - den, senin - ki - n - de* kabi.

Oidlikni ifodalovchi *-ki* qo'shimchasi unlilar singarmoniyasi qonuniga amal qilmaydi. U qaratqich kelishigi shaklida bo'lgan ot, otlashgan so'z va olmoshlar bilan birikib, mavhum oidlikni ifodalaydi.

-ki oidlik qo'shimchasi egalik olmoshlariga quyidagi shaklda birikadi:

Birlik *Benim* 'mening' *benimki* 'meniki'

Senin 'sening' *seninki* 'seniki'

Onun 'uning' *onunki* 'uniki'

Ko'plik *Bizim* 'bizning' *bizimki* 'bizniki'

Sizin 'sizning' *sizinki* 'sizniki'

Onların 'ularning' *onlarunki* 'ularniki'

-ki oidlik qo‘shimchasi ot va boshqa otlashgan so‘zlarga ham qo‘shilishi mumkin: *Kemal’inki* (Kamolniki), *dolaptaki* (shkafdagi), *karşımızdaki* (ro‘paramizdagi), *Istanbul’daki* ‘Istanbuldagi’ va h.

Otlarda kelishik kategoriyasi (*Ad Durum Ekleri*)

Kelishik kategoriyasi, kelishiklar turk tilshunosligida *ad durum ekleri* deyiladi. Grammatikaga oid ba’zi kitoblarda kelishik qo‘shimchalari *hāl ekleri* deb beriladi. Kelishik qo‘shimchalari vositasida ot otga yoki ot fe’lga bog‘lanadi. Turk tilida kelishik qo‘shimchalari otni yordamchi so‘zlarga ham bog‘laydi, faqat bunda ham asosiy maqsad otni yordamchi so‘z (masalan, bog‘lovchi) orqali fe’lga bog‘lashdir. Shundan kelib chiqib, kelishik qo‘shimchalarini ot va fe’l orasida munosabat o‘rnatuvchi vositalar deb atash mumkin: *kalemin ucu* (*ruchkaning uchi*), *evin duvarı* (*uyning devori*), *çarşı-da gezmek* (*savdo markazida yurmoq, kezmoq*), *ev-e gitmek* (*uyga ketmoq*), *bize karşı* (*bizga nisbatan*) kabi.

Turk tilshunosligida, asosan, olti kelishik ajratiladi va ular vazifasiga ko‘ra o‘zbek tilidagi olti kelishik shakliga to‘g‘ri keladi, bu:

1. Bosh kelishik (*yalın hal*)
2. Qaratqich kelishigi (*ilgi hali*)
3. Jo‘nalish kelishigi (*yaklaşma hali*)
4. Tushum kelishigi (*yapma hali*)
5. O‘rin-payt kelishigi (*bulunma hali*)
6. Chiqish kelishigi (*uzaklaşma hali*)

Turk tilshunosligida berilgan 6 kelishikka qo‘shimcha yana uchta kelishik shakli borligi ta’kidlanadi, bular:

1. Vasita hali (*vosita shakli*)
2. Eşitlik hali (*tenglik shakli*)
3. Yön gösterme hali (*yo‘nalishni ko‘rsatuvchi shakl*)

Otlar so‘z birikmasi yoki gaplar ichida ana shu kelishik shakllaridan birini olgan holda vazifa bajaradi.

1. Bosh kelishik (*yalın hal*) turk tili grammatikasiga oid kitoblarda *yalın durum* yoki *nominatif hali* deb beriladi.

Bosh kelishik ko‘pchilik tillarda otning boshqa bir so‘zga tobe emasligini ko‘rsatadi. Otning birlik (*kitap*), ko‘plik (*kitaplar*) va ega-lik (*kitabım, kitaplarım*) shakllari ham bosh kelishikda bo‘ladi va

qo‘shimchalar olib turlanadi. Bosh kelishikda turgan ot yoki otlashgan so‘z birlik va ko‘plik shaklida turgan holda gap ichida boshqa so‘zlar bilan tashqi munosabatda bo‘lmaydi. Egalik qo‘shimchasi olgan holda bosh kelishikda turgan ot esa boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda bo‘ladi: *taş, yo ‘l, taşlar, yo ‘llar, yo ‘llarınız* kabi. Bu yerda *taş, yol* so‘zlari bosh kelishik, birlik shaklida bo‘lsa, *taşlar, yollar* bosh kelishik, ko‘plik shaklida, *taşım, yollarımız* egalikni ifodalab kelgan bosh kelishik shakliga ega.

2. **Qaratqich kelishigi** (*ilgi hali*) turk tilshunosligida *ilgi hali* yoki *tamlayan durumu*, ba‘zan *genetif* deb, Turkiyadagi maktablarning o‘quv dasturlarida *‘nin hali’* deb ham beriladi. Qaratqich kelishigi otning boshqa bir ot bilan munosabatda ekanligini ko‘rsatuvchi kelishik bo‘lib, unda ot o‘zidan keyin keluvchi boshqa otga tobe bo‘ladi. Qaratqich kelishigida kelgan so‘z ba‘zan qo‘shimcha oladi, ba‘zan esa olmaydi: *bahçe kapısı* (bog‘ eshigi, hovli eshigi), *bahçenin kapısı* (bog‘ning eshigi, hovlining eshigi), *öğrenci çantası* (o‘quvchi sumkasi), *öğrencinin çantası* (o‘quvchining sumkasi) kabi. Bunday birikmalar turk tilida *ad (isim) tamlaması* deyiladi. Ot yoki ot vazifasini bajarayotgan so‘zning *-nin* qo‘shimchasi olgan bunday shakli *belirtili ad tamlaması (belgili qaratqich shakli yoki qaratqichli aniqlovchi birikmasi)* deyiladi: *okulun bahçesi (maktab bog‘i), öğrencinin çantası (o‘quvchining sumkasi)*. Qo‘shimcha olmagan shakli esa *belirtisiz ad tamlaması (belgisiz qaratqich shakli)* deyiladi: *okul bahçesi (maktab bog‘i), öğrenci çantası (o‘quvchi sumkasi), infaz memuru (sud qarorini ijro etuvchi kishi)* va h.

Qaratqich kelishigining qo‘shimchasi *-in (-nin)* bo‘lib, undosh bilan tugagan so‘zlarga *-in, -ın, -ün, -un (el-in, ağac-ın, yokuş-un, göz-ün)*, unli bilan tugagan so‘zlarga esa qo‘shimchadan oldin *-n-* orttirilib, *-nin, -nın, -nün, -nun* shaklida qo‘shiladi: (*anne-nin, arpa-nın, ütü-nün, duygu-nun*) kabi.

Turk tilidagi *su* va *ne* so‘zlarining qaratqich kelishigida turlanish shakli istisno holatdir. Bunda ikki unli o‘rtasida *-y-* undoshi orttiriladi (*su-y-un, ne-y-in*). Shuningdek, og‘zaki nutqda *ne* so‘zining *ne - nin* qaratqich kelishigi shaklida qo‘llanganini ham ko‘rish mumkin.

Gap ichida qaratqich kelishigida turgan so‘zni topish uchun

gapning kesimiga *kimin?* *neyin?* savollari berilishi mumkin: *Bu kalem kimin?* *Bu kalem Ayşe'nin.* *Bu neyin tekerleği?* *Bu arabanın tekerleği.*

3. Jo'nalish kelishigi (*yaklaşma hali*) turk tilida yaqinlashish va yo'nalishni ifodalagani, ma'kon, joyni ko'rsatgani uchun *yönelme durumu* (yo'nalish holi) deyiladi. Ba'zi kitoblarda ushbu kelishik shakli *Datif*, Turkiyadagi o'rta maktab dasturlarida «-e hali» deyiladi. Jo'nalish kelishigi vositasida otlar harakatni ifoda etuvchi fe'llarga bog'lanadi. Ushbu kelishik qo'shimchasi -e, -a bo'lib, unli bilan tugagan so'zlarga -e, -a dan oldin -y- undoshi orttirilib, -ye, -ya shaklida qo'llanadi: *anne-ye, arpa-ya, ütü-ye, duygu-ya* kabi.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi izofalarga -ne, -na shaklida qo'shiladi: *Ali'nin annesi-ne* (*Alining onasiga*), *araba tekerleğine* (*mashina g'ildiragiga*), *Ayşe'nin kitabı-na* (*Oyshaning kitobiga*), *sınıf kapısı-na* (*sinf eshigiga*), *kapı kolu-na* (*eshik tutqichiga*) kabi. Gap ichida jo'nalish kelishigi shaklida turgan so'zni topish uchun gapning kesimiga *kime?* (*neye?*) *nereye?* savollarini berish mumkin: *Kime verdiniz?* *Selma'ya verdim.* *Nereye gidiyorsun?* *eve gidiyorum.* *Nereye dönecek?* *Türkiye'ye dönecek* kabi.

4. Tushum kelishigi (*yapma hali*) grammatikaga oid ba'zi kitoblarda kitoblarda *belirtme durumu*, ba'zilarida esa *akkuzatif* deb, maktab dasturlarida «i hali» deb beriladi. Tushum kelishigi otning o'timli fe'l ta'siri ostida bo'lishini ko'rsatadi. Bu shaklda ot fe'ldan bevosita ta'sir oladi. Ushbu kelishikning qo'shimchasi -i bo'lib, undosh bilan tugagan so'zlarga -i, -ı, -ü, -u (*el-i, ağac-ı, yokuş-u, göz-ü*), unli bilan tugaganlariga esa, -i dan oldin ayiruvchi -y- undoshi orttirilib, -yi, -yı, -yü, -yu shaklida qo'llanadi: *anne-yi, arpa-yı, ütü-yü, duygu-yu* kabi.

Tushum kelishigidagi so'z qo'shimcha olgan yoki olmagan shaklda bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra gap ichida tushum kelishigida turgan ot yoki otlashgan so'z qo'shimcha olganda *belgili* (*belirtili*), qo'shimcha olmaganida esa *belgisiz* (*belirtisiz*) bo'ladi: *defter aldım – defteri aldım, su içti – suyu içti* kabi. Gap ichida tushum kelishigida turgan ot atoqli ot yoki vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan (turdosh) ot, otlashgan so'z, egalik affiksini olgan bo'lsa, har doim *belgili* bo'ladi: *Sibel'-i gördüğüm zaman aklım-ı kaybettim* kabi. Gap

ichida tushum kelishigida turgan ot bir turdagi predmetni bildirib kelganda belgisiz shaklda qoʻllanishi ham mumkin: *Serdar bütun gece kitap okudu. Gel oğlum, yemek ye, çay iç kabi.*

Tushum kelishigi qoʻshimchasini olgan soʻz gap ichida feʼl bilan birikadi: *arabayı satmak, yemeği yemek* kabi. Ushbu kelishik qoʻshimchasi baʼzi olmoshlarga va izofalarga qoʻshilganda, undan oldin *-n-* tovushi orttirib, *-ni, -ni, -nü, -nu* shaklini oladi: *bunu, şunu, onu; Ali'nin annesi-ni, sınıf kapısı-ni, pınarın gözü-nü* kabi. Tushum kelishigi qoʻshimchasi olgan izofalar ikkidan ortiq soʻzdan tashkil topgan boʻlishi ham mumkin (*zincirleme isim tamlamaları*): *Ali'nin annesinin evi-ni, onun arabasının rengi-ni, sınıf kapısının kolu-nu* kabi.

Tushum kelishigining unutilib ketgan va hozirda baʼzi shevalarda saqlanib qolgan qoʻshimchasi ham bor. Bu egalik qoʻshimchasidan keyin qoʻshiladigan *-n* ayiruvchisidir: *eli-n (öptü), saçı-n (çektı), yüzü-n (açtı), gözü-n (süzdü)* kabi. Bu qoʻshimcha badiiy adabiyotda, xususan, sheʼriyatda uchraydi.

Gap ichida tushum kelishigida turgan soʻzni topish uchun gapning kesimiga *kimi? neyi?* savollari berilishi mumkin: *Kimi seviyorsun? Berna'yi seviyorum. Neyi görüyorsun? Dağları görüyorum. Ne yiyorsun? Dondurma yiyorum* kabi.

5. Oʻrin-payt kelishigi (*bulunma hali*) turk tilida bir makonda boʻlishni ifoda etganligi uchun *bulunma hali, bulunma durumu* (boʻlish holi), yoki *kalma durumu* (qolish holi). Ushbu kelishik shakli Yevropa tilshunosligiga moslab *Lokatif* deb, maktab darsliklarida soddalash-tirilib, «*de hali*» deb ataladi.

Oʻrin-payt kelishigi otni feʼlga bogʻlab keladi. Ushbu kelishik qoʻshimchasi unli va jarangli undosh tovushlardan keyin *-de, -da,* jarangsiz undosh tovushlardan keyin esa *-te, -ta* (izofalarda *-nde, -nda*) boʻladi: *evde oturuyor, masada yatıyor, bizde kalıyor, Taşkent'te çalıştı, kapısında asılı* kabi.

Gap ichida oʻrin-payt kelishigida turgan soʻzni topish uchun gapning kesimiga *kimde? nerede? ne zaman?* savollari berilishi mumkin: *Kimde silah var? Osman'da silah var. Nerede oturuyorsunuz? İstanbul'da oturuyorum. Ne zaman kalkıyorsunuz? Sabah saat 7'de kalkıyorum* kabi.

6. Chiqish kelishigi (uzaklaşma hali) turk tilida bir makondan uzoqlashish, chiqishni ifoda etganligi uchun *uzaklaşma hâli*, *uzaklaşma durumu* (uzoqlashish holi), *çıkma durumu* (chiqish kelishigi), grammatikaga oid ba'zi kitoblarda yevropa atamashunosligiga taqlidan *ablatif hali* deb, Turkiyadagi o'rta maktab darsliklarida «*den hali*» deb nomlanadi. Chiqish kelishigi o'tning o'zidan uzoqlashishni ifodalovchi fe'llar bilan munosabatini bildiradi. Ushbu kelishikda so'z unli va jarangli undosh tovushlardan keyin *-den*, *-dan*, jarangsiz undosh tovushlardan keyin esa *-ten*, *-tan* (izofalarda *-nden*, *-ndan*) qo'shimchasini oladi: *elden gitti* (qo'ldan ketdi), *Istanbul'dan çıktık* (*Istanbuldan chiqdik*), *sizden sonra* (*sizdan keyin*), *Taşkent'ten dönecek* (*Toshkentdan qaytadi*), *evinden kovmuş* (*uyidan quvibdi*) kabi.

Otning kelishik shakllari sifatida ajratilgan grammatik shakllar uch xil: 1. *Vasita hali* (*vosita shakli*); 2. *Eşitlik hali* (*tenglik shakli*); 3. *Yön gösterme hali* (*yo'nalishni ko'rsatuvchi shakl*).

1. Vasita hali (*vosita shakli*) shakli o'tning fe'lga bir vosita ekanligini ko'rsatadi va vosita, zamon ma'nolarini ifodalaydi. Bu shaklni ba'zi tilshunoslar *Instrumental hali* deb nomlaydilar. Vosita shaklining qo'shimchasi eski turkchada *-n* bo'lgan, lekin bu eskirgan qo'shimcha hozirgi zamon turk tilida faqat bir necha so'z gagina qo'shiladi (undosh tovush bilan tugagan so'zlarga *-i*- ayiruvchisi yordamida qo'shiladi) va zamonnini ifodalaydi: *yaz-i-n* (*yozda*), *kış-i-n* (*qishda*), *öğle-n* (*tush paytida*), *ansız-i-n* (*to'satdan*) kabi. Turk tili grammatikasida bu qo'shimchani *-meksizin* (*-maksızın*) ravishdosh qo'shimchasi shaklida qolganligi ham ta'kidlanadi: *durmaksız-i-n* (*to'xtamasdan*), *görmeksizin* (*ko'rmasdan*) kabi. Ba'zan ushbu kelishik shaklida hech qanday vosita holati yo'qligini ko'rish mumkin.

-n qo'shimchasi nutqda qo'llanishdan chiqishi bilan uning o'rnini *ile* (*bilan*) bog'lovchisi egallagan. Hozirgi vaqtda *ile* va uning alohida kelishik qo'shimchasiga aylangan *-le*, *-la* shakllari vosita ma'nosini ifodalab keladi: *dille* (*til bilan*), *gözle* (*ko'z bilan*), *başla* (*bosh bilan*) kabi. Agar so'z unli tovush bilan tugagan bo'lsa, u holda vosita qo'shimchasidan oldin *-y-* ayiruvchisi orttiriladi: *düşünce-y-le* (*fikr bilan*), *tabanca-y-la* (*to'pponcha bilan*), *Leyla-y-la* (*Laylo bilan*) kabi.

Vosita shakli *ile* ko‘rinishida bo‘lgani uchun uni vosita kelishigi emas, bir bog‘lovchi sifatida ko‘rib chiqish to‘g‘ri bo‘lar edi. Ammo, *ile* bog‘lovchisi *-le, -la* shaklida so‘zga qo‘shib yozilsa, bu fikrni ilgari surgan olimlar haq bo‘lishlari mumkin.

Misol uchun turk tilidagi *dolayısı ile (shu tufayli, shu boisdan)* so‘zi uch xil: *dolayısıyle, dolayısıyla, dolayisiyle* qo‘llanadi. Bu shakllarning barchasi yozma va og‘zaki nutqda qo‘llanib kelinayotgan bo‘lsa-da, ulardan faqat *dolayısıyla* shakli to‘g‘ri hisoblanadi.

2. Eʃtlik hali (tenglik shakli) o‘xshashlikni ifodalab, otni fe‘lga bog‘lashga xizmat qiladi. Ushbu shaklni ba‘zi tilshunoslar Yevropa tilshunosligiga taqlidan *Ekvatif hali* deb atashadi. Tenglik qo‘shimchasi *-ce (-çe, -ca, -ça)* dir: *bence (me-nimcha), iyice (yaxshilab), insanca (insonday), yavaşca (sekingina)* va h.

Tenglik shakli besh xil vazifani bajaradi:

1. tenglik shakli qo‘shimchasi qo‘shilgan so‘z o‘xshashlikni ifodalaydi va ravish vazifasini bajaradi: *insanca yaşamak (insonday yashamoq), vahşice saldırmak (vahshiyona tashlanmoq), çocukça davranmak (bola kabi harakat qilmoq), güzelce anlatmak (chiroyli so‘zlab bermok)* va h.

2. «ko‘ra» so‘ziga sinonim bo‘lgan, yaqinlik, yoki muayyan bir dalil, fikrga asoslanish ma‘nosini ifodalaydi: *bence bu böyledir (menimcha bu shunday), gönlümce yaşıyorum (ko‘nglimdagiday yashayapman), kanaatimce bu söz yanlıştır (menimcha bu so‘z noto‘g‘ri)* va h.

3. «qadar» so‘ziga so‘ziga sinonim bo‘lgan holda miqdor ma‘nosini ifodalaydi: *binlerce sayfa (minglarcha sahifa), devece büyümüş (tuyaday katta bo‘libdi), dünyalarca sevmek (juda sevmok)* va h.

4. «o‘larok» so‘ziga sinonim bo‘lib, ravish vazifasida keladi: *güzelce çalıştım (yaxshilab ishladim), iyice dinledi (yaxshilab tingladi), açıkça görülüyor (ochiq-oydin ko‘rinib turibdi)* va h.

5. Vaqt, davomiylilik va muddat ma‘nosini ifodalaydi: *yıllarca bekledim (yillab kutdim), evvelce böyle değildi (avval bunaqa emas edi), aklınca beni kandıracak (meni aldayman deb o‘ylaydi)* va h.

Tenglik shakli vositasida turk tilida millat nomlaridan dunyo til-

larining nomlari yasalgan: *Özbek-çe, Türk-çe, Rus-ça, Çin-ce, Almanca* va h.

Tenglik shakli (*insanca, bence, devece, ardınca*) o'rnida turk tilida *gibi, göre, kadar, sıra, olarak* singari so'zlar ham qo'llanadi: *insan gibi (inson kabi), deve kadar (tuyaday), ardi sıra (ortidan), güzel olarak (güzelce), yavaş olarak (yavaşça)* kabi. Ushbu grammatik shaklning egalik va jo'nalish kelishigi qo'shimchalari olib kengaygan shakllari ham qo'llanadi: *delicesine (devonalardek), bilmişçesine (bilganday), boğazlantıyorcasına (xuddi bo'g'izlanayotgandek)* kabi. Bu shakllarning o'z navbatida ravishdosh shakllari hisoblanishini ham ta'kidlash joiz.

Yuqoridagi misollar tenglik shaklining so'z yasovchi qo'shimchalarga aylanganligini ko'rsatadi.

3. **Yön gösterme hali** (*yo'nalishni ko'rsatuvchi shakl; Direktif hali*) turk tilshunosligida yo'nalishni ifodalovchi kelishik sifatida olingan va u deyarli iste'moldan chiqqan. Bu: *-re (-ra)* va *-eri (-ari)* qo'shimchalaridir. Hozirgi paytda u bir nechta turkcha so'zda qo'llanadi: *son-ra, iç-re, üye-re (üzre), taş-ra (dışarı), dış-arı, iç-eri* kabi. Hozirgi turk tilida ushbu eskirgan qo'shimcha o'rniga *doğru (sarı), karşı (qarshi, qarab, tomon, sarı)* kabi yo'nalishni ifodalovchi yordamchi so'zlar qo'llanadi: *eve doğru, dağa karşı, sabaha karşı* kabi.

Turk tilidagi kelishik qo'shimchalarini savollari bilan birga quyidagi jadvalga to'plash mumkin:

Kelishikning turkcha nomi	Savollari	Qo'shimchasi
<i>Yalın hal (Yalın durum)</i>	kim? ne?	-
<i>İlgi hali (tamlayan durumu)</i>	kimin? neyin?	-in (-ın, -ün, -un, -nin, -nın, -nün, -nun)
<i>Yaklaşma hali (yönelme durumu)</i>	kime? neye? nereye?	-e (-a, -ye, -ya) (izofalarga -- ne, -na)
<i>Yapma hali (belirtme durumu)</i>	kimi? neyi?	-i (-ı, -ü, -u, -ni, -nı, -nü, -nu) (izof. -ne, -na)

<i>Bulunma hali</i> (<i>bulunma durumu</i>)	kimde? nede? nerede?	-de (-da, -te, -ta) (izof. -nde, -nda)
<i>Uzaklaşma hali</i> (<i>çıkma durumu</i>)	kimden? neden? nereden?	-den (-dan, -ten, -tan) (izof. -nden, -ndan)
<i>Vasita hali</i>	kiminle? neyle?	-le (-la, -yle, -yla); -n (<i>yazı-n, kış-ı-n</i>)
<i>Eşitlik hali</i>	kimce? nece? nasıl?	-ce (-ca, çe, -ça)
<i>Yön gösterme hali</i>	nerede? nereye? ne zaman?	-re (<i>üze-re, son-ra</i>), -ri (<i>içeri, dışarı</i>)

Kelishik (Hâl Eki)	Unli bilan tuga- gan ot va otlash- gan so‘z.- <i>Ünlü ile</i> <i>bitten isimlere</i>	Undosh bilan tugagan ot va otlashgan so‘z.- <i>Ünsüz ile</i> <i>bitten isimlere</i>
Yalın hâl	öğrenci	öğretmen
İlgi hâli	öğrenci-nin	öğretmen-in
yaklaşma hâli	öğrenci-ye	öğretmen-e
yapma hâli	öğrenci-yi	öğretmen-i
bulunma hâli	öğrenci-de	öğretmen-de
uzaklaşma hâli	öğrenci-den	öğretmen-den
vasita hâli	öğrenci-y-le	öğretmen-le

Ot bilan so‘roq yuklamasining qo‘llanishi (*so‘ru eki*)

So‘roq yuklamasi otning so‘roq shaklini yasaydi va imloda boshqa o‘xshash (-m) shakllar bilan aralashib ketmasligi uchun o‘zidan oldin kelgan so‘zdan alohida yoziladi. So‘z urg‘usi har doim ushbu yuklamadan oldin keluvchi so‘z bo‘g‘iniga tushadi. So‘roq yuklamasi turk tilshunosligida *so‘ru eki* (*so‘roq qo‘shimchasi*) deb ataladi. Uning vazifasi ham otni fe‘lga bog‘lashdir. So‘roq yuklamasi har doim otlardan va shakl yasovchi qo‘shimcha olgan boshqa so‘zlardan keyin kelib, ularning so‘roq shaklini yasaydi. Turk tilidagi so‘roq qo‘shimchasi *mi* (*mi, mü, mu*) dir: *iş mi? balık mı? göz mü? oyun mu?* So‘roq yuklamasi kelishik, egalik yoki oidlik qo‘shimchasi olgan otdan keyin kelishi ham mumkin: *Orhanda mı? Okuldan mı? Defteri mi? Evdeki mi?* kabi.

Otlarda jins kategoriyasi

Turk tilida ham otlarda jins kategoriyasi mavjud emas, ammo otlar turli jinsni ko'rsatish uchun qarama-qarshi leksemalarga ajratiladi. Tilda jinslar tabiiy ravishda farqlanadi va bu hol ikki xil yo'l bilan voqelanadi:

1. Jins alohida so'z yordamida ifodalanadi. Bunda so'zlarning qaysi jinsga oidligiga ishora qilinadi. Bu usul:

a) aqrabolik atamalarida uchraydi: *baba (ota), anne (ona), oğul (o'g'il), kız (qiz), amca (amaki), erkek (erkak), kadın (ayol)* kabi.

b) ba'zi uy hayvonlarining nomlarida uchraydi: *at (erkak ot), kısrak (urg'ochi ot), tay (toy); horoz (xo'roz), tavuk (tovuq), civciv (piliç)(jo'ja); öküz (ho'kiz), inek (sigir), buzağı (dana) (buzoq), koç (qo'chqor), koyun (qo'y), kuzu (qo'zichoq)* kabi.

2. Jinsni aniqlash imkoni bo'lmagan holatlarda maxsus leksemalarga murojaat qilinadi. Otlardan oldin kelib, ularning jinsini belgilay oladigan leksema sifatida *erkek (erkak), kadın (ayol), kız (qiz), dişi (urg'ochi)* so'zlarini olish mumkin: *erkek işçi (erkak ishchi); kadın işçi (ishchi ayol); erkek doktor (vrach); kadın doktor (vrach ayol); erkek kurt (erkak bo'ri); dişi kurt (urg'ochi bo'ri)* va h.

Otlarning yasalishi (Ad Yapım Ekleri)

Turk tilida otlarning salmoqli qismi so'z yasovchi qo'shimchalar (*addan yapılan adlar – ot turkumidagi so'zlardan ot yasovchi va fildan yapılan adlar - fe'ldan ot yasovchi*) vositasida yuzaga kelgan. Otdan ot yasovchi qo'shimchalar vositasida yasalgan so'zlarning ma'nolari ularning qo'shimchasiz shakldagi ma'nosiga yaqin bo'ladi. Odatda, ulardan ot bilan bog'liq joy, kasb-hunar, oidlik va tegishlilikni ifodalovchi otlar yasaladi. Bu qo'shimchalarning soni uncha ko'p emas, lekin aksariyat qismi faol va samaradordir: *iş, iş-çi, iş-çi-lik; göz, göz-lük, göz-lük-çü, göz-le-m* va h. Otdan ot yasovchi qo'shimchalar quyidagilardir:

-ak (-ek) qo'shimchasi o'xshatish ma'nosini ifodalaydi. Bu qo'shimcha vositasida otdan bir nechta ot (*top-ak, sol-ak, baş-ak, ben-ek*) va fe'ldan bir nechta ot (*dur-ak, bat-ak, yat-ak*) yasalgan.

-ay (-ey) qo'shimchasi turk tilidagi *gün-ey, kuz-ey, bir-ey* va fe'ldan yasalgan *dik-ey, yat-ay, düş-ey* so'zlarida uchratish mumkin.

-ca (-ce, -ça, -çe). Bu qo‘shimcha, aslida, shakl yasovchidir (insan-ca, yavař-ça), ammo keyinchalik u o‘z vazifasini o‘zgartirib, so‘z yasovchi qo‘shimchaga aylangan (*qarang: Tenglik shakli – Eşitlik hali*). Ba‘zan bu qo‘shimcha qoliplashgan holda sifatlardan otlar yasashda qo‘llanilgan: *ala-ca, kara-ca, ak-ça, ak-çe* kabi. Bunday qoliplashgan shakl ko‘pincha Turkiyadagi joy nomlarida kuzatiladi: *Sütlü-ce, Kanlı-ca, Çekme-ce, Tuzlu-ca, Çamlı-ca, Derin-ce* kabi.

-cağız (-ceğiz) qo‘shimchasi -ca (-ce) qo‘shimchasining sinonimi bo‘lib, kuchsizlik, o‘jizlikni ifodalaydi: *kız-cağız, hayvan-cağız, kadın-cağız, çocuk-cağız, adam-cağız* kabi.

-cak (-cek) qo‘shimchasi ham so‘zga kichraytirish va erkalash ma‘nosi yuklaydi. Hozirgi kunda uni sanoqli so‘zlarda uchratish mumkin: *kuzu-cak, yavru-cak, sevdi-cek (sevdik-cek)* kabi. Turk tilida *kuzu-cağ-i-m, sevdi-ceğ-i-m* kabi misollarda ushbu qo‘shimchanning eski ko‘rinishi, *oyun-cak* so‘zida o‘z vazifasidan tashqariga chiqib, predmet nomi yasovchi qo‘shimchaga aylanganini ko‘rish mumkin.

-ciğaz (-ciğez, -cuğaz, -cüğez) qo‘shimchasi kichraytirish va erkalashdan tashqari o‘jizlik, achinish, rahm-shafqat ma‘nosini ham ifodalaydi: *hanım-ciğaz, bey-ciğez, yavru-cuğaz, kız-ciğaz* kabi. Bugungi kunda ushbu qo‘shimchanning so‘z yasash samaradorligi kuzatilmaydi. Uni, asosan, turk tilining shevalarida uchratish mumkin.

-ci (-ci, -cu, -cü, -çi, -çi, -çu, çü) qo‘shimchasi turk tilidagi eng samarador otdan ot yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, har qanday otning oxiriga keladi va kasb-hunar, mashg‘ulot, ish bajaruvchi predmet otlari yasaydi: *av-ci, eski-ci, bek-çi, araba-ci, söz-cü, çöp-çü* kabi. Ushbu qo‘shimcha yordamida yasalgan otlarning oxiriga mavhum ot yasovchi -lik (-lik, -luk, -lük) qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida yangi otlar yasaladi: *av-ci-lik, bek-çi-lik, göz-cü-lük, süt-çü-lük* kabi. Turk tilida qadimdan ishlatib kelingan *el-çi* so‘zida // tovushidan keyin -ci qo‘shimchasi kelishi, ya‘ni *el-ci* bo‘lishi kerak edi. Lekin istisno shaklda ushbu so‘z *el-çi* shaklida qolgan.

-ci qo‘shimchasi yordamida predmet yoki narsa bilan bog‘liq shaxsni ko‘rsatuvchi otlar ham yasaladi: *yol-cu, dava-ci, konuşma-ci, yaban-ci* kabi. -ci qo‘shimchasi ot va ba‘zi sifatlarga qo‘shilib, odatlanishni bildiruvchi otlar (*yalan-ci, şaka-ci, kavga-ci, dedikodu-cu,*

inat-çı, uyku-cu) va insonning bir tushuncha, fikr, e'tiqod tarafdori ekanligini bildiruvchi otlar (*akıl-cı, ülkü-cü, ileri-ci, halk-çı*) yasaydi. Turk tilida *-cı* qo'shimchasi bilan tugaydigan joy nomlari ham talaygina: *Bostancı, Kazancı, Avcılar, Yağcılar, Tuzlukçu, Sütçüler* kabi.

-cı qo'shimchasi hozirgi zamon turk adabiy tilidagi arab va fors tillaridan o'zlashgan bir talay so'zlarni turkchallashtirgan: *kitapçı, kahveci, rüşvetçi, besteci, arabacı, mukallit - taklitçi, mümessil - temsilci, müddet - davacı, naşir - yayımcı* kabi. Ushbu qo'shimcha forscha *-ger (-kâr)* va *-dar* ish bajaruvchi ot qo'shimchasi o'rnida keladi: *bestekâr - besteci, sanatkâr - sanatçı, nağmeger - şarkıcı, veznedar - vezneci* kabi.

-cık (-cik, -cuk, -cük) qo'shimchasi kichraytirish va erkalashni ifodalovchi otlar yasaydi: *baba-cık, Mehmet-çik, köprü-cük, anne-cik, göl-cük, yavru-cuk, kuzu-cuk* kabi. Unga egalik qo'shimchasi qo'shilib keladi: *anne-ciğ-i-m, yavru - cuğ-u-m, baba- ciğ-i-m* kabi. Singarmonizm qoidasiga ko'ra *-cık* yasovchisi oxiridagi *-k* tovushi unli tovush qo'shilishi natijasida *-ğ-* tovushiga aylanadi. Turk tilida joy nomlarining ba'zilarida ham kichraytirishni ifodalovchi *-cık* qo'shimchasi uchraydi: *Ovacık, Çınarcık, Gölçük* kabi. *-cık* qo'shimchasi fransuzchadan arabchaga tarjima qilingan kichraytirish otlarining o'rnini bosadi: *grainule = hubeybe = tanecik, cervelet = muheyh = beyincik* kabi.

-ç qo'shimchasi kam ishlatiladi va kuchaytiruv ma'nosini ifodalaydi. Uni faqat *ana-ç, ata-ç* so'zlarida uchratish mumkin.

-daş (-taş) qo'shimchasi juda samarador bo'lib, uning vazifasi birgalik, oidlik va bog'liqlikni ifodalaydi. Hozirgi paytda bu qo'shimchani faqat qalin shakli saqlanib qolgan: *ırk-taş, sır-daş, arka-daş, soy-daş, meslek-taş, yurt-taş, vatan-daş, ad-daş (adaş)* kabi. Ingichka shakli *kardeş, gündeş* otlaridagina kuzatiladi.

-dirik (-dirik, -duruk, -dürük) qo'shimchasi ayrim so'zlargagina qo'shilgan: *boyun-duruk, burun-duruk, eğin-dirik* kabi.

-ez (-az) qo'shimchasining qalin shakli birgina *ay-az* so'zida uchraydi. *Beyaz* so'zi turkchaga arabchadan kirgan bolib, uning bu guruhga aloqasi yo'q). Turk tilidagi *çerez, melez* so'zlarining ushbu guruhga kiritilishi borasida turli fikrlar bor.

-gil (*-gil*, *-gül*, *-gul*, *-kıl*, *-kil*, *-kül*, *-kul*) qo‘shimchasi turk tili-
da *kır-kıl*, *iç-kil*, *dört-kül* so‘zlarida, *-gil* shakli shevalarda oila, jamoa
va xonadon nomlari, o‘simlik va hayvonot dunyosiga oidlikni bildi-
rUVchi ilmiy atamalarni yasagan: *Ali-gil*, *Veli-gil*, *Uşaklı-gil*, *Oğuz-gil*,
annem-gil, *babam-gil*, *ablam-gil*, *çançiçeğigiller*, *baklagiller* kabi.
-gil qo‘shimchasi *-lar*, *-ler* kabi ko‘plik va hurmatni ifodalovchi shakl
yasovchi qo‘shimcha o‘rnida keladi. Hozirgi turk adabiy tilida faqat
-lar, *-ler* ko‘rinishi ishlatiladi. *Ali-ler*, *Veli-ler*, *annem-ler* kabi.

-k (*a*), *-k* (*e*) qo‘shimchasi o‘xshatish ma‘nosini ifodalaydi va
bir necha so‘zdagina uchraydi: *top-u-k*, *bala-k*, *bebe-k* kabi.

-ka, *-ge* qo‘shimchasi qadimgi turkiy tildan saqlanib qolgan
baş-ka va *öz-ge* so‘zlarida hamda *dal-ga* (*to‘lqin*, *dolg‘a*) va *bölmek*
fe‘lidan yasalgan *böl-ge* so‘zida keladi.

-l (*-il*, *il*) qo‘shimchasi eski turkcha *-sil* (*-sil*) qo‘shimchasidan
yuzaga kelgan va rang, tusni ifodalaydi: *yeş-il* (*yaş-ı-l*), *kız-t-l*.

-la (*-le*) qo‘shimchasi *kış-la* va *yay-la* so‘zlaridagina uchraydi
(eskirgan *kış-la-g*, *yay-la-g* so‘zlaridagi *la-g* qo‘shimchasining ke-
yinchalik qisqargan shakli). *-la* qo‘shimchasi aslida fe‘l yasovchi
qo‘shimcha bo‘lib, keyinchalik ot yasovchiga aylangan.

-lık, (*-lik*, *-luk*, *-lük*) qo‘shimchasi qadimdan joy, predmet, narsa,
mehnat quroli, mavhum otlar va sifatlar yasab kelgan: *taş-lık*, *zeytin-
lik*, *ağaç-lık*, *orman-lık*, *gül-lük*, *boş-luk*, *kömür-lük*, *baş-lık*, *kulak-lık*,
burun-luk, *göz-lük*, *gece-lik*, *kül-lük*, *söz-lük*, *genç-lik*, *insan-lık* kabi.
-lik otlari, turk adabiy tilining milliy lashuvida muhim ahamiyat kasb
etgan. Arabcha *-i* nisbiy sifat qo‘shimchasi bilan uni otlashtirgan *-at*
jins qo‘shimchasining birlashishi natijasida yuzaga kelgan *-iyyat* (*-
iyet*) qo‘shimchasi bilan yasalgan otlar (*asabiyet*, *insaniyet*, *milliyet*,
cinsiyet) turkcha *-lık* qo‘shimchasiga mos keladi: *ziddiyet* = *zıtlık*,
katiyet = *kesinlik*, *şahsiyet* = *kişilik* kabi. *-lik* qo‘shimchasi ko‘proq
mavhum otlar yasaydi: *güzel-lik*, *yakın-lık*, *hasta-lık*, *iyi-lik*, *aç-lık*,
durgun-luk, *temiz-lik* kabi. Ushbu qo‘shimcha vositasida kasb-hunar,
mansab-lavozim nomlari ham yasaladi: *çoban-lık*, *doktor-luk*, *muhtar-
lık*, *asker-lik*, *balıkçı-lık*, *bakan-lık*, *müdür-lük* kabi.

-man (*-men*) qo‘shimchasi vositasida sifatlar va fe‘llardan ot
yasaladi: *koca-man*, *kara-man*, *ak-man*, *köle-men*, *küçü-men* (*küçük-*

men), *köse-men* kabi. *Az-man*, *göç-men*, *şiş-man* soʻzlarida oʻzakni tashkil etuvchi *göç* va *şiş* soʻzlari ot turkumiga oid. Ular *göçmek*, *şişmek* maʼnosida kelganda feʼl hisoblanadi. Shu bois ushbu yasalishni otdan ot yasalishiga ham, feʼldan ot yasalishiga ham kiritish mumkin.

-*sal* qoʻshimchasi otdan ot yasaydi (*kum-sal*).

-*t* qoʻshimchasi tenglikni ifodalaydi: *yaş-ı-t*, *eş-i-t*, *taşı-t*. *Geçit*, *konut* kabi otlarda -*t* dan oldin -*i*- (-*ı*-, -*ü*-, -*u*-) orttirilgan.

-*ti*, -*ti*, -*tu*, -*tü* qoʻshimchasi tabiat hodisalariga taqlid soʻzlarda uchraydi: *parıl-ti*, *zangır-ti*, *şangır-ti*, *gürül-tü*, *civil-ti*, *kütür-tü*, *şırıl-ti*, *gümbür-tü*, *ışıl-ti*, *patır-ti*, *fokur-tu* kabi.

-*z*. qoʻshimchasi bilan *top-u-z* soʻzi yasalgan.

Feʼldan ot yasalishi. Turk tilida koʻpchilik otlar feʼllardan yasalgan. Feʼldan ot yasovchi qoʻshimchalar quyidagilardir:

-*a* (-*e*) qoʻshimchasi bilan *yar-a*, *öt-e*, *oy-a* soʻzlari yasalgan.

-*aç*(-*eç*) qoʻshimchasi bilan *kır-aç*, *boz-aç*, *bak-aç* otlari yasalgan.

-*ağan* (-*eğan*) qoʻshimchasi bilan *ol-ağan*, *vur-ağan*, *yat-ağan*, *kes-eğan*, *çal-ağan* soʻzlari yasalgan. Bu qoʻshimcha ilgari -*agan*, -*egen* deb talaffuz qilingan: *ol-agan*, *gez-egen* kabi. Ushbu qoʻshimcha (-*agʻon*) yordamida oʻzbek tilida ham feʼllardan otlashgan sifatlar yasalgan: *bilagʻon*, *topagʻon*, *chopagʻon* va h.

-*ak* (-*ek*) qoʻshimchasi feʼl taʼsirida qolgan turli predmet nomlarini yasaydi: *dön-ek*, *kaç-ak*, *dur-ak*, *sanc-ak*, *yed-ek*, *tapın-ak*, *dayan-ak*, *kork-ak*, *kon-ak*, *barın-ak*, *yat-ak* kabi.

-*amak* (-*emek*) qoʻshimchasi vositasida feʼldan bor-yoʻgʻi uchta soʻz yasalgan: *kaç-amak*, *tut-amak*, *bas-amak*.

-*anak* (-*enek*) qoʻshimchasi faqat eskirgan *sağ-anak*, *gör-enek*, *gel-enek*, *değ-enek* (*değnek*), *yığ-anak*, *tak-anak* soʻzlarini yasagan.

-*ay* (-*ey*) qoʻshimchasi bilan *dik-ey*, *yat-ay*, *düş-ey* sifatlari va *gün-ey*, *kuz-ey*, *bir-ey* otlari yasalgan.

-*ç* qoʻshimchasi vositasida faqat -*n* bilan tugagan feʼl negizlaridan otlar yasalgan: *kıskan-ç*, *korkun-ç*, *inan-ç*, *iğren-ç*, *gülün-ç*, *sevin-ç*, *utan-ç*, *ödün-ç*, *kıvan-ç*, *kazan-ç* kabi. Birgina *tıka-ç* soʻziga -*ç* qoʻshimchasi bevosita qoʻshiladi.

-*ga* (-*ge*) qoʻshimchasi bilan yasalgan otlar kam uchraydi: *bil-*

ge, dal-ga, yon-ga, bōl-ge, süptür-ge, kavur-ga kabi.

-gaç (-geç, -kaç, -keç) qo'shimchasi *-giç (-giç, -guç, -güç)* ning sinonimidir: *yüz-geç, süz-geç, kıs-kaç, utan-gaç* kabi.

-gi (-gi, -gu, -gü, -ki, -ki, -ku, -kü) qo'shimchasi vositasida ham, asosan, bir bo'g'inli fe'llardan otlar yasalgan: *say-gi, il-gi, duy-gu, sar-gi, bil-gi, bas-ki, çal-gi, sev-gi, sor-gu, at-ki, ver-gi, gör-gü, iç-ki, çiz-gi, uy-ku (uyu-ku), kes-ki* va h.

-giç (-giç, -guç, -güç) qo'shimcha bilan *dal-giç, bil-giç, başlan-giç* so'zlari yasalgan.

-gin (-gin, -gun, -gün, -kın, -kin, -kun, -kün) qo'shimchasi bilan bir bo'g'inli fe'llardan otlar va sifatlar yasalgan: *bas-kın, çap-kın, bil-gin, sür-gün, yetiş-kin, tut-kun* kabi.

-ı (-ı, -u, -ü) qo'shimchasi fe'ldan ot va ba'zan otlashgan sifatlar yasaydi: *yaz-ı, çat-ı, tart-ı, sık-ı, yat-ı, say-ı, kork-u, yap-ı, bat-ı, yak-ı, doğ-u, diz-i, öl-ü, koş-u, kok-u, ört-ü, ölç-ü, dikil-i* kabi.

-ıcı (-ıcı, -ucu, -ücü) qo'shimchasi fe'ldan kasb-hunar nomlari, ba'zan sifat va sifatdoshlarlar yasaydi: *al-ıcı, gör-ücü, yap-ıcı, ver-ıcı, kur-ucu, yüz-ücü, sat-ıcı, besle-y-ıcı, oku-y-ucu, dondur-ucu* kabi.

-k (ka), -k (ke) qo'shimchasi vositasida *del-i-k, düş-ü-k, yan-ı-k, çatla-k, üfür-ü-k, ele-k, dile-k, döşe-k* kabi ot va sifatlar yasalgan.

-m (-im) qo'shimchasi fe'llardan turli predmetlar nomini yasaydi: *al-ı-m, geç-i-m, kuşa-m, ver-i-m, giy-i-m, tak-ı-m, sat-ı-m, biç-i-m, öl-ü-m, uçur-u-m, doğ-u-m, yud-u-m (yut-u-m)* kabi.

-mik (-mik, -muk) ot yasovchi qo'shimcha yordamida fe'ldan uchta ot yasalgan: *kıy-mık, il-mik, kus-muk*.

-n (-in) qo'shimchasi faol yasovchilardan hisoblanadi: *tüt-ü-n, yığ-ı-n, ak-ı-n, ek-i-n, tala-n, gel-i-n, koş-u-n* kabi.

-t qo'shimchasi bilan hozirgi zamon turk tilida so'z yasalmay qo'ygan: *ög-ü-t, ayır-t, um-u-t, geç-i-t, kuru-t, yoğur-t* kabi.

-tı (-tı, -tu, -tü) qo'shimchasi, asosan, «n» bilan tugagan fe'llarga qo'shiladi: *akın-tı, kesin-ti, sıkın-ti, dökün-tü, sallan-tı, ilin-ti, üzün-tü, kurun-tu, siprün-tü, çalkan-tı, bozun-tu, görün-tü*. Ushbu qo'shimcha ba'zan o'zagi "n" bilan tugamagan ba'zi fe'llarga ham qo'shib ot yasaydi: *morar-tı, karar-tı, kızar-tı, ürper-ti, belir-ti, doğrul-tu* kabi.

Turk tilida fe'ldan ot yasovchi *-aç (-eç)* qo'shimchasi bilan *gül-eç,*

tık-aç; *-em* qo‘shimchasi bilan *tut-am*, *bur-am*; *-al (-el)* qo‘shimchasi bilan *çat-al* so‘zi; *-alak (-elek)* qo‘shimchasi bilan *yat-alak*. *çök-elek*, *as-alak* so‘zlari; *-arı (-eri)* qo‘shimchasi bilan *uç-arı*, *göç-eri*; *-arak (-erek)* qo‘shimchasi bilan *tut-arak* so‘zi; *-amaç (-emeç)* qo‘shimchasi bilan *dön-emeç* so‘zi; *-maç (-meç)* qo‘shimchasi bilan *bula-maç*, *tut-maç*, *kıy-maç*. *yırt-maç*; *-baç (-beç)* qo‘shimchasi bilan *dolan-baç* (*dolam-baç*), *saklan-baç* (*saklam-baç*); *-sal (-sel)* qo‘shimchasi bilan birgina *uy-sal*, *gör-sel* so‘zlari; *-man (-men)* qo‘shimchasi¹ yordamida *az-man*, *şış-man*, *göç-men* so‘zlari; *-sak (-sek)* qo‘shimchasi bilan birgina *tut-sak* so‘zi; *-pak (-pek)* qo‘shimchasi yordamida *kay-pak* so‘zi; *-van* qo‘shimchasi bilan *yay-van* so‘zi; *-mur* qo‘shimchasi bilan *yağ-mur* so‘zi; *-ca (-ce)* qo‘shimchasi bilan *eğlen-ce*, *düşün-ce*, *sakın-ca*, *güven-ce* so‘zlari; *-cama (-ceme)* qo‘shimchasi bilan *sürün-ceme* so‘zi; *-maca (-mece)* qo‘shimchasi bilan *bul-maca*, *buldur-maca*, *bil-mece*, *koştur-maca*, *at-maca* so‘zlari yasalgan. Shuningdek, turk tilidagi *öpü-cük* (*öpüş-cük*), *gülü-cük* (*gülüş-cük*) kabi otlar ham fe’ning harakat nomi shakli asosida yasalgan.

Savol va topshiriqlar – Sözlü ve yazılı sınav soruları

1. *Turk tilida ot turkumiga xos xususiyatlar Otning grammatik kategoriyalari (Ad ve ad soylu kelimeler).*
2. *Ko‘plik kategoriyasi va qo‘shimchalari (Ad çekim ekleri. 1. Çokluk kategorisi ve çokluk eki).*
3. *Egalik kategoriyasi va egalik ko‘shimchalari. (İyelik kategorisi ve iyelik ekleri).*
4. *Oidlik qo‘shimchasi (Aitlik eki).*
5. *Kelishik kategoriyasi va kelishik ko‘shimchalari. Kelishiklar va ularning gap tuzishdagi vazifasi (Hâl kategorisi ve hâl ekleri)*
6. *Otning vosita va tenglik kategoriyalari (Vasita ve eşitlik hali).*
7. *So‘roq yuklamasi (Soru eki).*
8. *Aniq va mavhum otlar (Somut ve soyut adlar).*
9. *Jamlık, birlik va ko‘plikni ifodalovchi otlar (Topluluk, tekil ve çoğul adlar).*
10. *Atoqli va turdosh otlar (Özel ve cins adları).*

¹ Hozirgi zamon turk tilidagi *seç-men*, *say-man*, *öğret-men*, *deliş-men* so‘zlari ham ushbu qo‘shimcha yordamida yasalgan.

11. *Otlarda kichraytirish (Adlarda küçültme).*
12. *Turk tilida soʻz yasovchi qoʻshimchalar (Yapim ekleri).*
13. *Otdan ot yasovchi qoʻshimchalar (Addan ad yapan ekler).*
14. *Feʻldan ot yasovchi qoʻshimchalar (Fiilden ad yapan ekler).*

1.3.SIFAT (SIFAT)

Mavzuning oʻquv maqsadi: turk tilidagi sifat va uning maʼno turlari haqida maʼlumot berish, sifatning yasalishiga koʻra turlarini aniqlash koʻnikmasini shakllantirish.

Tayanch tushunchalar: *sifat (sifat), asl sifatlar (niteleme sifatleri); vasflama sifatleri), nisbiy sifatlar (belirtme sifatleri), koʻrsatish sifatleri (isharet sifatleri), soʻroq sifatleri (soru sifatleri), noaniq sifatlar (belirsizlik sifatleri), kuchaytiruv sifatleri (pekiştirme sifatleri), kichraytiruv sifatleri (küçültme sifatleri), sifat darajalari (sifatlarda derecelendirme), sifatlarning otlashishi (sifatların isim görevinde kullanılışı).*

Sifatlar turk tilshunosligida koʻpincha keng maʼnoda olingan ot turkumining bir turi oʻlaroq koʻrib chiqiladi, yaʼni sifatlarga predmetning belgi nomi deya qaraladi. Masalan, *ağaç, ev, çiçek* kabi soʻzlar ot turkumiga kiritilsa, *kırmızı, büyük, güzel* soʻzlari belgi nomlari, yani sifatlar hisoblanadi: *güzel ev, büyük ağaç, kırmızı çiçek* kabi.

Turk tilida sifatlar nutqda ot vazifasida ham keladi (otlashgan sifatlar): *Küçük küçüklüğünü hissetmeli (Kichik kichikligini his qilishi kerak). Şu güzele bir bakın! (Shu goʻzalga bir qarang!)* kabi. Demak, bu yerda soʻzning yakka holda sifat boʻlishi emas, sifat kabi qoʻllanishi muhim. Shundan kelib chiqqan holda, turk tilshunosligida sifatlarning faqat aniqlovchi vazifasini bajarayotganda haqiqiy sifat boʻla olishi, yakka holda uning ot boʻlishi mumkinligi ham taʼkidlanadi. Shu bois turk tilida sifatlar otlar kabi qoʻllana oladi. Predmetning belgisini bildirgan har qanday ot sifat vazifasini bajara oladi. Shundan kelib chiqqan holda, turk olimlari har sifatni bir ot deb qaraydilar.

Sifat predmetning ichki yoki tashqi belgisini bildiradi. Ichki belgi ajralmas xususiyatdir, tashqi belgi esa ikkilamchi xususiyatdir. Masalan, *beyaz elbise, bu elbise* kabi sifat birikmalaridagi *beyaz* va

bu ishora (ko'rsatish) sifatлари o'sha *elbise* (*kiyim, kostyum, ayolar ko'ylagi*) ning belgisidir, lekin *beyaz elbisening* ichki, ajralmas bir qismi ichki sifattir va *bu elbise* birikmasidagi *bu* so'zi ajralmas qism emas. Shu nuqtai nazardan sifatlar ikkiga ajratiladi: *asl sifatlar* (*vasıflandırma sifatları* yoki *niteleme sifatları*) va *nisbiy sifatlar* (*belirtme sifatları*).

Asl sifatlar (Niteleme Sifatları)

Asl sifatlar turk tilshunosligida *vasıflama sifatları* yoki *niteleme sifatları* deyiladi. Asl sifatlar predmetning ichki belgi (xususiyat) larini ko'rsatadi, shu sababdan ularning soni ko'pchilikni tashkil etadi: *beyaz (elbise)*, *doğru (söz)*, *aç (hayvan)*, *eski (halı)* va h. Asl sifatlar ikkiga ajratiladi: predmetning belgisini ko'rsatuvchi sifatlar va harakatning belgisini ko'rsatuvchi sifatlar.

Predmetning belgilari doimiydir: *beyaz, eski, dayanıklı* kabi. Harakat belgilari doimiy emas: *hızlı araba, yavaş hareket*. Predmetlar-ning vaqtinchalik harakat belgisini ifoda etuvchi sifatlar ravishlardan farq qiladi (*hızlı yürümek, yavaş konuşmak*).

Kuchaytiruv sifatları (Kuchaytiruv Sifatları)

Turk tilshunosligida *pekiştirme sifatları* yoki *berkitme sifatları* deb nomlangan sifat turi shaxs, predmet yoki voqea – hodisaning belgi-sini yuqori darajada ko'rsatuvchi so'zlardir. Sifatlarning bunday shakli 'o'xshash bo'g'in ishtiroki' (*benzer hece katkısı*)da yasaladi. Bunday sifatlar so'zning birinchi bo'g'ini olinib, bo'g'inning oxiriga *m, p, s, r* undoshlaridan biri qo'shib, so'zning boshiga keltirish yo'li bilan yasaladi: *açık = a+p+açık (lang ochiq)*; *kara = ka+p+kara (qopqora)*; *temiz = te+r+temiz (toptoz)*; *yeşil = ye+m+yeşil (yamyashil)*; *katı = ka+s+katı (juda qattiq)*, *kolay = ko+s+kolay (juda qulay)*, *kara = ka+p+kara (qopqora)* kabi. Bunday shakllarning yuzaga kelishiga takroriy kuchaytiruv (*kara kara, diri diri*) va qo'shma kuchaytiruv (*kara kuru, deli dolu*) shakllarining asos olingan bo'lishi ham mumkin.

Ba'zi sifatlarda esa yasalgan old qo'shimchadan keyin tovush oqishini ta'minlovchi bir tekis, ochiq unli paydo qilinib, ikkinchi bo'g'in yasalganini ham ko'rish mumkin: *düpedüz (tep-tekis)*, *sapasağlam (soppa-sog')*, *yapayalnız (o'ta yolg'iz)*, *güpegündüz (kuppa-kunduz)* kabi.

Sifatlarni to'la takrorlash yo'li bilan ham kuchaytirish mumkin. Bunday shakllar sifatning ma'nosini kuchaytirib, otlar bilan birikadi: *kara kara gözler, küçük küçük odalar, mahmur mahmur bakışlar, iri iri meyveler* kabi. Kuchaytiruv sifatlari otlarni takrorlash yo'li bilan ham yasaladi: *takım takım elbiseler, kucak kucak hediyeler, çeşit çeşit yolcular, yer yer lekeler* kabi. Bunday shakllar ko'pincha ravish sifatida fe'ldan oldin kelishi mumkin: *adım adım izlemek, karış karış gezmek* kabi. Kuchaytiruv sifatlari ot kesimli gaplarda (*isim cümleleri*) kesim vazifasini bajaradi: *Ovalar yemyeşildi. Eviniz tertemizmiş. Çicekler kıpkırmızıydı* kabi.

Nisbiy sifatar (*belirtme sifatlari*)

Nisbiy sifatar turk tilshunosligida *belirtme sifatlari* deyiladi. Nisbiy sifatar qo'llanishiga ko'ra asl sifatlarga juda o'xshasa-da, kelib chiqish nuqtai nazaridan ulardan farq qiladi. Nisbiy sifatar predmetlarning ichki belgisini emas, faqat tashqi xossasini bildiradi.

Predmetlarning tashqi belgilari ularning joyi, miqdori, so'roq shakllari, noaniqlik holatlaridir. Nisbiy sifatar, asosan, uchga bo'linadi: *ko'rsatish sifatlari (işaret sifatlari, gösterme sifatlari), so'roq sifatlari (soru sifatlari), noaniq sifatar (belirsiz sifatar)*.

Turk tilshunosligida nisbiy sifatarlarning to'rtinchi guruhi deb ajratiladigan *sayı sifatlari (sonlar)* ushbu qo'llanmada o'zbek tilshunosligi prinsiplariga ko'ra alohida so'z turkumi (son) deb beriladi.

Ko'rsatish sifatlari (*işaret sifatlari* yoki *gösterme sifatlari*) otlar bilan birga kelganda predmetni ko'rsatish yo'li bilan aniq lashtiradi va unga makon, zamon yoki tasavvurda uzoq-yaqinligiga ko'ra bir joyni belgilaydi. Ko'rsatish sifatlari predmetlarning o'rnini ko'rsatadi, ularga ishora etadi: *bu ağaç, şu çiftlik, o dağlar, bu yaz, bu davranış* kabi.

Ko'rsatish sifatarlarning shakli ko'rsatish olmoshlari bilan bir xil: *bu, şu, o, ol, şol, işbu*. Hozirgi zamon turk tilida qo'llanib kelinayotgan faol ko'rsatish sifatlari *bu, şu, o* dir.

"*Ol*" va "*şol*" ko'rsatish sifatlari eskirgan shakllar bo'lib, ular eski turkiy matnlarda uchraydi. Adabiy tilda eskirgan deb qaraluvchi *ol şol < iş ol, iş-bu < iş bu* olmoshlari, kopincha, ko'rsatish sifatlari vazifasida qo'llanadi, ya'ni hozirgi turk tilidagi 'o' ko'rsatish sifati

eski 'ol' dan, 'şol' ko'rsatish sifati esa eski 'uş' ko'rsatish ko'makchisi bilan 'ol' olmoshining birikuvidan tashkil topgan 'uşol'dan yuzaga kelgan: "Ol mahkemenin hükmüne derler mi adalet?"².

İşbu ko'rsatish sifati turk tilida kam qo'llanadi. Bu so'z 'bu' sifatining kuchaytirilgan shakli bo'lib, 'uş' va 'bu' dan yuzaga kelgan. Oldin 'uşbu', keyinchalik *işbu* shakliga kirgan. Bu 'i'lashuv hodisasi turk tilidagi 'uşda' ning 'işte' (o'zbekcha «mana»)ga aylanishi natijasida ro'y bergan.

Ko'rsatish sifatlari ko'plik qo'shimchasi olmaydi³. Ular asl sifatlarning gapda kesim vazifasida keladi: *Mesele budur. Kitaplar şunlar. Anayol oymuş* kabi.

So'roq sifatlari (*soru sifatlari*) predmetlarni so'roq shaklida ifodalaydi: *kaç gün, hangi tarla, ne yazık, nasıl iş, nice mutlu yıllar, neredeki ev, kaçınıcı sınıf, kaçar kişi, nelik kumaş* kabi.

Kaç so'roq sifati predmetning miqdorini so'roq shaklida ifodalaydi: *kaç (kişi), kaç (kuruş)* kabi. *Hangi* so'roq sifati predmetning qaysi predmet, bir xildagi predmetlar ichidan aynan qaysi biri ekanligini so'rovchi sifattir: *hangi (gün), hangi (kız), hangi (iş)* kabi. *Ne* so'roq sifati predmetning holatini so'rovchi sifat bo'lib *hangi* ma'nosida keladi: *ne (gün), ne (zaman), ne (vakit), ne (iş)* kabi. Ba'zan esa so'roq ma'nosida kuchaytiruvni ifodalab keladi: *ne (güzel), ne (çabuk), ne (mutlu), ne (iyi)* kabi. Bu birikmalarda qo'llanilgan *ne* so'roq sifati *çok* so'zining ham sinonimi hisoblanadi. Ko'makchili birikma shaklidagi kuchaytiruv ma'nosini ifodalovchi murakkab so'roq sifatlari ham qollanadi: *ne asıl, ne gibi, ne kadar, ne biçim* kabi.

Nasıl so'roq sifati predmetni so'rovchi, *ne* va *asıl* so'zlarining qo'shilishidan yuzaga kelgan: *nasıl (adam), nasıl (yer)* kabi. *Nasıl* sifati gapda kesim vazifasida keladi: *Hava nasıl? Fiyatlar nasıl?* kabi.

Nice so'roq sifati qadimdan bugungacha yetib kelgan, hozirda *kaç* va *hangi* ma'nosida, asosan, shevalarda saqlanib qolgan: *nice yıl*

² Hozirgi o'zbek tilidagi 'u' kishilik olmoshining o'zbek klassik adabiyoti namunalaridagi 'ul' shakliga tez-tez duch kelinadi ("Ol mahkemenin hükmüne derler mi adalet?" tarjimasida: "Ul mahkamaning hukmiga derlarmi adolat?").

³ Turk tilidagi *bunlar, şunlar* va *onlar* so'zlari ko'rsatish sifati emas, ko'rsatish olmoshi bo'lgan *bu, şu* va *o* ning ko'plik shakllaridir.

(*kaç yıl*), *nice Ahmet (hangi Ahmet)* kabi. Ushbu sifat hozirgi paytda turk adabiy tilida juda kam qo‘llanadigan noaniq sifatdir: *nice insan*, *nice mutlu yillar* kabi. Bunday qo‘llanishda ‘ko‘p’, ‘qancha qancha’ ma‘nosidagi tilak ifodalanadi: *nice bayramlarga*, *nice mutlu yillarga* kabi.

O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi (-*de*) va oidlik qo‘shimchasi (-*ki*) vositasida yuzaga kelgan *neredeki* so‘roq sifati predmetning o‘rnini so‘rovchi so‘zdir: *neredeki (yol)*, *neredeki (kız)* kabi.

Noaniq sifatlar (*belirsizlik sifatları* yoki *belirsiz sıfatlar*) predmetlarni noaniq shaklda ifodalaydi. Bunda otni noaniq holga keltirish uchun undan oldin “*bir*” so‘zi qo‘shiladi: *bir (gün)*, *bir (adam)* kabi. Darajalarga ega bo‘lgan noaniq sifatlar predmetlarning miqdorini belgilaydi. Noaniq sifatlar quyidagilardir: *bir. bütün, başka, bazı, her, kimi, çoğu, çok, hiç, falan, filan, az, fazla (bir kadın, her kadın, çoğu kadınlar, kimi kadın, bir kaç kadın)*. Noaniq sifatlarning sodda va murakkab shakllari mavjud: *bütün insanlar, bazı anneler, başka adam, öbür masa, hiç bir tehlike* kabi. Ular orasida qoliplashgan egalik shakllari ham bor: *çoğu (zaman), öteki (adam), beriki (kız), şimdiki (hâl)*, kabi. Ushbu guruhga *öbür* va *diğer* sifatlarini ham kiritish mumkin.

Sifatlarning yasalishi (Sifat Yapım Ekleri)

Turk tilida yasama sifatlar, asosan, ot, sifat, olmosh va fe‘llarga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Sifat yasovchi qo‘shimchalar, asosan, quyidagilardir:

-*al (-el)* qo‘shimchasi o‘zlashgan otlardan bir qator sifatlar yasagan: *sosy-al, kültür-el, ulus-al, yer-el* kabi. Tovush uyg‘unligi qonuniga ko‘ra unli, ba‘zi hollarda undosh bilan tugagan so‘zlarga *-el* yasovchisidan oldin *-s* undoshi orttiriladi: *bölge-sel, duygu-sal; gelenek-sel, siya-sal* va h.

-*ak (-ek)* qo‘shimchasi juda kam ishlatiladi: *ürk-ek, otur-ak* kabi.

-*cık (-cik, -cuk, -cük)* qo‘shimchasi turk tilida ko‘p uchraydigan kichraytirish va erkalashni ifodalovchi otlar yasash bilan birga bir qator sifatlar (sifatdan sifat) ham yasagan. Bunda qo‘shimchadan oldingi undosh tushishi mumkin: *ufa-cık (ufak-cık), küçü-cük (küçük-cük), yumuşa-cık (yumuşak-cık)* kabi. Ba‘zan qo‘shimchadan oldin

bir unli orttiriladi: *az-ı-cık, dar-a-cık* kabi. Ushbu qo‘shimcha *-ca* (*-ce, -ça, -çe*) qo‘shimchasidan keyin qo‘shilishi ham mumkin: *usul-ca-cık, yavař-ça-cık, demin-ce-cık* kabi. *-cık* qo‘shimchasi sifatlarga qo‘shilganda o‘ta kichraytirish ma‘nosini ifodalaydi: *kısa-cık, ince-cık* kabi.

-cıl (*-cil, -cul, -cül, -çıl, -çil, -çul, -çül*) qo‘shimchasi ham juda kam ishlatiladi va o‘xshatish, mubolag‘ani ifodalaydi: *ev-cil, ben-cil, balık-çıl, tavřan-cıl, ölüm-cül, kır-cıl, ak-çıl, insan-cıl* kabi.

-cılayın (*-cileyin*) qoliplashib qolgan qo‘shimcha bo‘lib, ayrim olmoshlarga qo‘shiladi: *ben-cileyin, sen-cileyin, bu-n-culayın* kabi.

-en qo‘shimchasi yordamida faqat *er-en* so‘zi yasagan.

-gan (*-gen, -kan, -ken*). qo‘shimchasi bir bo‘g‘inli fe‘llarga qo‘shilmaydi: *alın-gan, sokul-gan, yapıř-kan, sıkıl-gan, çekin-gen, sırut-kan, konuř-kan, giriř-ken, unut-kan, dövüř-ken, dođur-gan* kabi.

-gın (*-gin, -gun, -gün, -kın, -kin, -kun, -kün*) qo‘shimchasi. asosan, bir bo‘g‘inli fe‘llarga qo‘shilib, mubolag‘a ma‘nolarini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *dal-gın, sal-gın, ol-gun, düz-gün, az-gın, bay-gun, dur-gun, dar-gın, üz-gün, kır-gın, ař-kın, yetiř-kin, kes-kin, coř-kun, küs-kün, düř-kün, piř-kin, alıř-kın* kabi. Ushbu qo‘shimcha vositasida ba‘zi otlashgan sifatlar ham yasalgan: *bas-kın, bil-gin, sür-gün, tut-kun* kabi.

-k (*ka*), *-k* (*ke*) fe‘ldan sifat yasovchi qo‘shimcha harakatdan yuzaga kelgan yoki harakat belgisini ifodalovchi sifatlar yasaydi: *aç-ı-k, yat-ı-k, sön-ü-k, yuvarla-k, çürü-k, yürü-k, dönü-k* kabi. Bu guruhga kiritilgan yopiq bo‘g‘inli barcha so‘zlarda *-k* dan oldin unli orttiriladi: *aç-ı-k, buruř-u-k* va h. Turk tilida ushbu qo‘shimcha bilan otlar ham yasalgan: *del-i-k, tükür-ü-k, bulař-ı-k, üfür-ü-k, ele-k, döře-k* kabi.

-kan qo‘shimchani turk tilida faqat *çalış-kan, konuř-kan* so‘zlarida uchraydi (*baş-kan* so‘zi ot turkumiga kiradi).

-kek qo‘shimchasi bilan turk tilida birgina *er-kek* so‘zi yasalgan.

-ki qo‘shimchasi oidlik va bog‘liqlik ma‘nosini ifodalab, sifat yoki ravishdan yangi so‘zlar yasaydi: *řimdi-ki, önce-ki, öte-ki, demin-ki, sonra-ki, karřı-ki* kabi. Ushbu qo‘shimcha ko‘proq joy va payt nomlarini bildiruvchi so‘zlarga qo‘shiladi. *-ki* qo‘shimchasi *-da, -de, -ta, -te* kelishik qo‘shimchalaridan keyin qo‘shiladi: *bende-ki, yerde-*

ki, aşağıda-ki, sende-ki, altta-ki, üstte-ki, kabi. Qaratqich kelishigi qo'shimchalari (-in, -ın, -ün, -un, -nin, ...)dan keyin ham qo'llanadi: *benim-ki, senin-ki, adamın-ki, onun-ki, oğlunun-ki* kabi. So'nggi paytlarda -ki qo'shimchasining -kü istisno ko'rinishi ham uchraydi: *dün-kü, bugün-kü* kabi.

-l qo'shimchasi faqat *ışı-l* so'zida uchraydi. Aslida bu ham turk tilidagi *cıvı-l, şırı-l, parı-l, pırı-l* so'zlari kabi tabiat hodisalariga taqlid bo'lishi mumkin. Qadimgi turkchada *ına-l, tüke-l* so'zlariga qo'shilgan.

-layın (-leyin) qo'shimchasi ilgari o'xshashlik, tenglikni ifodalovchi shakllar yasagan: *su-layın* ("su gibi"), *deniz-leyin* ("deniz gibi"). Hozirda yasovchi qo'shimcha sifatida vaqtni bildiruvchi ingichka ko'rinishli so'zlarda uchraydi: *sabah-leyin, gece-leyin, akşam-leyin* kabi.

-lı (-lı, -lu, -lü) qo'shimchasi sifat o'rnida keluvchi otlar yasaydi. Bunday so'zlar ot xususiyatiga ega bo'lib, egalik yoki tegishlilikni ifodalaydi: *baş-lı, kilit-li, toz-lu, köpük-lü, su-lu, güneş-li, Ankara-lı, lise-li, köy-lü, Karahan-lı, Osman-lı, Selçuk-lu, Yunan-lı* kabi. -lı (-lı, -lu, -lü) qo'shimchasi "va" ma'nosida ham qo'llanadi. Ushbu qo'shimcha ilgari -lıg ko'rinishida sifatlarga qo'shilgan: *iri-li, ufak-li, gece-li, gündüz-lü, ana-lı, baba-lı, büyük-lü* ('küçük-lü büyük-lü' - 'katta va kichik') kabi.

-lık (-lik, -luk, -lük) qo'shimchasi otdan ot va sifatlar yasaydi: *kira-lik, yıl-lik, dolma-lik, hediye-lik, gün-lük, yemek-lik, ay-lik* kabi.

-msı (-msi, -msu, -msü) qo'shimchasi ham o'xshashlik, rang va mazani ifoda etadi: *ağac-ı-msı, tatlı-msı, mor-u-msu, acı-msı, kırmızı-msı, ekşi-msi, yeşil-i-msi, fiil-i-msi, duvar-ı-msı* kabi.

-mtırak qo'shimchasi o'xshashlikni ifodalaydi va undosh bilan tugagan o'zaklarga qo'shilganda undan oldin ayiruvchi -i (-ı, -u, -ü) unlisi orttiriladi. Maza-ta'm va rangni ifodalovchi sifatlar yasaladi: *acı-mtırak, ekşi-mtırak, sarı-mtırak, yeşil-i-mtırak* kabi.

-rak (-rek) qo'shimchasi kuchaytiruv ma'nosini ifodalagan: *ufa-rak* (*ufak-rak*), *küçük-rek* (*küçük-rek*). Hozirgi o'zbek tilidagi -roq qo'shimchasiga mos keladi (*go'zal-roq, yaxshi-roq, aniq-roq*) kabi.

-si (-si, -su, -sü) qo'shimchasi o'xshashlikni ifodalaydi: *kadın-*

si, sifat-si, zamir-si, çocuk-su kabi. Ushbu qo‘shimcha vositasida *yat-si, sin-si, yas-sı* so‘zlari ham yasalgan.

-siz (-sız, -suz, -süz) qo‘shimchasi *-li (-li, -lu, -lü)* qo‘shimchasining bo‘lishsiz shakli bo‘lib, manfiy ot yoki manfiy sifat qo‘shimchalari ham deyiladi. *-li* qo‘shimchasi, asosan, biron narsaning mavjudligini, *-sız* qo‘shimchasi esa mavjud emasligini bildiradi: *taş-sız, ev-siz, kol-suz, ana-sız, görgü-süz, su-suz, süt-süz* kabi. U kamdan-kam hollarda egalik qo‘shimchasidan keyin kelishi mumkin: *annem-siz, babam-sız* kabi.

-şın (-şin) qo‘shimchasi rangni bildiruvchi so‘zlardagina uchraydi: *sarı-şın, mavi-şın* (qisqartirilgan shakli *maviş*), *ak-şın, gök-şın* kabi.

Savol va topshiriqlar – Sözlü ve yazılı sınav soruları

1. *Sifat. Asl sifatlar (Sifatlar. Vasıflama sıfatları).*
2. *Sifat darajalari (Sıfatlarda derecelendirme)*
3. *Nisbiy sıfatlar va turlari (Belirtme sıfatları: 1. İşaret sıfatları; 2. Soru sıfatları; 3. Belirsizlik sıfatları ve; 4. Pekıştırme sıfatları; 5. küçültme sıfatları).*
4. *Sıfatlarning otlashishi (Sıfatların isim görevinde kullanılışı)*

1.4.SON (SAYI SIFATI)

Mavzuning o‘quv maqsadi: turk tilidagi son va uning turlari haqida ma’lumot hosil qilish; turk tilidagi sonlarning ma’no turlarini yasovchi qo‘shimchalarning semantik xususiyatlari to‘g‘risida tushuncha shakllantirish.

Tayanch tushunchalar: *son va uning turlari (sayı sıfatları ve çeşitleri), miqdor sonlar (asl sayı sıfatları), tartib sonlar (sıra sayı sıfatları), jamlov sonlar (topluluk sayı sıfatları), taqsim sonlar (üleştirme sayı sıfatları), kasr sonlar (kesir sayı sıfatları).*

Sonlar turk tilshunosligida nisbiy sıfatlarning o‘ziga xos turi sanaladi. Sonlar predmetlarning miqdorini bildiruvchi so‘zlar bo‘lib, gapda sıfatlar kabi otlardan oldin aniqlovchi vazifasida kelgani uchun turk tilshunosligida *sayı sıfatları (son sıfatları)* deb yuritiladi. Sonlar besh turga ajratiladi: *sanoq sonlar, tartib sonlar, taqsim sonlar, jamlik sonlari, kasr sonlar.*

Sanoq sonlar (*Asıl Sayı Sıfatları*). Asl sonlar sifatida predmetlarning miqdorini ko'rsatadi: *bir (karpuz), iki (defter)* kabi. Sanoq sonlar uchga bo'linadi: bir so'z shaklida bo'lgan sonlar; so'z birikma shaklida bo'lgan o'nlik, yuzlik, minglik sonlar; son birikma shaklidagi murakkab sonlar:

1. So'z shaklida bo'lgan sonlar: *bir, iki, yedi, on, otuz, doksan, yüz, bin* va h. Bunga qadimda qo'llanilgan *tümen (on bin)*, keyinchalik fransuz tilidan o'zlashgan *milyon, milyard* sonlari ham kiradi.

Turk tilida *yüz* va *bin* dan oldin *bir* qo'llanilmaydi (*yüz elli dört, bin dokuz yüz altmış üç*), lekin *milyon, milyard* sonlaridan oldin *bir* qo'shib qo'llanadi: *bir milyon sekiz yüz bin, bir milyar iki yüz altı milyon* kabi.

2. So'z birikmasi shaklida bo'lgan o'nli, yuzli, mingli sonlar: *iki yüz, beş yüz, altı yüz bin, bir milyon, dokuz yüz milyar* va h. Bunday son birikmalarda kichik son oldin, katta son keyin keladi.

3. Son birikma shaklidagi aralash sonlar. Bu guruhga *on bir, altmış altı, yüz doksan, bin beş yüz, üç milyar beş yüz milyon* kabi butun sonlar kiradi. Bunda katta son oldin, kichik son keyin keladi.

Yirik sonlar katta sonlardan boshlanib, kichik sonlar sari (o'ngdan chapga) tartiblanadi: *38 (otuz sekiz), 2.709 (iki bin yedi yüz dokuz), 3.215.351 (üç milyon iki yüz on beş bin üç yüz elli bir)* kabi. *Seksen, doksan* kabi sonlar, aslida, *sekiz on, dokuz on* birikmalaridan yuzaga kelgan. *Yirmi* soni aslida *yigirme* bo'lgan, so'ngra *yigirmi, yigirmi* shaklida o'zgarib borgan va bir bo'g'in tushishi bilan adabiy tildan *yirmi* bo'lib joy olgan. Hozirgi paytda turk tili shevalarida ushbu son *yigirmi* deb qo'llanadi.

Miqdorni ifodalovchi sonlar (*bir* sonidan boshqa) ko'plik ma'nosiga ega. Shuning uchun ulardan keyin kelgan otga ko'plik qo'shimchasi (*-ler, -lar*) qo'shilmaydi: *beş elma, on sekiz çocuk, yüz lira* kabi. Albatta, bunda istisno holatlar ham mavjud: *kırk haramiler (qirq qaroqchi), dört büyükler, iki ahbap çavuşlar* va h.

Tartib sonlar (*Sıra Sayı Sıfatları*) predmetlarning tartibini ko'rsatadi. Ular *-nci (-ncı, -ncü, -ncu)* qo'shimchasi yordamida sanoq sonlardan yasaladi. Qadimgi turk tilida tartib son yasovchi affiks *-inç* bo'lgan (*üçünç, sekizinci*), keyinchalik bu affiks *-i* egalik qo'shimchasi

bilan uzaytirilib qo'llana boshlangan⁴.

Sanoq son undosh tovush bilan tugagan bo'lsa yasovchi qo'shimchadan oldin **-i** unlisi va uning variantlari orttiriladi: *-inci, -inci, -üncü, -uncu (bir-inci, iki-nci, üç-üncü, altı-ncı, beş yüz üçüncü)*.

Darajani ko'rsatuvchi *sonuncu, kaçınçı, ortancı* kabi so'zlar ham tartib sonlar jumlasiga kiradi. Tartib sonlardan keyin keluvchi otlar ko'plik qo'shimchasini olishi mumkin: *birinci sınıflar, üçüncü şahıslar*.

Taqsim sonlar (*Üleştirme Sayı Sıfatları*) predmetlarning miqdorini guruh-guruh qilib ko'rsatadi. Ular ayiruv, bo'luv, baham ko'ruv, tarqatuv ma'nolarini ifodalaydi. Bunday sonlar sanoq sonlarga otdan ot yasovchi *-er (-ar, -şer, -şar⁵)* qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan yasaladi: *bir-er (bittadan yoki bitta-bitta), üç-er (uchtadan yoki uchta-uchta), dokuz-ar, on-ar, iki-şer, yedi-şer, altı-şar* va h.

So'z birikmasi shaklidagi sonlarning taqsim shakllari ikki xil tarzda yasaladi: *on biner – onar bin, beş yüzer – beşer yüz* kabi. Og'zaki nutqda misollardagi faqat ikkinchi shakllar birichisidan faolroq qo'llanadi. Ayniqsa, minglik sonlarda *otuzar bin, ellışer bin* shakllari *otuz biner, elli biner* shakllaridan ko'ra ko'proq qo'llanadi.

Xuddi shu qo'shimcha bilan yasalgan *teker, azar, kaçar* so'ziari ham taqsim ma'nosini ifodalaydi. Ular ko'pincha takrorlanib (ikkilanib) keladi: *teker teker (bitta bitta, bitta bittalab, yakka yakka), azar azar (oz oz, oz ozdan), kaçar kaçar (nechtadan, nechta nechta, nechta nechtadan)*. Bulardan faqat *kaçar* so'zi gapda otdan oldin kelishi mumkin (*kaçar gün - necha kundən*). Bunday sonlardan keyin keluvchi otlar ko'plik qo'shimchasi olmaydi.

Jamlik sonlari (*Topluluk Sayı Sıfatları*) kishilar, hayvonlar orasidagi yaqinlikni, kichik guruhni ifodalaydi: *ikiz (çocuk), üçüz (yavrular)* kabi. Ular asl sonlardan **-z** va **-iz** (*üz*) yasovchi qo'shimchasi vositasida yasaladi. Turk tilida ularning miqdori juda kam. Ular

⁴ **-inci** qo'shimchasi ba'zi so'zlarga qo'shilib yangi so'zlar yasaydi: *sonuncu, kaçınıcı*. Shuningdek, turk tilida **birinci** tartib soni o'rniida **ilk** sifati ham qo'llanadi.

⁵ Agar son unli bilan tugagan bo'lsa, qo'shimchadan oldin [s] undoshi orttiriladi (*-er; ş+er; ş+ar*)

tug'ilish, qarindoshlik, yaqinlik ma'nolarini ifodalaydi. Jamlik sonlari tilda ko'proq ot sifatida qo'llanadi va ko'plik qo'shimchalari oladi: *ikiz-ler, üçüz-ler, dördüz-ler* kabi. Jamlik sonlariga **-li** qo'shimchasi qo'shilishi mumkin: *ikizli, üçüzlü (badem)*.

Sanoq sonlarga bevosita **-li** qo'shimchasi qo'shilishi yo'li bilan ham jamlik shakllari yasalishi mumkin: *ikili görüşme, üçlü takım elbise, beşli tabanca, yedili şamdan* kabi. Er-xotin ma'nosini ifodalovchi 'çift' so'zini ham 'ikili' ma'nosida jamlik soni hisoblash mumkin: *Ersoylar çifti ('Ersoylar jufti', 'er-xotin Ersoylar')*.

Kasr sonlar (*Kesir Sayı Sıfatları*) predmetlarning qism, parchalarini belgilaydi. Ular asl sonlar asosida o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi yordamida birikma shaklida yasaladi: *üçte bir (1\3), dörtte üç (3\4), yüzde altı (6\100 = %6), üç yüzde bir (1\300)* kabi.

Kasr sonlar otlar bilan birga qo'llanadi: *üçte bir (elma), dörtte üç (ekmek)* o'rnida *elmanın üçte biri, ekmeğin dörtte üçü, paranın yüzde yirmisi, nüfusun yüzde beşi* kabi. Kasr sonlar og'zaki nutqda 2.3 (*iki nokta üç*), 80.7 (*seksen nokta yedi*) shaklida ham qo'llanadi.

$1\2 = \text{yarım}$, $1\4 = \text{çeyrek}$ so'zlari ham kasr sonlardir. Butun sonlardan keyin kelgan 'yarım' soni turk tilida 'buçuk' deyiladi ($1.5 = \text{bir buçuk}$, $5.5 = \text{beş buçuk}$). 'Yarım' so'zi otlar bilan birga kelganda o'z holida qo'llanadi: *yarım saat, yarım elma, yarım kilo* va h.

Son yasovchi qo'shimchalar

(Sayı Yapım Ekleri)

Turk tilidagi son yasovchi qo'shimchalar quyidagilar:

-er (-ar, -şer, -şar) qo'shimchasi samarador son yasovchi qo'shimcha bo'lib, u asl sanoq sonlaridan taqsim sonlari yasaydi: *bir-er, beş-er, dokuz-ar, altı-şar, yedi-şer, yüz-er* kabi. Bunda unli bilan tugagan so'zlarga qo'shimchani *-şar, -şer* shakli, undosh bilan tugagan so'zlarga esa *-ar, -er* shakli qo'shiladi. Bu qo'shimchani asli *-ar, -er* bo'lgan, lekin keyinchalik *beşer* so'zining bo'g'inlarga ajralishidan *-şar, -şer* (be-şer) shakli yuzaga kelgan.

-nci (-ncı, -ncü, -ncu, -inci, -inci, -üncü, -uncu) qo'shimchasi samarador so'z yasovchilardan bo'lib, sanoq sonlardan tartib va daraja sonlari yasaydi: *bir-i-nci, dördüncü (dört-ü-ncü), yedi-nci, yüz-ü-ncü* kabi. Bu qo'shimcha sonlardan tashqari tartibni bildiruvchi boshqa

soʻzlar ham yasaydi: *kaç-t-nci*, *orta-nci* kabi.

-z qoʻshimchasi birdan oʻngacha boʻlgan sonlarga qoʻshiladi va yaqinlik, tenglikni ifodalovchi guruh nomlari yasaydi: *iki-z*, *üç-ü-z*, *dördüz (dört-ü-z)*, *beş-i-z*, *altı-z* kabi.

Savol va topshiriqlar – Sözlü ve Yazılı Sınav Soruları

1. Son va uning turlari (*Sayı sıfatları ve çeşitleri*)
2. Miqdor sonlar (*Asl sayı sıfatları*)
3. Tartib sonlar (*Sıra sayı sıfatları*)
4. Jamlov sonlar (*Topluluk sayı sıfatları*)
5. Taqsim sonlar (*Üleştirme sayı sıfatları*)
6. Kasr sonlar (*Kesir sayı sıfatları*)

1.5.OLMOSH (ZAMIRLER)

Mavzuning oʻquv maqsadi: turk tilidagi olmosh va uning turlari haqida tushuncha hosil qilish

Tayanch tushunchalar: *olmosh (Zamir), kishilik olmoshlari (shahs zamirleri), soʻroq olmoshlari (soru zamirleri), koʻrsatish olmoshlari (işaret zamirleri), belgisiz olmoshlar (belirsizlik zamirleri), oʻzlik olmoshi (dönüştülük zamiri).*

Olmoshlar turk tilshunosligida **zamirler** yoki **adillar** deb nomlanadi. Ular otga oʻxshash, lekin ot, sifat va ravishlardan farqli va oʻziga xos soʻz turkumidir. Bu farqililikni olmoshlar ega boʻlgan quyidagi olti xususiyatga koʻra ajratish mumkin: 1. *maʼno*; 2. *kenglik*; 3. *soʻz yasash*; 4. *egalik*; 5. *turlanish*; 6. *yordamchi soʻzlarga bogʻlanish*.

1. Maʼno jihatdan olmoshlarning alohida soʻz turkumi sifatida olinganda, ot soʻz turkumlaridan farqi oʻlaroq, maʼnoga ega boʻlmasligidir. Olmoshlar, masalan, *kalem (ruchka, qalam)*, *defter (daftar)*, *su (suv)*, *toprak (tuپroq)* kabi bir predmetning nomlari emas, hamda bir borliq, narsani bildirmaydi. Olmoshlar predmetlarni faqat koʻrsata oladi. Turk tilshunoslari qisqa va obrazli qilib olmoshlarni *aktyor* soʻzlar deb taʼkidlashadi. Chunki aktyor haqiqiy qahramon emas, uni sahnada jonlantiruvchi shaxs boʻlgani kabi olmoshlar ham predmetlarning haqiqiy nomlari emas, ularni koʻrsatuvchi soʻzlardir.

Olmoshlar bu “rol”ni ikki shaklda bajaradi: predmet yoki saxsning o‘rnida qo‘llanadi, yoki uni ko‘rsatadi. Masalan, ‘O’ olmoshi *Ahmed (Ahmad)*ni, *Ayşe (Oysha)*ni, *öğrenci (talaba)*ni, ‘Bu’ olmoshi *kitap (kitob)*ni ko‘rsatib keladi. Demak, olmoshlar ot emas, ot o‘rnida kelib, uning o‘rnini bosa oladigan so‘zlardir.

2. Olmoshlar har qanday shaxs yoki predmetning o‘rnini bosa olsa-da, o‘zlari so‘z sifatida mustaqil ma’noga ega bo‘lmasdan turib, katta imkoniyatlarga ega so‘zlardir. Birgina *o* yoki *bu* olmoshi yuzlab, minglab predmetlarni ko‘rsata oladi. Masalan, *kitap* mustaqil ma’noga ega bo‘lgan bir ot, ammo u bor yo‘g‘i bitta predmetni ifodalay oladi. Lekin *bu* olmoshi ma’nosiz bo‘la turib, *kitap*ni ham, *defteri*ni ham, yoki boshqa narsalarni ham ifodalash qobiliyatiga egadir.

3. Olmoshlarning ot turkumidan yana bir farqi so‘z yasalishi uchun qulay emasligidir. Olmoshlardan faqat *ben* va *sen* so‘zlari asosida bir-ikkita so‘z yasalishi mumkin: *ben-lik*, *sen-li*, *ben-siz*, *ben-cil*, *benimsemek (fe’l)* kabi. Ammo, ushbu yasovchi qo‘shimchalarni boshqa olmoshlarga qo‘shib yangi so‘z yasashning iloji yo‘q.

4. Olmoshning ot turkumidan boshqa bir farqi, egalik qo‘shimchalarini olmasligidir. Albatta, bunda ba’zi istisno holatlar bor. Olmoshlar turlanganda o‘zak o‘zgarishi mumkin: *ben - bana*, *sen - sana* kabi (holbuki, turk tili qo‘shimcha qo‘shilib, so‘z va shakl yasaluvchi til bo‘lgani uchun turlanishlar asnosida o‘zak o‘zgarimasligi kerak. Bu borada so‘z turkumlari ichida faqat olmosh istisnolarga ega).

5. Olmoshlarning ot turkumidan yana bir farqi uning yordamchi so‘z turkumlariga bog‘lanayotganda qo‘shimcha olishidir. Masalan: *taş gibi*, *su için* deymiz, lekin *ben gibi*, *o için* deyish xato. To‘g‘ri shakli *benim gibi*, *senin için* dir.

Sanab o‘tilgan xususiyatlar olmoshlarning ot turkumidagi so‘zlar ichida o‘ziga xos o‘rni borligini ko‘rsatadi. Ammo, qanchalik farqli bo‘lmasin, olmoshlar ot jinsidagi so‘z turkumi hisoblanadi. Chunki, olmoshlar ot turkumidagi so‘zlar singari ma’lum bir predmetni bildiradi, otlar kabi turlanadi (*ben-den*, *bu-nu*), so‘z birikmalari va gapda ot kabi turlangan shaklda kelib, ot kabi vazifa bajaradi.

Turk tilida olmoshlarning quyidagi turlari ajratiladi: *kishilik olmoshlari*, *o‘zlik olmoshi*, *ko‘rsatish olmoshlari*, *so‘roq olmoshlari*, *gumon olmoshlari*, *bog‘lovchi olmoshlar*.

Kishilik olmoshlari (*shahs zamirleri*) shaxslarni bildiruvchi soʻzlardir. Kishilik olmoshlari uchta: *soʻzlovchi, tinglovchi, ismi tilga olingan shaxs*. Ular grammatikada *birinchi shaxs, ikkinchi shaxs, uchinchi shaxs* deb ataladi. Shaxslar birlikda va koʻplikda boʻladi. Shunga koʻra uchta birlik va uchta koʻplik shaxs ajratiladi:

Birlik: 1- shaxs (ben) - soʻzlovchi; 2- shaxs (sen)- tinglovchi; 3- shaxs (o) - ismi tilga olingan.

Koʻplik: 1- shaxs (biz) - soʻzlovchilar; 2-shaxs (siz) - tinglovchilar; 3- shaxs (onlar) - ismi tilga olinganlar. Koʻplik 3-shaxsda -n- tovushi orttiriladi (o-n-lar).

Olmoshlarning turlanishi. Turlanish chogʻida olmoshlarda oʻzaklar oʻzgarishi mumkin:

Bosh kel.	<i>ben sen o biz siz onlar</i>
Qar-ch kel.	<i>benim senin onun bizim sizin onlaring</i>
Joʻnal. kel.	<i>bana sana ona bize size onlarga</i>
Tush. kel.	<i>beni seni onu bizi sizi onlari</i>
Oʻr.-p. kel.	<i>bende sende onda bizde sizde onlarda</i>
Chiq. kel.	<i>benden senden ondan bizden sizden onlardan</i>
Tenglik shakli	<i>bence sence onca bizce sizce onlarca</i>

Qaratqich kelishigida turgan *benim* va *bizim* shakllari istisno holatdir. Bu kelishikning qoʻshimchasi *-in, -in* boʻlsa-da, *ben* va *biz* olmoshlariga qaratqich kelishigi *-im* shaklida qoʻshiladi: *benim, bizim*. Bu holat 1-shaxs egalik qoʻshimchasi *-m* ning taʼsirida yuz bergan. Birlik va koʻplik 3-shaxslardagi *-n* esa *ben* va *sen* olmoshlaridagi *-n* ning ularga koʻchib oʻtishi natijasida yuzaga kelgan.

Joʻnalish kelishigida ham olmoshning oʻzagi oʻzgargan. 1- va 2-shaxslar 3-shaxsga *-n* tovushini bergan, bunga mos ravishda 3-shaxs ham 1- va 2-shaxsda undoshni qalinlashtirgan. Bu turlanish bugungi kunda shevalarda xuddi ilgari boʻlganidek, jarangsiz (*sağır*) *-n (ng)* olgan: *banga, sanga, onga*. Buning sababi bugungi joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi *-a, -e* ning aslida *-ga, ge* shaklida boʻlganligidir. Gʻarbiy turkchaga oʻtish chogʻida joʻnalish kelishigi shaklining *g (gt)* tovushi tushgan. Faqat olmoshlarda bu tushish yuz bermasdan *n* va *g* birlashib, jarangsiz *n (ng)*ga aylangan, yaʼni *banga, sanga* eski *ben-ge, sen-ge* shakllaridan yuzaga kelgan.

Ortiqcha *-n* tovushi o'rin-payt, chiqish kelishigi va tenglik shaklida kelishigida ham (3- shaxs) ko'zga tashlanadi.

Kishilik olmoshlarining yordamchi so'zlarga bog'lanishi. Kishilik olmoshlari otlardan farqli o'laroq. *ile, ichin, gibi, kadar* kabi yordamchi so'zlarga qaratqich shaklida bog'lanadi: *benimle, seninle, onunla, bizimle, sizinle, onlarla* kabi. Og'zaki nutqda uchraydigan *benle, bizle, senle, sizle* kabi shakllari noto'g'ri. ammo hozirgi paytda turk tilining shevalarida uchraydi.

Bu olmoshlarni *benim gibi, senin gibi, onun gibi, bizim gibi, sizin gibi, onlar gibi* shaklida qo'llash to'g'ri. Og'zaki nutqda ko'p uchraydigan *ben gibi, sen gibi* kabi shakllar ham nutq me'yorlariga zid hisoblanadi.

O'zlik olmoshlari (dönüşlülük zamirleri) turk tilshunosligida kishilik olmoshlarining bir shakli sifatida qabul qilinadi. Ular asl kishilik olmoshlaridan kuchliroq ifodaviylikka ega bo'lib, yakka holda asl kishilik olmoshlarining o'rnini bosa oladi. O'zlik olmoshlari kishilik olmoshlari bilan birgalikda qo'llanishi ham mumkin: *ben yaptım, kendim yaptım, ben kendim yaptım* kabi. Og'zaki nutqda *benim kendim yaptım* shakli ham qo'llanadi. Bu yerda *kendim* so'zi ot vazifasini bajaradi.

O'zlik olmoshi **kendi** so'zining egalik qo'shimchasi olgan shakllaridan iboratdir: *kendim, kendin, kendisi, kendimiz, kendiniz, kendileri* kabi. *Kendi* so'zi yakka holda o'z ma'nosida keluvchi bir otdir: *kendi elim (o'z qo'lim), kendi gözün (o'z ko'zing)*.

Birlik 3-shaxsning to'g'ri shakli *kendisi* dir. *Kendi* so'zining oxiridagi *-i* tovushi egalik qo'shimchasi deb faraz qilinib, so'zni tejash maqsadida *onun kendi, kendi kendine* kabi shakllar ham qo'llanadi (to'g'ri shakli *onun kendisi, kendi kendisine*).

O'zlik olmoshining turlanishi quyidagicha:

	1. şahıs		2. şahıs		3. şahıs	
	teklik	çokluk	teklik	çokluk	teklik	çokluk
yahın hâl	kendim	kendi- miz	kendin	kendiniz	kendi kendisi	kendileri
ilgi hâli	kendimin	kendi- mizin	kendi- nin	kendinizin	kendinin kendisinin	kendi- lerinin

belirtme hâli	kendimi	kendi-mizi	kendini	kendinizi	kendini kendisini	kendilerini
yaklaşma hâli	kendime	kendimize	kendine	kendinize	kendine kendisine	kendilerine
bulunma hâli	kendimde	kendimizde	kendinde	kendinizde	kendinde kendisinde	Kendilerinde
uzaklaşma hâli	kendimden	kendimizden	kendinden	kendinizden	kendinden kendisinden	kendilerinden
vasıta hâli	kendimle	kendimizle	kendinle	kendinizle	kendiyle kendisiyle	kendileriyle
eşitlik hâli	kendimce	kendimizce	kendince	kendinizce	kendince kendisince	kendilerince

Ko'rsatish olmoshlari (*Işaret zamirleri*) predmetlarning joylashgan o'rnini ko'rsatadi, ularga ishora qiladi. Turk tilida ko'rsatish olmoshlari quyidagilar: *bu, şu, o, bunlar, şunlar, onlar. Bu (bunlar) yaqinni, şu (şunlar) o'rtacha yaqinlikni, o (onlar) esa uzoqni ishora qilib ko'rsatadi. Ko'plik shakllarida -ler (-lar) qo'shimchasidan oldin -n- tovushi orttiriladi: bu-n-lar, şu-n-lar. Ko'rsatish olmoshlarining kelishik qo'shimchalari olib turlanishi quyidagicha:*

Bosh kel.	<i>Bu şu o bunlar şunlar onlar</i>
Qaratq. kel.	<i>bunun şunun onun bunların şunların onların</i>
Jo'nal. kel.	<i>buna şuna ona bunlara şunlara onlara</i>
Tushum kel.	<i>bunu şunu onu bunlari şunlari onlari</i>
O'r.-p. kel.	<i>bunda şunda onda bunlarda şunlarda onlarda</i>
Chiqish kel.	<i>bundan şundan ondan bunlardan şunlardan onlardan</i>
Tengl.shakli	<i>bunca şunca onca bunlarca şunlarca onlarca</i>

Bu, şu, o ko'rsatish olmoshlariga tushum kelishigida *-n-* orttiriladi: *bu-n-u, şu-n-u, o-n-u*, ko'plik shaklida esa faqat *-ı* qo'shimchasi qo'shiladi: *bunlari, şunlari, onlari*. Turk tilining shevalarida ko'rsatish olmoshining birlik shaxslaridagi *-n* jarangsizdir: *bunga, şunga, onga*. Ularda ham kishilik olmoshlaridan o'tgan yasama *-n* ga duch kelinadi. Aks holda ular *buya, şuya, oya* bo'lishi mumkin edi.

O'rin-payt, chiqish va tenglik shakllarida ham *-n* tovushiga duch kelinadi. Ko'rsatish olmoshlarining tenglik shakllari hozirgi zamon

turk tilida ko‘p qo‘llanilmaydi. Ulardan eng ko‘p qo‘llanadigani *bunca* dir. Tenglikni ifodalash uchun *göre, kadar* kabi yordamchi so‘zlar qo‘llanadi: *buna göre, bu kadar, şuna göre, şu kadar* kabi.

Ko‘rsatish olmoshlarining *bura, şura, ora* shakllari yo‘nalishni ifodalovchi shakllarga o‘xshaydi, lekin bu aniq xulosa emas. Ularning *bu ara, şu ara, o ara* birlashmalaridan yuzaga kelganligi faraz qilinadi. *Bura, şura, ora* so‘zlari kelishik qo‘shimchalari olib turlanadi va gapda ot vazifasida qo‘llanadi. Shu bois mutaxassislar bu so‘zlarni ot deb ham atashadi: **Buradan taşınmalısınız (Bu yerdan ko‘chib ketishingiz kerak).** **Oralar yazın çok sıcak olur (U yerlar yozda juda issiq bo‘ladi)** kabi.

Ko‘rsatish olmoshlarining yordamchi so‘zlar bilan birgalikda qo‘llanilishi. Ko‘rsatish olmoshlari ham *ile, için, gibi* singari yordamchi so‘zlarga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi vositasida bog‘lanadi: *bununla (bunun ile), onlarla, bunun için, şunlar için, onun gibi, bunlar gibi* va h. Og‘zaki nutqda *bu gibi, şu gibi, o gibi* singari qaratqich kelishigi qo‘shimchasi olmagan shakllar ham qo‘llanadi, faqat bunday shakllar *böyle, şöyle, öyle* so‘zlarining o‘rnida va biroz farqli ma‘noda keladi.

Ko‘rsatish olmoshlari *kadar* so‘ziga ikki shaklda bog‘lanadi: *bunun kadar, şunun kadar* yoki *bu kadar, şu kadar, o kadar* kabi.

So‘roq olmoshlari (*soru zamirleri*) predmetlarni so‘roq ma‘nosida ko‘rsatuvchi shakllardir. Predmetlarni so‘rash uchun ikki xil so‘roq olmoshi qo‘llanadi: *kim, ne (kimler, neler)*. *Kim* so‘roq olmoshi turk tilida insonga nisbatan qo‘llanadi: *kim geldi? kimi seviyor?* kabi. *Kim* so‘roq olmoshi ham *ile, için, gibi* kabi yordamchi so‘zlarga qaratqich kelishigi qo‘shimchasi vositasida bog‘lanadi: *kiminle (kimin ile), kimin için, kimin gibi* kabi. Og‘zaki nutqdagi *kim-le* va *kim için* shakllari to‘g‘ri emas.

Ne so‘roq olmoshi turk tilida insondan tashqari barcha jonli (jumladan, hayvon va hasharotlar) va jonsiz predmetlarga nisbatan qo‘llanadi: *Sütü ne içti? (Sütü kedi içti). Neyi götürdün? (Köpeği götürdüm)* kabi. *Ne* olmoshining egalik va qaratqich shakllarida bir istisno holatining mavjudligi yuqorida ta‘kidlangan edi: *ne-y-i-m. ne-m* (egalik) va *ne-y-i-n, ne-nin* (qaratqich) kabi. Egalikda *nesi*

shaklidan ko'ra *neyi* shakli afzal ko'riladi. Qolgan shakllar aralash qo'llanaveradi. *Ne* olmoshining jo'nalish kelishigi shakli *neve* (*neyine*) dir (*Neyine gıiveniyorsun*). Uning asosida yuzaga kelgan *niye* so'zi esa yordamchi so'z, bir so'roq ravishidir. Ushbu so'roq olmoshining chiqish kelishigi shakli *neden* dir. Uning *neden* (*niçin*) shakliga ega bo'lgan ikkinchi ko'rinishi so'roq olmoshi emas, yordamchi so'zdir. *Ne* olmoshi vositasida bir nechta qo'shma shakllar yasalgan: *ne kadar*, *niçin* (*ne için*) *nasıl* (*ne asıl*) kabi. *Ne* olmoshi o'zidan keyin keluvchi fe'llar bilan ham *nasıl* ravishi kabi qo'llanadi (*ne yapayım?*). Undan tashqari, unli tovush bilan boshlangan so'zlar bilan ham oson birlashadi: *niçin*, *nolur* (*ne olur*), *nideyim* (*ne edeyim?*) kabi.

Kim va *ne* so'roq olmoshlarining ko'plik shakllari ham mavjud: *Kimler geldi? Neler oldu?* Asl so'roq olmoshlari bo'lgan *kim* va *ne* dan boshqa so'roq sifatlarining egalik shakllari ham so'roq olmoshi sifatida qo'llanishi mumkin: *hangisi*, *kaçı*, *kaçıncısı* kabi.

Gumon olmoshlari (*belirsizlik zamirleri*) predmetlarni noaniq shaklda ko'rsatadi. Hozirgi turk tilida *kimse* va *herkes* so'zlari asl gumon olmoshlaridir. Gumon ma'nosi egalik shakllari orqali ham ifodalanadi: *biri*, *birisi* (*biri*), *birileri* (*ba'zilar*), *başkası* (*boshqasi*), *başkaları* (*boshqalari*), *hepsi* (*hammasi*), *bazısı* (*ba'zisi*), *kimi* (*ba'zi*), *hepimiz* (*hammamiz*), *bir kaç* (*bir nechitasi*), *bir çoğu* (*bir nechitasi*), *her biri* (*har biri*), *hiç biri* (*hech qaysi*) kabi. *Falan* (*falon*), *filan* (*pismadon*), *falanca* (*falonchi*), *bir şey* (*bir narsa*) so'zlari ham alohida qo'llanganda gumon olmoshi vazifasini bajaradi.

-ki sifat va olmosh yasovchi qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar ham gumon olmoshlari singari qo'llanadi: *öteki* (*boshqa, narigi*), *beriki* (*berigi*), *deminki* (*haligi*), *alttaki* (*quyidagi*), *dağdaki* (*tog'dagi*) kabi.

Bog'lovchi olmoshlar (*bağlama zamirleri*) ikki so'zni ko'rsatish ma'nosida bog'laydigan so'zlardir. Eski turk tilida faqat *kim* bog'lovchi olmoshi qo'llangan: *Sen kim gelesin meclise bir yer mi bulunmaz? (Sen ki kelursan majlisga, joy topilmaydimi?)* Öyle nara attı kim dağ taş yankılandı (*Shunday na'ra tortdi ki, tog'u-tosh aksado berdi*). Usmonli turkchasidagi *kim* so'roq olmoshi o'z o'rnini **-ki** qo'shimchasiga bergan: *Bir söz dedi canan ki, keramet var içinde (Jonon bir so'z aytdi ki, karomat bor ichida)*.

Ki bog'lovchi olmoshi turk tilida yakka holda ma'no kasb etmasdan, ham bog'lovchi, ham bog'lovchi olmosh vazifasini bajaradi: Bir eser yazdi ki, görmeyin (Bir asar yozdi ki, hech ko'rmang). Bir ses ki, hayran kalirsın (Bir ovoz ki, hayron qolasan). Öyle güzel ki, insani büyüüyor (Shundayin go'zal ki, insomni sehrlab qo'yadi) kabi.

ki bog'lovchi olmoshi o'zidan oldin kelgan unsur, otni ko'rsatib keladi va uning o'rnini egallaydi: Bir yer ki, sevenler sevilenlerden eser yok (Bir joyki, sevganlar va sevilganlardan asar ham yo'q). Bu gapdan ki ni olib tashlaydigan bo'lsak, birikma sevenler sevilenlerden eser olmayan bir yer (sevganlar va sevilganlardan asar ham bo'lmagan bir joy) shaklidagi sifatdosh oborotli gap yuzaga keladi.

Savol va topshiriqlar – Sözlü ve yazılı sınav sorulari

1. *Olmosh va uning turlari (Zamir ve çeşitleri)*
2. *Kishilik olmoshlari (Şahıs Zamirleri)*
3. *So'roq olmoshlari (Soru Zamirleri)*
4. *Ko'rsatish olmoshlari (İşaret Zamirleri)*
5. *Belgisiz olmoshlar (Belirsizlik Zamirleri)*
6. *O'zlik olmoshi (Dönüşlülük Zamiri).*

1.6.RAVISH (ZARF)

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi ravish va uning ma'no turlari haqida tushuncha hosil qilish.

Tayanch tushunchalar: *ravish va uning turlari (zarf ve çeşitleri), ravishlarning ma'no va tarkib xususiyatlari (zarfların anlam ve yapı özellikleri), juft so'zlar shaklidagi ravishlar (çift kelime (tekrar) şeklinde olan zarflar), payt ravishlari (zaman zarfları), o'rin ravishlari (yer ve yön zarfları), miqdor ravishlari (miktar zarfları; azlık çokluk zarfları), so'roq ravishlari (soru zarfları).*

Gapda fe'llar va sifatlardan oldin kelib, ular ifodalagan ish-harakat yoki predmet belgisini izohlovchi, o'zgartiruvchi so'zlar turk tilshunosligida ravishlar (*zarflar*) deyiladi. Turk tili grammatikasi kitoblarida ravishlar *belirteçler* ham deyiladi. Turk tilshunosligida ravishlarning joy, vaqt (zamon), holat va miqdor nomlari ekanligi aytiladi (*geç kalmak, pek çirkin, az tuzlu*).

Turk tilshunosligida sifatlar yakka holda bir ot deb qaralgani kabi, ravishlar ham alohida olinganda bir ot bo'lishi, faqat boshqa so'zlar bilan munosabat holatidagina u ot yoki sifat emas, ravish o'laroq namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Buning boisi, ravishlarning ot yoki fe'l kabi nutqda alohida qo'llanmasligidir. Turk tilida *hemen (hamon, darrov)*, *şimdi (hozir, endi)*, *çok (ko'p)*, *az (oz)*, *az çok (ozu ko'p)*, *biraz (biroz)*, *son derece (so'ng darajada)*, *sabaha karşı (erta tong)*, *önce (oldin, ilgari)*, *sonra (so'ngra, keyin)*, *çabuk (tez)*, *hızlı (tez, jadal)*, *yavaş (sekin, asta)*, *ileri (oldin, olg'a)*, *birden bire (birdaniga)*, *ansızın, tesadüfen (kutilmaganda, tasodifan)* va b. bir qancha so'zlar ravishlar hisoblanadi.

Ravishlarning birikmalarda sifat va ravishlardan oldin kelib, ularning ma'nosini o'zgartirishi aslida sifatga xos xususiyatdir: *çok güzel yazı, pek çok güzel* birikmalaridagi *çok* va *pek* so'zlarini ba'zi olimlar ravish deb, ba'zilari esa sifat deb atashgan.

So'z birikmasi ichida ravishlar fe'l (*yukarı çıkmak*) yoki sifatning (*pek güzel*) ta'siri ostida bo'ladi. Ravishlar asl fe'ldan oldin kelib, unga ta'sir etib, ma'nosini o'zgartiradi hamda fe'l bilan munosabat o'rnatishda tuslanmaydi yoki turlanmaydi. Masalan: *ileri gitmek* birikmasida *ileri* so'zi ravish bo'lsa, *ileriye gitmek* birikmasida *ileriye* so'zi ravish emas, kelishik qo'shimchasi olgan ot hisoblanadi. Ravishlar kelib chiqishi, tuzilishi va vazifalariga ko'ra guruhlariga ajratiladi:

- I. Kelib chiqishiga ko'ra (*Kökenleri bakımından zarflar*);
- II. Tuzilishiga ko'ra (*Yapı bakımından zarflar*);
- III. Vazifasiga ko'ra (*İşlevleri bakımından zarflar*);

Ravishlar kelib chiqishiga ko'ra (*Kökenleri bakımından zarflar*) ikki turga bo'linadi: 1. Sof turkcha ravishlar; 2. O'zlashgan ravishlar;

1. *Sof turkcha ravishlar*. Turkcha ravishlar son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi. Ular jumlasiga *açık açık, açıkça, artık, yenibaştan, birden, birazdan, pırıl pırıl* va b. kiradi.

2. *O'zlashgan ravishlar*. O'zlashgan ravishlar uch xil bo'ladi:

a) arab tilidan o'zlashgan ravishlar: *aynen, bazen, daima, evvela, hâlâ, gayri, hayran havran, ilelebet, nihayet, rahat* va b. Bulardan ba'zilari turk tilida sifat vazifasida ham qo'llaniladi.

b) fors tilidan o'zlashgan ravishlar: *bari, beraber, beyhude, çabuk, hemen, hemen hemen, henüz* va b.

c) arabcha-forscha, forsch-a-arabcha aralash ravishlar va ushbu tillardan o'zlashtirilib, turkcha so'z va qo'shimchalar bilan kengaytirilgan holda yasalgan ravishlar: *belki, sabahlari, geçen hafta, geç vakit, her fırsatta, farkına varmadan, hayretle, hiç durmadan* va b.

II. Tuzilishiga ko'ra (*Yapı bakımından zarflar*) ravishlar sodda (tub) ravishlar (*yalın zarflar*) va yasama ravishlar (*türemiş zarflar*) ga ajratiladi.

1) Sodda (tub) ravishlar (*yalın zarflar*). Tub ravishlar bir so'zdan iborat bo'lib, sof turkcha yoki o'zlashgan bo'lishi mumkin. Tub ravishlar, asosan, payt va tarz ravishlari bo'lib, ulardan bir qismi boshqa so'z turkumlaridan o'tgan). Bunday ravishlarning ikki guruhi ajratiladi: 1. Asl ravishlar (*asil zarflar*): *aynen, bazen, sonra, şimdi* va b. 2. Boshqa so'z turkumlaridan (asosan, sifatlardan) o'zlashtirilgan ravishlar (*alınma zarflar*): *iyi, kötü, güzel, büyük, hızlı* va b. Sodda ravishlar holatni ifodalaydi: *âdeta, akşam, ancak, artık, asla, bazen, beraber, çabuk, derhal, elbette, geri, güzel, hâlâ, hemen, hiç, muhakkak, mutlaka, önce, öyle, resmen, sonra, şimdi, tekrar, uzak, yumuşak, yarın, yazın, yaz* va b. Misollar: *Akşam babası fabrikadan geç dönmüş. Yarına kadar ancak yetişir. Bu şimdilik böyle gidecek. Beş altı yıl çabuk geçer. Derhal gitmeliyiz. Annemi hiç hatırlamıyorum. Ahmet çarşı'dan yeni dönmüştü.*

2) Yasama ravishlar (*türemiş zarflar*) boshqa turkumga oid so'zlarga yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida yasaladi: a) otdan yasalgan ravishlar; b) fe'ldan yasalgan ravishlar.

Otdan yasalgan ravishlar ham ikki guruhga ajratiladi: Otdan turlash qo'shimchalari qo'shib yasalgan ravishlar; Otdan ot yasovchi qo'shimchalar qo'shib yasalgan ravishlar.

Otdan turlash qo'shimchalari qo'shib yasalgan ravishlarga ot, sifat yoki olmosh turkumiga oid so'zlarning kelishik, egalik yoki ko'plik qo'shimchasi qo'shilib qoliplashishi natijasida yasalgan ravishlar kiradi. Bularndan ba'zilar *-ra, -arı* qo'shimchalari vositasida yasalgan: *sonra, dışarı, içeri, ileri* yoki *-leyin* qo'shimchasi qo'shilib qoliplash: **akşamleyin, geceleyin, sabahleyin; -in* qo'shimchasi

qo‘shilib qoliplashgan: *ilkin, yazın; -ca* tenglik shakli qo‘shimchasi qo‘shilib qoliplashgan: *bence, delice, iyice, sertçe* kabi. Misollar: *Sonra torbadan bir şey çıkarıp, yere koydu. Babası onu dışarı çıkardı. Ağa yukarı çıkmıştı, fakat onun hiç bir şeyden haberi yoktu* kabi.

Türk tilida *-in* vosita shakli qo‘shimchasi olib yasalgan ravishlar ham talaygina: “*Çingeneye beylik vermişler, ilkin babasını asmış*”. *-in* vosita shakli qo‘shimchasi *-siz* sifat yasovchi qo‘shimchadan keyin kelib bir nechta holat ravishi yasagan: *Sesler duyulmaz olur, solar renkler ansızın. Konuşmasını kesmeksizin gazeteye bir göz atıyor.*

Rasvishlar *-ca* tenglik shakli qo‘shimchasi olib ham yasaladi: *Yemeğinizi beraberce yiyin. Reis doğruca odaya yöneldi. İhmet kavramını gereğince kavrayamıyordu. -ca (-ce)* tenglik shakli qo‘shimchasidan keyin 3-shaxs egalik va jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining birikuvidan tarkib topgan *-sına (sine)* qo‘shimchasi qo‘shilib yangi ravish yasovchi qo‘shimcha ham hosil qilinadi: *Onu delicesine seviyordu. Yaptıklarından utanmışcasına yere bakıyor.*

Türk tilida chiqish, o‘rin-payt va jo‘nalish kelishigi qo‘shimchalari bilan vosita, egalik va ko‘plik qo‘shimchalari qoliplashishi natijasida ravishlar yasalgan. Bular ichida qoliplashuvga ko‘proq moyil bo‘lgani *-dan* chiqish kelishigi qo‘shimchasidir: *Çocuklar aklıktan ağlardı. Birazdan babam gelir. Şu an birden aklıma sen geldin. Seni coktan izliyorum.*

Ba‘zi ravishlar chiqish va jo‘nalish kelishigi qo‘shimchalarining birga qo‘llanishi yo‘li bilan yasaladi: *açıktan açığa, ağızdan ağıza, baştan başa, birdenbire, doğrudan doğruya* kabi: *Düşündüklerini açıktan açığa anlattı. Haber ağızdan ağıza dolaştı. Birdenbire soru sormaya başladı.*

Rasvishlar *-da* o‘rin-payt kelishigi hamda *-(y)a* jo‘nalish kelishigi qo‘shimchalari vositasida ham yasalgan: *Gün boyu avakta bekledi. Seninle böylesine konuşmam. Çekindiği için inadına ağabey demedi. Övlesine sordu.*

Rasvishlar *-la* vosita shakli qo‘shimchasi yordamida ham yasalgan: *Çocuk hızla yerinden kalktı ve öfkeyle bana baktı. Filmi havretle seyrettik. Duygularını ictenlikle anlatıyor. Kendisini rahmetle anıyoruz. Zamanla her şey düzelir* kabi.

Ravishlar sifat yasovchi qo'shimchalar vositasida yasalishi mumkin: *Sessizce evden çıktı. Narin adlı yemek incecik kesilmiş hamur ve ufacık doğranmış etten yapılır. Zaman cabucak geçiyor. Evden yavaşca çıkıktık.*

Turk tilida *-ar* qo'shimchasi vositasida yasalgan son shakllari (*üleştirme sayı sıfatları*) ham gapda ravish vazifasida kelishi mumkin: *Doktor hastalarını birer birer dinledi. Çocuklar üçer üçer sıra oluşturdular. Kolileri teker teker yerleştirin kabi.*

Ravishlar otdan sifat yasovchi *-li* va *-siz* qo'shimchalari vositasida ham yasalgan: *Babam bu hayatta onurlu yaşadı. Onu haksız suçladılar.*

Turk tilida *-dir* qo'shimchasi vositasida yasalgan ravishlar: *birkaç gündür, çoktandır, günlerdir* kabi. Kuchaytiruv sıfatlari shaklida bo'lgan ravishlar: *apaçık, besbelli, büsbütün, dimdik, düpedüz, dosdoğru, sapasağlam, sımstı* va b.

Ravishlarning ma'no guruhlari (Zarflarin Anlam Çeşitleri)

Turk tilshunosligida ravishlarning, asosan, to'rt turi ajratiladi: o'rin ravishlari (*yer, yön zarfları*), payt ravishlari (*zaman zarfları*), holat ravishlari (*hal zarfları*), miqdor ravishlari (*azlık-çokluk zarfları*). Undan tashqari, ba'zi turk tilshunoslari ravishlarning beshinchi turi – so'roq ravishlari (*soru zarfları*) ni ham ajratadilar.

O'rin ravishlari (*yer, yön zarfları*) joy, makonni ifodalovchi so'zlar bo'lib, ko'pincha ish-harakatning yo'nalishini ko'rsatadi, ya'ni o'rin ravishlari fe'llarga makon, yo'nalish ma'nosida ta'sir etib, ish-harakat, holatning makon ichidagi o'rnini bildiradi va *nerede? nereye? nereden? neresi?* so'roqlariga javob beradi.

Ravishlarning ko'pchiligi jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi shaklida bo'lgan ba'zi otlar, olmosh va ravishdoshlardir: *ileri, geri, aşağı, içeri, dışarı, uzak, ön, arka, bura, şura, ora* kabi. Bularning ichida eng faol qo'llanadiganlari: *ileri, geri, aşağı, yukarı, beri, içeri, dışarı* ravishlaridir. *Alt, yan, uzak, yakın* ravishlari kam qo'llanadi: *yan gelip yatmak, karşı gelmek* kabi. *Uzak, yakın* so'zlarida ham ba'zan bir o'rin ravishi ifodasi namoyon bo'ladi: *uzak durmak, yakın gelmek* kabi. *Ayşe içeri girdi. Araba geri yürüdü. Uçak kentin üstünden geçti* kabi.

Payt ravishlari (*zaman zarflari*) vaqt, zamon nomlaridir: *dün* (*geldi*), *yarın* (*gidecek*), *şimdi* (*yürüyor*), *kışın* (*dinlendi*) kabi. Payt ravishlari ish-harakat va uning yuz berishini zamon ichida ko'rsatadi. Payt ravishlari sirasiga, asosan, *dün* (*kecha*), *bugün* (*bugun*), *yarın* (*ertaga*), *şimdi* (*hozir*), *gece* (*tun*, *kecha*), *gündüz* (*kunduz*), *yazın* (*yozda*), *demin* (*hali*, *boya*), *önce* (*oldin*, *ilgari*), *sonra* (*songra*, *keyin*), *erken* (*erta*), *kışın* (*qishda*), *yine* (*yana*), *sabah* (*ertalab*), *geceleyin* (*kechasi*, *kechalab*), *şimdilik* (*hozircha*), *artık* (*endi*), *eskiden* (*qadimdan*, *oldin*) kabi so'zlar kiradi. Bu so'zlarga o'xshash o'nlarcha boshqa so'z turkumlariga oid so'zlar ham gap ichida payt ravishlari vazifasini bajarib kelishi mumkin. *Daha* (*yana*, *hali*) aslida miqdor ravishidir, lekin u turk tilida payt ravishi sifatida ham *henüz* (*hamuz*, *hali*) ravishi o'rnida qo'llanishi mumkin. *Sabahlari*, *geceleri*, *akşamlari*, *önceleri* kabi ko'plik qo'shimchasi olgan shakllar *önceden*, *sonradan*, *eskiden*, *çoktan* kabi chiqish kelishigi qo'shimchasi olgan shakllar payt ravishi hisoblanadi. Arab tilidan o'zlashgan *evvela*, *daima*, *henüz*, *hemen*, *derhal*, *bazen*, *nihayet*, *ekseriye*, *hâlen* so'zlari payt ravishlaridir.

Turk tilida fe'ning ma'nosiga payt, zamon nuqtai nazaridan ta'sir etuvchi boshqa o'nlab so'zlar ham ravishlar vazifasini bajarishi mumkin. Gaplarda ravish vazifasini bajaruvchi so'z yoki birikmani topish uchun *ne zaman?* (*qachon?*), *ne zamana kadar?* (*qachongacha?*), *ne kadar?* (*qancha (vaqt)?*), *ne zamandan beri?*, *ne zamandır?* (*qachondan beri?*) kabi savollarni berish kerak: *Ahmet ne zaman döndü?* (*Ahmed qachon qaytdi?*) *Dün gece döndü* (*Kecha kechqurun qaytdi*). *Ne zamana kadar sürecek?* (*Qachongacha davom etadi?*) kabi.

Holat ravishlari (*hal zarflari*) holat, tarz, isih-harakatning qanday, qay tarzda yuz berganligini, sabablarini, oqibat-natijalarini ifodalaydi. Holat ravishlarining soni boshqa turdagi ravishlardan ancha ko'p. Barcha sifat nomlari, tenglik, o'xshashlik va vosita shakllariga ega bo'lgan otlar turk tilida holat ravishi sifatida qo'llana oladi: *iyi* (*yapmak*), *yavaş* (*gitmek*), *kardeşçe* (*geçinmek*) kabi. Holat ravishlari, asosan, *nasıl?* *ne şekilde?* so'roqlariga javob beradi.

Holat ravishlari ish-harakatning yuz berish sababi, oqibat-natijasini ifodalaganligi uchun *nasıl?* *niye?* *niçin?* kabi so'roq

olmoshlari ham hozirgi turk tilida payt ravishlari sifatida qo'llanadi.

Böyle, şöyle, öyle turk tilida eng ko'p qo'llanadigan holat ravishlaridir.

Miqdor ravishlari (*azlık-çokluk zarfları*) ish-harakatning miqdori, darajasi, ozlik-ko'pligini ifodalaydi va *ne kadar? ne derecede?* kaç so'roqlariga javob bo'ladi. Ularning soni chegaralangan: *en, daha, pek, çok, az, biraz, eksik, fazla, gayet, hep, fevkalade, müthiş, kısmen* kabi. *Hakan çok çalıştı, ama çok az maaş aldı (Hakan ko'p ishladi, ammo juda kam maosh oldi). Dünkü maçta bizim takımımız pek güzel oynadı (Kechagi machda bizning jamoamiz juda yaxshi o'ynadi). Öğretmen konuyu daha kısa anlattı (O'qituvchi mavzuni yanada qisqa tushuntirdi)* kabi.

Miqdor ravishlaridan *en (eng)* ravishi nutqda ko'p uchrasa-da, mustaqil qo'llanmaydi. U fe'ldan emas, faqat sifat va ravishlardan oldin keladi va ma'noni kuchaytiradi. U so'z birikmasi va gap ichida yordamchi so'z kabi joy egallaydi: *en (güzel söz), en (çok çalışın)* kabi.

Daha ravishi qiyos ma'nosini ifodalaydi va fe'ldan oldin kelib, payt ravishi kabi vazifa bajaradi, ba'zan miqdorni ifodalaydi: *daha (doymadım), daha (bitmedi), daha (gelmeyecek)* kabi. Bu ravish sifat va ravishlardan oldin keladi: *daha (büyük ayakkabı), daha (çok çalışmak), daha (net konuşmak)* kabi. Bu guruhga *eksik, seyrek, sık, bol* kabi so'zlar ham kiradi: *eksik (vermek), seyrek (görmek), sık (görüşmek), bol (su içmek)* kabi. Turk tilida *ziyadesiyle, fazlasiyle, hadsız, hesapsız* kabi shakllar ham ozlik-ko'plik (miqdor)ni ifodalaydi.

So'roq ravishlari (*soru zarfları*). Fe'llar va sifatlarning ma'nolarini so'roq yo'li bilan belgilab keluvchi *ne, nasıl, nereden, niçin, neden, hani, ne biçim, ne kadar* kabi so'roq olmoshlari ba'zi turk tilshunoslari tomonidan so'roq ravishlari (*soru zarfları*) deb alohida guruhga ajratiladi: *Sence şimdi ne yapmalıyım? Anneme nasıl anlatacağız? Neden başını eğiyorsun? Bu Selime dedikleri ne biçim kız?* kabi.

Ravishlarda qiyos, kuchaytiruv va kichraytiruv (darajalanish)

Ravishlar bilan sifatlarning vazifalari o'xshash ikki alohida so'z turkumidir. Agar sifat otning belgisini bildirsa, ravish fe'l va sifatlarni

aniqlab, belgilab keladi. Shu sababdan bu ikki soʻz turkumining «eshiklari» bir-biriga ochiq va ular bir xilda shakllanib, darajalanadi. Sifatlarda boʻlgani kabi ravishlarda ham qiyos, kuchaytiruv va kichraytiruv shakllari (darajalari) mavjud.

Ravishning qiyosiy darajasi. Ravishlar va ravish sifatida qoʻllanadigan soʻzlar ifoda etilgan belgi-xususiyat yoki ish-harakatning avjiga koʻra uch darajaga boʻlinadi: *çabuk, daha çabuk (daha da çabuk), en çabuk; ileri gitmek, daha ileri gitmek, en (çok) ileri gitmek* kabi. Ravishlarda ham sifatlarda boʻlgani kabi *oddiy daraja, qiyosiy daraja (tenglik; oʻxshashlik)* va *orttirma daraja (ustunlik darajasi)* bor. Qiyosiy darajani yuzaga keltiruvchi *kadar* va *gibi* yordamchi soʻzlaridan birinchisi miqdor, ikkinchisi xususiyatga koʻra qiyoslaydi: *Osman bir at kadar hızlı yürür. Osman bir at gibi hızlı yürür* kabi. Ravishning bunday shakllari sifat darajalariga oʻxshab yasaladi: *Ozgür yemeğini en önce bitirir, Selma en sonra.*

Ravishlarda kuchaytiruv. Feʼl va sifatlardan oldin kelib, ish-harakat kuchayadi. Ular shaklan sifatning orttirma darajasiga mos keladi. Hatto bunday shakllarni sifat darajasi deyish ham mumkin: *büsbütün haksız (toʻla nohaq), güpegündüz soymak (kuppa-kunduz tunab ketmoq), dosdoğru konuşmak (toʻppa-toʻgʻri gapirmoq)* kabi.

Xuddi sifatlarda boʻlgani kabi ravishlarda ham kuchaytiruv shakli ravishlarning ikkilanishi yoʻli bilan ham yasaladi: *az az, erken erken, yavaş yavaş, güzel güzel, sabah sabah (Sabah sabah nereye böyle? – Saharmardondan yoʻl boʻlsin endi?)*. Shuningdek, turk tilida otlar ham ikkilanish yoʻli bilan kuchaytiruv ravishlariga aylanishi mumkin: *adım adım (izlemek), dükkân dükkân (dolaşmak), tane tane (saymak), paşa paşa (oturmak)* kabi.

Ravishlarda kichraytiruv. Feʼl va sifatlardan oldin kelib, ish-harakat yoki belgisining kichraytirib, ozaytirib koʻrsatilishiga kichraytiruv deyiladi. Ravishning bunday shakllari xuddi kichraytiruv sifatlari kabi soʻz negiziga *-ce, -rek, -cik, -cek* yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilib yasaladi. Kichraytiruv shakllari, sifatlari kabi darajalanadi: *Kısaca = biraz kısa = oldukça kısa = pek çok kısa*. Masalan: *Oturup, kısaca anlattı (Oʻtirib, qisqacha soʻzlab berdi). Biraz kısa yapabilir misin? (Biroz qisqa qila olasanmi?) Öğrenci konuyu oldukça uzun*

anlattı (Talaba mavzuni ancha uzoq so'zlabdi). Pek kısa olmasın (Juda ham qisqa bo'lmasin) kabi. Sifatlardan darajalangan kichraytiruv ravishlari, ko'proq *-ce* qo'shimchasi yordamida yasaladi. Ravish yasovchi *-ce* qo'shimchasi doim urg'uli bo'ladi: *uzunca konusmak, erkence kalkmak, hızlıca yürüme*k kabi.

-cek yasovchi qo'shimcha vositasida yasalgan kichraytiruv ravish shakllari ham *-ce* kabi vazifa bajaradi: *şimdicek, demincek, çabucak*, kabi. Lekin bunday shakllar nutqda kam qo'llanadi. *-cik* yasovchi qo'shimchasi vositasida yasalgan kichraytiruv shakllari turk tilida ko'p qo'llanadi: *incecik, ufacık, küçücük* kabi. *-rek* yasovchisi olib yasalgan kichraytiruv ravish shakllari ham juda kam, bor-yo'g'i bir necha so'zda uchraydi: *ufarak, ekşirek* kabi. Hozirgi zamon o'zbek tilida *-roq* yasovchisi vositasida yasalgan ravish kichraytiruv shakllari juda faoldir. Bunday shakllar turk tilida, asosan, ravishdan oldin *daha* so'zi qo'shib yasaladi: *chiroyliroq (daha güzel), yaxshiroq o'ylab ko'rmoq (daha iyi düşünmek), qisqaroq tushuntirmoq (daha kısa anlatmak)* kabi.

Savol va topshiriqlar – Sözlü ve Yazılı Sınav Soruları

1. *Ravish va uning turlari (Zarf ve çeşitleri)*
2. *Ravishlarning ma'no va tarkib xususiyatlari (Zarfların anlam ve yapı özellikleri)*
3. *Juft so'zlar shaklidagi ravishlar va ularning xususiyatlari (Çift kelime (tekrar) şeklinde olan zarfların özellikleri)*
4. *Payt ravishlari (Zaman zarfları)*
5. *O'rin ravishlari (Yer ve yön zarfları)*
6. *Miqdor ravishlari (Azlık çokluk zarfları)*
7. *So'roq ravishlari (Soru zarfları)*

1.7.FE'L (FİİL)

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi fe'l va uning turlari haqida tushuncha hosil qilish, fe'lning tuslanish tizimi, fe'l nisbatlari, mayllari va zamonlari shakllarini yasalishi haqida ma'lumot berish; fe'lning vazifadosh shakllarining o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini izohlash.

Tayanch tushunchalar: o'timli va o'timsiz fe'llar (geçişli ve geçişsiz fiiller), fe'llarning tuslanishi (fiillerin çekimi), shaxs-son qo'shimchalari (şahıs ekleri), fe'l mayllari (kipler), fe'lning buyruq, istak va shart mayl shakllari (tasarlama kipleri, 1. emir kipi, 2. istek kipi, 3. şart kipi), fe'lning keraklilik shakli (gereklilik kipi), fe'lning xabar mayli, fe'l zamonlari, fe'l nisbatlari (filin çatısı. etken ve edilgen fiiller), birgalik nisbati (işteş fiiller), o'zlik nisbati (dönüşlü fiiller), fe'lning murakkab zamon shakllari (birleşik eylem zamanları), fe'lning vazifadosh shakllari (filimsiler; yatık fiiller).

Turk tilshunosligida bajarilgan ish, harakat, holat, bo'lib o'tishni anglatuvchi so'zga fe'l (fiil) deyiladi: *gitmek, vermek, büyümek, yapmak, oturmak, durmak, uyumak, esmek* va h. Fe'llar turk tilida eylemler ham deyiladi. Eylem atamasining lug'aviy ma'nosi *ish-harakat* dir (*eylemek* – *aylamoq, qilmoq*). Fiil (fe'l, *ish-harakat*) atamasi turk tiliga arab tilidan o'zlashgan bo'lib, hozirgi zamon turk tilidagi *eylem* grammatik atamasiga sinonim hisoblanadi, lekin *eylem* atamasidan ko'ra faolroq qo'llanadi. Ta'kidlash joizki, turk tilida fe'llarning boshqa so'z turkumlaridan muhim farqi, deyarli sof turkiy so'zlar ekanligidir.

Yer yuzidagi butun jonli mavjudotlar va predmetlarning makon va zamon ichida o'z joyini o'zgartirishi, siljishiga harakat (*hareket, eylem*) deyiladi. Boshqacha aytganda, fe'llar jonli mavjudot va predmetlarning harakati, holati, bo'lishi. ish bajarishini ifodalovchi so'zlardir.

Til bilimida harakat yoki holat, voqea-hodisa yuz berishining xarakteriga ko'ra fe'llar, umumiy qilib, to'rt asosiy guruhga bo'lib ko'rib chiqiladi:

Ish-harakat fe'llari: *gelmek, almak, taşımak, koşmak, yemek*;

Holat fe'llari: *yatmak, susmak, düşünmek, uyumak*;

Bo'lish (yuz berish): *olmak, bulunmak, aşığılanmak*;

Shuningdek, fe'llarni umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan, eng katta so'z zahirasi ega bo'lgan mustaqil so'z turkumi sifatida ma'no xususiyatlari va semantik belgilariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiq:

1. Faol va aniq ish-harakatni ifodalovchi fe'llar: *gitmek, gelmek, çıkmak, yürümek, gezmek, koşmak, atmak, vurmak, yapmak*;
2. Jismoniy holatni ifodalovchi fe'llar: *uzanmak, yatmak, uyumak, durmak, oturmak*;
3. Ruhiy holatni ifodalovchi fe'llar: *üzülmek, kızmak, acımak, korkmak, sevmek, sinirlenmek*;
4. Fikrlashni ifodalovchi fe'llar: *düşünmek, anlamak, unutmak, planlamak, tasarlamak, hatırlamak*;
5. So'zlash, nutqni ifodalovchi fe'llar: *konuşmak, demek, söylemek*;
6. Tovush, ovoz chiqarishni ifodalovchi fe'llar: *bağırmaq, çağırmak, haykırmak, seslenmek, mırıldanmak*;
7. Yashash, bor bo'lish, kun kechirishni ifodalovchi fe'llar: *olmak, yaşamak, bulunmak, barınmak, geçinmek*;
8. Munosabatni ifodalovchi fe'llar: *davranmak, önemsemek, hafifsemek, evlenmek, ayrılmak, kandırmak, dolandırmak*;
8. O'zini tutish, hatti-harakat manerasini ifodalovchi fe'llar: *cesaretlenmek, kibirlenmek*;
10. Belgi, alomat, ko'rinish (namoyon bo'lishi)ni ifodalovchi fe'llar: *şımarmak, nazlanmak, gözükmek, görünmek*;
11. Faoliyat turi, mashg'ulot ma'nosini ifodalovchi fe'llar: *çalışmak, okutmak, eğitmek, öğretmek*;
12. Bir narsani qila olish, amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishni ifodalovchi fe'llar: *yapabilmek, öğrenebilmek*;
13. Olish, topish, bir narsaga ega bo'lishni ifodalovchi fe'llar: *almak, bulmak, sahiplenmek, benimsemek*;
14. Modal fe'llar: *istemek, dilemek*;

Turk tilida fe'llar tuzilishi, ma'nosi va ko'rinishiga ko'ra guruhlashtiriladi. Leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra fe'llar ikkiga bo'linadi: 1) *mustaqil fe'llar*; 2) *yordamchi fe'llar*;

Mustaqil fe'llar mustaqil ma'noga ega bo'lib, ish-harakat, holatni to'la ifodalaydi va gap ichida uning bo'lagi sifatida boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishib, ularni boshqaradi: *gezmek, koşmak, düşünmek, anlamak, konuşmak* kabi. Mustaqil fe'llar grammatik kategoriyalar, vazifadosh shakllarga ega. Yordamchi fe'llar

esa mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi va ish-harakat, holatni mustaqil ravishda ifodalay olmaydi, turli grammatik ma'nolarni ifodalash, xususan, so'z yasash va bog'lash vazifasini bajaradi: *et-, ol-, kil-, eyle-*. *Teşekkür etmek, mutlu olmak, gerekli kılmak, rahmet eylemek* kabi. Yordamchi fe'llar boshqa turkumga tegishli so'zlar bilan birgalikda qo'llanib, qo'shimcha ma'no ifodalaydi, analitik shakllar yasaydi. Undan tashqari, bu fe'llardan ba'zilari otlarga qo'shilib murakkab shakllar yasaydi: *affetmek, reddetmek, kaybolmak, mahvolmak* va h.

Fe'llarning tuzilishi (Fiillerin Yapısı)

Fe'ning noaniq shakli turk tilida *mastar* yoki *infinitif* deb ataladi. Bu shakl o'zak (yoki negiz) va *-mek (mak)* qo'shimchasidan iborat: *bilmek, bilinmek, düşündürmek, kalmak, kaldırmak, tatmak* kabi. Turk tilida fe'ning o'zagi bo'linmas (*yap-*), ammo negizi kichik ma'no birliklariga bo'linishi mumkin (*yap-tır-t-il-mak, yap-tır-t-mak, yap-tır-mak, yap-mak*).

Fe'llarning tuzilish jihatdan turlari

(Fiillerin Yapı Olarak Çeşitleri)

Fe'llar tuzilishiga ko'ra uchga bo'linadi: *A. Sodda fe'llar (yalın fiiller)*; *B. Yasama fe'llar (türemiş fiiller)*; *C. Qo'shma fe'llar (birleşik fiiller)*.

Sodda fe'llar (yalın fiiller). Sodda fe'llar hech qanday bo'lakka ajratib bo'lmaydigan oddiy shakllardir: *aç-, ak-, aş-, bak-, gör-, koy-* kabi. Lekin bu fe'llar bir biriga qo'shilib, fe'l negizini tashkil etadi. Turk tilida fe'l negizlarining aksariyat qismi bir bo'g'inlidir. Ularni tovush xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. *Unli+undosh* tovushdan tashkil topgan bir bo'g'inli fe'llar: *aç-, ağ-, al-, an-, as-, at-, eğ-, er-, es-, iç-, ov-, öp-, uç-, um-, üz-* va b.⁶

2. *Unli+undosh+undosh* tovushdan tashkil topgan bir bo'g'inli fe'llarning soni ko'p emas: *art-, ört-, ölç-,ürk-* kabi.

3. *Undosh+unli+undosh* tovushdan tashkil topgan bir bo'g'inli fe'llar turk tilidagi o'zak fe'llarning salmoqli qismini tashkil etadi: *bak-, bil-, bin-, bul-, çal-, çık-, çiz-, dik-, dur-, gez-, gül-, kaç-, kal-, koş-, kur-, küs-, piş-, san-, sil-, şiş-, tak-, tap-, tut-, vur-, yan-, yut-, yüz-* va b.

⁶ Undosh-unli tovushdan tashkil topgan bir bo'g'inli fe'llar: *de-, ye-, yu-*

4. *Undosh+unli+undosh+undosh* dan tashkil topgan bir bo'g'inli fe'llarning soni ham cheklangan: *çarp-*, *dürt-*, *kalk-*, *kork-*, *tart-*, *yırt-* va b. Ular fe'lga kuchaytiruv ma'nosi beruvchi qo'shimchani o'zak bilan birlashishi natijasida yasalgan bo'lishi mumkin.

Turk tilida iki bo'ginli so'zlarning ba'zilari fe'l negizi hisoblanadi va ajratilmaydi: *acı-*, *ara-*, *daya-*, *döşe-*, *eski-*, *okşa-*, *oku-*, *solu-*, *süpür-*, *üre-*, *üşü-*, *yala-*, *yalvar-*, *yama-*, *yasa-* va b. Aslida nisbat qo'shimchalari bilan kengaygan, hozirgi turk tilida o'zak shaklida qo'llanilmayotganligi uchun o'zak fe'l hisoblangan bir qator qotib qolgan fe'llar ham bor. Bular: *avut-*, *barın-*, *çevir-*, *dağut-*, *düşün-*, *getir-*, *kaldır-*, *kurtul-*, *sömür-*, *uyan-*, *yakış-*, *yanaş-* va b.

Yasama fe'llar (*türemiş fiiller*). Yasama fe'llar, ot yoki fe'l negiziga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish yo'li bilan yasaladi. Ular sirasiga *bekle-* (<*berk-*+*le-*>), *benze-* (<*beniz*+*e-*>), *boşa-* (<*boş*+*a-*>), *doğrul-* (<*doğ-ru*+*l-*>), *körel-* (<*kör*+*el-*>), *inan-* (<*ina*+*n-*>), *başar-* (<*baş*+*kar-*>) kabi fe'llarni kiritish mumkin.

Qo'shma fe'llar (*birleşik fiiller*). Bir ish-harakatni ifodalash yoki tasvirlash uchun yonma-yon kelgan so'z birikmalariga qo'shma fe'llar (*birleşik fiiller*) deyiladi. Qo'shma fe'llar bir so'z turkcha ot, otlashgan so'z yoki boshqa tildan o'zlashgan ot turkumiga oid so'z bilan *etmek*, *edilmek*, *olmak*, *olunmak*, *eylemek*, *kılmak*, *kılınmak*, *yapmak* yordamchi fe'llaridan birining qo'shilishi natijasida yasaladi: *affet-*, *hisset-*, *kabul et-*, *ilân edil-*, *kabul edil-*, *tercih edil-*; *kaybol-*, *gitmiş ol-*, *gelir ol-*, *gidecek ol-*; *affolun-*; *emreyle-*, *gerekli kıl-*; *anlayabil-*, *yapabil-*; *açıver-*, *bakakal-*, *süregel-*; *bekleyedur-*; *düşeyaz-* va b. Qo'shma fe'llar tuzilishi jihatdan ot + yordamchi fiil qolipida, vazifa va ma'no jihatdan esa turg'unlashgan bo'ladi.

Bulardan *olmak* yordamchi fe'li ot va sifatlar bilan birikib qo'shma fe'l shakllari yasaydi (*iyi olmak*, *baba olmak*). *Olmak* yordamchi fe'li *i-mek* fe'lga o'xshash shaklda ba'zi sifatdoshlarga qo'shilib, ish-harakatning zamoni va tarzi bilan bog'liq xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab shakllar hamda fe'lning turli vazifadosh shakllarini yuzaga keltiradi: *öğrenmiş olmak*, *gelir olmak*, *işitmez olmak*, *satacak olmak* kabi.

Qo'shma fe'llar ikki guruhga bo'linadi: 1. Ish-harakatni ifodalovchi qo'shma fe'llar; 2. Ish-harakatni tasvirlovchi qo'shma fe'llar.

1. Ish-harakatni ifodalovchi qo'shma fe'llar quyidagi xususiyatlarga ega:

a) qo'shma fe'llar *yet-, ol-, yap-, eyle-, kıl-, bulun-* yordamchi fe'llar vositasida yasaladi. Asosiy unsur hisoblangan ot oldin, yordamchi fe'l esa keyin keladi. Yordamchi fe'l tushlash vazifasini bajarib, otni fe'llashtiradi (ot + yordamchi fe'l = qo'shma fe'l): *arkadaş olmak, adam etmek, mümkün kılmak, tavsiyede bulunmak* kabi: *Aç bırakma, hırsız edersin, çok söyleme, arsız edersin (Atasözü). Seni hamamcı eden Allah, beni külhançı etmez mi? (Atasözü)*

b) turk tilida *et-, ol-, yap-, bulun-* fe'llari eng faol yordamchi fe'llar hisoblanadi: *teşekkür et-, memnun ol-, egzersiz yap-, rahmet eyle-, hazır bulun-* kabi: *Zavallı adam, derin bir ümitsizlik içinde bulunuyor. Abdal ata binince bey oldum sanır. şalgam aşa girince yağ oldum sanır (Atasözü).*

Hozirgi turk tilida *kıl-* va *eyle-* fe'llari kam qo'llaniladi: *Yasalar bunu gerek kılmaktadır. Onları mutlu kılmaya çalışıyorum. Atlar yakın eyler uzağı. Yuvamdan eyledin beni* kabi.

Yakka holda qo'llanilmaydigan va qo'llanilganda asl shaklini muhofaza eta olmagan fe'llar otlarga qo'shib yoziladi: *hallet – (hall>hal), hisset (hiss>his), kaybet (kayb>kayıp), reddet (redd>ret)* kabi: *Susmaya devam etti. Bunu hissettirmedi. Orada park içinde kaybolmustu. Bunday qo'shma fe'llarning ot unsuri sifatdosh bo'lishi ham mumkin. Sifatdosh *ol-* va *bulun-* yordamchi fe'llari bilan birlashadi: *Bu sabah geldiğimde onu givinmiş buldum. Olmak yordamchi fe'lining sifatdoshlar bilan yasagan shakllarida –miş qo'shimchali sifatdoshlar tugallangan ish-harakatni, –ir / -ar qo'shimchali sifatdoshlar davom etayotgan ish-harakatnik, -ecek qo'shimchali sifatdoshlar niyat (maqsad)ni ifodalovchi ish-harakatni, –yor qo'shimchali sifatdoshlar esa yaqin o'tgan zamonda yuz bergan, davom etayotgan ish-harakatni ifodalaydi: Sen gelmez oldun (şarkıdan). Toplantı bu şekilde bitmiş oldu. Yarın İstanbul'dan gelecek olan uçak biraz geç kalacak. Qo'shma fe'llar sifat asosida yasalishi mumkin: *mutlu olmak, başarılı olmak* kabi. Qo'shma fe'l tarkibidagi ot (sifat) so'z birikmasidan iborat bo'lishi ham mumkin: *Yemesek de, yemiş gibi olduk. Her şeyi param parca etmişlerdi.***

Ba'zi qo'shma fe'llar shakllarida *ol-, et-, kil, yap-, bulun-, basla-* yordamchi fe'llari o'rniga mustaqil fe'llar ham qo'llanilishi mumkin: *yol al-, para ye-, bo'sh ver-, ba'sh kaldır-, yol ver-, şehit düş-, türkü tuttur-, el koy-* kabi: *O gülmeve, benimle oynamaya başladı.* Bunday murakkab fe'l shakllarida joy olgan so'zlar yo ko'chma ma'noda kelgan, yo iboraga aylangan bo'ladi: *Üç gün önce çarşıda tesadüf ettiğim o kadın bugün buradaydı.*

2. Bir harakatni tasvirlovchi qo'shma fe'llar ravishdosh qo'shimchasini olgan bir fe'lga bir tasvir fe'li qo'shish yo'li bilan yasaladi. Tasvir fe'li mustaqil fe'lga imkoniyat, ehtimol, tezlik, yaqinlashuv va boshqa ma'nolarni yuklaydi (**qarang:** *qo'shma fe'llar shakllari. Ko'makchi fe'llar (Tasvir Fiilleri; Tezlik fiilleri).*

Fe'ning ko'rinishlari (Fiilin Çatısı)

Ma'lumki, gap ichida ish-harakatning amalga oshishida ot turli ko'rinishga kiradi: ta'sir ko'rsatadi, ta'sirlanadi yoki bo'lishsiz munosabatda bo'ladi. Bunga mutanosib ravishda fe'l negizi turli ko'rinishlar olib, otning gap ichidagi vaziyatini belgilaydi: *Ahmet döv-dü. Ahmet döv-ül-dü. Ahmet döv-dür-dü. Ahmet döv-me-di* kabi.

Fe'l o'zagingning tuslanishdan oldin olgan bunday shakllari uning ko'rinishi (*aspekt* yoki *çatı*) deyiladi. Turk tilida fe'l olgan ko'rinishlar turlicha (6 xil) bo'lib, ularning har biri o'z qo'shimchasiga ega va umumiy qilib, *fiilin çatısı* deyiladi. Demak, fe'ning vositasiz to'ldiruvchi (*nesne*) olish-olmasligi, yoki gap egasining holatiga ko'ra qo'shimchalarning fe'l o'zak va negiziga qo'shilib, yangi fe'l yasalishiga *çatı* yoki *görünüş* deyiladi. Fe'llar vositasiz to'ldiruvchi (*nesne*) olishiga ko'ra o'timli (*geçişli*) va o'timsiz (*geçişsiz*) bo'ladi.

Fe'llar gap egasiga ko'ra olti turga bo'linadi: 1. *bo'lishli ko'rinish (yalın görünüş) - döv-mek;* 2. *bo'lishsiz ko'rinish (olumsuz görünüş) - döv-me-mek;* 3. *passiv ko'rinish (edilen görünüş) - döv-ül-mek;* 4. *o'zlik nisbat ko'rinishi (dönüslü görünüş) - döv-ün-mek;* 5. *birgalik nisbati ko'rinishi (karşılıklı görünüş yoki işteş eylem) - döv-üş-mek;* 6. *orttirma nisbat ko'rinishi (ettiren görünüş) -döv-dür-mek* kabi.

O'timli va o'timsiz fe'llar

(Geçişli ve Geçişsiz Fiil)

Fe'l tuslanishida ish-harakat o'zak yoki negizda ifodalanadi. Fe'ldan anglashilgan harakat uni amalga oshiruvchiga yo'nalgan bo'la-

ladi. Fe'l ot (ega), yoki boshqa so'zga ta'sir etadi. Shu nuqtai nazardan fe'llar ikki asosiy guruhga ajratiladi: *o'timli* fe'llar va *o'timsiz* fe'llar. Bunga fe'lining ma'no jihatdan ham bo'linishi deyiladi. Soddaroq aytganda, ba'zi fe'llar vositasiz to'ldiruvchi oladi, ba'zisi esa olmaydi. Vositasiz to'ldiruvchi oluvchi fe'llar *o'timli*, vositasiz to'ldiruvchi olmaydigan fe'llar esa *o'timsiz* fe'llar bo'ladi. Masalan: *Barış Bey kitabı açıyor* (*Barış Bey kitobni ochyapti*) gapida *Barış Bey* ning qilgan ishi *kitab* ga ta'sir etmoqda. Shu bois *açıyor* fe'li *o'timli* dir. *Kitap* so'zi ega amalga oshirgan ishni belgilab kelgan.

O'timli fe'llar (*geçişli fiiller*). Harakati boshqasiga qaytgan, ya'ni gap ichida bir predmetga (borliqqa) ta'siri bo'ladigan fe'llarga *o'timli fe'llar* (*geçişli fiiller*) deyiladi: *kır-, çek-, ara-, bul-* kabi. *O camı kırdı. Ben kapıyı çektim. Ali bizi aradı. Eda babasını buldu* kabi.

Ta'sirni qabul qiluvchining nomi ko'pincha *kimni?* (*kimi?*) *kim?* (*kim?*), ba'zan esa *kimga?* (*kime?*) savollariga javob bo'ladi va gapda vositasiz to'ldiruvchi (*nesne*) vazifasini bajaradi: *Ali motoru getirdi* (*Ali motorni keltirdi*). *Birlikte çorba içeriz* (*Birga sho'rva ichamiz*). *Çok paraya kıymışsınız* (*Juda ko'p pul ishlatibsiz*) kabi. Misollarda fe'llarning otlarga ta'siri ko'rinib turibdi. O'timli fe'llarda harakat bilan o'sha harakatni amalga oshiruvchidan boshqa bir predmet ham mavjud. Bu vositasiz to'ldiruvchi (*nesne*)dir. Harakat o'sha predmetga qaratilgan va uni o'z ta'siri ostiga olgan, ya'ni harakat o'sha predmet ustida amalga oshirilgan. O'timsiz fe'llarda esa harakat va uni bajaruvchisidan boshqa uchinchi unsur, ya'ni ega va amalga oshiriladigan ish-harakatdan boshqa narsa (predmet) yo'q.

O'timsiz fe'llar (*geçişli fiiller*). Harakat gapning egasiga yo'nalgan fe'llarga *o'timsiz fe'llar* (*geçişsiz fiiller*) deyiladi (*yat-, kalk-, dur-*). *O yattı, kalktı, durdu* (*U yotdi, turdi, to'xtadi*) misollarida ish-harakatning boshqasiga o'tmaganligi va faqat egaga yo'nalganligi aniq ko'rinib turibdi. Demak, o'timsiz fe'llarda harakat boshqa predmetga o'tmaydi, eganing o'zida qoladi. Fe'llarning gap ichida biror bir borliq, predmetga ta'siri bo'lmaydi. Ular gap ichida *tümleç* (hol, vositali to'ldiruvchi) bo'ladi: *Arkadaşım Konya'dan geldi* (*O'rtog'im Konyadan keldi*). *Yarın evde oturalım* (*Ertaga uyda o'tiraylik*). kabi. Holat va bo'lishni ifodalovchi fe'llar, ko'pincha, o'timsiz bo'ladi:

Gündüz yazıhanede oluyorum (Kunduzlari devonxonada bo'lamam). Yemek pişti (Ovqat pishdi). Biraz daha büyümelisin (Yana ozgina o'sishing kerak) kabi.

Qo'llanish o'rni va ma'no farqiga ko'ra ham fe'llar o'timli va o'timsizga ajratiladi: *Kirlarda çiçek topladık (Qirlarda gullar terdik). Yazın biraz dinlenmişsin (Yozda bir oz dam olibsan). Yarın dağa çıkacağız (Ertaga toqqa chiqamiz)* kabi. Bunday fe'llar turk tilida o'rtoq fe'llar deyiladi. Fe'ning o'zak va negizi ish-harakatni boshlang'ich shaklda ifodalaydi. Ularning boshlang'ich holatlari *yap-, kes-, ol-, git-, ver-, otur-, uyu-* dir. Umuman, fe'llar boshlang'ich shaklda xoh o'timli, xoh o'timsiz bo'lsin, ma'lum ish bajaruvchi shaxsni talab qiladi. Shu bois passiv ko'rinish qarshisida faol ko'rinish namoyon bo'ladi: *kırılmak* emas *kırmak*.

O'timsiz fe'llarga *-dir (-tir)* qo'shimchasi qo'shilganda ular o'timli fe'llarga aylanishi mumkin: *Anne beşiğin üzerinde uyudu (o'timsiz); Anne çocuğunu uyuttu (o'timli). Yoki Kız delikanlıya güldü (o'timsiz); Kız delikanlıyı güldürdü (o'timli)* kabi.

Fe'llarda bo'lishlilik va bo'lishsizlik (Olumlu ve Olumsuz Füller)

Fe'llar *bo'lishli ko'rinish (yalın görünüş, olumlu görünüş)* yoki *bo'lishsiz ko'rinish (olumsuz görünüş)* da bo'lishi mumkin.

Fe'l o'zagining qo'shimchalar olmagan holatiga boshlang'ich ko'rinish (fe'ning noaniq shakli) deyiladi. Ular bir bo'g'inli o'zak yoki turli yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan fe'l negizlari bo'lishi mumkin: *geç-mek, yat-mak, at-mak, al-mak* kabi. Fe'ning noaniq shakli, bo'lib o'tgan ish-harakatni tasdiqlaydi, ma'qullaydi va *bo'lishli, bo'lishsiz* ko'rinishlarga ega bo'ladi. Noaniq shakl tugal ma'noni ifodalash uchun muayyan ish bajaruvchi shaxsni talab etadi.

Fe'ning bo'lishsiz shakli (olumsuz görünüş). Fe'ning bo'lishsiz shakli fe'l o'zak yoki negiziga *-me, -ma* qo'shimchasi qo'shish orqali yasaladi. Bu qo'shimcha urg'usizligi bilan harakat nomlarida uchraydigan *-me* qo'shimchasidan farqlanadi (*gel-me-di; gel-me, oku-ma-*). Fe'ning barcha ko'rinishlari ushbu qo'shimcha yordamida bo'lishsiz ko'rinish olishi mumkin: *tepmek - tepmemek, tepilmemek, tepinmemek, tepişmemek, tepindirmemek* kabi. Shu tarzda

bo'lishsiz negiz fe'l ifodalagan ish-harakatning amalga oshmaganligini bildiradi: *Düğüne gitmeyeceğiz (To'ygga bormaymiz). Kapı açılmıyor (Eshik ochilmayapti). Hasta olmadım (Kasal bo'lmadım)* kabi.

Turk tilida *değil* so'zi ham bo'lishsizlikni ifodalaydi: *değil-im (emasman), değil-diniz (emasdingiz), değil-sek (bo'lmasak)* kabi.

Fe'l nisbatlari (Fiilin Görünüşleri)

Fe'lning passiv shakli (*fillerin pasif şekilleri - edilen görünüş*). Fe'lning passiv shakli fe'l o'zak yoki negiziga *-il* qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasaladi: *O Sivas'a gönderilecek (U Sivasga jo'natiladi). Arabanın camı kırılmış (Mashinaning oynasi sinibdi)* kabi. Bu yerda bir ot ma'lum yoki noma'lum boshqa bir ot vositasida fe'lning ta'siriga uchraydi: *O Sivas'a (biri tomonidan) gönderilecek. Arabanın camı (biri tomonidan) kırılmış* kabi.

Mantiqiy egasi noma'lum bo'lgan bir olmosh bo'lgan gapni ham passiv ko'rinishdagi (majhul) fe'llar yordamida yasash mumkin: *Oradan eve gidilir (U yerdan uyga ketiladi). Bir haber gönderilir (Bir xabar yuboriladi)* kabi.

Unli yoki *-l-* tovushi bilan tugagan negizlar passiv ko'rinishda *-in* qo'shimchasi oladi (*bil-in-mek, başla-n-mak*). Shu bois ba'zi passiv va majhul nisbat ko'rinishlari adash bo'lishi mumkin: *sil-in-mek* (birov tomonidan o'chirilmoq) va *sil-in-mek* (artilmoq, o'zini o'zi (ro'yxatdan) o'chirmoq); *koru-n-mak* (biri tomonidan muhofaza qilimoq, qo'riqlanmoq); *koru-n-mak* (o'zini o'zi muhofaza qilmoq). Bir bo'g'indan iborat ba'zi fe'l o'zaklari passiv ko'rinishda ustma-ust *-in* va *-il* qo'shimchalarini olishi mumkin: *de-n-il-mek* (deyilmoq), *ko-n-ul-mak* (qo'yilmoq), *ye-n-il-mek* (yeyilmoq), *ye-n-il-mek* (yengilmoq) kabi.

O'zlik nisbati (*dönüşlü görünüş*). Fe'lning majhul nisbat shakli fe'l o'zak yoki negiziga *-in* qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasaladi va shu tarzda fe'lning ta'siri otga qaytgan bo'ladi: *Ayşe yıkandı, tarandı, giyindi (Oysha yuvindi, tarandı, kiyindi). Gripten korunmalısın (Gripdan himoyalanişing lozim)* kabi.

Bunda fe'lning ta'siri otga to'g'ridan-to'g'ri yoki vositali ravishda qaytadi. Birinchi holatda ot gapning vositasiz to'ldiruvchisi bo'ladi: *Ahmet dövündü. = Ahmet kendini dövdü (Ahmad o'zini o'zi*

urdi). *Yıkanacak mısın? = Kendini yıkayacak mısın? (Yuvinasanmi? = O'zingizni yuvasizmi?)* kabi. Bu turdagi o'zlik nisbat fe'llari nutqda faol qo'llanadi va o'timli bo'ladi. Ikkinchi holatda fe'ning ta'siri otga qaytgan bo'lish bilan birgalikda gapning boshqa bir vositasiz to'ldiruvchisi bo'ladi: *Sibel bir elbise dikiymiş. = Sibel kendisine bir elbise dikmiş (Sibel o'ziga bir ko'lak tikibdi). Bavulu yüklendim. = Bavulu kendime yükledim (Katta sumkani ustimga yukladim)* kabi. Bular o'timli fe'llar hisoblanadi.

Turk tilida fe'ning o'zlik nisbati va o'zlik olmoshlari orasida ifoda o'xshashligi (tenglik) mavjud: *Evde kapanmayınız. = Kendinizi eve kapamayınız (Uyda bekinib olmag).* *Çok şeyler yaptınmışsın. = Kendine çok şeyler yapmışsın (O'zin uchun ko'p narsa qilibsən)* kabi.

Turk tilida fe'ning o'zlik nisbati shakllari lug'atlardan keng o'rin olgan: *kaçınmak, görünmek* kabi.

Birgalik nisbati (*karşılıklı görünüş, işteş şekil*) fe'l o'zak yoki negiziga **-iş** qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasaladi. Bunda ikki shaxs yoki predmet birgalikda ish-harakatni amalga oshiradi. Shuning uchun ham bu shakl *işteş şekil* ("ishdosh" shakl) deyiladi: *Ali ile Veli görüştüler (Ali bilan Vali ko'rishdilar). O gün iki aile tanışacaktı (O'sha kuni ikki oila tanishishi kerak edi). Seninle dövüşmüş (Sen bilan do'pposlashibdi)* kabi. Bu yerda fe'ning ta'siri to'g'ridan-to'g'ri yoki vositali ravishda har ikki shaxsga qaytgan. Birinchi holatda ikki shaxs ham bir-biriga ob'ekt bo'lib xizmat qiladi: *Ali ile Veli görüştüler. = Ali Veliyi, Veli Aliyi gördü. O gün iki aile tanışacaktı. = O gün birinci aile ikincisini, ikinci aile de birincisini tanıyacaktı* kabi. Bu yerda fe'llar o'timsiz, lekin mantiqan ikki tomonli o'timli bo'ladi. Ba'zi hollarda gap ichida vositasiz to'ldiruvchi qatnashadi: *Oğuz ile Serdar bu tarlayı bölüştüler. = İkiisi aralarında böldüler (O'g'uz bilan Sardor bu dalani bo'lishib oldilar. = İkkalalari o'zaro bo'lishib oldilar). Onlar yazıyorlar. = Birbirlerine (mektup) yazıyorlar (Ular yozishadilar. = Ular bir-birlariga maktub yozadilar)* kabi.

-iş qo'shimchasi qo'shilishi orqali yasalgan birgalik nisbatining yana bir ko'rinishi turk tilshunosligida *işbirliği görünüşü*, ya'ni *hamkorlik ko'rinishi* deyiladi. Bu yerda ish-harakat birgalikda amalga oshiriladi: *Çocuklar gülüyorlardı. Kuşlar uçuyorlar* kabi.

Hozirgi zamon turk tilida *-iş* yasovchi qo‘shimchasi yordamida boshqa shakllar ham yasalgan va ularni birgalik nisbati shakli bilan aralashtirib yubormaslik kerak: *çalışmak, barışmak, yakışmak, yanlışmak, konuşmak* va h.

Orttirma nisbat (*Ettiren Görüntüs*) fe‘l o‘zak yoki negiziga *-dir-*, *-it-*, *-ir-* qo‘shimchasi qo‘shilishi orqali yasaladi. Bunda gapning egasi bevosita ish-harakatning bajaruvchisi vazifasida bo‘lmaydi va boshqa otni ish-harakatning bajaruvchisiga aylantiradi: *Saçını kestirmişsin* (*Sochingni kesdiribsan*). *Komşum ustaya bir çardak yaptırdı* (*Qo‘shnim ustaga bir chordoq yasatdi*). *Mektubu size okutacağım* (*Maktubni sizga o‘qitaman*). *Zeynep çocuğa süt içirdi* (*Zaynab bolaga sut ichirdi*) kabi. Bu gaplarda mantiqan ikki ega bor. Biri grammatik nuqtai nazardan ot-ega, ishni bajartiruvchi (yuqoridagi gapdagi *komşu* va *Zeynep*), ikkinchisi mantiqiy ot-ega (*usta, çocuk*). Ko‘pincha jo‘nalish kelishigida kelgan va gap ichida grammatik jihatdan eganing mantiqiy to‘ldiruvchisi bo‘lgan mantiqiy ega ta‘kidlanmagan bo‘lsa, bir savol yordamida yuzaga chiqadi: *Saçını kestirdim. – kimga? – Berbere* (*sartaroshga*). *Sütü içirdi. – kimga? – Çocuğa* (*bolaga*) kabi.

Bunday gaplarda grammatik vositasiz to‘ldiruvchi ishtirok etadi. Undan tashqari, orttirma nisbatda faqat ish bajarish emas, voqea-hodisaning bo‘lishi, ro‘y berishi ham mumkin: *Kadın onu güldürdü* (*Ayol uni kuldirdi*). *Şoför arabayı düştürdü* (*Shofyor mashinani to‘xtatdi*). *Bekçi ışıkları söndürdü* (*Qorovul chiroqlarni o‘chirdi*) kabi.

Turk tilida orttirma nisbat, asosan, *-dir-* qo‘shimchasi yordamida yasaladi (*döndürmek, sevdirmek, saldırmak*).

Eski turkchada fe‘lning orttirma nisbat qo‘shimchasi *-it-* va *-ir-* bo‘lgan. *-it-* qo‘shimchasi unli bilan, shuningdek, *r* va *l* sonor undosh tovushlar bilan tugagan fe‘l negizlariga qo‘shiladi. Bunday fe‘l negizlariga qo‘shilganda *-it-* qo‘shimchasidan *-i-* unlisi tushib qoladi: *belir-t-mek, otur-t-mak, kısal-t-mak, üşü-t-mek, anla-t-mak* kabi. Ba‘zi qattiq undoshlar bilan tugagan o‘zaklarga ham *-it-* qo‘shimchasi qo‘shilishi mumkin: *ak-ıt-mak, kork-ut-mak* kabi.

-ir- (*-ır-*, *-ür-*, *-ur-*) qo‘shimchasi ba‘zi bir bo‘g‘inli fe‘l o‘zaklariga qo‘shiladi: *piş-ir-mek, geç-ir-mek, yat-ır-mak, uç-ur-mak, doğ-ur-mak* kabi. Orttirma nisbat shakli gap egasining bir ishni boshqa shaxsga

bevosita yoki vositali ravishda qildirishi, bajartirishiga ko'ra ikki darajali bo'lishi mumkin: *yaptirtmak, geçirtmek* kabi. Bunday holatda gap ichida uchta ot bo'ladi (*Ayakkabımı yaptırıttım*): *Ben - hizmetçi - ayakkabıcı*. Bunda qo'shimchalar ketma-ket *-tir-* va *-ir-* + *-it-* + *-tir* shaklida keladi (*kes-tir-t-mek, doğ-ur-t-mak, kısıl-t-tir-mak*). Ushbu shakl murakkab orttirma daraja (*birleşik ettirgen eylem*) deyiladi.

Bebek uyudu (chaqaloq o'zi uxlab qolgan). Anne bebeği uyuttu (chaqaloqni onasi uxlatdi). Anne bebeği dadiya uyutturdu (onasi chaqalog'ini enagaga uxlattirdi). Bu yerda birinchi gapda ega bebek (*chaqaloq*). Ish-harakatni uning o'zi bajargan. Ikkinchi gapda esa gapning egasi chaqaloqning onasi. Bunda ish-harakat ona tomonidan chaqaloqqa bajartirilgan. Uchinchi gapda ona (gapning egasi) ishni boshqa shaxs (enaga) vositasida amalga oshirgan, ya'ni bu gapda uchta shaxs ishtirok etmoqda: *ona, enaga va chaqaloq*. Shu sababdan, murakkab orttirma daraja turk tilini o'rganuvchilar uchun qiyinchiliklar tug'diradi. Lekin, faqat turkiy tillardagina uchraydigan bunday fe'l shakli nutqni yanada ixchamlashtiradi, so'zlarning tejalishini ta'minlaydi⁷.

Ko'p vazifa bajaruvchi fe'l nisbat qo'shimchalari

Turk tilida ba'zi qo'shimchalar bir necha vazifa bajarishi mumkin. Masalan, *-l-*, *-n-* qo'shimchalari ham o'zlik, ham majhul, ham orttirma nisbat shakli yasashda qo'llanilishi mumkin: *kapı açıldı - araba yıkandı; Ahmet yoruldu - Ayşe bakandı* kabi.

Ba'zan fe'llar bir necha turli nisbat qo'shimchalari olishi mumkin. Bunday shakllar *çok çatılı eylemler (ko'p nisbatli fe'llar)* deyiladi. Misollar: *Mustafa Bey dekanla tanıştırdıldı (tanı-ş-tır-il-dı) - (Mustafa Bey dekan bilan tanıştirildi). Ahmet Bey ablasıyla görüştürüldü. (görü-ş-tür-ü-dü) - (Ahmad Bey opasi bilan uchrashtirildi)*.

⁷ Agar turk tilidagi ushbu shakl rus tilidagi muqobili bilan qiyoslansa, uning turk tilidagi nechog'li samarali ekanligiga amin bo'lamiz. Masalan: *Öğretmen öğrencilere kompozisyon yazdırıldı* gapini ruschaga shunday tarjima qilish mumkin: *Учитель заставил студентов написать сочинение (Öğretmen öğrencileri kompozisyon yazmaya mecbur etti)*. Holbuki, bu yerde hech qanday majburlash yo'q. Faqat rus tilida ushbu gapni turk tilidagi singari ixcham ifoda etish qiyin.

FE'LLARNING TUSLANISHI

(*Fil Çekimi*)

Fe'lning o'zak va negiziga shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida o'zgarishiga *tuslanish* (*fil çekimi*) deyiladi. Bunda fe'l o'zak va negizi ifoda etgan ish-harakat predmetlarga bog'lanadi. Fe'lning zamon qo'shimchalari olgan va shaxs-son qo'shimchalari olishga tayyor shakliga fe'lning negizi (*filin gövdesi*) deyiladi. Fe'l tuslanishida zamon kategoriyasi asosdir. Fe'llar tuslangan shaklda gapda kesim bo'ladi va fikrni tugallaydi. Aslida fe'l negizi turk tilida fe'lning boshlang'ich shakli sifatida faqat buyruq maylining 2-shaxsida namoyon bo'ladi: *kıl-, kes-, dur-, ol-, büyü-* kabi.

Fe'l so'z sifatida olinganda faqat uning tuslangan shakli tushuniladi: *yazıyor, götürreceğim, güvenme-yiniz* kabi. Fe'l tuslanishida kamida uch unsur mavjud bo'lishi kerak: 1. o'zak yoki negiz; 2. Shakl va zamon qo'shimchasi; 3. Shaxs-son qo'shimchasi: *gel-di-m, geçirmiş-sin*. Boshqacha aytganda, fe'l tuslanishi kamida to'rt narsa (ma'no) ni ifodalaydi: 1. harakat; 2. shakl; 3. zamon; 4. shaxs.

Tuslanuvchi fe'l shaklga, zamonga, shaxsga bog'langan bir harakat yoki holatni anglatadi. Fe'l shakllari yasovchi qo'shimchalar deganda, shaxs-son qo'shimchalari, shakl va zamon yasovchi qo'shimchalar tushuniladi. Umumaniy qilib aytganda, fe'l o'zagiga qo'shiladigan tuslanish qo'shimchalari fe'lga *zamon, shaxs, mayl, nisbat, son, so'roq, bo'lishlilik va bo'lishsizlik* kabi yangi-yangi ma'nolar qo'shadi.

Fe'llarda shaxs-son qo'shimchalari

Fe'lning oxirida turadigan egalik qo'shimchalari bo'lgan shaxs-son qo'shimchalari ish-harakatni bajaruvchi shaxsni ifodalaydi. Tugallangan bir fe'lning yasalishi uchun zamon affiksidan so'ngra shaxs qo'shimchasi qo'shiladi. Avval fe'lning o'zak yoki negizi, keyin shakl va zamon qo'shimchasi, uning ketidan esa shaxs-son qo'shimchasi keladi: *gel-miş-sin, gör-müş-sün, yap-mış-sın* kabi.

Turk tilida uch xil shaxs-son qo'shimchasi bor: 1. *Kelib chiqish jihatdan olmosh bo'lgan shaxs-son qo'shimchalari*; 2. *Kelib chiqish jihatdan egalik bo'lgan shaxs qo'shimchalari*; 3. *Kelib chiqish jihatdan buyruq mayliga oid shaxs qo'shimchalari*.

1. **Kelib chiqish jihatdan olmosh bo'lgan shaxs-son qo'shimchalari**, aslida, kishilik olmoshlari bo'lib, keyinchalik qo'shimchaga aylangan. Turk tilida otlarda bo'lgani kabi fe'l tuslanishida ham *birlik* va *ko'plik* son shakllari qo'llanadi:

Birlik 1 – shaxs: *-im* (*-im*, *-üm*, *-um*)

2 – shaxs: *-sin* (*-sın*, *-sün*, *-sun*)

3 – shaxs: --

Ko'plik 1 – shaxs: *-iz* (*-ız*, *-üz*, *-uz*)

2 – shaxs: *-siniz* (*-sınız*, *-sünüz*, *-sunuz*)

3 – shaxs: *-ler* (*-lar*)

Hozirgi zamon turk tilida 9 xil fe'l tuslanishi shaklidan 6 tasida yuqorida keltirilgan shaxs qo'shimchalari keladi: *gelir-im*, *geliyorsun*, *gelecek*, *gelmiş-iz*, *gelmeli-siniz*, *gele-ler* kabi. 3-shaxs birlik shakli qo'shimcha olmaydi va tugallangan ma'no kasb etish uchun alohida shaxs qo'shimchasi olishi lozim bo'ladi: *Kardeşim gelir* (*Ukam keladi*). *Bankadan alacakmış* (*Bankdan olar emish*). *Öğrenciler çıkıyorlar* (*Talabalar chiqayaptilar*) kabi.

1-shaxs egalik qo'shimchasi *-im* bo'lib, Sharqiy Onado'luning ba'zi tumanlarida *-em* shaklida qo'llanadi (*bil-ür-em*, *bil-miş-em*, *bil-meli-y-em*). O'tgan zamon va istak mayli, 1-shaxs, ko'plik shakli birlik shaxs qo'shimchasi o'rniga ko'pincha tushib qoluvchi *-ik* qo'shimchasi qo'shilib yasaladi: *bil-di-k*, *bil-se-k* (eski turkchada *bil-di-miz*). Sharqiy Onado'ludagi ba'zi tumanlarda 2-shaxs qo'shimchasi *-sen* kishilik olmoshidir (*bil-ür-sen* > *bil-ir-sin*). *-sin* fe'l tuslanishida, Onado'lu shevalarida fe'lning 2-shaxs o'rniga *-in* egalik qo'shimchasi olganini ko'rish mumkin: *bil-iy-o-n'*, *bil-miş-in'*, *bil-ece-in'*, *bil-ir-in'* kabi.

2-shaxs ko'plikda birlik shakliga *-iz* qo'shimchasi qo'shiladi (*bil-di-n-iz*, *bil-se-n-iz*). Onado'lu shevalarida ba'zan birlik qo'shimchasi tushishi natijasida yuzaga kelgan *bil-di-z*, *bil-se-z* shakllariga duch kelish mumkin.

2. **Kelib chiqish jihatdan egalik bo'lgan shaxs qo'shimchalari**. Quyida berilgan qo'shimchalar aslida egalik qo'shimchalari bo'lib, vaqt o'tishi bilan fe'l shaxs-son qo'shimchalariga aylangan:

Birlik: 1–shaxs: *-m*; 2 -shaxs: *-n*; 3 -shaxs: (*qo'shimchasiz*)

Ko'plik: 1–shaxs: *-k(e)*, *-k(a)*; 2-shaxs: *-niz* (*-nız*, *-nüz*, *-nuz*); 3-shaxs: *-ler* (*-lar*).

Ko'plik 1-shaxs qo'shimchasi qadimgi turkchada kelishik qo'shimchasiga parallel holda *-miz* (*-miz*, *-müz*, *-muz*) shaklida bo'lgan. Keyinchalik uning o'rniga *-dik* (*-duk*) sifatdoshi ta'sirida *-k* (ke), *-k* (ka) qo'llana boshlangan. Bugungi kunda fe'llar 1-shaxs ko'plikda shu qo'shimchalar bilan tuslanmoqda: *geldi-k*, *gelse-k* kabi.

2-shaxslardagi *-n-* turk tilining shevalarida jarangsiz *-ng* shaklida qo'llanadi. Bu qo'shimcha, ilgari faqat fe'l tuslanishidagina qo'llanilgan. Keyinchalik kelib chiqishiga ko'ra shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadigan yana bir qo'shimcha olgan va ulardan ba'zilar boshqa fe'l qo'shimchalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda: *gelmiş-iz* o'rniga *gelmiş-i-k* kabi.

3. **Buyruq mayli qo'shimchasi** maylga xos qo'shimchalar vositasida yasaladi. Aslida, shakl yasovchi bo'lgan bu qo'shimchalar ayni paytda shaxs-son qo'shimchalari sifatida ham qo'llaniladi: *gel-sin*, *gel-in* (*-iz*), *gel-sinler*.

Mayl va zamon qo'shimchalari

Mayl va zamon qo'shimchalari fe'l o'zak va negizi anglatgan ish-harakatni shakl va zamonga bog'lovchi qo'shimchalardir. Shakl va zamoni ifodalovchi qo'shimchalarning barchasida shakl ifodasi, faqat bir qismidagina zamon ifodasi mavjud. Shaklni fe'lning qo'llanish qolipi deb atash mumkin. Fe'l (shaxs)lar qo'llanilish, bog'lanish uchun ikki tur qolipga kiradi. Birinchisi «bildiruv qolipi», ya'ni xabar mayli, ikkinchisi - «qabul qiluv qolipi»; ya'ni shart-istak shakli (*shart kipi*) dir. Bu qolip (mayl)lar turk tili grammatikasida *kip* deb ataladi va fe'l ifodalagan ish-harakatning qanday, qachon va qay tarzda bajarilganini ifodalaydi. Fe'l bildirayotgan ish-harakatning qachon bajarilayotganligi juda muhim bo'lgani uchun turk tilida barcha *kiplarda* zamon asosiy unsur hisoblanadi.

Turk tili grammatikasida to'qqizta tuslanish qolipi, to'qqiz shakl (zamon va mayl) ajratiladi. Ana shu to'qqiz qolipni ikki guruhga to'plash maqsadga muvofiq: *bildiruv (xabar)* va *qabul qiluv (shart)*.

Bildiruv shakli (*xabar mayli*) ro'y bergan, amalga oshirilgan ish-harakatdan darak beradi: *geldi*, *geliyor* kabi. Yuqorida aytilgan to'qqiz xil fe'l tuslanishidan beshtasi bildiruv shakllaridir. Ular orqali ro'y bergan, ro'y berayotgan yoki ro'y berishi kerak bo'lgan bir ish-

harakatdan xabar beriladi. Bu turk tili grammatikasida *haber kipleri* ham deyiladi. Bu «xabar»ning ichida zamon ma'nosi ham mujassam. Demak, bildiruv qoliplari ham xabar, ham zamoni ifodalaydi. Bir ish-harakatning ichida o'tgan zamon kesimiga fe'l zamoni deyiladi. Tuslanish chog'ida zamon fe'lning negiziga qo'shiluvchi birinchi qo'shimcha bilan ko'rsatiladi. Bu zamonlarning soni 5 ta. Shu tarzda tuslovchi qo'shimchalar shakl nuqtai nazaridan xabar, bildiruvni; zamon nuqtai nazaridan esa 5 xil zamoni ifodalaydi, bu: *şimdiki zaman* (hozirgi zamon), *görülen geçmiş zaman* (yaqin o'tgan zamon), *oğrenilen geçmiş zaman* (uzoq o'tgan zamon), *gelecek zaman* (kelasi zamon) va *geniş zaman* (hozirgi-kelasi zamon).

Shart-istak shakllari (*Şart, emir ve istek kipleri*) haqiqiy bo'lmagan, faqat amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, tasavvur qilingan ish-harakatni ifodalash uchun qo'llaniladi: *gelse, gel, gelmeli* kabi. Bunday shakllarga *shart-istak mayli* ham deyiladi. Bularda zamon ifodasi mavjud emas, faqat shakl ifodasi bor deyilsa-da, bajarilishi o'ylangan ish-harakatning kelasi zamonda amalga oshishi yaqqol anglashilib turadi. Turk tilida shart shakli to'rtta: *shart* (*şart, koşul*), *buyruq* (*emir*), *istak* (*istek*), *keraklilik* (*gereklilik*).

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon turk tilida 5 ta zamon va 4 ta shart-istak shakli birlashtirilib, fe'lning jami 9 ta shakli (qolipi), tuslanish xili ajratiladi:

- *şimdiki zaman* (hozirgi zamon);
- *görülen geçmiş zaman* (yaqin o'tgan zamon);
- *oğrenilen geçmiş zaman* (uzoq o'tgan zamon);
- *gelecek zaman* (kelasi zamon);
- *geniş zaman* (hozirgi-kelasi zamon);
- *şart kipi* (*shart mayli*);
- *emir kipi* (*buyruq mayli*);
- *istak kipi* (*istak mayli*);
- *gereklilik kipi* (*keraklilik shakli*).

FE'L ZAMONLARI

(Fiillerde Zaman)

Hozirgi zamon (*Şimdiki Zaman*) ifodalanayotgan ish-harakatning so'zlashuv paytida bajarilayotganini bildiradi va 3-shaxs

birlikda *ne yapıyor?* (*nima qilyapti?*) so'rog'iga javob beradi. Hozirgi zamon qo'shimchalari fe'lni hozirgi zamonda tuslaydi va shaklan darak (*bildirish*), zamon jihatdan esa hozirgi zamonnı ifodalaydi. Shu bilan birga hozirgi zamonnıng ish-harakatning davomiyligini ifodalovchi vazifasi ham bor, ya'ni bu shakl ish-harakatni hozirgi kelasi zamonda ham ifoda eta oladi. Masalan: *oku-yor-um* (*o'qiyapman, o'qiyman, ya'ni har doim o'qiyman*).

Turk tilida hozirgi zamon qo'shimchasi *-yor* bo'lib, u aslida *yorır* "*yürür*" yordamchi fe'lidan yuzaga kelgan yangi qo'shimcha hisoblanadi: *geli yorır* (*geliyor*), *gide yorır* (*gidiyor*) kabi. Hozirgi paytda bu qo'shimchanning turkiy singarmonizm va boshqa turli tovush o'zgarishi bilan bog'liq qoidalarga bo'ysunmasligining asl sababi ham uning mustaqil o'zak shakliga ega bo'lganligidir.

-yor qo'shimchasi boshqa yasovchi qo'shimchalar kabi yordamchi tovush bilan birlashadi: *başlı-yor* (*başla-yor*) *gel-i-yor* kabi. Lekin uning hozirda yordamchi tovushga aylangan unli tovushi aslida ravishdosh qo'shimchasi, qo'shma fe'l yasovchi qo'shimcha bo'lgan.

Turk tilida *-iyor* hozirgi zamon qo'shimchasi singarmonizm qonuniga ko'ra *-iyor*, *-üyor*, *-uyor* shakllarida qo'llanadi: *sil -iyor*, *yat -iyor*, *gör -üyor*, *tut -uyor* kabi. *-a*, *-e* tovushlari bilan tugagan fe'l o'zaklariga *-yor* hozirgi zamon qo'shimchasidan oldin *-y-* undoshining ta'sirida *-a*, *-e* tovushlari *-i-*, *-ı-*, *-ü-*, *-u-* ga aylanadi: *dinle -mek -dinli -yor*; *izle-mek -izli -yor*; *anla -mak -anlı -yor*; *özle -mek -özlü -yor*; *otla -mak -otlu -yor*; *okşa -mak -okşu -yor* kabi.

Fe'llarning hozirgi zamonda tuslanishi quyida berilgan:

Bo'lishli shakl	
<i>Ben bil-i-yor-um</i>	<i>ol-u-yor-um</i>
<i>Sen bil-i-yor-sun</i>	<i>ol-u-yor-sun</i>
<i>O bil-i-yor</i>	<i>ol-u-yor</i>
<i>Biz bil-i-yor-uz</i>	<i>ol-u-yor-uz</i>
<i>Siz bil-i-yor-sunuz</i>	<i>ol-u-yor-sunuz</i>
<i>Onlar bil-i-yor-lar</i>	<i>ol-u-yor-lar</i>

Bo'lishsiz shakl

<i>Ben bil-mi- yor-um</i>	<i>ol-mu-yor-um</i>
<i>Sen bil-mi- yor-sun</i>	<i>ol- mu-yor-sun</i>
<i>O bil-mi- yor</i>	<i>ol- mu-yor</i>
<i>Biz bil-mi- yor-uz</i>	<i>ol- mu-yor-uz</i>
<i>Siz bil-mi-yor-sunuz</i>	<i>ol- mu-yor-sunuz</i>
<i>Onlar bil-mi- yor-lar</i>	<i>ol- mu-yor -lar</i>

Bo'lishli savol shakli

<i>Ben bil-i-yor muyum?</i>	<i>ol-u-yor muyum?</i>
<i>Sen bil-i-yor musun?</i>	<i>ol-u-yor musun?</i>
<i>O bil-i-yor mu?</i>	<i>ol-u- yor mu?</i>
<i>Biz bil-i-yor muyuz?</i>	<i>ol-u- yor muyuz?</i>
<i>Siz bil-i-yor musunuz?</i>	<i>ol -u-yor musunuz?</i>
<i>Onlar bil-i-yor-lar mi?</i>	<i>ol-u- yor-lar mi?</i>

Bo'lishsiz savol shakli

<i>Ben bil-mi-yor muyum?</i>	<i>ol-mu-yor muyum?</i>
<i>Sen bil-mi-yor musun?</i>	<i>ol-mu-yor musun?</i>
<i>O bil-mi-yor mu?</i>	<i>ol-mu- yor mu?</i>
<i>Biz bil-mi-yor muyuz?</i>	<i>ol-mu- yor muyuz?</i>
<i>Siz bil-mi-yor musunuz?</i>	<i>ol -mu-yor musunuz?</i>
<i>Onlar bil-mi-yor-lar mi?</i>	<i>ol-mu- yor-lar mi?</i>

Hozirgi zamonning -mekte (-makta), -mede (-mada) shakli turk tilida fe'ning infinitiv va harakat nomi shakllariga o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan. Uning tuslanish o'rnagi quyida berilgan:

Bo'lishli shakl

<i>Ben bil-mekte-y-im</i>	<i>yap-makta-y-im</i>
<i>Sen bil-mekte-sin</i>	<i>yap-makta-sin</i>
<i>O bil-mekte</i>	<i>yap-makta</i>
<i>Biz bil-mekte-y-iz</i>	<i>yap-makta-y-iz</i>
<i>Siz bil-mekte-siniz</i>	<i>yap-makta-siniz</i>
<i>Onlar bil-mekte(dir)-ler</i>	<i>yap-makta(dir)-lar</i>

Bo'lishsiz shakl

<i>Ben bil-me-mekte-y-im</i>	<i>yap-ma-makta-y-im</i>
<i>Sen bil-me-mekte-sin</i>	<i>yap-ma-makta-sin</i>
<i>O bil-me-mekte</i>	<i>yap-ma--makta</i>
<i>Biz bil-me-mekte-y-iz</i>	<i>yap-ma-makta-y-iz</i>
<i>Siz bil-me-mekte-siniz</i>	<i>yap-ma--makta-siniz</i>
<i>Onlar bil-me-mekte(dir)-ler</i>	<i>yap-ma-makta(dir)-lar</i>

Bo'lishli savol shakli

<i>Ben bil-mekte mi-y-im?</i>	<i>yap-makta mi-y-im?</i>
<i>Sen bil-mekte mi-sin?</i>	<i>yap-makta mi-sin?</i>
<i>O bil-mekte mi?</i>	<i>yap-makta mi?</i>
<i>Biz bil-mekte mi-y-iz?</i>	<i>yap-makta mi-y-iz?</i>
<i>Siz bil-mekte mi-siniz?</i>	<i>yap-makta mi-siniz?</i>
<i>Onlar bil-mekte(dir)-ler mi?</i>	<i>yap-makta(dir)-lar mi?</i>

Bo'lishsiz savol shakli

<i>Ben bil-me-mekte mi-y-im?</i>	<i>yap-ma-makta mi-y-im?</i>
<i>Sen bil-me-mekte mi-sin?</i>	<i>yap-ma-makta mi-sin?</i>
<i>O bil-me-mekte mi?</i>	<i>yap-ma-makta mi?</i>
<i>Biz bil-me-mekte mi-y-iz?</i>	<i>yap-ma-makta mi-y-iz?</i>
<i>Siz bil-me-mekte mi-siniz?</i>	<i>yap-ma-makta mi-siniz?</i>
<i>Onlar bil-me-mekte(dir)-ler mi?</i>	<i>yap-ma-makta(dir)lar mi?</i>

-mekte (-makta) qo'shimchasining o'rniga kamdan-kam hollarda *-mede* (-mada) shakli qo'llanadi: *gez-mede-y-im*, *gez-mede-sin* kabi. Bu ikki xil hozirgi zamon shakli orasidagi farq ham ikki xil:

1. *-mekte* (-makta) hozirgi zamon qo'shimchasi og'zaki nutqda kam qo'llanadi. U, asosan, adabiy tilda qo'llanadi. Rasmiy ish yuritish va ilmiy-texnikaviy uslublarda uning muhim o'rnini bor. Masalan: *Bu madde gida uretiminde kullanimaktadir. Anlasma metni asagidakileri icermektedir* kabi.

2. *-yor* hozirgi zamon qo'shimchasi hali boshlanmagan hozirgi zamon (kelasi zamon)ni ham ifodalaydi: *yarim geliyor* (*ertaga kelayapman*), *haftaya gonderiyoruz* (*kelasi hafta jo'natayapmiz*) kabi.

-mekte, *-makta* hozirgi zamon qo'shimchasi esa boshlanib bo'lgan, mutlaq hozirgi zamonnini ifodalaydi. Masalan, *biraz sonra*

gelmekteyim (bir ozdan keyin kelmoqdaman) deyish noto'g'ri. Faqat, *gelmekteyim* deyishning o'zi kifoya. Bu shakl harakatining boshlanib bo'lganligini bildiradi. Agar *biraz sonra geliyorum* (bir ozdan keyin kelaman) deyilsa, ifoda noto'g'ri hisoblanmaydi.

Yaqin o'tgan zamon (*Görülen Geçmiş Zaman*)

Yaqin o'tgan zamon (*görülen geçmiş zaman*) turk tilidagi eng eski zamon shakllaridan biri bo'lib, ish-harakatning nutq vaqtidan oldin bajarilganligini bildiradi. Qadimgi turkchada yaqin o'tgan zamon shakli bir eski sifatdoshga egalik olmoshi qo'shimchasi qo'shilishi orqali yuzaga kelgan: *bil-it-üm, bil-it-ün*. Biroq 3-shaxs qo'shimchasi sifatida kelgan *-i* egalik qo'shimchasi sifatdosh qo'shimchasi bilan payvandlanib, *-it-i > -di* fe'l shaklining negizini tashkil etgan qo'shimcha sifatida olingan. Hozirgi zamon turk tilida yaqin o'tgan zamon shakli quyidagi ko'rinishni olgan: *bil-di-m, bil-di-n, bil-di* kabi. Bu qo'shimcha turk tilshunosligida *görülen geçmiş zaman eki* (ko'rilgan o'tgan zamon qo'shimchasi) deyiladi. Shakl nuqtai nazaridan xabar, zamon ma'nosida esa yaqindagina bo'lib o'tgan, ko'z bilan ko'rilgan, bajarilishiga guvoh bo'lingan ish-harakatni o'tgan zamonda ifodalaydi. Bu zamon shakli Turkiyadagi o'rta maktab dasturlarida *belirli geçmiş zaman* (belgili (aniq) o'tgan zamon) yoki soddalashtirilgan holda *-di'li geçmiş zaman* deb ham yuritiladi.

Ushbu zamon shakli ish-harakatning yuz berishiga so'zlovchining ko'z o'ngida ro'y bergan yoki aniq guvoh bo'lganligini bildiradi: *geldi, yaptik, aldilar, vuruldun* kabi. Usmonli turk tilida ushbu fe'l shakli *şuhudi mazi* (guvohi bo'lingan o'tmish) deb atalgan.

Hozirgi zamon turk tilidagi *-di* yaqin o'tgan zamon qo'shimchasi turkiy singarmonizm qonuniga ko'ra *-di, -dü, -du, -ti, -tı, -tü, -tu* variantlarida qo'llanadi. O'tgan zamonning ushbu shakli egalik va shaxs-son qo'shimchalari olib tuslanadi:

Bo'lishli shakl

<i>Ben bil-di-m</i>	<i>ol-du-m</i>
<i>Sen bil-di-n</i>	<i>ol-du-n</i>
<i>O bil-di</i>	<i>ol-du</i>
<i>Biz bil-di-k</i>	<i>ol-du-k</i>
<i>Siz bil-di-niz</i>	<i>ol-du-nuz</i>
<i>Onlar bil-di-ler</i>	<i>ol-du-lar</i>

Bo'lishsiz shakl

<i>Ben bil-me- di-m</i>	<i>ol-ma-di-m</i>
<i>Sen bil-me-di-n</i>	<i>ol-ma -di-n</i>
<i>O bil-me-di</i>	<i>ol-ma -di</i>
<i>Biz bil-me-di-k</i>	<i>ol-ma -di-k</i>
<i>Siz bil-me-di-niz</i>	<i>ol-ma-di-niz</i>
<i>Onlar bil-me-di-ler</i>	<i>ol-ma -di-lar</i>

Bo'lishli savol shakli

<i>Ben bil-di-m mi?</i>	<i>ol-du-m mu?</i>
<i>Sen bil-di-n mi?</i>	<i>ol-du-n mu?</i>
<i>O bil-di mi?</i>	<i>ol-du mu?</i>
<i>Biz bil-di-k mi?</i>	<i>ol-du-k mu?</i>
<i>Siz bil-di-niz mi?</i>	<i>ol-du-nuz mu?</i>
<i>Onlar bil-di-ler mi?</i>	<i>ol-du-lar mi?</i>

Bo'lishsiz savol shakli

<i>Ben bil-me- di-m mi?</i>	<i>ol-ma-di-m mi?</i>
<i>Sen bil-me-di-n mi?</i>	<i>ol-ma -di-n mi?</i>
<i>O bil-me-di mi?</i>	<i>ol-ma -di mi?</i>
<i>Biz bil-me-di-k mi?</i>	<i>ol-ma -di-k mi?</i>
<i>Siz bil-me-di-niz mi?</i>	<i>ol-ma-di-niz mi?</i>
<i>Onlar bil-me-di-ler mi?</i>	<i>ol-ma -di-lar mi?</i>

Uzoq o'tgan zamon (öğrenilen geçmiş zaman)

Uzoq o'tgan zamon (*öğrenilen geçmiş zaman*) qo'shimchasi shakliga ko'ra xabar (darak), zamon ma'nosida esa eshitib bilingan, yaqinda bo'lib o'tgan, lekin ko'z bilan ko'rib, guvohi bo'linmagan ish-harakat, yuz bergan voqea-hodisani ifodalaydi. Shu bois, uni *öğrenilen geçmiş zaman* (eshitib, bilingan o'tgan zamon) deb atashadi. Bu zamon shakli Turkiyadagi o'rta maktab dasturlarida *belirsiz geçmiş zaman* (noaniq o'tgan zamon) yoki *miş'li geçmiş zaman* («*miş*» qo'shimchali o'tgan zamon) deb ham nomlanadi: *Ali gelmiş* (*Ali kelibdi*). *A, düğmen kopmuş* (*O, tugmang uzilibdi*). *Bak, kar yağmış* (*Qara, qor yog'ibdi*) kabi. Usmonli turk tilida fe'ning bunday shakli *nakli mazi* (ya'ni «o'tgan zamonning naqli») deb nomlangan.

Turk tilida uzoq o'tgan zamon shakli ba'zan mazax, shubha ma'nolarini ham ifodalab keladi: *Ayşe güya fakültenin en başarılı*

o'g'rencisiymiş (Oysha, go'yoki, fakultetda eng a'lochi talaba emish).
Annesine sorarsaniz, Sibel dunyaning bir numara guzeliymiş (Onasidan
so'rar bo'lsangiz Sibel dunyoning birinchi go'zali emish) kabi.

Hozirgi zamon turk tilidagi *-miş* uzoq o'tgan zamon
qo'shimchasi turkiy singarmonizm qonuniga ko'ra, *-miş*, *-miş*, *-muş*
variantlariga ega. O'tgan zamonning ushbu shakli olmosh aslli shaxs-
son qo'shimchalari olib tuslanadi:

Bo'lishli shakl	
<i>Ben bil-miş-im</i>	<i>ol-muş-um</i>
<i>Sen bil-miş-sin</i>	<i>ol-muş-sun</i>
<i>O bil-miş</i>	<i>ol-muş</i>
<i>Biz bil-miş-iz</i>	<i>ol-muş-uz</i>
<i>Siz bil-miş-siniz</i>	<i>ol-muş-sunuz</i>
<i>Onlar bil-miş-ler</i>	<i>ol-muş-lar</i>

Bo'lishsiz shakl	
<i>Ben bil-me-miş-im</i>	<i>ol-ma-muş-im</i>
<i>Sen bil-me-miş-sin</i>	<i>ol-ma -miş-sin</i>
<i>O bil-me-miş</i>	<i>ol-ma -muş</i>
<i>Biz bil-me-miş-iz</i>	<i>ol-ma -miş-iz</i>
<i>Siz bil-me-miş siniz</i>	<i>ol-ma--muş-siniz</i>
<i>Onlar bil-me-miş-ler</i>	<i>ol-ma-muş-lar</i>

Bo'lishli savol shakli	
<i>Ben bil-miş miyim?</i>	<i>ol-muş muyum?</i>
<i>Sen bil-miş misin?</i>	<i>ol-muş musun?</i>
<i>O bil-miş mi?</i>	<i>ol-muş mu?</i>
<i>Biz bil-miş miyiz?</i>	<i>ol-muş muyuz?</i>
<i>Siz bil-miş misiniz?</i>	<i>ol-muş musunuz?</i>
<i>Onlar bil-miş-ler mi?</i>	<i>ol-muş-lar mi?</i>

Bo'lishsiz savol shakli	
<i>Ben bil-me-miş miyim?</i>	<i>ol-ma-muş miyim?</i>
<i>Sen bil-me-miş misin?</i>	<i>ol-ma -muş misin?</i>
<i>O bil-me-miş mi?</i>	<i>ol-ma -muş mi?</i>
<i>Biz bil-me-miş miyiz?</i>	<i>ol-ma-muş miyiz?</i>
<i>Siz bil-me-miş misiniz?</i>	<i>ol-ma-muş misiniz?</i>
<i>Onlar bil-me-miş-ler mi?</i>	<i>ol-ma-muş-lar mi?</i>

Turk tilining ba'zi shevalarida ko'plik 1-shaxslarga *-k, -k (ke)* qo'shib qo'llanadi: *Biz sev-miṣ-i-k, ol-muṣ-u-k* kabi.

Kelasi zamon (*gelecek zaman*)

Kelasi zamon (*gelecek zaman*) fe'l ifodalayotgan ish-harakatning kelasi zamonda amalga oshishini bildiradi. Fe'l negizini kelasi zamonda tuslovchi kelasi zamon qo'shimchasi shaklan xabarni ifodalab, ish-harakatning aniq kelasi zamonda amalga oshishini ifodalaydi.

Hozirgi turk tilida kelasi zamon qo'shimchasi *-ecek (-acak)* dir. Ikki unli yonma-yon kelmasligi qoidasiga ko'ra negizi unli bilan tugagan fe'llarda negizdan keyin *-y-* tovushi orttiriladi: *uyu-y-acaḡ-im, gülme-y-eceḡ-im* kabi.

Turk tili grammatikasi kitoblarida fe'ning kelasi zamon shakliga kelasi zamon sifatdoshi shakli asos bo'lganligi ta'kidlanadi. Masalan, *gelecek yıl* birikmasidagi *gel-ecek* so'zi sifatdosh, *O yarın gelecek* gapida esa *gelecek* so'zi fe'ning kelasi zamon shaklidir. Fe'llar kelasi zamonda shaxs-son qo'shimchalari olib tuslanadi: *sev-eceḡ-im, uyu-y-acak-sın, gülme-y-ecek, uyu-y-acaḡ-ız, gülme-y-eceḡ-ız* kabi.

Fe'ning kelasi zamonda tuslanish namunasi quyidagi jadvalda berilgan:

<i>Bo'lishsiz shakl</i>	
<i>Ben bil-eceḡ-im</i>	<i>ol-acak-ım</i>
<i>Sen bil-ecek-sın</i>	<i>ol-acak-sın</i>
<i>O bil-ecek</i>	<i>ol-acak</i>
<i>Biz bil-eceḡ-ız</i>	<i>ol-acak-ız</i>
<i>Siz bil-ecek-sınız</i>	<i>ol-acak-sınız</i>
<i>Onlar bil-ecek-ler</i>	<i>ol-acak-lar</i>

<i>Bo'lishsiz shakl</i>	
<i>Ben bil-me-y-eceḡ-im</i>	<i>ol-ma-y-acaḡ-ım</i>
<i>Sen bil-me-y-ecek-sın</i>	<i>ol-ma-y-acak-sın</i>
<i>O bil-me-y-ecek</i>	<i>ol-ma-y-acak</i>
<i>Biz bil-me-y-eceḡ-ız</i>	<i>ol-ma-y-acaḡ-ız</i>
<i>Siz bil-me-y-ecek-sınız</i>	<i>ol-ma-y-acak-sınız</i>
<i>Onlar bil-me-y-ecek-ler</i>	<i>ol-ma-y-acak-lar</i>

Bo'lishli savol shakli

<i>Ben bil-ecek mi-y-im?</i>	<i>ol-acak mi-y-im?</i>
<i>Sen bil-ecek mi-sin?</i>	<i>ol-acak mi-sin?</i>
<i>O bil-ecek mi?</i>	<i>ol-acak mi?</i>
<i>Biz bil-ecek mi-y-iz?</i>	<i>ol-acak mi-y-iz?</i>
<i>Siz bil-ecek mi-siniz?</i>	<i>ol-acak mi-siniz?</i>
<i>Onlar bil-ecek-ler mi?</i>	<i>ol-acak-lar mi?</i>

Bo'lishsiz savol shakli

<i>Ben bil-me-y-ecek mi-y-im?</i>	<i>ol-ma-y-acak mi-y-im?</i>
<i>Sen bil-me-y-ecek mi-sin?</i>	<i>ol-ma-y-acak mi-sin?</i>
<i>O bil-me-y-ecek mi?</i>	<i>ol-ma-y-acak mi?</i>
<i>Biz bil-me-y-ecek mi-y-iz?</i>	<i>ol-ma-y-acak mi-y-iz?</i>
<i>Siz bil-me-y-ecek mi-siniz?</i>	<i>ol-ma-y-acak mi-siniz?</i>
<i>Onlar bil-me-y-ecek-ler mi?</i>	<i>ol-ma-y-acak-lar mi?</i>

Fe'l kelasi zamonda tuslanayotganda o'rta bo'g'inda o'zgarish yuz beradi: *başlı-y-acak (başla-y-acak)*, *gülmü-y-eceğ-im (gülme-y-eceğ-im)* kabi. Lekin bu yozuvda ko'rsatilmaydi.

Kelasi zamon qo'shimchasidagi **-k** tovushi, ya'ni qalin **-k(a)** va yumshoq **-k(e)** ikki unli orasida qolib, yumshaydi va /ğ/ ga aylanadi: *yapacak – yapacağım, gelecek - geleceğim* kabi.

Hozirgi-kelasi zamon (geniş zaman)

Hozirgi-kelasi zamon (*geniş zaman*) fe'l ifodalagan ish-harakatning har doim bajarib kelingani, bajarilayotgani, kelajakda ham bajarilishini ifodalaydi. Turk tilshunosligida fe'llarning bunday shakli *geniş zaman (keng zaman)* deyiladi. Hozirgi-kelasi zamon qo'shimchalari fe'lni hozirgi-kelasi zamonda tuslaydi. Ular shakl jihatdan xabar berish, zamon nuqtai nazaridan esa o'tgan, hozirgi va kelasi zamonni qamraydi. Soddaroq aytganda, bu qo'shimchalarda uchta zamonning ifodasi mavjud: 1. har zamon, 2. o'tgan va hozirgi zamonni o'z ichiga olgan zamon, 3. kelasi zamon: *her zaman yaparım, bugün yaparım, yarın yaparım*. Masalan: *Ben ezelden beri hür yaşadım, hür yaşarım (Men azaldan hur yashadim, bundan keyin ham hur yashayman.)* kabi.

Hozirgi kelasi zamon qo'shimchasi ish-harakatning davomiyligini ifodalaydi: *Ben bu işi yaparım (Men bu ishni qilaman).*

Ayşe tatlıyı sevmez (Oysha shirinlikni xush ko'rmaydi). Dünya güneşin etrafında döner (Dunyo quyosh atrofidan aylanadi) kabi.

Turk tilida hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi *-r* dir. Fe'llarning ko'pchiligi ana shu qo'shimchani oladi: *ye-r, de-r, başla-r, açıl-ı-r, bil-i-r, gör-ü-r, ver-i-r, oku-r* kabi.

Turk tilida hozirgi-kelasi zamonning *-r* dan tashqari *-er (-ar)* qo'shimchasi vositasida yasalishi ham ma'lum. *-er (-ar)* qo'shimchasi asosan, bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi: *yap-ar, kaç-ar, yaz-ar, kes-er, gid-er, öt-er, dön-er* va h.

Fe'llar shaxs qo'shimchalari yordamida keng zamonda tuslanadi: *oyna-r-im, gör-ü-r-üm, yaz-ar-ım, gör-ü-r-sünüz, kes-er-ler* va h. Fe'lning hozirgi-kelasi zamonda tuslanish namunasini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Bo'lishli shakl	
<i>Ben bil-ir-im</i>	<i>ol-ur-um</i>
<i>Sen bil-ir-sin</i>	<i>ol-ur-sun</i>
<i>O bil-ir</i>	<i>ol-ur</i>
<i>Biz bil-ir-iz</i>	<i>ol-ur-uz</i>
<i>Siz bil-ir-siniz</i>	<i>ol-ur - sunuz</i>
<i>Onlar bil-ir-ler</i>	<i>ol-ur-lar</i>

Hozirgi-kelasi zamonning bo'lishsiz shaklida o'ziga xos bir holat mavjud. Boshqa zamon sakllarida ayni qo'shimcha bo'lishli yoki bo'lishsiz fe'llarga qo'shiladi: *gel-di, gel-me-di* kabi. Hozirgi-kelasi zamonda esa qo'shimcha faqat bo'lishli fe'llarga qo'shilib, bo'lishsizlik *-maz, -mez* va undagi *-z* ning tushishi natijasida *-ma, -me* bilan yasaladi: *oyna-ma-m, gör-me-m, oyna-maz-sun, gör-mez-sin, gör-mez, gör-me-y-iz, oyna-maz-sınız, gör-mez-siniz* va h.

Bo'lishsiz shakl	
<i>Ben bil-me- m</i>	<i>ol-ma-m</i>
<i>Sen bil-me-z-sin</i>	<i>ol-ma-z-sın</i>
<i>O bil-me-z</i>	<i>ol-ma-z</i>
<i>Biz bil-me-y-iz</i>	<i>ol-ma-y-ız</i>
<i>Siz bil-me-z-siniz</i>	<i>ol-ma-z- sınız</i>
<i>Onlar bil-me-z-ler</i>	<i>ol-ma-z-lar</i>

Hozirgi zamon turk tilida birinchi shaxslarda *-me, -ma* qo'shimchasi qo'llaniladi. Ilgari bu qo'shimcha *-mez, -maz* shaklida bo'lgan. Fe'ning birlik 1- shaxsga egalik-shaxs qo'shimchasi qo'shilib qo'llaniladi. Hozirgi-kelasi zamonning savol shakli *mi (mi, mü, mu)* so'roq yuklamasi yordamida yasaladi:

Bo'lishli savol shakli	
<i>Ben bil-ir mi-y- im?</i>	<i>ol-ur mu-y-um?</i>
<i>Sen bil-ir mi-sin?</i>	<i>ol-ur mu-sun?</i>
<i>O bil-ir mi?</i>	<i>ol-ur mu?</i>
<i>Biz bil-ir mi-y-iz?</i>	<i>ol-ur mu-y-uz?</i>
<i>Siz bil-ir mi-siniz?</i>	<i>ol-ur mu-sunuz?</i>
<i>Onlar bil-ir-ler mi?</i>	<i>ol-ur-lar mu?</i>

Bo'lishsiz savol shakli	
<i>Ben bil-mez mi-y-im?</i>	<i>ol-maz mu-y-im?</i>
<i>Sen bil-me-z mi-sin?</i>	<i>ol-maz mu-sun?</i>
<i>O bil-mez mi?</i>	<i>ol-maz mu?</i>
<i>Biz bil-mez mi-y-iz?</i>	<i>ol-maz mu-y-iz?</i>
<i>Siz bil-mez mi-siniz?</i>	<i>ol-maz mu-sunuz?</i>
<i>Onlar bil-mez-ler mi?</i>	<i>ol-maz-lar mi?</i>

FE'L MAYLLARI (*Fillerde Kip*)

Buyruq mayli (*emir kipi*). Turk tilida fe'llar buyruq mayli qo'shimchalari, birlik 3-shaxs, ko'plik 2- va 3-shaxslarda shaxs-son qo'shimchasi olgan holda o'zgaradi. Buyruq mayli qo'shimchalari fe'ning buyruq shaklini yasaydi. Ularda zamon ifodasi bo'lmaydi, buyruq ma'nosini ifodalaydi. Buyruq mayli shakli quyidagicha yasaladi:

Birlik 1 – shaxs: --

2 – shaxs: --

3 – shaxs: *-sin (-sin, -sün, sun)*

Ko'plik 1 – shaxs: --

2 – shaxs: *-in (-in, -ün, -un; -iniz, -ınız, -ünüz, -unuz);*

3 – shaxs: *-sinler (-sinlar, -sünler, -sunlar)*

Buyruq maylining birlik va ko'plik 1-shaxsi ham borligini ta'kidlaydigan ba'zi turk tilshunoslariga ko'ra buyruq maylining tuslanish qo'shimchalari quyidagilar:

Birlik 1 – shaxs: *-eyim (-ayım);*

2 – shaxs: --

3 – shaxs: *-sin (-sın, -sün, sun)*

Ko'plik 1 – shaxs: *-elim (-alım);*

2 – shaxs: *-in (-ın, -ün,-un; -iniz, -ınız, -ünüz, -*

unuz);

3 – shaxs: *-sinler (-sınlar, -sünler,-sunlar)*

Masalan: Ben gele-*eyim*, Sen gel, O gel-*sin*, Biz gel-*elim*, Siz gel-*in(iz)*, Onlar gel-*sin(ler)* kabi.

Aslida birlik va ko'plik 1-shaxs qo'shimchalari (*-eyim, -ayım, -elim, -alım*) istak mayliga oid.

Hozirgi turk tilida buyruq maylida fe'ning 2-shaxsi qo'shimcha olmaydi. Fe'l harakat nomi shaklidagi *-mek* va *-mak* olib tashlansa, qolgan qismi buyruq maylining ikkinchi shaxsiga to'g'ri keladi: *sil-, silme-* kabi.

Qadimgi turk tilida fe'llarning buyruq mayli birlik 2-shaxsda *-gil (-gıl)* qo'shimchasi olgan: *gel-gil, ol-gil* kabi. Hozirgi paytda *-gil (-gıl)* qo'shimchasi va *-ginen, -ginan* shakllari turk tilining shevalarida uchraydi: *al-gınan, ver-ginen* kabi.

Ko'plik ikkinchi shaxsda qo'shimchani ikki shakli mavjud: *gel-in, gel-iniz; otur-un, otur-unuz* kabi.

Fe'llarning buyruq maylida umumiy qabul qilingan to'g'ri tuslanish shakli quyidagicha:

Ben - - -

Sen yap gör durma

O yap - sın gör - sün durma - sın

Biz - - -

Siz yap-ın (ız) gör-ün (üz) durma-y-ın (ız)

Onlar yap-sın (lar) gör-sün (ler) durma-sın (lar)

Shart mayli (*şart kipi*) fe'lga shart ma'nosini yuklaydi. Shart mayli turk tilshunosligida *dilek-koşul kipi* ham deyiladi. Shart mayli qo'shimchasi *-se, -sa* bo'lib, zamoni ko'rsatmaydi, faqat shart

ma'nosini ifodalaydi. Fe'ning shart shakli zamoni ifoda etmagani uchun shart ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi ergash gap oxirida keladi.

Turk tilidagi fe'llar ilgari faqat shaxs-son qo'shimchalari yordamida shart maylida tuslanar edi. Keyinchalik ular yaqin o'tgan zamon tuslanish shaklini ham oladigan bo'lgan. Hozirgi zamon turk tilida shart mayli tuslanishi shakli quyidagicha:

Ben git-se-m yap-sa-m yürü-se-m duyma-sam

Sen git-se-n yap-sa-n yürü-se-n duyma-san

O git-se yap-sa yürü-se duyma-sa

Biz git-se-k yap-sak yürü-sek duyma-sak

Siz git-se-niz yap-sa-nız yürü-se-niz duyma-sanız

Onlar git-se-ler yap-sa-lar yürü-se-ler duyma-salar

Shart qo'shimchasi ba'zan istak ma'nosini ifodalayotganda fe'llar shartdan ko'proq orzu, istak, tilakni ifodalaydi: *Bari yarın hava güzel olsa...* (*Mabodo ertaga havo yaxshi bo'lsa...*), *Biraz uyusan (Bir oz uxlasang)*, *Dizinde ağlasam (Tizzanga bosh qo'ib yig'lasam)*, *Ah bir zengin olsam!* (*Qaniydi, bir boyib ketsam!*) kabi.

Ba'zan shart shaklining oxiriga xitob unsuri ham kelishi mumkin: *gelsene (gel-se-n-e!)*, *otursana (otur-sa-n-a!)*, *baksanıza (bak-sa-nız-a!)* kabi. Bunda ham buyruq va istak o'rtasidagi oraliq bir ifoda mavjud.

Istak mayli (*istek kipi*) fe'llarning istak shaklida, shaxs-son qo'shimchalari olib o'zgarishidir. Unda istak, tilak ifodalanadi. Hozirgi zamon turk tilida istak mayli qo'shimchasi *-e (-a)* dir. Fe'llar istak ko'rinishida shaxs-son qo'shimchalari olib tuslansa-da, bu shaklga egalik qo'shimchalarining ham ta'sirini kuzatish mumkin:

Ben ol-a-y-ım bil-e-y-im bilme-y-e-y-im

Sen ol-a-sın bil-e-sin bilme-y-e-sin

O ol-a bil-e bilme-y-e

Biz ol-a-l-ım bil-e-l-im bilme-y-e-l-im

Siz ol-a-sınız bil-e-siniz bilme-y-e-siniz

Onlar ol-a-lar bil-e-ler bilme-y-e-ler

Adabiy tilda, asosan, birlik va ko'plik 1-shaxs shakli qo'llanadi. 2- va 3- shaxslari jonli nutqda kam qo'llanadi. Uni ko'proq shevalarda uchratish mumkin (*Sağ olasin. – Rahmat senga. Yanlış anlamış*

olmayasınız. – Tag'in noto'g'ri tushungan bo'lmang) kabi. Istak shaklining shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgargan, shevalarda qo'lgan ko'rinishi quyidagicha: gel-e-m, gel-e-sin, gel-e, gel-e-k, gel-e-siniz, gel-e-ler.

Adabiy tilda istak shaklining qo'llanishdan chiqib ketishi uning vazifasini buyruq shakliga o'tishiga sabab bo'lgan. Buyruq va istak shaklining aralashib ketganligiga asosiy sabab ham shudir. Bugun adabiy tilda istak shaklining tuslanishi buyruq va istak aralashmasi sifatida quyidagi shakllarni yuzaga keltirmoqda:

Ben bulun-ayim g'ulme-y-eyim

Sen bulun-asin g'ulme-y-e-sin

O bulun-a g'ulme-y-e

Biz bulun-alim g'ulme-y-elim

Siz bulun-a-siniz g'ulme-y-e-siniz

Onlar bulun-a-lar g'ulme-y-e-ler

Biroq so'zlashuvda bu shakl ham unchalik faol emas. Chunki 2-, 3-shaxslarda ularning o'rniga *bulun, bulunsun* shakllari qo'llanilmoqda. Istak tuslanishida ham /y/ning ta'sirida o'rta bo'g'in unlisi talaffuz chog'ida o'zgarishi mumkin: *dinli-y-e-sin (dinle-y-esin)* kabi. Yozuvda esa asl shakl saqlanadi.

Keraklilik shakli (*gero'vlik kipi*) fe'lifodalagan ish-harakatning bajarilishi kerak, shart ekanligini bildiradi. Ushbu mayl qo'shimchasi *-meli* bo'lib, unli uyg'unligi qoidasiga ko'ra qalin unli bo'lgan fe'l negizlariga *-mali* shaklida qo'shiladi. Ushbu qo'shimcha turk tilidagi fe'l shakllari yasovchi boshqa qo'shimchalarga nisbatan ancha yangi hisoblanadi. Bu shakl turk tilida *-me (-ma)* harakat nomi (*ad-fil*) qo'shimchasi va *-li (-li)* sifat yasovchi qo'shimchaning birikishi asosida yuzaga kelgan. Fe'ning ushbu shakli tuslanganda unga shaxs-son qo'shimchalari qo'shiladi:

Bo'lishli shakl		Bo'lishli savol shakli
<i>Ben git-meli-y-im</i>	<i>yürü-meli-y-im</i>	<i>git-meli miyim?</i>
<i>Sen git-meli- sin</i>	<i>yürü-meli-sin</i>	<i>git-meli misin?</i>
<i>O git-meli</i>	<i>yürü-meli</i>	<i>git-meli mi?</i>
<i>Biz git-meli-y-iz</i>	<i>yürü-meli-y-iz</i>	<i>git-meli miyiz?</i>
<i>Siz git-meli-siniz</i>	<i>yürü-meli-siniz</i>	<i>git-meli misiniz?</i>
<i>Onlar git-meli-ler</i>	<i>yürü-meli-ler</i>	<i>git-meli-ler mi?</i>

<i>Bo'lishsiz shakl</i>		<i>Bo'lishsiz savol shakli</i>
<i>Ben git-me-meli-y-im</i>	<i>yürü-me-meli-y-im</i>	<i>git-me-meli miyim?</i>
<i>Sen git-me-meli- sin</i>	<i>yürü-me-meli-sin</i>	<i>git-me-meli misin?</i>
<i>O git-me-meli</i>	<i>yürü-me-meli</i>	<i>git-me-meli mi?</i>
<i>Biz git-me-meli-y-iz</i>	<i>yürü-me-meli-y-iz</i>	<i>git-me-meli miyiz?</i>
<i>Siz git-me-meli-siniz</i>	<i>yürü-me-meli-siniz</i>	<i>git-me-meli misiniz?</i>
<i>Onlar git-me-meli-ler</i>	<i>yürü-me-meli-ler</i>	<i>git-me-meli-ler mi?</i>

İMEK FE'Lİ (*imek fiili*)

Yuqorida ko'rib chiqilgan to'qqizta fe'l shakli va zamon qo'shimchalari barcha fe'llarga nisbatan qo'llanadi. Faqat turk tilida bir fe'l shakli borki, uni yuqorida sanab o'tilgan fe'l shakllaridan alohida ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Bu *imek* fe'lidir.

Imek fe'li yoki « *i* fe'li» turk tilidagi asosiy yordamchi fe'l hisoblanib, u *cevher fiili* yoki *ek fil* (*qo'shimcha fe'l*) ham deyiladi. Qadimgi turk tilida *er-mek*, usmonli turkchasida *i-mek*, yangi turkchada esa *-mek* shakliga kelib qolgan, o'zagi «erib», faqat tuslanish qo'shimchasi shaklida saqlangan *imek* fe'li ma'nosiga ko'ra holatni ifodalaydi va, asosan, ot turkumiga kiruvchi so'zlar bilan qo'llanadi. Ushbu fe'lning o'zagi hali ham og'zaki va yozma nutqda ba'zi – ba'zida *i-di*, *i-miŝ*, *i-se* kabi fe'l negizlarida namoyon bo'lgani uchun uni *i-mek* fe'li deb atashadi. U fe'llarga qo'shilganda qo'shma fe'l shakllari yasaydi: *bilmiŝ idi*, *gelse idi* kabi.

Imek fe'li otlar bilan qo'llanilganda ularni fe'llashtiradi: *güzel idi*, *iyi imiŝ* va h. *Imek* fe'li shaklining barcha shaxslari *er-mek* o'zagidan paydo bo'lmagan. Bu fe'l hozirgi kelasi zamon (*geniŝ zaman*)da murakkab tuslanish shaklini oladi. Bunda zamon qo'shimchasini olgan butun fe'l negizi «erigan» ko'rinadi (*er-ür*). Aniqrog'i, ushbu fe'l shakli qo'llanilayotganda undagi *-i* o'zagi tushib qoladi. *Imek* fe'lining 1- va 2- shaxslari quyidagi ko'rinishga ega: *er-ür ben* > **-im**, *er-ür sen* > **-sin**, *er-ür biz* > **-iz**, *er-ür siz* > **-siniz**⁸.

3-shaxsda qadimdan beri *ermek* fe'lga parallel fe'l shakli bo'lgan *turmak* fe'li o'rin olgan: *tur-ur* > *dur-ur* > **-dir**, *tur-ur-lar* > *dur-ur-lar* > **-dirler**. Bu qo'shimchada fe'l negizidan bir iz qolgan,

⁸ Ushbu shaklni o'zbek mumtoz adabiyotida ko'p uchratish mumkin: *Odami ersang demagil odami*, *Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami* (A. Navoiy).

faqat ot-kesimli gaplarda kesim hech qanday qo'shimcha olmasligi mumkin bo'lgani uchun bu shaklning birlik 3-shaxsi nol qo'shimcha, ko'pligi esa *-ler* ko'plik qo'shimchasi bilan yasalgan deb hisoblash mumkin. Quyidagi jadvalda *Imek* fe'lining tuslanishi keltirilgan:

	Hozirgi kelasi zamon	O'tgan zamon	Uzoq o'tgan zamon	Shart mayli shakli
Birlik				
1-shaxs	<i>güzel-im</i>	<i>güzel-dim</i>	<i>güzel-mişim</i>	<i>güzel-sem</i>
2-shaxs	<i>güzel-sin</i>	<i>güzel-din</i>	<i>güzel-mişsin</i>	<i>güzel-sen</i>
3-shaxs	<i>güzel (dir)</i>	<i>güzel-di</i>	<i>güzel-miş</i>	<i>güzel-se</i>
Ko'plik				
1-shaxs	<i>güzel-iz</i>	<i>güzel-dik</i>	<i>güzel-miş-iz</i>	<i>güzel-sek</i>
2-shaxs	<i>güzel-siniz</i>	<i>güzel-diniz</i>	<i>güzel-mişsiniz</i>	<i>güzel-seniz</i>
3-shaxs	<i>güzel (dir)-ler</i>	<i>güzel-lerdi</i>	<i>güzel-mişler</i>	<i>güzel-lerse</i>

	Hozirgi kelasi zamon	O'tgan zamon
Birlik		
1-shaxs	<i>güzel değilim</i>	<i>güzel değildim</i>
2-shaxs	<i>güzel değilsin</i>	<i>güzel değildin</i>
3-shaxs	<i>güzel değil (dir)</i>	<i>güzel değildi</i>
Ko'plik		
1-shaxs	<i>güzel değiliz</i>	<i>güzel değildik</i>
2-shaxs	<i>güzel değilsiniz</i>	<i>güzel değildiniz</i>
3-shaxs	<i>güzel değil (dir)ler</i>	<i>güzel değillerdi</i>

	Uzoq o'tgan zamon	Shart mayli shakli
Birlik		
1-shaxs	<i>güzel değilmiş-im</i>	<i>güzel değilsem</i>
2-shaxs	<i>güzel değilmiş-sin</i>	<i>güzel değilsen</i>
3-shaxs	<i>güzel değilmiş</i>	<i>güzel değilse</i>
Ko'plik		
1-shaxs	<i>güzel değilmiş-iz</i>	<i>güzel değilsek</i>
2-shaxs	<i>güzel değilmiş-siniz</i>	<i>güzel değilseniz</i>
3-shaxs	<i>güzel değilmiş-ler</i>	<i>güzel değillerse</i>

Hozirgi paytda ushbu fe'l qo'shimcha olgan holda qo'llanadi. Bunda *-i* fe'lining jufti hisoblangan *tur-* (*dur-*) yordamchi fe'lining izlarini ko'rish mumkin. *Imek* fe'lining hozirgi zamon shakli quyidagi qo'shimchalarni oladi:

Birlik 1 – shaxs: *-im* (*-im*, *-üm*, *-um*)

2 – shaxs: *-sin* (*-sin*, *-sün*, *sun*)

3 – shaxs: *-dir* (*-dir*, *-dür*, *-dur*; *-tir*, *-tir*, *-tur*, *-tür*)

Ko'plik 1 – shaxs: *-iz* (*-iz*, *-üz*, *-uz*; *-yiz*, *-yiz*, *-yuz*, *-yüz*)

2 – shaxs: *-siniz* (*-sinuz*, *-sünüz*, *-sunuz*)

3 – shaxs: *-dirler* (*-dirlar*, *-dürler*, *-durlar*, *-tirler*, *-turlar*, *-türler*, *-turlar*).

Qo'shimchalarning ko'pi *-i* fe'l o'zagi tushganidan keyin qolgan shaxs qo'shimchalaridir. Lekin ular hozirda gap borayotgan shakl funksiyasini muhofaza qilgan holda ot kabi qo'llaniladi:

yorgun -um evde-y-im

yorgun -sun evde-sin

yorgun (-dur) evde (-dir)

yorgun -uz evde-y-iz

yorgun -sunuz evde-siniz

yorgun (-dur)lar evde-(dir)ler

Bu yerda 3-shaxs qo'shimchalari qo'llanish chog'ida tushib qolishi ham mumkin: *çocuk yorgun* (*yorgun-dur*), *hava güzel* (*güzel-dir*), *çocuklar yorgunlar* (*yorgun-durlar*) kabi. Ko'plik 3-shaxsda ba'zan ko'plik qo'shimchasi (*-ler*) *-dir* dan oldin kelishi mumkin: *evde-lerdir*, *evde deęil-lerdir* kabi.

Bu qo'shimchalar xabar (darak) berish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ularni xabar mayli qo'shimchasi deyish mumkin.

Imek fe'li shaklining yaqin o'tgan zamon ko'rinishi *i-d-im*, *i-di-n*, *i-di*, *i-di-k*, *i-di-niz*, *i-di-ler* dir. Amalda qo'llanayotganda uning o'zagi tushib qolishi va qo'shimcha olishi mumkin: *güzel-di* (*güzel idi*), *korkunç-tu* (*korkunç idi*), *hasta-y-dı* (*hasta idi*) kabi.

Uzoq o'tgan zamon shakli esa *i-miş-im*, *i-miş-sin*, *i-miş*, *i-miş-iz*, *i-miş-siniz*, *i-miş-ler* dir. Amalda qo'llanayotganda bu shakllar ham qo'shimcha oladi: *orada-y-mış*, *oyun-muş*, *deęil-miş* kabi.

Imek fe'lining shart mayli shakli ko'rinishi quyidagicha: *i-se-m, i-se-n, i-se, i-se-k, i-se-niz, i-se-ler*. Nutqda sifat va ravishlar bilan birga qo'llanganda ular ham qo'shimcha oladi: *doğru-y-sa, öyle-y-se, yalnız-sa* kabi.

Imek fe'lining bo'lishsiz shakli fe'lining bo'lishsiz shakli singari *imemek* emas, *değil* yordamchi so'zi vositasida yasaladi: *güzel değil-im, güzel değil-di, güzel değil-miş, güzel değil-se* kabi.

Ta'kidlash kerakki, ushbu fe'lining bo'lishsiz shakli qadimgi turkchada boshqa fe'llar singari *er-me-mek* bo'lgan. Faqat sharqiy turkchadagi *er-mez* x *er-mes* ga mos qadimgi og'uz turkchasidagi *tegül* so'zi (hozirgi o'zbek tilida saqlangan *tugul* so'zi) ma'lum.

Imek fe'lining so'roq ko'rinishi quyidagi jadvalda keltirilgan:

	Hozirgi kelasi zamonning so'roq shakli	O'tgan zamonning so'roq shakli
Birlik		
1-shaxs	<i>güzel mi-y-im?</i>	<i>güzel mi-y-di-m?</i>
2-shaxs	<i>güzel mi- sin?</i>	<i>güzel mi-y-din?</i>
3-shaxs	<i>güzel mi (dir)?</i>	<i>güzel mi-y-di?</i>
Ko'plik		
1-shaxs	<i>güzel mi-y-iz?</i>	<i>güzel mi-y-dik?</i>
2-shaxs	<i>güzel mi-siniz?</i>	<i>güzel mi-y-diniz?</i>
3-shaxs	<i>güzel (dir)-ler mi?</i> <i>güzel miler?</i>	<i>güzel mi-y-di-ler?</i> <i>güzel ler mi-y-di?</i>

	Uzoq o'tgan zamonning so'roq shakli	Shart mayli shaklining so'roq shakli
Birlik		
1-shaxs	<i>güzel değilmiş mi-y-im?</i>	<i>güzel değilsem mi?</i>
2-shaxs	<i>güzel değilmiş mi-sin?</i>	<i>güzel değılsen mi?</i>
3-shaxs	<i>güzel değilmiş mi?</i>	<i>güzel değılse mi?</i>
Ko'plik		
1-shaxs	<i>güzel değilmiş mi-y-iz?</i>	<i>güzel değılsek mi?</i>
2-shaxs	<i>güzel değilmiş mi-siniz?</i>	<i>güzel değılseniz mi?</i>
3-shaxs	<i>güzel değilmiş-ler mi?</i> <i>güzel değilmiş mi-ler?</i>	<i>güzel değıllerse mi?</i> --

Fe'llarda so'roq qo'shimchasi (Fiillerde Soru)

So'roq qo'shimchasi fe'llarga so'roq shakli beradi. *Imek* fe'lining so'roq shakli fe'lni *mi* so'roq qo'shimchasiga qo'shish yo'li bilan yasaladi. U ham bir qo'shimcha fe'l shakli bo'lib, otlar uchun ham fe'llar uchun ham bir xil: *mi, mi, mü, mu*. So'roq qo'shimchasi, odatda, fe'llar tuslanayotganda fe'l tuslov qo'shimchalaridan keyin, shaxs-son qo'shimchalaridan oldin keladi: *gelir mi-y-im? gelecek mi-sin? gelmeli mi-y-iz? gelse mi? geleyim mi? geldin mi?* kabi.

So'roq qo'shimchasi imlodan alohida yozilgani uchun fe'l tuslanish shakllarini ham ikkiga ajratib turadi (*görecek misiniz? gitmeli miyiz?*). So'roq shakllari alohida yozilgani uchun so'roq qo'shimchasidan keyin singarmoniya qonuniga ko'ra qo'shilgan *imek* fe'li ham yaxlit shaklda alohida yoziladi: *güzel miyim?, hasta mısın?, deli midir?, üzgün müydü?, haklı mıydık?, ucuz muymuş?, yalnız mıymışlar?, yok muymuş?* kabi.

-*imek* fe'lining shart shakli alohida ko'rinishga ega. Uning o'ta kam qo'llanuvchi so'roq ko'rinishida fe'l qo'shimchasi bevosita otga qo'shiladi, *mi* so'roq qo'shimchasi undan keyin keladi va alohida yoziladi: *yorgun-sam mi?, işsiz-sen mi?, memnun-sak mı?* kabi.

Turk tilida fe'llarning kelasi zamon bilan bog'liq mayli shakllarida *i-mek* fe'lining o'rniga *olmak* fe'li qo'llanadi: *iyi-yim, iyi-ydin, iyi olacağım, iyi olasın, iyi olmalısınız, iyi ol* kabi. Butun shakllar bu ikki holat va «bo'lmoq» ma'nosi orasidagi farqni ko'rsatib turadi: *iyi-y-im x iyi olurum, iyi-y-di-m x iyi oldum, iyi-y-mış-im x iyi olmuşum, iyi-y-se-m x iyi olsam* kabi.

Imek fe'lining shart mayli shakli qo'yidagicha: *Bil-se-m bırakmazdım (Bilsam tashlamasdim), Biraz dinlen-se-niz (Bir oz dam olsangiz), Yorgun-sa-n yat (Charchagan bo'lsang yot), Ucuz-sa alırsız (Arzon bo'lsa olamiz), Hazır-sa-k başlayalım (Tayyor bo'lsak, boshlaylik)* kabi.

Otlarga qo'shilib, ularni fe'llashtirgan bu qo'shimcha, fe'llarga qo'shilib ularning murakkab tuslanish shakllarini yasaydi. Murakkab tuslanishda bir asl fe'l va bir ot fe'lning ikki tuslanish qo'shimchasi ustma-ust yoki ikki fe'lning ikki tuslanish shakli ketma-ket keladi.

Murakkab fe'l tuslanishi uchta: *hikoya (hikaye), rivoyat (ri-*

vayet) va shart (şart) shakllari. Undan tashqari yana bir tuslanish shakli ham ajratiladiki, unga *kuchaytiruv (kuvvetlendirme)* va *ehtimol (ihtimal)* shakli deyiladi. Murakkab tuslanishda ko'p hollarda *-i* o'zagi tushiriladi: *gelmiş idi (kelgan edi)*, *geldi ise (kelgan bo'lsa)*, *geliyor imiş (kelayotgan emish)* kabi.

Hikoya murakkab zamon shakli (Hikaye Birleşik Zamani)

Hikoya murakkab zamon shakli *i-mek* fe'lining yaqin o'tgan zamon ko'rinishi asosida yasalgan murakkab tuslanishdir: *geliyor-du-m, gelmiş-ti-m, gel-di-y-di* kabi. Bunda *i-mek* fe'lining qo'shimchasi fe'ning murakkab hikoya qo'shimchasi bo'lib, o'tgan zamonning hikoyasini ifodalab keladi.

Buyruq mayli shaklidan boshqa mayllarning barchasida hikoya shakli mavjud. Hikoya shaklida asl tuslanish oldin keladi: *hozirgi zamon hikoyasi, shartning hikoyasi* kabi.

Turkiy tillarda nutqda zamonning harakat nuqtasini o'tmishga o'tkazish mumkin. Bu harakat nuqtasidan *gelmek* fe'lining hozirgi zamoni *geçmişte geliyor = geliyordu* bo'ladi. Bu yerda bir qo'shma fe'lga ikkita zamon qo'shimchasi qo'shilgan: biri fe'l o'zagiga qo'shilgan *-iyor* hozirgi zamon qo'shimchasi, ikkinchisi eski bir yordamchi fe'l (*er-di > i-di > -di*) dan qolgan *-di* o'tgan zamon qo'shimchasidir. Ikkinchi qo'shimcha hozirgi zamon fe'lini o'tmishga ko'chirgan va hozirda nisbat qo'shimchasiga aylangan.

Hikoya shakli fe'l ifodalagan ish-harakatning hikoya shaklida anglatilishini ta'minlaydi. Fe'ning barcha xabar mayli shakllari hikoya murakkab zamon shaklida tuslanadi.

Turk tilida *i-mek* fe'li bilan *-di* yaqin o'tgan zamon qo'shimchasining birlashishi natijasida tuslanuvchi va murakkab shakl hosil qiluvchi zamon shakllari quyidagilardir:

Hozirgi zamonning hikoyasi (şimdiki zamanın hikayesi);

Yaqin o'tgan zamonning hikoyasi (belirli (görülen) geçmiş zamanın hikayesi);

Uzoq o'tgan zamonning hikoyasi (belirsiz (öğrenilen) geçmiş zamanın hikayesi);

Hozirgi kelasi zamonning hikoyasi (geniş zamanın hikayesi);

Kelasi zamonning hikoyasi (gelecek zamanın hikayesi).

Hozirgi zamonning hikoyasi (*şimdiki zamanın hikayesi*) hozirgi zamon qo‘shimchasi bo‘lgan *-iyor* va *-di* yaqin o‘tgan zamon qo‘shimchasining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi:

sev-iyor-um - sev-iyor-du-m;

oku-yor-um - oku-yor-du-m kabi.

vermek vermemek

<i>ver-i-yor-du-m</i>	<i>ver-mi-yor-du-m</i>
<i>ver-i-yor-du-n</i>	<i>ver-mi-yor-du-n</i>
<i>ver-i-yor-du</i>	<i>ver-mi-yor-du</i>
<i>ver-i-yor-du-k</i>	<i>ver-mi-yor-du-k</i>
<i>ver-i-yor-du-nuz</i>	<i>ver-mi-yor-du-nuz</i>
<i>ver-i-yor-lar-di</i>	<i>ver-mi-yor-lar-di</i>

Hozirgi zamon hikoyasi shaklining so‘roq ko‘rinishi quyidagicha yasaladi:

sev-i-yor-mu-y-du-m? - sev-mi-yor-mu-y-du-m?

oku-yor-mu-y-du-m? - oku-mu-yor-mu-y-du-m? kabi.

Yaqin o‘tgan zamonning hikoyasi (*belirli ge‘miş zamanın hikayesi*) fe‘l negizining *-di* yaqin o‘tgan zamon qo‘shimchasi olgan shakliga yana bir *-di* yaqin o‘tgan zamon qo‘shimchasining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi:

sev-di-m - sev-di-y-di-m;

oku-du-m - oku-du-y-du-m kabi.

gelmek gelmemek

<i>gel-di-y-di-m</i>	<i>gelme-di-y-di-m</i>
<i>gel-di-y-di-n</i>	<i>gelme-di-y-di-n</i>
<i>gel-di-y-di</i>	<i>gelme-di-y-di</i>
<i>gel-di-y-di-k</i>	<i>gelme-di-y-di-k</i>
<i>gel-di-y-di-niz</i>	<i>gelme-di-y-di-niz</i>
<i>gel-di-y-di-ler</i>	<i>gelme-di-y-di-ler</i>

Yaqin o‘tgan zamon hikoyasining so‘roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-di mi-y-di-m? - sevme-di mi-y-di-m?

oku-du mu-y-du-m? - okuma-di mi-y-di-m? kabi.

Uzoq o‘tgan zamonning hikoyasi (*belirsiz ge‘miş zamanın hikayesi*). Uzoq o‘tgan zamonning hikoyasi fe‘l negizining *-miş* uzoq

o'tgan zamon qo'shimchasi olgan shakliga *-di* yaqin o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-miř-im - sev-miř-ti-m;

oku-muř-um - oku-muř-tu-m kabi.

demek dememek

<i>de-miř-ti-m</i>	<i>deme-miř-ti-m</i>
<i>de-miř-ti-n</i>	<i>deme-miř-ti-n</i>
<i>de-miř-ti</i>	<i>deme-miř-ti</i>
<i>de-miř-ti-k</i>	<i>deme-miř-ti-k</i>
<i>de-miř-ti-niz</i>	<i>deme-miř-ti-niz</i>
<i>de-miř-ler-di</i>	<i>deme-miř-ler-di</i>

Uzoq o'tgan zamon hikoyasining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-miř mi-y-di-m? - sevme-miř mi-y-di-m?

oku-muř mu-y-du-m? - okuma-miř mi-y-di-m? kabi.

Hozirgi-kelasi zamonning hikoyasi (*geniř zamanın hikoyesi*).

Hozirgi-kelasi zamonning hikoyasi fe'l negizining *-r(-ir)* hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi olgan shakliga *-di* yaqin o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sil - er - im - sil - er - di - m;

sil - me - m - sil - mez - di - m kabi.

Hozirgi kelasi zamon hikoyasi shakli singarmonizm qoidasiga bo'ysunadi: *sil - er - di - m, bak- ar - d i - m, bil- ir - di - m, oku- r - du - m, gör- ür - dü - m* kabi.

gezmek gezmemek

<i>gez-er-di-m</i>	<i>gez-mez-di-m</i>
<i>gez-er-di-n</i>	<i>gez-mez-di-n</i>
<i>gez-er-di</i>	<i>gez-mez-di</i>
<i>gez-er-di-k</i>	<i>gez-mez-di-k</i>
<i>gez-er-di-niz</i>	<i>gez-mez-di-niz</i>
<i>gez-er-ler-di</i>	<i>gez-mez-ler-di</i>

Hozirgi kelasi zamon hikoyasining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sil-er mi-y-di-m? - sil-mez mi-y-di-m?

oku-r mu-y-du-m? - oku-maz m i - y - di - m? kabi.

Kelasi zamonning hikoyasi (*gelecek zamanın hikayesi*) fe'l negizining *-ecek* kelasi zamon qo'shimchasi olgan shakliga *-di* yaqin o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sil-ecek - sil-ecek - ti;

sil-me -y-ecek - sil-me- y-ecek- ti kabi.

Kelasi zamon hikoyasi shakli singarmonizm qoidasiga bo'ysunadi: *sil -ecek -ti-m, bak- acak -ti-m* kabi.

silmek silmemek

<i>sil-ecek-ti-m</i>	<i>silme-y-ecek-ti-m</i>
<i>sil-ecek-ti-n</i>	<i>silme-y-ecek-ti-n</i>
<i>sil-ecek-ti</i>	<i>silme-y-ecek-ti</i>
<i>sil-ecek-ti-k</i>	<i>silme-y-ecek-ti-k</i>
<i>sil-ecek-ti-niz</i>	<i>silme-y-ecek-ti-niz</i>
<i>sil-ecek-ler-di</i>	<i>silme-y-ecek-ler-di</i>

Kelasi zamon hikoyasining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:
sil-ecek mi-y-di-m? - silme-y-ecek mi-y-di-m?

oku-y-acak mi-y-di-m? - okuma-y-acak mi-y-di- m? kabi.

Rivoyat murakkab zamon shakli (*Rivayet Birleşik Zamanı*)

Fe'llarning rivoyat murakkab zamon shakli *i-mek* fe'lining uzoq o'tgan zamon shakli (*imiş*) vositasida yasaladi: *bilir-miş-im, bilmiş-miş, bilse-y-miş-iz* kabi.

Rivoyat murakkab zamonning buyruq mayli shakli ham yo'q. Qolgan barcha fe'l zamon shakllarining rivoyati mavjud. Bu tuslanishda *i-mek* fe'lining qo'shimchasi o'tgan zamonning hikoyasini ifodalab keladi.

Turk tilida rivoyat murakkab zamon shakli to'rtga ajratiladi: *hozirgi zamonning rivoyati, uzoq o'tgan zamonning rivoyati, hozirgi-kelasi zamonning rivoyati, kelasi zamonning rivoyati.*

Hozirgi zamonning rivoyati (*şimdiki zamanın rivayeti*).

Hozirgi zamonning rivoyati shakli *-iyor* hozirgi zamon qo'shimchasi va *-miş* uzoq o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

bil-i-yor-um - bil-i-yor-muş-um;

oku-yor-um - oku-yor-muş-um kabi.

vermek vermemek

<i>ver-i-yor-muş-um</i>	<i>ver-mi-yor-muş-um</i>
<i>ver-i-yor-muş-sun</i>	<i>ver-mi-yor-muş-sun</i>
<i>ver-i-yor-muş</i>	<i>ver-mi-yor-muş</i>
<i>ver-i-yor-muş-uz</i>	<i>ver-mi-yor-muş-uz</i>
<i>ver-i-yor-muş-sunuz</i>	<i>ver-mi-yor-muş-sunuz</i>
<i>ver-i-yor-lar-miş</i>	<i>ver-mi-yor-lar-miş</i>

Hozirgi zamon rivoyatining soʻroq shakli quyidagicha yasaladi:

bil-i-yor-muş muyum? - *bil-mi-yor-muş muyum?*

oku-yor-muş muyum? - *okumu-yor-muş muyum?* kabi.

Yaqin oʻtgan zamonning rivoyati (*belirli (görülen) geçmiş zamanın rivayeti*). Yaqin oʻtgan zamonning rivoyati feʼl negizining *-di* yaqin oʻtgan zamon qoʻshimchasi olgan shakliga *-miş* uzoq oʻtgan zamon qoʻshimchasi qoʻshilishidan hosil boʻladi:

sev-di-m - *sev-di-y-miş-im*;

oku-du-m - *oku-du-y-muş-um* kabi.

gelmek gelmemek

<i>gel-di-y-miş-im</i>	<i>gelme-di-y-miş-im</i>
<i>gel-di-y-miş-sin</i>	<i>gelme-di-y-miş-sin</i>
<i>gel-di-y-miş</i>	<i>gelme-di-y-miş</i>
<i>gel-di-y-miş-iz</i>	<i>gelme-di-y-miş-iz</i>
<i>gel-di-y-miş-siniz</i>	<i>gelme-di-y-miş-siniz</i>
<i>gel-di-y-miş-ler</i>	<i>gelme-di-y-miş-ler</i>

Yaqin oʻtgan zamon rivoyatining soʻroq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-di-y-miş miyim? - *sevme-di -y- miş miyim?*

oku-du-y-muş muyum? - *okuma-di-y-miş muyum?* kabi.

Uzoq oʻtgan zamonning rivoyati (*belirsiz geçmiş zamanın rivayeti*). Uzoq oʻtgan zamonning rivoyat shakli feʼl negizining *-miş* uzoq oʻtgan zamon qoʻshimchasi olgan shakliga yana bir *-miş* qoʻshimchasining qoʻshilishidan hosil boʻladi:

sev-miş - im - *sev-miş -miş -im*

oku-muş -um - *oku-muş-muş-um* kabi.

gelmek gelmemek

<i>gel-miş-miş-im</i>	<i>gelme-miş-miş-im</i>
<i>gel-miş-miş-sin</i>	<i>gelme-miş-miş-sin</i>
<i>gel-miş-miş</i>	<i>gelme-miş-miş</i>
<i>gel-miş-miş-iz</i>	<i>gelme-miş-miş-iz</i>
<i>gel-miş-miş-siniz</i>	<i>gelme-miş-miş-siniz</i>
<i>gel-miş-ler-miş</i>	<i>gelme-miş-ler-miş</i>
<i>gel-miş-miş-ler</i>	<i>gel-me-miş-miş-ler</i>

Uzoq o'tgan zamon rivoyatining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-miş-miş miyim? - *sevme-miş-miş miyim?*

oku-muş-muş muyum? - *okuma-miş-miş miyim?* kabi.

Hozirgi-kelasi zamonning rivoyati (*geniş zamanın rivayeti*) fe'l negizining *-r (-ir)* hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi olgan shakliga *-miş* uzoq o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev-er -im - sev-er -miş -im

oku-r- um - oku-muş-um kabi.

Hozirgi kelasi zamon rivoyati shakli singarmonizm qoidasiga bo'ysunadi: *sev -er -miş-im, bak- ar -muşım, bil-ir-mişim, gör-ür-müşüm* kabi.

gitmek gitmemek

<i>gid-er-miş-im</i>	<i>git-mez-miş-im</i>
<i>gid-er-miş-sin</i>	<i>git-mez-miş-sin</i>
<i>gid-er-miş</i>	<i>git-mez-miş</i>
<i>gid-er-miş-iz</i>	<i>git-mez-miş-iz</i>
<i>gid-er-miş-siniz</i>	<i>git-mez-miş-siniz</i>
<i>gid-er-miş-ler</i>	<i>git-mez-miş-ler</i>
<i>(gid-er-ler-miş)</i>	<i>(git-mez-ler-miş)</i>

Hozirgi kelasi zamon rivoyatining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-er-miş miyim? - *sev-mez-miş miyim?*

oku-r-muş muyum? - *oku-maz-miş miyim?* kabi.

Kelasi zamonning rivoyati (*gelecek zamanın rivayeti*). Kelasi zamonning rivoyati fe'l negizining *-ecek* kelasi zamon qo'shimchasi

olgan shakliga *-miş* uzoq o'tgan zamon qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'ladi:

sev - ecek - sev-ecek -miş

oku-y-acak - oku-y-acak-miş kabi.

Kelasi zamonning rivoyati shakli turkiy singlarmonizm qoidasiga bo'ysunadi: *sev -ecek -miş-im, bak- acak -miş-im* kabi.

bilmek bilmemek

<i>bil-ecek-miş-im</i>	<i>bilme-y-ecek-miş-im</i>
<i>bil-ecek-miş-sin</i>	<i>bilme-y-ecek-miş-sin</i>
<i>bil-ecek-miş</i>	<i>bilme-y-ecek-miş</i>
<i>bil-ecek-miş-iz</i>	<i>bilme-y-ecek-miş-iz</i>
<i>bil-ecek-miş-siniz</i>	<i>bilme-y-ecek-miş-siniz</i>
<i>bil-ecek-miş-ler</i>	<i>bilme-y-ecek-miş-ler</i>
<i>(bil-ecek-ler-miş)</i>	<i>(bilme-y-ecek-ler-miş)</i>

Kelasi zamon rivoyatining so'roq shakli quyidagicha yasaladi:

sev-ecek-miş miyim? - *sevme-y-ecek-miş miyim?*

oku-y-acak-miş miyim? - *okuma-y-acak-miş miyim?* kabi.

Fe'lining shart murakkab zamon shakli

(Şart Birleşik Zaman Şekli)

Fe'lining shart murakkab zamon shakli *i-mek* fe'lining shart mayli qo'shimchasi vositasida yasalgan murakkab tuslanish shaklidir: *içiyor-sa-mız, beklemiş-sek, gördü-y-müş-se, gelecekler-se* kabi. Bu tuslanishda *i-mek* fe'lining qo'shimchasi shartni ifodalaydi. Buyruq, shart va istak mayllari shakllarining shart murakkab zamon shakli mavjud emas. Qolgan barcha xabar mayli shakllarining shart murakkab zamon shakllari mavjud.

Shart murakkab zamon shakli 6 xil ko'rinishga ega:

1. *Hozirgi zamonning sharti (gel-iyor-sa-m);*
2. *Yaqin o'tgan zamonning sharti (gel-di-y-se-m);*
3. *Uzoq o'tgan zamonning sharti (gel-miş-se-m);*
4. *Hozirgi-kelasi zamonning sharti (gel-ir-se-m);*
5. *Kelasi zamonning sharti (gel-ecek-se-m);*
6. *Keraklilik maylining sharti (gel-meli-y-se-m)*

Fe'lining shart murakkab zamon shakli shaxs-son qo'shimchalari olib tuslanadi.

Kuchaytiruv (kuvvetlendirme) va ehtimol (ihtimal) shakllari *i-mek* fe'lining hozirgi zamon qo'shimchasi bilan yasalgan murakkab tuslanish ko'rinishlaridir: *gerçekleştirilecek-tir, gelmiş-tir, biliyorsundur, göreceksiniz-dir* kabi. Bu tuslanishda faqat xabar maylining birlik 3-shaxs qo'shimchasi bo'lgan *-dir (-dir, -dür, -dur, -tir, -tır, -tür, -tur)* qo'llanadi. Shuning uchun ham ularning shakli 3-shaxslar ko'rinishida bo'ladi (*seviyor-sun-dur, yapıyorlardır*). Ushbu qo'shimcha qo'shilmaydigan mayl va shaxs shakllari ham borligi bois uni hikoya, rivoyat va shart shakllari kabi to'la murakkab tuslanish shakli deyish qiyin. Bu tuslanishda *-dir* qo'shimchasi kuchaytiruv va ehtimolni ifodalab keladi: (*mutlaka gelmiş-tir, (belki) gelmiş-tir* kabi).

Murakkab tuslanish shakliga *i-mek* fe'li ustma-ust qo'shilganda uch qo'shimchali o'ta murakkab tuslanish shakli yuzaga keladi. «O'ta murakkab tuslanish» deb nomlangan ko'rinish faqat shart mayli qo'shimchasi bilan ikki xil yasaladi: *hikoyaning sharti (sev-iyor-du-y-sa-m, yap-iyor-du-y-san)* va *rivoyatning sharti (sev-iyor-muş-sa-m, yap-iyor-muş-san)*.

Hikoyaning sharti (Hikayenin şartı) murakkab hikoya tuslanish shakliga *i-mek* fe'lining sharti qo'shimchasi qo'shilib yasalgan o'ta murakkab tuslanish shaklidir: *gel-i-yor-du-y-sa-n, gel-miş-ti-y-se, yap-acak-muş-sa-nız* kabi.

bilmek bilmemek

Ben	bil-i-yor-du-y-sa-m	bil-m-i-yor-du-y-sa-m
Sen	bil-i-yor-du-y-sa-n	bil-m-i-yor-du-y-sa-n
O	bil-i-yor-du-y-sa	bil-m-i-yor-du-y-sa
Biz	bil-i-yor-du-y-sa-k	bil-m-i-yor-du-y-sa-k
Siz	bil-i-yor-du-y-sa-nız	bil-m-i-yor-du-y-sa-nız
Onlar	bil-i-yor-lar-dıy-sa bil-i-yor-duy-sa-lar	bil-m-i-yor-lar-dıy-sa bil-m-i-yor-duy-sa-lar

Rivoyatning sharti (Rivayetin şartı) murakkab rivoyat tuslanish shakliga *i-mek* fe'lining sharti qo'shimchasi qo'shilib yasalgan o'ta murakkab tuslanish shaklidir: *bil-i-yor-muş-sa, gel-ecek-miş-se-n, oku-y-acak-tı-y-sa* kabi.

Ben	bil-i-yor-muş-sa-m	bil-m-i-yor-muş-sa-m
Sen	bil-i-yor-muş-sa-n	bil-m-i-yor-muş-sa-n
O	bil-i-yor-muş-sa	bil-m-i-yor-muş-sa
Biz	bil-i-yor-muş-sa-k	bil-m-i-yor-muş-sa-k
Siz	bil-i-yor-muş-sa-nız	bil-m-i-yor-muş-sa-nız
Onlar	bil-i-yor-muş-sa-lar	bil-m-i-yor-muş-sa-lar
	bil-i-yor-sa-lar-miş	bil-m-i-yor-sa-lar-miş

QO‘SHMA FE‘L SHAKLLARI. KO‘MAKCHI FE‘LLAR

(*Tasvir Fiilleri*)

Turk tilida *-e* va *-i* ravishdosh qo‘shimchalariga ba‘zi “*yarim yordamchi fe‘llar*” qo‘shilib yasalgan shakllarga qo‘shma (murakkab) fe‘l shakllari (*tasvir filleri*) deyiladi. Buday shakllar ravishdosh holatida turgan fe‘ldan anglashilgan ish-harakat, holatning yuzaga kelishini ifodalaydi. Bunda ravishdosh ma‘nosi asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular xuddi shu xususiyatlari bilan boshqa murakkab fe‘llardan farq qiladi: *yap-abil-mek* (*qila olmoq*), *al-i-ver-mek* (*olib yubormoq*), *yürü-ye-dur-mak* (*yuraturmoq*), *dur-a-kal-mak* (*to‘xtab qolmoq*), *öl-e-yazmak* (*o‘layozmoq*) kabi.

Tasvir fe‘llari har doim qo‘shib yoziladi va ularning ikkinchi qismi singarmonizm qoidasiga bo‘ysunmaydi. Tasvir fe‘llari ma‘no jihatdan to‘rt turga bo‘linadi:

1. Imkoniyat fe‘llari (*yeterlik (yeterlilik) filleri*);
2. Ko‘makchi (tezlik) fe‘llar (*tezlik filleri*);
3. Davom fe‘llari (*sürek filleri*);
4. Taxmin fe‘llari (*yaklaşık filleri*).

Imkoniyat fe‘llari (*yeterlik (yeterlilik) filleri*). Imkoniyat fe‘llari⁹ fe‘l o‘zagiga qo‘shilgan *-e* ravishdosh qo‘shimchasidan keyin ko‘makchi vazifasidagi *bilmek* fe‘li qo‘shib yasaladi va ish-harakat yoki holatning yuz berishi mumkinligi, ehtimoldan holi emasligini bildiradi: *gör-e-bilmek*, *düşün-e-bilmek*, *atla-y-a-bilmek* kabi. Imkoniyat fe‘llari tasvir fe‘llarining nutqda eng faol qo‘llaniluvchi turi bo‘lib, barcha zamon shakllarida tuslanadi va mayllar bo‘yicha

⁹ Imkoniyat fe‘llarining o‘zbek tilshunosligidagi yana bir nomi “Iqtidor fe‘llari”dir

o'zgaradi: *anlatabildim, görebilirsiniz, alabilmiş, varabilmelisiniz, yürüyebiliyordu, yetişebilseymişim, kaçabilelim* kabi.

Hozirgi turk tilida imkoniyat fe'llarining tuslanmaydigan shakllari ham uchraydi. Bular harakat nomi va sifatdosh shakllaridir: *Maksat görüosebilmek (Maqsad ko'risha olmoq). "Ne mutlu yapabilene" (Buni qila olgan qanday baxtli). Verebileceğini vermiş (Bera olganichasini beribdi), Alabildiğin kadar götür (Olganingcha olib ket).*

Imkoniyat fe'llarining bo'lishsiz shakli ancha qadimgi yordamchi fe'l (eski turkcha *u-mak* fe'lining bo'lishsiz shakli - *u-ma-mak (kil-a umamak)* asosida yuzaga kelgan. Keyinchalik *u-* unlisining tushishi natijasida hozirda qo'llanayotgan va turkiy singarmonizm qonuniga bo'ysunuvchi *ma-mak (me-mek)* shakli paydo bo'lgan va hozirgacha saqlangan: *gezememek (gezemiyorum), kalkamamak (kalkamadınız)* kabi. Imkoniyat fe'llarining bo'lishsiz shakli bo'lishli shaklga parallel o'laroq barcha tuslanish shakllari va fe'ning vazifadosh shakllari qolipiga kiradi: *Çok insan bunu anlayamaz (Ko'p odam buni tusuna olmaydi). Yapamayacağını vaadetme (Qo'lingdan kelmaydigan ishni va'da berma). "Bükemediğin eli öp" (atasözü) ("Buka olmagan qo'lni o'p")* kabi.

Ta'kidlash joizki, ravishdoshlarning bo'lishsiz shakli ham *-me* qo'shimchasi vositasida yasaladi (*gitmeyebileceğim, kalmayabirsiniz*). Bu esa shaxsning imkansizligini emas, ish-harakatni bajarmaslik imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Imkoniyat fe'llarining tuslanishi (yetelik eyleminin çekimi)
şimdiki zaman görülen geçmiş zaman

<i>yapabiliyorum</i>	<i>Yapamıyorum</i>	<i>yapabildim</i>	<i>yapamadım</i>
<i>yapabiliyorsun</i>	<i>yapamıyorsun</i>	<i>yapabildin</i>	<i>yapamadın</i>
<i>yapabiliyor</i>	<i>yapamıyor</i>	<i>yapabildi</i>	<i>yapamadı</i>
<i>yapabiliyoruz</i>	<i>yapamıyoruz</i>	<i>yapabildik</i>	<i>yapamadık</i>
<i>yapabiliyorsunuz</i>	<i>yapamıyorsunuz</i>	<i>yapabildiniz</i>	<i>yapamadınız</i>
<i>yapabiliyorlar</i>	<i>yapamıyorlar</i>	<i>yapabildiler</i>	<i>yapamadılar</i>

öğrenilen geçmiş zaman gelecek zaman

<i>yapabilmişim</i>	<i>yapamamışım</i>	<i>yapabileceğim</i>	<i>yapamayacağım</i>
<i>yapabilmişsin</i>	<i>yapamamışsın</i>	<i>yapabileceksin</i>	<i>yapamayacaksın</i>
<i>yapabilmiş</i>	<i>yapamamış</i>	<i>yapabilecek</i>	<i>yapamayacak</i>
<i>yapabilmişiz</i>	<i>yapamamışız</i>	<i>yapabileceğiz</i>	<i>yapamayacağız</i>
<i>yapabilmişsiniz</i>	<i>yapamamışsınız</i>	<i>yapabileceksiniz</i>	<i>yapamayacaksınız</i>
<i>yapabilmişler</i>	<i>yapamamışlar</i>	<i>yapabilecekler</i>	<i>yapamayacaklar</i>

geniş zaman

<i>yapabilirim</i>	<i>yapamam</i>
<i>yapabilirsin</i>	<i>yapamazsın</i>
<i>yapabilir</i>	<i>yapamaz</i>
<i>yapabiliriz</i>	<i>yapamayız</i>
<i>yapabilirsiniz</i>	<i>yapamazsınız</i>
<i>yapabilirler</i>	<i>yapamazlar</i>

Imkoniyat fe'lining oddiy shart shakli tuslanishi quyidagicha:

yapabilmek yapamamak

<i>yapabilsem</i>	<i>yapamasam</i>
<i>yapabilsen</i>	<i>yapamasan</i>
<i>yapabilse</i>	<i>yapamasa</i>
<i>yapabilsek</i>	<i>yapamasak</i>
<i>yapabilseniz</i>	<i>yapamasanız</i>
<i>yapabilseler</i>	<i>yapamasalar</i>

Imkoniyat fe'llarining nutqda eng faol qo'llanadigan shart murakkab tuslanish shakli hozirgi-kelasi zamonaning sharti hisoblanadi:

<i>yap-a-bil-ir-se-m</i>	<i>Yap-a-maz-sa-m</i>
<i>yap-a-bil-ir-se-n</i>	<i>yap-a-maz-sa-n</i>
<i>yap-a-bil-ir-se</i>	<i>yap-a-maz-sa</i>
<i>yap-a-bil-ir-se-k</i>	<i>yap-a-maz-sa-k</i>
<i>yap-a-bil-ir-se-niz</i>	<i>yap-a-maz-sa-niz</i>
<i>yap-a-bil-ir-ler-se</i>	<i>yap-a-maz-lar-sa</i>

Ko'makchi fe'llar turk tilida *tezlik fiili* yoki *ivedilik fiili* deyiladi. Ko'makchi fe'llar fe'l negiziga *-i* (*-i*, *-ü*, *-u*) qo'shimchasi va undan keyin *vermek* yordamchi fe'li qo'shilib yasaladi: *al-i-vermek*, *çek-i-vermek*, *gör-ü-vermek*, *yaz-i-vermek*, *ol-u-vermek* kabi. Ular ish-harakatning tezlik bilan, bir lahzada, oson amalga oshishi yoki oshirilishini ifodalaydi: "*Doldur doldur, rakı ver. Sen de bir tek çakıver. Dönerse güzel başın, göğsüme bırakıver*" (*türkü*). Uning eski

turkchadagi shakli *tuta bermek, eti bermek* bo'lgan va nutqda faol qo'llangan. Tezlik fe'llari ham imkoniyat fe'llari kabi fe'lning barcha tuslanish shakllarini ola olsa-da, har qanday fe'l bilan birga qo'llana olmaydi: *çikariverirsen, çöküverdi, anlativerin, atlayivermeliydiniz, şaşırverirsem, görünüverince* va h.

Tezlik fe'llari 2- va 3- shaxslardan bir ish-harakatning bajari-lishi, bir narsani iltimos qilish ma'nosida ham qo'llanadi: *Tuzluğu uzativerin. Oğlum, bakıversen e! Ali şunu götürüversin* kabi. Tezlik fe'llarining bo'lishsiz shakli yordamchi fe'lning bo'lishsiz ko'rinishi bilan yasaladi (*alivermemek, inanivermemek*). Bu shakl qo'shma fe'l-dagi tezlik ma'nosini bo'lishsizlashtiradi. Undan tashqari, ravishdoshni ham bo'lishsizlashtirishi mumkin (*almayivermek, inanmayivermek*). So'zning bunday tuzilishi ish-harakatning kutilmagan holatda bo'lishsiz davom etishini bildiradi: *bakmayıverdim, görünmeyiverir, dinlemeyiversin* kabi. "... *ne işler yarım kalmıştır bir kalleşin ulandırverdiği sinsi kuşularla! Zayıf bir anınızı bulup biniverivor dalmıza* (S.E., M.K., 65).

Davomiylik fe'llari (*sürek filleri*) so'zga -e ravishdosh qo'shimchasidan keyin *durmak, kalmak, görmek, gelmek* kabi yarim yordamchi fe'llar qo'shilib yasaladi: *yürüyedurmak, bakakalmak, isteyegörmek, olagelmek* kabi. Ular ish-harakatning surunkali davom etishini ifodalaydi. Bulardan *durmak* fe'li qadimgi turkchadan boshlab yarim yordamchi fe'l bo'lib, avval *turur*, keyinchalik *durur* hozirgi zamon turkchasida esa -*dir* shaklini yuzaga keltirgan. Ikkinchi tomondan esa ish-harakat ma'nosini olib, davomiylik fe'llarini yuzaga keltirgan: *Sen okuyadur* (*Sen oqiyatur*). *O söylenedursun* (*U gapirib tursin*).

Kalmak fe'li bilan yasalgan davom fe'llari harakatsiz davom etishni bildiradi: *Arkasından bakakaldı. Uyuyakalsam, uyandırınlar. Herkes şaşakalmıştı* kabi.

Görmek fe'li bilan yasalgan davom fe'llari ham ish-harakatning davom etishini ifodalaydi: *Sen işine bakagörecektin.* "Bayezida *süregör devranını*" (*Şiir*). Bunday fe'llar ravishdoshlarning bo'lishsiz shakliga qo'shilganda «oxiri yaxshi bo'lmaydi» degan ma'no beradi: *Haydi bekleyelim, parayı geri vermeyegörsün* (*Qani kutaylik, pulni*

qaytarib bermay ko'rsin). *İpin ucunu qaçırmayagör* (Kalavaning uchini qochirmay ko'rchi). *İki dost birbirine fazla düşkün olmayagörsün, er geç bir kara kedi giriveriyor aralarına* (S.E., M.K., 65).

Gelmek fe'li bilan yasalgan davomiylık fe'llari ish-harakatning ancha oldindan boshlanib, hozirda davom etayotganini bildiradi: *Olagelmiş olagider* (*Qanday bo'lib kelgan bo'lsa, shunday bo'lib ketadi*). Bunlar her zaman söylenegelmiştir (*Bu har doim aytib kelingan*). *Böyle yapılagelmiş* (*Shunday qilib kelingan*). "*Mecnun Leylasını bulagelmiş*" ("*Majnun Laylosini izlab, topib kelgan*") kabi.

Taxmin fe'llari (*yaklaşık filler*) fe'l negiziga -e ravishdosh qo'shimchasi va undan keyin *yazmak* yordamchi fe'li qo'shib yasaladi. *Yazmak* yordamchi fe'li qadimgi turk tilidagi *yanılmak* ma'nosida qo'llanilgan bo'lib, usmonli turkchasidan taxmin fe'llari yasashda qo'llanilgan. Bu fe'llar bugungi kunda yuz berishi istalmagan ish-harakatning amalga oshishiga bir bahya qolgani, sal bo'lmasa yuz berishi mumkinligini bildiradi va yordamchi fe'lga qo'shib yoziladi: *düşeyazmak, yıkılayazmak, öleyazmak, boğulayazmak, kaçırayazmak* kabi.

Taxmin fe'llari yozma nutqda ham qo'llaniladi. U ko'proq turk tilining shevalari va og'zaki nutqda uchraydi: "*Şevkundan odlara tutuşup yanayazmışam*" (*qo'shiq*). *Ayağı kayıp düşeyazmış. Üç gün susuz, ekmeksiz kaldım, açtan öleyazdım* kabi.

FE'LNING VAZIFADOSH SHAKILLARI (FİİLİMSİLER)

Fe'ning shaxs va zamon qo'shimchalari olib tusanmaydigan shakllari fe'ning vazifadosh (funktional) shakllari deyiladi. Ular hozirgi zamon turk tilida *füllimsiler* ("fe'lsimonlar") yoki *yatk filler* ("yotiq fe'llar") deyiladi. Bu shakllar fe'ning muayyan grammatik kategoriyasiga mansub bo'lmay, turli vazifalarni bajaradi. Ular otlar kabi kelishik qo'shimchalari olib o'zgarishi va tugallanmagan fikrni ifodalovchi gaplarda kesim bo'lishi mumkin. Fe'ning ot, sifat va ravishga o'xshash vazifa bajaruvchi bunday shakllarini fe'ning boshqa shakllaridan ajratib turuvchi xususiyat esa ularning tugallanmagan bir fikrni bildirgan gapga kesim bo'la olishidir: *Ali'yi karşımda görmek*

beni şaşırtdı (Alini qarshimda ko'rish meni hayron qoldirdi). Evi kiralayacak hanım tekrar geldi (Uyni icaraga olmoqchi bo'lgan ayol yana keldi). "Çayı görmeden paçayı sıvama" (Soyni ko'rmasdan pachani shimarma) kabi. Bunday vaziyatda ular bog'lovchi ravish vazifasini bajaradi. Fe'l xarakteriga ega bo'lgan ba'zi vazifadosh shakllar turk tilida zamon, mayl shakllariga negiz bo'lishi ham mumkin. Xususan, bulardan bir guruhi – sifatdoshlar zamon shakllariga ham ega bo'ladi. Ularga fe'l shaxs qo'shimchalari qo'shilib, xabar mayli shakllari yasaydi (*bil-miş-im, bil-ir-sin, bil-ecek-siniz*) va shu tarzda fe'lning vazifadosh shakllari tuslanuvchi fe'l kabi namoyon bo'ladi. Biroq fe'lning bunday vazifadosh shakllari shaxs va zamon ma'nosiga ega bo'lishi bilan tuslanuvchi fe'l bo'lib qolmaydi. Chunki ular bu egalik olmoshlari bilan birgalikda ot kabi turlanadi: *Evden çıkışım tatsız oldu (Uydan chiqib ketishim yaxshi bo'lmadi). Manavın verdiği karpuz ham çıktı (Sotuvchi bergan tarvuz xom chiqdi). Ankara'ya geldiğinizde beni arayın (Anqaraga kelganingizda menga qo'ng'iroq qiling)* kabi.

Fe'lning vazifadosh shakllari uch xil bo'ladi: Harakat nomi (*ad-filler*) - fe'lning ot shakllari; Sifatdoshlar (*sifat-filler*) - fe'lning sifat shakllari; Ravishdoshlar (*zarf-filler*) - fe'lning ravish shakllari.

HARAKAT NOMI (*Ad-filler*)

Turk tilshunosligida fe'lning otlashgan shakli harakat nomi deb ataladi. Harakat nomi ish-harakat, holat yoki bo'lish, yuz berishni ifodalovchi otdosh shakl ham deyiladi: *istemek, uçurmak*. Harakat nomining *-mek (-mak)* shakli harakat nomi (*mastar; infinitif*) deyiladi: "*Kişi noksanını bilmek gibi irfan olmaz*" (*Kishi nuqsonini bilmoq kabi irfon bo'lmas*).

Turk tilida *-mek, -me, -iş* qo'shimchalari qo'shilib yasalgan uch xil harakat nomi mavjud (*bilmek, satmak, gelişme, çalışma, giriş, çıkış*). Undan tashqari, hozirgi zamon turk tilida kamdan-kam hollarda *-meklik* qo'shimchasi bilan uzaytirilgan holda yasalgan harakat nomlari ham uchraydi (*sevmeklik, yapmaktık*).

Harakat nomlarida shaxs ma'nosi bo'lmagani kabi, zamon ma'nosi ham yo'q. Masdarlar (*gelmek, yapmak, düşünmek*) egalik va boshqa shakl yasovchi qo'shimchalar olmaydi. *-mek* harakat nomi

oʻrniga *-me* harakat nomi qoʻshimchasi qoʻllanadi. Masalan, qadimgi turkchadagi *yörimegüm, demege, etmegi shakllari yangi turkchada yürümem, demeye, etmeyi* koʻrinishiga ega.

-me harakat nomi qoʻshimchasi *-mek* qoʻshimchasi asosida yuzaga kelgan boʻlib, hozirgi turk tilida asl ish-harakat otlari sifatida qoʻllanadi. Ular *hafif mastarlar (yengil harakat nomi shakllari)* ham deyiladi: *gitme, çalışma, evlenme, okuma* va h.

Harakat nomlari egalik va kelishik qoʻshimchalari ola olgani uchun gapda otlar oʻrnini egallashi mumkin: *Hatır için konuşmayı hiç başaramam (Hurmat uchun gapirishni hech eplay olmayman). Sizi rahatsız etmeleri yersiz olmuş (Sizni bezovta qilishlari toʻgʻri boʻlmabdi). Ehli keyfe keyf verir kahvenin kaynaması, eşiği baştan çıkarır sıpanın oynaması (Kayf ahliga kayf berar qahvaning qaynashi, eshakni jahlini chiqaradi xoʻtikning oynashi).*

Harakat nomi egalik qoʻshimchasi olishi mumkin: *Onun buradan karşıya geçmesi o kadar kolay değil (Bu yerdan narigi tomonga oʻtishi unchalik oson emas). Okumasını biliyorum da, anlamıyorum (Qanday oʻqishni bilaman-u, tushunmayman).*

-iş qoʻshimchali harakat nomlari ish-harakatning tarzini bildiradi: *geliş, görüş, anlayış, davranış*. Bu qoʻshimcha ham egalik va kelishik qoʻshimchalari olishi mumkin: *Sizin araya girişiniz durumu kurtardı (Sizning oʻrtaga tushishingiz vaziyatdan chiqishga yordam berdi). Metronun çıkışından buraya kadar 100 metre (Metroning chiqishidan bu yergacha 100 metr) kabi.*

SIFATDOSHLAR (Sıfat-filler)

Sifatdoshlar turk tilida *sıfat-filler* deyiladi. Grammatikaga oid baʼzi kitoblarda *partisipler* deb ham beriladi. Sifatdoshlar feʼning maʼnosini zamonga bogʻliq shaklda sifatlashtiruvchi shakldir. Sifatdoshlar predmetlarning harakat vasfini ifodalaydi. Shu tarzda, ular harakat va zamonnı ifoda etadi (*geçmiş günler, oturan adam, satılacak eşya*). Sifatdoshlar zamon maʼnosiga ega boʻlishi bilan harakat nomlaridan farq qiladi, faqat feʼning vazifadosh shakli boʻlgani uchun harakat nomlari kabi boʻlishsiz va passiv koʻrinishlarga ega boʻladi: *pişmemiş et, kızartılmış ekmek, görülmemiş şey, yılmayan adam, açılacak sergi, tutulmayacak sözler* kabi.

Sifatdoshlar uchga bo'linadi: aktiv sifatdoshlar (*etkin sifat-filler*), passiv sifatdoshlar (*edilen sifat-filler*) va bo'lishsiz sifatdoshlar (*olumsuz sifatfiller*). Shu nuqtai nazardan ular fe'ldan yasalgan sifatlar (*kirik, keskin, çalışkan*) dan farq qiladi.

Aktiv sifatdoshlar sifat so'z birikmalari ichida ko'pincha ish-harakatning egasiga (*batmış gemi, bilen adam, taşıyacak vasıta*), passiv sifatdoshlar esa ish-harakatning mantiqiy vositasiz to'ldiruvchisiga aniqlovchi (sifat) bo'lib keladi: *atılmış kağıt, çekilen telgraf, alınacak işçi*. Undan tashqari, sifatdoshlar boshqa shakllarda ham qo'llanadi: *yakacak, yakılacak odun; gidecek, gidilecek yol* kabi.

Sifatdoshlar turkcha lug'atlarda sifat va ot bo'lgan juda ko'p so'zlarni yuzaga keltirgan: *dolmuş, tanıdık, gelir, kıran, satıcı, yakacak, veresi* kabi. Zamon ma'nosini yo'qotganga o'xshab ko'ringan bu kabi fe'ldan yasalgan otlar sifatdosh vazifasiga o'tishi bilan o'zi qaysi zamonga oid bo'lgan bo'lsa, o'sha zamon ma'nosini ko'rsatib turadi. Shu sababdan ularni zamon ma'nosiga ko'ra ham guruhlantirish mumkin bo'ladi:

1. *O'tgan zamon sifatdoshlari (geçmiş sıfatfilleri);*
2. *Hozirgi zamon sifatdoshlari (şimdiki zaman sıfatfilleri);*
3. *Kelasi zamon sifatdoshlari (gelecek sıfatfilleri).*

O'tgan zamon sifatdoshlari (*geçmiş sıfat-filleri*) ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: *-miş* sifatdoshlari (*pışmış aş - pishgan ovqat*) va *-dik* sifatdoshlari (*tanıdık adam – tanish odam*).

-miş sifatdoshlari ko'pincha o'timsiz va passiv fe'l negizlaridan yasalgan passiv (*edilen*) sifatdoshlar hisoblanib, sifat kabi qo'llanadi: *geçmiş, düşmüş, kokmuş, kurumuş, kesilmiş, bükülmüş, kavrulmuş, katlanmış, tanınmış* kabi. Bunday sifatdoshlar egalik qo'shimchasi olmaydi va gap ichida so'zlardan birining sifati (aniqlovchisi) bo'lib keladi: *Bütün ülkeyi dolaşmış bir gazeteciyle konuştum (Butun mamlakatni aylanib chiqqan bir jurnalist bilan gaplashdim)*. Shuningdek, ular kelishik qo'shimchalari ham oladi: *“Mevlam sabırlar versin, yarinden ayrılmışa” (“Tangrim sabrlar bersin yoridan ayrilganga”)*. *“Tecrübe görmüş aldanmaz” (Tajribasi bo'lgan kishi aldanmaydi)*. *“Görmemişin oğlu olmuş, çekmiş çükünü koparmış” (Ko'rmagan o'g'il ko'ribdi, shoshilib chukini uzibdi, “Ko'rmagan-ning ko'rgani qursin”)*.

-miş sifatdoshlari shaxs qo‘shimchalari olib uzoq o‘tgan zamon shaklini yuzaga keltirgan: *Çocuk okuldan çıkmış ve eve geç dönmüş (Bola maktabdan chiqibdi va uyga kech qaytibdi).*

-dik sifatdoshlari turk tilida alohida sifat o‘laroq kam qo‘llanadi: *bildik arkadaş (bilgan, tanish do‘st), olmadık iş (bo‘lmagan ish), duyulmadık şeyler (eshitilmagan narsalar)* kabi. Ular boshlang‘ich holatda, ko‘pincha bo‘lishsiz sifatdosh shaklida faol qo‘llanadi: *“Çalmadık kapı bırakmamış” (Taqillatmagan eshigi qolmabdi). “Gelin girmedik ev olur, ölüm girmedik ev olmaz” (Kelin kirmagan uy bo‘ladi, o‘lim kirmagan uy bo‘lmaydi)* kabi.

-dik sifatdoshlari egalik qo‘shimchasi olgan holda keng qo‘llanadi: *sattığım araba (men sotgan mashina), açtığınız dava (siz qo‘zg‘atgan jinoiy ish), bildirdiği haber (u bildirgan xabar) va h. “Darıldığın dağın odununu yakma, boşadığın karının topuğuna bakma” (Arazlagan tog‘ingning o‘tinini yoqma, ajrashgan xotiningning to‘pig‘iga boqma).*

-dik sifatdoshlari gap ichida kelishik qo‘shimchalari olib turlangan holda qo‘llanishi mumkin: *“Cami ne kadar büyük olsa, imam gene bildiğini okur” (Jome‘ qanchalik katta bo‘lmasin, imom baribir bilganini o‘qiydi). “Duvarın kulağı var, gözünün olduğunu da unutma” (Devorning qulog‘i bor, ko‘zi borligini ham unutma). “Görmedikten mal alma, ya düğünde ister ya bayramda” (Ko‘rmagandan mol (narsa, qarz) olma, yo to‘yda, yo bayramda so‘raydi).*

Sifatdoshlar gap ichida bir bo‘lakning sifati (aniqlovchisi) bo‘lib keladi: *Oğuz’un köyden getirdiği haber doğru çıkmadı (O‘g‘uzning qishloqdan keltirgan xabari to‘g‘ri chiqmadi).*

Egalik qo‘shimchasi olgan -dik sifatdoshlari boshqa turli vazifalarda ham qo‘llanadi: *Oğuz’un köyden getirdiği (şey) doğru çıkmadı (O‘g‘uzning qishloqdan keltirgan (narsasi) to‘g‘ri chiqmadi).* Bu qo‘llanishda ot xarakteriga ega bo‘lgan bu sifatdosh kelishik qo‘shimchasi olgan: *Söylediğimi unutma = Unutma o‘şeyi ki, sana söyledim. Söylediğimi unutma. = Unutma ki, söyledim (Aytganimni unutma = Unutmaki, aytdim)* kabi.

-ik va -ili qo‘shimchalari vositasida fe‘ldan yasalgan otlar ham eskirgan o‘tgan zamon sifatdoshlaridir. Ular ma‘no jihatdan hozirgi

turk tilidagi passiv (*edilen*) sifatdoshlarga mos keladi (*kesilmiş, kesik, kesili; dikilmiş, dikili*). Lekin bu oxirgi shakllar turk tilida bo'lishsiz ko'rinishlarini yo'qotgan va ular sifatdosh vazifasida rivojlanmay qolgan shakllar hisoblanadi.

Turk tilshunosligida *-di (-di, -dü, -du, -ti, -tı, -tü, -tu)* qo'shimchasi olgan, nutqda juda kam qo'llanadigan sifatdoshlar ham ajratiladi. Ular bir nechta so'zda saqlanib qolgan fe'l tuslanishi shakliga egadir: *külbas-tı, beğen-di, de-di-ko-du, gece kon-du (gecekondu), kaptı kaçtı (kapkaç), oldu bitti* kabi. Lekin bu shaklning qoliplashib qolgan fe'l shakllari ekanligi, *-di* qo'shimchasi va variantlarining sof fe'l qo'shimchasi ekanligini unutmash kerak.

Hozirgi zamon sifatdoshlari (*şimdiki zaman sıfat-fülleri*) uch xil shaklda namoyon bo'ladi. Ular *-en, -ici, -ir* qo'shimchasi olgan holda yasaladi: *çalışan kadın (ishlovchi ayol), geçici heves (o'kinchi havas), akar su (oqar suv)* kabi. Ulardan eng faoli hisoblangan *-en* sifatdoshlari ancha chegaralangan hozirgi zamon va sodda ish-harakatni ifodalaydi: *geçen yıl, batan güneş, satılan ev, sönmeyen ateş* kabi.

-en sifatdoshlari *-miş* sifatdoshlari kabi egalik qo'shimchalari olmaydi va gap bo'laklaridan biriga sifat (aniqllovchi) bo'ladi: *Bu evi yapan usta Bursa'ya gitti (Bu uyni qurgan usta Bursaga ketdi)*. Ular gap ichida kelib, kelishik qo'shimchalari oladi: *"Minareyi çalan kilifini hazırlar"* (*Minora o'g'irlyaydigan g'ilofini oldindan tayyorlab qo'yadi*). *"Doğru söyleyeni dokuz köyden kovarlar"* (*To'g'ri gapirganni to'qqiz qishloqdan quvadilar*). *"Camdan köşkte oturan, başkalarının evine taş atamaz"* (*Oynavand ko'shkda yashaydigan kishi boshqasining uyiga tosh otmaydi*). *"Çarşıdan gelen üzüm, çöpüne kadar tatlı olur"* (*Bozordan kelgan uzum chopiga qadar shirin bo'ladi*). *"Çocuğa iş buyuran ardınca kendi gider"* (*Bolaga ish buyur, orqasidan o'zing yugur*). *"Çok gezen tavuk ayağında pis getirir"* (*Ko'p yurgan tovuq oyog'ida axlat keltiradi*). *"Görünen köy kılavuz istemez"* (*Ko'rinib turgan qishloq yo'l boshlovchi talab qilmaydi*). *"Gülü seven, dikenine katlanır"* (*Gulni sevgan, tikaniga chidaydi*). *"Havlayan köpek ısırmaz"* (*Huradigan it, tishlamas*) kabi.

-ici sifatdoshlari hozirgi davomiylik, odatiylik va kasb-hunar,

mashtg'ulot ma'nosida qo'llanadi: *üzücü haber, yırtıcı hayvan, geçici müdür* kabi. Ular ma'nolariga ko'ra har doim faol (majhul emas) va bo'lishli ko'rinishga egadir.

-*ici* sifatdoshlari -*en* sifatdoshlari kabi egalik qo'shimchalari olmasdan gapga sifat va olmosh tusi beradi: *İki ünlü arasına bir koruyucu ünsüz gelir* (Ikki unli orasida bir ayiruvchi unli keladi). *Kışkırtıcı ele geçmedi* (Buzg'unchi qo'lga olinmadi) kabi.

-*ir* (ba'zi o'zaklarda -*er*) va uning -*mez* bo'lishsiz shakli qo'shilib yasalgan sifatdosh shakllari hozirgi-kelasi zamon fe'llari (genish zaman)ni eslatadi. Ular biroz chegaralangan hozirgi zamon ifodasi va ancha nisbiy ish-harakat ma'nosiga ega. Ular sifat kabi muayyan otlarni aniqlab, belgilab keladi: *gül er yüz, içilir su, olur iş, yenir ayva, çıkmaz hesap, söz dinler çocuk, saygı değer hanım, şaka anlamaz adam* kabi. "Erim er olsun da, yatar yerim çalı olsun" (Erim erday bo'lsin, mayli yotar joyim chakalakzor bo'lsin).

-*ir* sifatdoshlari ham egalik qo'shimchasi olmasdan gap ichida bir so'zning sifati (aniqlovchisi) bo'lib keladi: *Emeğini karşılar bir ücret vereceksin* (Mehnatini qoplaydigan bir haq berasan) kabi. -*ir* sifatdoshlari fe'l shaxs qo'shimchalari olib, hozirgi-kelasi zamon shaklini yasaydi (*bil-ir-sin, yapılr-ır, gör-ür-üz*).

Ba'zi hozirgi zamon sifatdoshlari gap ichida egalik yoki kelishik qo'shimchasi olgan holda qo'llanishi mumkin: "Dağitanın payı olmaz" (Tarqatuvchi hissa olmaydi). "Çamura düşenin yağmurdan pervası olmaz" (Loyga tushgan yog'mirga parvo qilmaydi) kabi.

Kelasi zamon sifatdoshlari (*gelecek sıfat-filleri*) turk tilida saqlangan -*ecek* (-*acak*) qo'shimchasi vositasida yasaladi: *inecek yolcular, verilecek cevap, olmayacak teklif* kabi. Ular kelasi zamon ifodasidan tashqari ta'kid ma'nosida ham keladi (*gelecek konuk, çalınacak kapı*). Bunda ular passiv -*ecek* sifatdoshlari o'rnida keladi: *yatacak yer; içecek su; kaçacak delik* kabi.

-*ecek* sifatdoshlari -*dik* sifatdoshlari kabi o'tgan zamon sifatdoshlarining kelasi zamondagi parallel shaklini yuzaga keltiradi va gapda sifatdosh oboroti bo'ladi: *Bavulu getirecek adama bin lira verdi* (Jomadonni keltiradigan kishiga ming lira berdi).

-*ecek* sifatdoshlari egalik qo'shimchalari olmasdan ham

qoʻllanadi: *“Ondan gelecek Allahʼtan gelsin” (Undan keladigani Allohdan kelsin)*. Bu sifatdoshlar egalik qoʻshimchasi olgan holda sifat –aniqlovchi boʻlishi mumkin: *ödeyeceğiniz vergi, yapacağı kötülük, karşılaşacağım güçlük* kabi.

Egalik qoʻshimchalari olgan sifatdoshlar olmosh va harakat nomi sifatida ikki alohida ifodada qoʻllanadi: *Ustaya ödeyeceğiniz (şey) eski bir iş karşılığıdır (Ustaga toʻlaydiganingiz (narsa) ilgarigi bir ishning evazigadir)*. *Ustaya ödeyeceğiniz (ödeme niyetiniz) bana bildirildi (Ustaga toʻlovni toʻlashingiz menga maʼlum qilindi)*. *“Gölgesinde oturulacak ağaçın dalı kesilmez” (Soyasida oʻtiriladigan daraxtning shoxi kesilmas)*. *Karşıma çıkacağın gözünü patlatırım (Roʻparamdan chiqadiganining koʻzini oʻaman)* kabi. Bu oxirgi ikki qoʻllanishda ot oʻrnini bosuvchi sifatdosh kelishik qoʻshimchalari olgan va gapda turli boʻlaklarning oʻrnini egallagan.

-ecek sifatdoshlari *-miş* va *-ir* sifatdoshlari kabi shaxs qoʻshimchalari olib, kelasi zamon shaklini yuzaga keltirgan (*Sen geleceksin - Sen kelasan. Geleceğini biliyor – kelishingni biladi*).

-esi qoʻshimchasi bilan yasalgan feʼl negizli soʻzlar ham (*yıkılışı, ölesiye, göresi gelmek*) eski sifatdoshlar boʻlib, *-ecek* sifatdoshlariga mos keladi. Lekin ular turgʻunlashib, oʻz sintaktik vazifasidan mahrum boʻlgan: *Annemi göresim geldi (Onamni koʻrgim keldi)*. *Senin gülesin tuttu (Sening kulging qistadi)* kabi.

-ecek sifatdoshlari gapda aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Karşılaşacağın güçlükleri yenmelisin (Duch keladigan mashaqqatlarni yengib oʻtishing kerak)* kabi.

RAVISHDOSHLAR (Zarf-filler)

Ravishdoshlar turk tilida *zarf-filler* (ravish-fellar) deb ataladi. Ravishdoshlar harakatning holatini ifodalovchi oʻziga xos shakllar – *gerundiumlar* ham deyiladi. Oʻrta maktab dasturlarida ravishdoshlar *bağ filler* (bogʻ feʼllar) deyiladi. Ravishdoshlar, sifatdoshlarga teskari oʻlaroq, feʼlning ot kabi qoʻllanilmaydigan, turlanmaydigan, ham feʼllar kabi tuslanmaydigan shakllaridir. Ular holatni ifoda etuvchi shakllar boʻlib, gapda hol (*zarf tümleci*) boʻlib keladi. Shuningdek, baʼzi ravishdoshlar davomiylik, payt va sabab ravishi vazifasini ham bajaradi: *gülerek karşılamak, gelince aramak, alırken düşürmek* kabi.

Ravishdoshlar, har tilda bo'lgani kabi turk tilida ham zamon bilan butunlay bog'liq emas. Shu bois harakat nomlariga o'xshaydi, sifatdoshlardan esa farq qiladi. Ravishdoshlar fe'ning vazifadosh shakli bo'lgani uchun harakat nomi va sifatdoshlar kabi bo'lishsiz va passiv ko'rinishlarga ega bo'ladi: *bilmeyerek konusmak, bozuldukça yaptirmek, bakilmayalı kötüleşmek, gelince aramak* kabi.

Ravishdoshlarning sifatdoshlar kabi egalik qo'shimchalari olgan (*geldiğimizde: yazmayacağımdan*) va olmagan (*oturalı; duracakken*) shakllari ham mavjud. Shuningdek, ravishdoshlar harakat nomi va sifatdoshlar kabi otlasha olmaydi (*ötürü; giderek; oldukça*).

Turk tilshunosligida ravishdoshlar ma'nolariga ko'ra bir nechta kichik guruhga ajratiladi. Bular: bog'lovchi (*-ip* qo'shimchali) ravishdoshlar (*ulama zarf-fiilleri*); hol ravishdoshlari (*hal zarf-fiilleri*); zidlov (*-meden, -ceğine, -mektense, -ceği yerde*) ravishdoshlari (*karşıtlama zarf-fiilleri*); zamon ravishdoshlari (*zaman zarf-fiilleri*); sabab ravishdoshlari (*sebepl zarf-fiilleri*); qiyoslovchi ravishdoshlar (*karşılaştırma zarf-fiilleri*).

Ravishdoshlar yasalişhiga ko'ra ham turlicha. Ularning maxsus qo'shimchalar olib va fe'ning boshqa vazifadosh shakllari (harakat nomi va sifatdoshlar)dan kelishik qo'shimchalari vositasida yasalgan shakllari yoki yordamchi so'zlar bilan birikma shaklida bo'lgan turlari bor.

Bog'lovchi ravishdoshlar (*ulama zarffilleri*) *-ip* (*-ip, -up, -üp; -yip, -yıp, -yup, -yüp*) qo'shimchasi olib yasaladi: *bakıp, bilip, bulup, görüp; kalıp, sevip, olup, düşüp; başlayıp, okıyup, söyleyip* kabi. Ular ikki ish-harakatning ketma-ket (kamdan-kam hollarda bir vaqtda) bajarilganini bildiradi: *bakıp durmak, sürüp gitmek, kasıp kavurmak, atıp tutmak, silip süpürmek, düşüp kalkmak* va h. Misollar: *Attan inip, eşeğe bindik* (*Otdan tushib, eshakka mindik*). *Mektubu postaya atıp, geri dönecek* (*Xatni pochtaga tashlab orqaga qaytadi*) kabi.

Bog'lovchi ravishdoshlar nutqda ba'zan bog'lovchilar o'rnini bosishi mumkin (*Bırakıp gitti. = Bıraktı ve gitti. Kaçıp kurtulduk. = Kaçtık ve kurtulduk, silip süpürdüler = sildiler ve süpürdüler*).

-ip ravishdoshlari faqat ravishdosh bo'lib ham qo'llanadi: *Bunları eve götürüp ne yapacaksın?* (*Bularni uyga olib borib nima*

qilasan?) «Papaza kızıp orucu bozma!» (“Popga jahl qilib ro‘zangni buzma!”) kabi. Baʼzan *-erek* ravishdoshlari ham *-ip* ravishdoshlari oʻrnida qoʻllanishi mumkin: *Birçok da borç alarak ayrılmış* (*Ancha qarz olib, ketib qolibdi*). *Beni kırmayarak geldi* (*Meni xafa qilmay keldi*) kabi. Baʼzi gaplarda *-ip* va *-erek* ravishdoshlari ketma-ket qoʻllanishi mumkin: *Erken kalkıp kahvaltı ederek yola çıkmalıyız* (*Erta turib, nonushta qilib yoʻlga chiqishimiz kerak*). *Sandıği kırıp parayı alarak kaçmışlar* (*Sandiqni sindirib, pulni olib qochishibdi*) kabi.

Hol ravishdoshlari (*hal zarffilleri*) feʼl oʻzak va negizi asosida yasaladi: *ortaklaşa yaptırmak, yüzerek geçmek, dönerken uğramak, yatmışken kalkmak, düşünmeksizin harcamak* kabi.

-a, -e hol ravishdosh qoʻshimchasi eng eski qoʻshimchalaridan biri boʻlib, hozirgi zamon turk tilida qoliplashgan ravishdosh shakllari yasaydi: *gide gide, konuşa konuşa, ala ala, güle güle, geze geze, bağıra çağıra, ine çika* va h. Shuningdek, bu qoʻshimcha yordamida qoʻshma feʼllar va imkoniyat feʼllari shakli yasalgan: *gidedurmak, öleyazmak; düşünemilmek, düşünememek; yapabilmek, yapamamak* kabi.

Hol ravishdoshlari hozirgi zamon turk tilida qayta jonlangan va keng qoʻllanib kelinmoqda: “*Ağzım dilim kurudu, kız yalvara yalvara*” (*Ogʻzim-tilim quridi, qiz (senga) yolvora-yolvora*). *Evire çevire kıracaksın* (*Uni u qilib, bu qilib, sindirasan ishqilib*). *Ekin biçe biçe deste olur, insan gide gide usta olur* (*Ekin bicha –bicha dasta boʻladi, inson bora bora usta boʻladi*) kabi.

-arak, -erek qoʻshimchasi *-a, -e* ravishdoshining *-rak, -rek* kichraytiruv qoʻshimchasi qoʻshib uzaytirilgan shaklidir: *giderek; konuşarak, gülererek; alarak, inleyerek; başlayarak, düşünerek* kabi. Bu qoʻshimcha asosiy ish-harakatning amalga oshirilishiga yordamchi ish-harakatni ifodalaydi: “*Ve bir zaman bakacaksın semaya ağlayarak*” (*Va bir payt samoga yigʻlab qaraysan*) (*sheʼrdan*). *Başından kanlar akararak eve döndü* (*Boshidan qonlar oqib uyga qaytdi*). *El elin eşeğini türkü çığırarak arar* (*Birov (begona) birovning eshagini ashula aytib qidiradi*) kabi.

-arak, -erek ravishdoshlari bogʻlovchi ravishdoshlar (*-ip, -ip, -up, -üp*) oʻrnida ham qoʻllanishi mumkin. Bunda *-ip* qoʻshimchasi

ikki ish-harakatning birin-ketin bajarilganini bildirsa, *-erek* ravishdoshi ikki ish-harakatning bir paytda bajarilganini bildiradi. Masalan: *Ahmet eve gelip yemek yedi* (*Ahmad uyga kelib ovqat yedi*, ya'ni "Oldin uyga keldi, keyin ovqat yedi") gapini *Ahmet eve gelerek yemek yedi* deyish mumkin, lekin *Ahmet televizyon seyrederek yemek yedi* gapini *Ahmet televizyon seyredip yemek yedi* deyish to'g'ri bo'lmaydi.

Ushbu qo'shimchani chiqish kelishigi qo'shimchasi olib uzaytirilgan shakli ham nutqda keng qo'llanadi: "*Tek tek basaraktan, bade süzerekten, inci dizerekten, gel yarim, gel aman*" (*Bitta-bitta bosib, boda suzib, inju tizib, kel yorim, kelaqol*) (klassik adabiyotdan).

Eski turkchadan qolgan *-üben, -uban* qo'shimchasi hozirgi turk tilidagi *-erek, -arak* qo'shimchasining vazifasini bajargan: *gel-üben, dur-uban* kabi. Bu qo'shimchani o'zbek klassik she'riyati namunalarida ham uchratish mumkin: «*Har tuning qadr o'lubon, har kuning navro'z o'lsun*» (A. Navoiy).

Turk tilshunosligida *İmek fili* deb nomlangan «i» qo'shimchasidan so'ngra sifatdosh qo'shimchalaridan faqat *-dük* qo'shimchasi keladi va qoliplashadi. «i» qo'shimchasining ravishdosh shakli *i-ken* bo'lib, eski turkchada *er-gen*, keyinchalik *i-ken* bo'lgan va hozirgi zamon turk tilida «i» tushirilib *-ken* shakliga kelgan: *oradayken, gençken, anneyken, düşünürken, gidiyorken, yapmaktayken* kabi. "*Çay geçerken, at değiştirilmez*" (*Soydan o'tila-yotganda ot almashtirilmaydi*). Ushbu shakl singarmonizm qoidasiga bo'ysunmaydi.

Bu ravishdoshlar qo'shma ravishdosh qo'shimchalari bilan yasalgan hol ravishdoshlari deb ham ataladi (*-mişken, -irken, -icekken, -iyorken, -meliyken*). Ular gapda kesimning zamonga bog'liq ish-harakat ichida yuzaga kelishini ifodalaydi: *başlamışken bitirmek, verirken saymak, satacakken saymak, aliyorken durdurmak* kabi.

Hol ravishdoshlari ravish kabi gapda fe'l (kesim) ifodalagan ish-harakatning qay tarzda ro'y berganligini ta'kidlashga xizmat qiladi.

Zidlov ravishdoshlari (*Karşıtlama zarffiilleri: -meden, -ceğine, -mektense, -ceği yerde*) ba'zi hollarda qo'shma gap ichida ergash gapni bo'lishsizlik munosabatida bosh gapga bog'laydi. Ulardan biri fe'l, boshqa biri esa ot qo'shimchasini olgan fe'l vazifadosh shakllaridir:

-madan, (-meden); -maksızın, (-meksizin). Har ikki qo‘shimcha qo‘shma gap ichidagi ergash gap ifodalagan ish-harakatning amalga oshmasligi, faqat bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning amalga oshishini bildiradi: *Çekinmeden söyleyebilirsiniz (Tortinmasdan aytishingiz mumkin)*. *Hiç aldırmaksızın devam ettiler (Hech parvo qilmasdan davom etdilar)* kabi. Bu ma‘noda turk tilshunosligida ularni «yo‘qlik ravishdoshlari» ham deyishadi. Faqat *-meden* ravishdoshlari ba‘zan fe‘lning zamon nuqtai nazaridan, oldin kelishini ifodalaydi: *“Çanakkale‘ye varmadan koptu kıyamet” (Chanoqqa-l‘aga bormasdan boshlandi qiyomat)*. *Gün doğmadan kalkardım (Kun chiqmasdan turardim)*. *Dereyi görmeden paçayı sıvama (Suv (dara)ni ko‘rmasdan pochangni shimarma)* kabi.

Bunday qo‘llanish chog‘ida *-meden* ravishdoshlarining usmonli turkchasidagi *-medin* (aslida *-medin* ham uch xil *me- -t- -in* qo‘shimchalarining birlashishidan yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin) shaklidan o‘zlashganligi ma‘lum bo‘ladi: *“Çok alametler belürdi gelmeden” (Ko‘p alomatlar bo‘ldi kelmasdan)* kabi.

-meden ravishdoshlari fe‘lning harakat nomi va sifatdash shakllaridan yasaladi va ikki gap orasida zidlik va qarama-qarshilik ma‘nosini ifodalaydi.

Zidlov ravishdoshlarining boshqa shakllari ham bor: *oturacağına, beklemektense, öveceği yerde, bildiği halde, kızmakta beraber, üşümesine rağmen, istese bile* kabi. Bulardan egalik olmoshi qo‘shimchasi olganlari turlanadi: *Evde oturacağına çalışsın (O‘tirgandan ko‘ra ishlasin)*. *Onu beklemektense kendin yap (Uni kutgandan ko‘ra o‘zing qil)*. *Seni öveceği yerde kötülüyor (Seni maqtash o‘rniga yomonlayapti)*. *Soruyu bildiğiniz halde niçin sustunuz? (Savolni bilib turib nega jimsiz? Bahçede üşümemize rağmen biraz daha çalıştık (Bog‘da sovuq qotishimizga qaramay yana ozgina ishladik), Boş oturacağına bedava çalış (Bekor o‘tirgandan ko‘ra bekorga ishla)* kabi.

Payt ravishdoshlari (*zaman zarffilleri*) gap bo‘laklarini zamon munosabatida bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi. Payt ravishdoshlarining ko‘pchiligi sifatdashlardan yuzaga kelgan. Payt ravishdosh qo‘shimchalaridan eng asosiysi *-dikçe (-dikça, -dukça, -dükçe, -tıkça,*

-tikçe, -tukça, -tükçe) qoʻshimchasi: *yazdikça, geldikçe, okudukça, gördükçe, yaptıkça, gittikçe, tuttukça, düştükçe; oldukça, kabi*. Payt ravishdoshlari ish-harakatning bajarilishi, hodisaning yuz berish vaqti nuqtai nazaridan ketma-ketlikni ifodalaydi: *Fiyatlar gittikçe yükseliyor (Narxlar borgan sari ortib boryapti)* kabi.

Payt ravishdoshlari yasovchi qoʻshimchalaridan yana biri *-ince* (*-inca, -unca, -ünce*) qoʻshimchasi: *bakinca, bilince, bulunca, görünce; kalınca, sevince, olunca, düşünce* kabi. Ular gapdagi fikrni tabiiy natija sifatida koʻrsatadi: *Yağmur başlayınca kaçtık (Yomgʻir boshlashi bilan qochdik)*. *“Başına gelince anlarsın” (Boshinga tushganda tushunib olasan); “İki gönül bir olunca, samanlık seyran olur” (Ikki koʻngil bir bolganda, somonlik sayr joʻyi boʻlur)*. *“Göz görmeyince gönül katlanır” (“Koʻz koʻrmaguncha koʻngil chidaydi” - xalq ogzaki ijodidan).*

-ince payt ravishdoshi tugash, nihoyaga yetish maʼnosida ancha eskirgan va hozirda ishlatilmaydi. Masalan: *Bu iyiliğini ölünce unutmam (Bu yaxshiligini oʻlguncha unutmayman)*. Bu gapdagi *ölünce* ravishdoshi hozirgi turk tilida *ölünceye dek; ölünceye kadar* shaklida qoʻllaniladi. Ushbu ravishdosh nihoyaga yetish maʼnosida *-guncha* shaklida oʻzbek tilida saqlangan (*Bu yaxshiligini oʻlguncha unutmayman*).

Sharqiy Onadoʻlu shevalarida *-ende* ravishdosh qoʻshimchasi ham keng qoʻllanadi (*Yaz gelende çıkam yayla başına*). Bu qoʻshimcha ham hozirgi zamon oʻzbek va ozarbayjon tillarida toʻla saqlangan (*Yoz kelganda chiqaman yaylov boshiga*).

-icek (*-ıcak*) ravishdosh qoʻshimchasi *-ince* qoʻshimchasining eskirib qolgan turidir. Bu qoʻshimcha ham hozirda shevalarda saqlangan: *al-ıcak, gel-icek, bilme-y-icek*.

-ışın (*-ışın, -üşün, -uşun*) qoʻshimchasi Onadoʻlu shevalarida *-ince* qoʻshimchasining oʻrnida qoʻllanadi: *gel-ışın, başla-y-ışın*.

Oʻtgan zamon qoʻshimchasining soʻroq shakli bilan hozirgi kelasi zamon qoʻshimchasining boʻlishli va boʻlishsiz shakllari birikib, ketma-ketlik maʼnosidagi ravishdoshlarni yuzaga keltiradi: *Dayım da-rıldı mı selamı keser (Togʻam xafa boʻldi-mi, salom bermay qoʻyadi)*. *Gelir gelmez beni arasın (Kelar-kelmas menga qoʻngʻiroq qilsin)*.

-dikçe qo'shimchasi ham eng ko'p qo'llanadigan payt ravishdoshlari yasaydi: *Ankara'ya geldikçe bize uğra (Anqaraga har kelganingda biznikiga kir). Görüştüğçe daha iyi anlaşıacaksınız (Bir-biringizni ko'rgan sari yanada yaxshi til topishasiz). İnsan kazandıkça hırsı artıyor (Inson ko'p pul topgan sari hırsi ortadi). Bu kafayı değıstirmedikçe işin düzelmez (Bu miyani o'zgartirmagunincha ishing yo'liga tushmaydi)* kabi.

-dikçe ravishdoshining **-diği (-diği, -diğü, -duğu, -tiği, -tiği, -tüğü, -tuğu) müddetçe** shakli ham mavjud: *Onu aradığımız müddetçe o da bizi aradı (Biz unga qancha qo'ng'iroq qilsak, u ham bizga qo'ng'iroq qilib turdi). Bu kötü alışkanlığı bırakmadığı müddetçe ona dönmem (Bu yomon odatini tashlamagunicha qaytib bormayman).*

Ravishdoshlar gapda har doim ravish holi (*zarf tümleci*) vazifasini bajaradi va o'ziga aloqador gap bo'laklari bilan birga so'z birikmalari (ravishdosh oborotlar) tashkil etadi: *Bir milletin kültürü yükseldikçe, ferdi hürriyetin tabikat sahaları genişler ve çoğalır (Bir millatning madaniyati yuksalgan sari, fuqaro erkinliklarining yo'nalishlari kengayib va ortib boradi).* Bu gapda kesim bo'lgan genişler ve çoğalır so'zlari va bir milletin kültürü yükseldikçe so'z birikmasi bir ravishdosh shakl va unga bog'liq bo'laklardan yuzaga kelgan hol birikma (ravishdosh oboroti)dir.

Payt ravishdoshlaridan yana biri turk tilida teng zamon ravishdoshlari (*eşzaman zarffilleri*) dir. Ular gapdagi fe'l uchun zamon boshlang'ichini ifodalaydi. Ular **-eli** qo'shimchasi bilan yasaladi. **-eli** qo'shimchasi *beri* va **-den beri** shakllarining sinonimidir: *gördüm göreli (ko'rganimdan beri), gideli (ketganidan beri)* kabi. *Konuşmayalı 1 ay oldu (Gaplashmaganimga 1 oy bo'ldi). Görmeyeli 2 sene oldu (Ko'rmaganimga 2 yil bo'ldi). Ağam sen gideli yedi yıl oldu (Og'am sen ketganingdan beri yetti yil o'tdi). Görmeyeli şişmanlamışsınız (Sizni ko'rmaganimdan beri ancha semiribsiz)* kabi.

Ravishdoshlar *beri* yordamchi so'zi qo'shilib ham qo'llanadi: *Geçit yapılatı beri kazalar azaldı (O'tish yo'li qurilgandan beri halokatlar kamaydi). Ayrılalıdan beri yazmadı (Ajralganidan beri yozmadi).*

-eli ravishdoshlari ba'zan fe'lning o'tgan zamon qo'shimchasidan

keyin qoʻshiladi: «*Bu fani dunyaya geldim geleli, bir atı severim, bir de gözeli*». (*Bu foni dunyoga kelganimdan beri, bir otni sevdim, bir -goʻzalni*).

Koʻmakchili birikma shaklidagi *-dikten beri, -diğinden beri* ravishdosh shakllari ham boshlangʻich ravishdoshlar jumlasiga kiradi: *Bunu farkettikten beri huzursuzdu* (*Buni sezganidan beri behuzur edi*). *Bunu aldığınızdan beri görünmediniz* (*Buni olganingizdan beri koʻrinmay qoldingiz*) kabi.

Payt ravishdoshlaridan yana biri tugash maʼnosini ifodalaydi (*bitim zarffilleri*)dir. Ular gapdagi feʼl ifodalayotgan zamonning nihoyaga yetganligini koʻrsatadi.

Yuqorida *-ince* qoʻshimchali ravishdoshlarning eskirgan tugash maʼnosiga ham ega ekani taʼkidlandi: *ölnce unutmamak, doyunca yemek, gelince hemen aramak* kabi. Turk tilida *dek* va *kadar* koʻmakchilari vositasida yasalgan birikmalar keng tarqalgan: (*Eve dek dinlenmedim - Uygacha dam olmadim*), *Bugüne kadar hiç hatırlamamışım - Bugungacha eslamabman*). Turk tilining shevalarida *değın* koʻmakchisiga ham duch kelinadi (*Akşama değın evden çıkmadı - Oqshomgacha uydan chiqmadi*). Bu shakllardan uchta sinonim sifatida keng qoʻllanadi: *gel-inceye kadar = gel-ene kadar = gel-esiye kadar*. Eng koʻp qoʻllaniladigan *-inceye* shakli *dek* va *değın* koʻmakchilari ham birikadi: *Hava açıncaya kadar yola çıkamam* (*Havo ochilgunga qadar yoʻlga choqa olmayman*). *Siz gelinceye dek bekleyecek* (*Siz kelgunga qadar kutadi*) kabi.

Nutqda koʻp uchraydigan *-ene* shakli ham shunga oʻxshash qoʻllanadi: *Sen kalkana kadar ben işi yarılarım* (*Sen oʻrningdan turguningcha men ishlarning yarmisini qilib qoʻaman*). *Babam gelene değın beklersin* (*Otam kelgunga qadar kutasan*).

Koʻmakchi olmasdan qoʻllanuvchi *-esiye* shakli qiyoslovchi ravishdoshlar yasaydi: *öldüresiye dövmek x öldürürcesine dövmek*. Faqat bu yerda koʻmakchi olgan holda zamon ravishdoshi boʻlib keladi: *Ustan dönesiye değın sen boş oturma* (*Ustozing qaytgunga qadar sen boʻsh oʻtirma*). *Aklını alasıya kadar çok dayak yer* (*Aqlını yigʻib olgunga qadar rosa kaltak yeydi*) kabi. Payt ravishdoshlaridan yana biri gapda feʼlning zamon nuqtai nazaridan oldin kelganini

ko'rsatuvchi qo'shimcha (*öncelik zarffilleri*)ni vositasida yasaladi.

Yuqorida hol ravishdoshlari deb aytib o'tilgan *-meden* ravishdoshlari ish-harakatning oldindan ro'y berishini ifodalaydi: *O gelmeden sen gel (U kelmasdan sen kel)*. Hozirda *-me* va *-mez* shakllarining *önce* va *evvel* ko'makchilarini olgan shakli ham shu ma'noda qo'llanadi: *Müdür olmazdan evvel böyle konuşmuyordun (Mudir bo'lishdan oldin bunday gaplashmas edi)*.

Payt ravishdoshlaridan oxirgisi gapda fe'ning zamon nuqtai nazaridan keyin kelganini ko'rsatuvchi «so'ngralik»ni ifodalovchi ravishdosh qo'shimchasi (*sonralik zarffilleri*) olib yasaladi. Ular *-dik* sifatdosh qo'shimchasiga *-sonra* ko'makchisi keltirilib yasaladi: *Emekli olduktan sonra Bursa'da yerleşti (Nafaqaga chiqqandan keyin Bursaga kelib joylashdi)*. *Parasını verdikten sonra ne der? (Pulini bergandan keyin nima deydi)*.

Sabab ravishdoshlari (*sebeb zarffilleri*) ba'zan gap bo'laklarini sabab va natija ma'nosida bir-biriga bog'lab keladi: *olmakla, olduğundan, olduğu için, olacağından dolayı* kabi.

-mekle ravishdoshi ma'nosi va qo'llanishiga ko'ra turlicha bo'lib, umumiy qo'llanishda *-le* qo'shimchasining vosita, sabab ma'nosini muhofaza qiladi va gapda ish-harakatning amalga oshishi uchun sababni bildiradi. Nutqda *-meyle* shaklida namoyon bo'ladi: *Haber göndermeyle beni sevindirdiniz (Xabar jo'natish bilan meni xursand qildingiz)*. *Bu dilekçeyi imzalamakla bize yardım etmiş oluyorsunuz (Bu arizamizni imzolash bilan bizga yordam qilgan bo'lasiz)* kabi. Bu yerda ma'no jihatdan natija ma'nosi oldingi planga chiqqan.

Usmonli turkchasida sabab ravishdoshi shakli sifatida qo'llanilgan *-mekle* va undan ham eski bo'lgan *-megin* shakllari hozirgi turk tilida o'z o'rnini *-diğinden* (*diğindan, düğünden, düğundan*) ravishdosh shakliga bo'shatib bergan: *Tasvip olunmakla iadeten takdim kılındı (Ma'qullanib, qayta taqdim etildi)*. *Ferman buyurulmagın mucibince amel oluna (Farmon chiqqani sababli amal qilinadi)*.

-dik sifatdoshlarining egalik qo'shimchasi olgan chiqish kelishigi shakli bo'lgan *-diğinden* va *-ceğinden* ravishdosh shakllari

hozirda eng keng tarqalgan sabab ravishdoshlari hisoblanadi: *Misafir geldiğinden sinemaya gidemedik (Mehmon kelganligi sababli kinoga bora olmadik). Huyunu bildiğimden ısrar etmedim (Fe'lini bilganligimdan qattiq turib olmadim). Yalnız olacağımızdan fazla yiyecek almadım (Yolg'iz bo'lishimiz sababli ortiqcha yeguluk olmadim)* kabi. Bu ikki fe'l vazifadosh shakli har doim ham ravishdosh sifatida qo'llanilmaydi: *Başaracağımızdan eminim (Eplashimizga ishonaman). Hasta olduğundan haberim yoktu (Xasta bo'lganidan xabarim yo'q edi)* kabi. Onado'lu shevalarida bu ravishdoshlarning jo'nalish kelishigi shaklidagilari ham uchraydi: *Köyde doktor olmadığına hastalığı anlaşılamadı (Qishloqda shifokor bo'lmaganiga kasalligining nimaligini bilib bo'lmadi)* kabi. Bunday sifatdoshlarning egalik qo'shimchasi va ba'zi ko'makchilar olib tashkil etgan shakli ham sabab ravishdoshlari bo'lib, ulardan ko'p qo'llaniladiganlari tuslanuvchi *-diği için* va *-eceği için* shakllari hisoblanadi: *Geciktiğin için sırayı kaybettin (Kechikkaning uchun navbatdan mahrum bo'lding). Alınacağı için söylemedim (Olinayotgani uchun aytmadim)* kabi. Shu tarzda ko'makchili birikmalar yana *-dik* va *-ecek* sifatdoshlariga va *-me* harakat nomlariga egalik qo'shimchalari hamda *dolayı, ötürü, dolayısıyla, sebebiyle* kabi ko'makchilar qo'shiladi va sabab ravishdoshlari sifatida qo'llanadi: *Sizi rahatsız ettiğimden dolayı özür dilerim (Sizni bezovta qilganligim uchun kechirim so'rayman). Ayrılacağından ötürü üzgün (Ajralayotganligi uchun xafa). Ziyaret etmemizden dolayı memnun oldu (Ko'rgani kelganimiz uchun xursand bo'ldi). İzinli bulunmanız sebebiyle işler aksadı (Ta'tilda bo'lganingiz uchun ishlar oqsadi)* kabi.

Qiyoslovchi ravishdoshlar (*karşılaştırma zarffilleri*) ma'no jihatdan ikkiga bo'linadi: *haqiqiy qiyoslovchi ravishdoshlar (gerçek karşılaştırma zarffilleri)* va *yordamchi qiyoslovchi ravishdoshlar (tutmaca karşılaştırma zarffilleri)*.

Birinchisida ikki ish-harakat to'g'ridan-to'g'ri qiyoslanadi (*bildiği gibi yapmak, istediği kadar almak*). Ikkinchisida esa qiyos haqiqiy emas, bir farazdir (*kaçar gibi yapmak, yemiş kadar almak*). Haqiqiy qiyoslovchi ravishdoshlar *-dik* va *-ecek* sifatdoshlariga egalik qo'shimchalari, hamda *gibi* va *kadar* ko'makchilari qo'shilgan holda tashkil etiladi: *-diği gibi, -diği kadar, -eceği gibi, -eceği kadar*

Gibi ko'makchisi vositasida yasalgan ravishdosh shakllari qiyoslanganda o'ziga xoslik namoyon etadi: *Hepsi söylediğim gibi çıktı (Hammasi aytganimdek bo'lib chiqdi). Yarın göreceğiniz gibi bahçemiz bakımsız (Ertaga o'zingiz ko'rasiz, bog'imiz qarovsiz)* kabi.

Kadar ko'makchisi qo'shib yasalgan ravishdoshlar esa qiyoslovda ko'plikni ifodalaydi: *Onun anlattığı kadar geniş değil (U aytganichalik keng emas). Bundan götürebileceğimiz kadar alalım (Bundan ko'tara olganimizcha olaylik)* kabi. Haqiqiy qiyoslovchi ravishdoshlar gapda teng yoki o'xshash ish-harakatni ifodalaydi: *Zeynep liseyi bitirdiği gibi üniversiteyi da kazandı (Zaynab litseyni bitirganday universitetga ham kirdi). Çıkarınızı gözettiğiniz kadar ülkeyi de düşünmelisiniz (Manfaatingizni ko'zda tutganingizchalik mamlakatni ham o'ylashingiz kerak)* kabi.

Usmonli turkchasida yanada kengroq ma'noga ega bo'lgan *-diğince* ravishdoshi hozirgi turkchada *-diği nispette* shakliga ega. Bu shakl ham qiyoslovchi, ham payt ravishdoshi sifatida qo'llaniladi: *"Veli gussa yedüklerince biter", "Dilin tuttuğunca kişi dinç olur"* (*Kishi tilini qancha tiysa, shuncha tinch bo'ladi*).

Yordamchi qiyoslovchi ravishdoshlar *-miş, -ir, -ecek, -iyor, -ce* va *-cesine* qo'shimchalari, shuningdek, egalik qo'shimchalari olmasdan *gibi, kadar* ko'makchilari vositasida yasaladi: *kudurmuşça, görmemişçesine, anlamazca, koparırcasına* kabi. Ularning *-miş* qo'shimchasi olgan shakli ham uchraydi: *Vuracakmışçasına davran-dı (Xuddi otadiganday harakat qildi). Bilirmişçesine söze karışma (Xuddi biladiganday gapga aralashma)* kabi.

Ko'makchili birikmalar vositasida yasalgan yordamchi qiyoslovchi ravishdoshlarga misollar: *Tanımış gibi baktı (Taniganday qaradi). Görür gibi oldum (Ko'rganday bo'ldim)* kabi. Ularning ham *-miş* bilan uzaytirilgan shakllari bor: *Uyuyormuş gibi yaptı (O'zini uxlaganga soldı)* kabi.

-esi sifatdosh shakllari ham jo'nalish kelishigi bilan yordamchi qiyoslovchi ravishdoshlarni tashkil etishi mumkin: *patlayasıya, öldüresiye, çıldırasıya* kabi. *Delikanlıyı öldüresiye dövmüşlerdi (Yigitni o'gudek do'pposlashgan edilar). Ahmet bu yaramaz kızı çıldırasıya seviyordu (Ahmad bu shumtaka qizni devonalardek sevardi)* kabi.

Qiyoslovchi ravishdoshlar *söylediğim tarzda, verdiğim ölçüde, takacağı boyda* birikmalarida bo'lgani kabi boshqa turli ko'makchilar vositasida ham yasalishi mumkin.

Fe'llarning yasalishi. Ot va sifatdan fe'l yasalishi
(Fiil Yapım Ekleri. Ad ve Sıfatlardan Yapılan Fiiller)

Turk tilida fe'llar, asosan, ot va sifatlardan yasaladi. Ot va sifatdan fe'l yasovchi qo'shimchalar qo'shilib yasalgan so'zlarning faqat o'zagi ma'no kasb etadi. Shunda bu qo'shimchalar ot yoki sifat bilan uzviy bog'liq fe'llar yasaydi. Ot va sifatlardan fe'l yasovchi qo'shimchalardan asosiylari quyidagilardir:

-a- (-e-) qo'shimchasi vositasida turk tilida otdan kam miqdorda bo'lish va ish bajarish ma'nolarini ifodalovchi fe'llar yasaladi: *yaş-a-, boş-a-, oyun-a-(oyn-a), beniz-e-(benz-e), geviş-e (gevş-e), yumuş-a-, uğur-a- (uğr-a-)* kabi. Bu fe'llar tuslanar ekan, o'rta bo'g'inda qolib, /u/ tovushi ta'sirida o'zgaradi: *yaş-ı-yor, kan-ı-y-or* kabi.

-al- (-el-) qo'shimchasi vositasida yasalgan fe'llar soni ham juda cheklangan. Asosan, sifatdan fe'l yasovchi ushbu qo'shimcha bir nechta so'zdagina uchraydi: *boş-al-, düz-el-, az-al-, çoğ-al- (çok-al-), yön-el-, dar-al-, bun-al-* kabi. Ushbu yasovchining yana bir varianti **-l-** dir: *ince-l-, sivri-l-, eğri-l-, kısa-l-, doğru-l-, duru-l-* kabi. **-ai** qo'shimchasi faqat unli tovush bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi. Uni turk tilidagi *koca-l-, ufa-l-, küçü-l-, ekşi-l-, alça-l-, yükse-l-* kabi fe'l-dan fe'l yasovchi **-l-** qo'shimchasi bilan adashtirmaslik kerak.

-ar- (-er-) qo'shimchasi samarador yasovchidir: *ağ-ar-, yeş-er- (yaş-ar-), boz-ar-, kız-ar-, baş-ar-, mor-ar-, sar-ar-, on-ar-, kar-ar- (kara-ar-)* kabi. Og'zaki nutqda bu qo'shimchaning «l» lashgan shakli ham uchraydi: *sar-al-, kar-al-* kabi.

-da- (-de-, -ta-, -te-) qo'shimchasi, ko'pchiligi /l/, /r/, /y/ undoshlari bilan tugagan taqlidiy so'zlardan fe'l yasashda qo'llaniladi: *şırıl-da-, horul-da-, mirıl-da-, fırıl-da-, vızır-da-, gürül-de-, fısılda-da-, çatır-da-, kütür-de-, ışıl-da-, pırıl-da-* kabi. Turk tilidagi *al-da (al-da-t-), bağ-da- (bağ-da-ş-), is-te-(iz-de-)* fe'llari ham ana shu qo'shimcha vositasida yasalgan.

-t- (-i-, -u-, -ü-) qo'shimchasi yordamida yasalgan fe'llar juda kam: *taş-t-, ağır-t- (ağrı-), şak-t-* kabi.

-irga- (**-irge-**) qo'shimchasi *yad-irga-*, *es-irge-*, *az-irga-* so'zlarini yasashda ishlatilgan.

-k- (**ka**), **-k-** (**ke**) qo'shimchasi hozirgi turkchada bir nechta so'zda uchraydi: *ac-i-k-*, *gec-i-k-*, *bir-i-k-*, *göz-ü-k-*, *kan-ı-k-* kabi.

-kır- (**-kır-**, **-kur-**, **-kür-**) qo'shimchasi ham taqlid so'zlarda ko'p ishlatiladi: *hay-kır-*, *kış-kır-*, *fış-kır-*, *püs-kür-*, *hıç-kır-*, *tü-kür-* kabi.

-la- (**-le-**) qo'shimchasi samarador fe'l yasovchi hisoblanadi. Bu qo'shimcha vositasida ish-harakat va bo'lish (yuz berish)ni ifodalovchi fe'llar yasaladi: *baş-la-*, *su-la-*, *temiz-le-*, *taş-la-*, *karşı-la-*, *gece-le-*, *haff-le-*, *ağır-la-*, *el-le-*, *üf-le-*. Bu qo'shimcha yordamida yasalgan fe'llarning negiziga fe'ldan fe'l yasovchi qo'shimchalar qo'shilib, yana bir nrcha yangi so'z yasalishi mumkin: *can-la-n-*, *dar-la-t-*, *hoş-la-n-*, *hasta-la-n-*, *kir-le-t-*, *bir-le-ş-* kabi. Ushbu qo'shimcha o'рта bo'g'ında joylashgani sababli tustlanganida, ba'zan unlisi o'zgaradi: *baş-lı-yor* (*baş-la-yor*), *bek-li-y-en* (*bek-le-y-en*) kabi.

-msa- (**-mse-**) qo'shimchasi *az-i-msa-*, *ben-i-mse*, *küçü-mse-*, *iyi-mse-* (*iyimse-r*), *kötü-mse-*, (*kötümse-r*) kabi so'zlar tarkibida uchraydi. Uni fe'ldan fe'l yasovchi **-msa-** (**-mse-**) qo'shimchasi bilan (*gül-ü-mse-*) adashtirmaslik kerak.

-r- qo'shimchasi *deli-r-*, *beli-r-* (*belgü-r-*), *üf-ür* kabi bir necha fe'llarda, asosan, ovozga taqlid so'zlardan fe'l yasashda qo'llanilgan: *bağ-ı-r-*, *geğ-i-r-*, *aksı-r-*, *çağ-ı-r-*, *an-ı-r-*, *hapşı-r-*, *öksü-r-* kabi.

-sa- (**-se-**) qo'shimchasi *su-sa-*, *garip-se-*, *umur-sa-*, *mühim-se-*, *yük-se-* (*yükse-k*), *kanık-sa* so'zlarida uchraydi.

Fe'l shakllarining yasalishi

Turk tilshunosligida fe'lning o'zak va negizlariga qo'shilib, yangi fe'l shakllarining yasalishiga *fiilden yapılan fiiller*, ya'ni 'fe'ldan fe'l yasalishi' deyiladi. Aslida esa bu ta'rif to'g'ri emas. Chunki umumiy tilshunoslikda fe'ldan fe'l yasalishi degan bir ibora yoq. Turk tilshunoslari qo'llanish darajasi shakl yasovchi qo'shimchalarga teng bo'lgan qo'shimchalarga fe'ldan fe'l yasovchi qo'shimchalar nomini berishgan. Shuni hisobga olib, ushbu bobda turk tilida 'fe'ldan fe'l yasalishi' deb nomlangan bobni 'Fe'l o'zagidan yasalgan yangi shakllar' deb berish to'g'ri bo'ladi. Fe'l o'zagidan yangi shakllar yasovchi qo'shimchalar quyidagilardir:

-dir- qo'shimchasi ish-harakatning bir shaxsning boshqasiga bajartirilishini ifodalaydi. Bu qoshimcha unli tovush bilan tugagan bir bo'g'inli va undosh bilan tugagan barcha fe'llarga qo'shiladi. Uning vositasida ba'zan o'timsiz fe'ldan o'timli fe'l shakllari yasaladi: *bil-dir-, kıl-dir-, öl-dür-, dol-dur-, tut-tur-, yaz-dir-, ye-dir-, yağ-dir-, buldur-, de-dir-, yatus-tır-, dön-dür-, değ-dir-, as-tır-, koş-tur-* kabi.

-l- qo'shimchasi yordamida passiv fe'l (nisbat) shakllari yasaladi: *dur-u-l-, gid-i-l-, kalk-ı-l-, düş-ü-l-, kork-u-l-, yap-ı-l-, gör-ü-l-* kabi. Bunday fe'llar qatnashgan gaplarda ega bo'lmaydi: *Adaya gidildi (Orolga borildi). Sabaha kadar eğlenildi (Ertalabgacha ko'ngilxushlik qilindi)* kabi. Ushbu qo'shimcha /l/ tovushi bilan tugagan fe'l o'zaklariga qo'shilmaydi. Bunday vaziyatda negizga **-n** qo'shiladi: *gül-ü-l-mek* emas, *gül-ü-n-mek*, *ol-u-l-mak* emas, *ol-u-n-mak* bo'ladi.

-ma- (**-me-**) qo'shimchasining vazifasi bo'lishli fe'ldan bo'lishsiz fe'l shakli yasashdir: *yap-ma-, gül-me-, kaçırıl-ma-, ol-ma-, de-me-, yararlan-ma-, otur-ma-, sür-me-, göster-me-, karşılaş-ma-* kabi.

-n- qo'shimcha turk tilida eng samarador fe'l shaki yasovchi qo'shimchalardan bo'lib, ushbu qo'shimcha vositasida yasalgan fe'llar ish-harakatning yoki voqea-hodisaning o'z-o'zidan bajarilgani yoki yuz berganligini bildiradi: *gez-i-n-, sev-i-n-, koru-n-, giy-i-n* kabi. Bu qo'shimcha o'timli va o'timsiz fe'llarga qo'shilib yangi shakllar yasaydi: *tıka-n-, tut-u-n-, bul-u-n-, gez-i-n-, söyle-n-, dola-n-, öğre-n-* kabi. Bu qo'shimcha /n/ tovushi bilan tugagan fe'llarga qo'shilmaydi.

-ş- qo'shimchasi faol yasovchilardan bo'lib, birgalikni ifodalaydi (fe'lning birgalik nisbati): *vur-u-ş-, sözle-ş-, çek-i-ş-, döv-ü-ş-, gör-ü-ş-, at-ı-ş-, dayan-ı-ş-, gül-ü-ş-, uç-u-ş-, dur-u-ş-, kar-ı-ş-* kabi.

-r- qo'shimchasi ba'zi bir bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi: *göç-ü-r-, yat-ı-r-, köp-ü-r-, geç-i-r-, düş-ü-r-, bit-i-r-, duy-u-r-, uç-u-r-, piş-i-r-* kabi.

-t- qo'shimchasi, asosan, bir va ikki bo'g'inli, unli va *l, r, k, k, p, ç, m, z* undoshlari bilan tugagan so'zlarda uchraydi: *uza-t-, kızar-t-, yürü-t-, düzel-t-, acı-t-, ara-t-, ak-ı-t-, kork-u-t-, ürk-ü-t-, bildir-t-* kabi.

Turk tilida ba'zi qo'shimchalar vositasida bir-ikkita so'z yoki

soʻz shakli yasalgan. Ularni umumiy bir guruhga birlashtirish maqsadga muvofiq. Bular: **-e-**. (*tik-a-*); **-i-**. (*kaz-i-*, *sür-ü-*, *sanç-i-*); **-k-**. (*kır-k-*, *sar-k-*); **-p-**. (*ser-p-*, *kır-p-*); **-y-**. (*ko-y-*, *do-y-* (to 'doymak', to-k soʻzi shundan kelib chiqqan)); **-se-**. (*gör-se-t-*, yaʼni *göster*); **-mse-**. (*gül-ü-mse-*, *çek-i-mse-* (çekimser soʻzi ana shu feʼl negizidan yasalgan)); **-esi-**. (*gör-esi-*); **-ele-**. (*kov-ala-*, *ov-ala-*, *it-ele-*, *serp-ele-*, *çalk-ala-oy-ala-*), **-z-** qoʻshimchasi faqat *emzir-(em-i-z-i-r)* kabi.

Harakat nomlarining yasalishi. Harakat nomi yasovchi qoʻshimchalar turk tilida uch xil: **-mek** (*-mak*), **-me** (*-ma*) va **-iş** (*-ış, -üş, uş*) (**Qarang:** Feʼlning vazifadosh shakllari. Harakat nomi)

Savol va topshiriqlar – Sözlü ve Yazılı Sınav Soruları

1. Feʼl. Feʼl va uning kategoriyalari (*Fiil ve onun özellikleri*).

2. Oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar (*Geçişli ve geçişsiz fiiller*).

3. Feʼllarning tuslanishi (*Fiillerin çekimi*). Feʼl tuslanishida qoʻllaniluvchi shaxs qoʻshimchalari. a) olmosh shaxs qoʻshimchalari. b) egalik aslli shaxs qoʻshimchalari. c) buyruq mayli yasalishida qoʻllaniluvchi shaxs-son qoʻshimchalari. (*Fiil çekimlerinde kullanılan şahıs ekleri, a) zamir kökenli şahıs ekleri, b) iyelik kökenli şahıs ekleri, c) emir kipindeki şahıs ekleri*).

4. Oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar (*Geçişli ve geçişsiz fiiller*)

5. Feʼl mayllari (*Kipler*).

6. Feʼlning buyruq, istak va shart mayl shakllari (*Tasarlama kipleri, 1. Emir Kipi, 2. İstek Kipi, 3. Şart Kipi*).

7. Feʼlning keraklilik shakli (*Gereklilik Kipi*).

8. Feʼlning xabar mayli. Feʼl zamonlari: 1. Yaqin oʻtgan zamon shakli. 2. Uzoq oʻtgan zamon shakli. 3. Hozirgi zamon shakli. 4. Kelasi zamon shakli. 5. Hozirgi-kelasi zamon shakli. (*Bildirme kipleri. I. Görülen geçmiş zaman kipi, II. Öğrenilen geçmiş zaman kipi, III. Şimdiki zaman kipi, IV. Gelecek zaman kipi, V. Geniş zaman*).

9. Feʼl nisbatlari (*Fiilin çatısı. Etken ve edilgen fiiller*).

10. Birgalik nisbati (*İşteş fiiller*). Oʻzlik nisbati (*Dönüşlü fiiller*)

11. Feʼlning murakkab zamon shakllari (*Birleşik eylem zamanları*).

12. Hikoya murakkab zamon shakli (*Hikaye birleşik zamanı*)

1.8.YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARI (EDATLAR)

Mavzuning o‘quv maqsadi: turk tilidagi yordamchi so‘z turkumlarining o‘ziga xos xususiyatlari, bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchi va undov so‘zlar haqida tushuncha hosil qilish.

Tayanch tushunchalar: *yordamchi so‘z turkumlari (görevli kelimeler, edatlar, takılar), bog‘lovchilar (bağlam edatları, bağlamlar, bağlaçlar), asl bog‘lovchilar, yasama bog‘lovchilar, qo‘shma (murakkab) bog‘lovchilar, teng bog‘lovchilar (Sıralama bağlaçları), ayiruv bog‘lovchilari (ayirtlama bağlaçları), qiyoslovchi bog‘lovchilar (karşılaştırma bağlaçları) va bog‘lovchi so‘zlar (cümle başı edatları), ko‘makchilar (son çekim edatları), yuklamalar (sona gelen edatlar), undov so‘zlar (ünlem edatları; ünlemler)*

Yordamchi so‘zlar turk tilida **görevli kelimeler** yoki **edatlar** deyiladi. Ba‘zi kitoblarda yordamchi so‘zlar **takılar** deyiladi. Ular mustaqil emas, ma‘lum vazifani bajaruvchi so‘zlardir. Agar otlar va fe‘llar ma‘noli so‘zlar bo‘lsa, yordamchi so‘zlar ma‘noga ega bo‘lmagan, faqat ma‘lum grammatik vazifani bajaruvchi so‘zlar hisoblanadi. Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ular bilan birgalikda ma‘no kasb eta oladi: *Ayi gibi adam, araba ile geldim, Aliye göre değil. Rüzgara karşı açık* kabi.

Yordamchi so‘zlar shakllariga ko‘ra so‘zlar, vazifalariga ko‘ra esa kelishik qo‘shimchalari holatida bo‘ladi. Masalan: *Ali için getirdim.* = *Ali’ye getirdim.* *Hayvan gibi saldırmış.* = *Hayvanca saldırmış* kabi.

Ba‘zi ilmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, qadimgi turk tilida yordamchi so‘zlar deyarli bo‘lmagan, ular keyinchalik boshqa tillardan o‘zlashtirilgan yoki turk tilidagi ba‘zi mustaqil so‘zlarning qoliplashuvi natijasida shakllangan va asrlar osha ularning soni ortib borgan.

So‘z turkumlari ichida eng tor qamrovni tashkil etuvchi yordamchi so‘zlar, asosan, ikki manbadan yuzaga kelganligi ma‘lum. Bulardan birinchisi – yordamchi so‘z sifatida qo‘llanadigan ravishlar, ikkinchisi – kelishik qo‘shimchasi shaklidagi o‘rin-yo‘nalish otlari. Yordamchi so‘zlar turlanmas, tuslanmas, qo‘shimcha olmaydigan so‘zlar bo‘lib, ularni ravishlarga parallel shaklda tor doirada guruhlash-tirish mumkin:

1. *O'zak shaklida bo'lgan yordamchi so'zlar;*
2. *Otdan yasalgan yordamchi so'zlar;*
3. *Fe'ldan yasalgan yordamchi so'zlar;*

1. O'zak shaklida bo'lgan yordamchi so'zlar. Ushbu guruhni bir bo'g'inli yoki tahlil qilinishi qiyin bo'lgan va ba'zi o'zlashgan yordamchi so'zlar tashkil etadi: *dek, için, beri, kadar, rağmen, ait* kabi.

2. Otdan yasalgan yordamchi so'zlar. Bu guruhni eski va yangi shakl yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan va ba'zi ravishlar tashkil etadi: *üzere, sonra, yukarı, başka, yana, nispetle, önce* kabi.

3. Fe'ldan yasalgan yordamchi so'zlar sirasiga ba'zi ravishdosh va ravish shakllari kiradi: *ölçüye göre, göz ile, bizden öte, vazife diye, güneşe karşı, havadan dolayı, bundan ötürü, sorumlu olarak* kabi.

Turk tilshunosligida yordamchi so'zlarning uchta turi ajratiladi. Bular: bog'lovchilar (*bağlam edatları; bağlaçlar*), ko'makchi va yuklamalar (*son çekim edatları; sona gelen edatlar*) va undov so'zlar (*ünlem edatları*).

BOG'LOVCHILAR (*Bağlam Edatları*)

So'zlar, so'z birikmalari, gaplarni shakl va ma'no jihatdan bir-biriga bog'lovchi yordamchi so'zlarga bog'lovchilar (*bağlam edatları yoki bağlamlar; ba'zan bağlaçlar*) deyiladi. Turk tilining tuzilishi boshqa tillarga nisbatan ancha ixcham, gaplarning ko'pi sodda bo'lgani sabab bog'lovchilarning soni ko'p emas. Bog'lovchilar boshqa tillardan o'zlashish va ba'zi turkcha so'zlarning qoliplashishi natijasida yuzaga kelgan.

Turk tilida nutqda faol qo'llanuvchi, tuzilish va shakl jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bog'lovchilar, asosan, quyidagilardir: *ve, ama, çünkü, ya da, fakat, eğer, veya, lakin, oysa, yahut, ancak, oysaki, veyahut, yalnız, halbuki* kabi. Bog'lovchilar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Asl bog'lovchilar: *ve, ama, de, eğer, lakin, yani, meğer* kabi.

Yasama bog'lovchilar: *üstelik, yalnız, ancak, örneğin, gerçekten, açıkçası, kısacası* kabi.

Qo'shma (murakkab) bog'lovchilar: *öyleyse, oysa, neyse, kimbilir, yoksa, veyahut, meğerse, nitekim* kabi.

Birikma bog‘lovchilar. Ba‘zi bog‘lovchilar va so‘zlar birikib, bog‘lovchi birikmalarini hosil qiladi. Ayniqsa, *ki* bog‘lovchisi bir qancha so‘z va bog‘lovchilar bilan birikkan holda qo‘shma shakllar hosil qiladi. Ularning alohida uch guruhga bo‘lish mumkin:

1) *ki* bog‘lovchisi bilan yasalgan bog‘lovchilar: *halbuki, oysaki, sanki, shoye ki, yeter ki, demek ki, tut ki, su var ki, kaldı ki* kabi.

2) so‘z birikmasi shaklidagi bog‘lovchilar: *bunun için, bundan dolayı, bu yüzden, bu bakımdan, o halde, bununla birlikte* kabi.

3) takroriy bog‘lovchilar: *ne... ne, hem... hem, gerek... gerek, ya... ya, olsun... olsun, ama... ama, kah...kah, ister... ister* kabi.

Bog‘lovchilarning ko‘pchiligi turk tiliga boshqa tillardan o‘zlashtirilib, keyinchalik ulardan ba‘zilari turkcha so‘zlar bilan almashtirilgan. Undan tashqari, yangi turkcha bog‘lovchilar ham yasalgan. Shu bois gapda bir o‘zlashgan bog‘lovchini sof turkcha bog‘lovchi bilan almashtirish mumkin bo‘ladi.

Bog‘lovchilarning asosiy turlari quyidagilardir: **teng bog‘lovchilar** (*siralama bag‘laçları*), **ayiruv bog‘lovchilar** (*ayırtılama bag‘laçları*), **qiyoslovchi bog‘lovchilar** (*karşılaştırma bag‘laçları*) va **bog‘lovchi so‘zlar** (*cümle başı edatları*).

Teng bog‘lovchilar (*siralama bag‘laçları*) ketma-ket kelgan so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni teng bog‘laydi, ularni siralaydi (*ve, ile, ila*): *sen ve ben, Ali ile Veli, üç ile beş* kabi.

Turk tilida *ve* bog‘lovchisining *ve, u, ü, vu, vü* shakllari ham qo‘llangan: *yar u ağıyar, fakr u zaruret, Leyla vü Mecnun* kabi. Misollar: *O dürüst, namuslu ve iyi bir insandı (U to‘g‘rigo‘y, ornomusli va yaxshi inson edi). Özgür gece gündüz ders çalıştı ve sonuçta üniversiteyi kazandı (O‘zгур kecha-kunduz dars qildi va buning natijasida universitetga kirdi* kabi.

Turk tilida *ve* va *ile* bog‘lovchilari ba‘zan bir xil vazifa bajaradi: *Hüseyin ile Ayşe birlikte sinemaya gittiler. Hüseyin ve Ayşe sinemaya gittiler (Husayin ve (ile) Ayshe kinoga ketishdi)* kabi.

Ayiruv bog‘lovchilari (*ayırtılama bag‘laçları*) sirasiga *ya, ya da, veya, yahut, veyahut* kabi bog‘lovchilar kiradi. Ular bir-biriga teng bo‘lgan, o‘zaro o‘rin bosa oladigan ikki so‘z yoki gap bo‘laklarini bir-biriga bog‘laydi, taqqoslaydi: *Ya olacak, ya olmayacak, dün ya da*

bugün, elma veya armut, bugün yahut yarın. Bu guruhga kiritilgan ya da shaklining teng bog‘lovchilikdan ko‘proq, qiyoslovchi bog‘lovchilar sirasiga kiritilishi to‘g‘riroq (*ya bu, ya shu, ya da o*).

Qiyoslovchi bog‘lovchilar (*karşılaştırma bağlaçları*) ba‘zan **yinelenen bağlaçlar** («ikkilangan bog‘lovchilar») deyiladi. Ular ikki yoki undan ortiq so‘z, gap bo‘lagi yoki sodda gapni, xususan, qarama-qarshi ma‘nodagi bo‘laklarni bir-biriga bog‘lab, gap ichida juft-juft bo‘lib qo‘llanadi. Qiyoslovchi bog‘lovchilar qu-yidagilardir: *ya ... , ya ... (ya ... ya... ya ...); ya ..., ya da ...; hem ..., hem ...; (hem ... hem... hem de ...), ne ..., ne ... (ne ... ne... ne de ...); da ..., da (de) ...; gerek ..., gerek ... (gerekse ...); ister..., ister ... (isterse ...); olsun..., olsun ... kabi.* Misollar: *Ya gelecek, ya gelmeyecek (Yo keladi, yo kelmaydi). "Ya bu deveyi güderiz, ya bu diyardan gideriz" (Yo bu tuyani boqamiz, yo bu diyordan ketamiz). Hem okuyor, hem yazıyor (Hem okuyor, hem yazıyor, hem de dinliyor). O ne okuyor, ne çalışıyor, evde outruyor (U na o ‘qiydi, na ishlaydi, uyda o ‘tiradi). Seni de beni de insan saymıyor (Seni ham, meni ham inson hisoblamaydi). Gerek uçakla, gerek(se) otobüsle olsun, o yolculuğu çok severdi (Xoh samolyot bilan, xoh avtobus bilan bo ‘lsin, u sayohat qilishni yaxshi ko ‘rar edi). İster inan, ister inanma (Istar (xoh) ishon, istar (xoh) ishonma). Zengin olsun, fakir olsun, hepimizi aynı Tanrı yaratmıştır (Boy bo ‘lsin, kambag ‘al bo ‘lsin, hammamizni yagona tangri yaratgan) kabi.*

Qiyoslovchi bog‘lovchilar takrorlanib kelganda, undan keyin **da (de)** kelishi ham mumkin: *...ya da, ...hem de, ...ne de* kabi.

Qiyoslovchi bog‘lovchilar sirasiga *bir ... bir ..., ha ... ha ..., bazı ... bazı ..., kimi ... kimi ..., bazen ... bazen ...* shakllarini ham kiritish mumkin: *Kadın bir güler, bir ağlardı (Ayol bir kular, bir yig ‘lardi). Bazen getirir, bazen de geri götürürdü (Ba ‘zan olib kelar, ba ‘zan esa olib ketar edi). Güneş kâh bulutlar arasından görünür, kâh kaybolur (Quyosh goh bulutlar orasidan ko ‘rinar, goh ko ‘rinmasdi) kabi.*

Qiyoslovchi bog‘lovchilarning turk tilidagi yana bir nomi almashuv bog‘lovchilari (*almaşma bağlaçları*)dir. Ta‘kidlash kerakki, *ne ... ne ...* bog‘lovchisi bo‘lishsizlik ifoda etgani uchun u bilan birga qo‘llangan fe‘l, asosan, bo‘lishli bo‘ladi: *Ne beni, ne seni düşünüyor (Na meni, na seni o ‘laydi), Ne Türkçe biliyor, ne Özbekçe (Na o ‘zbekcha, na turkcha biladi) kabi.*

Bog'lovchi so'zlar (*cümle başı edatları*). Bog'lovchi so'zlar sodda gaplarni ma'no jihatdan bir-biriga bog'lab keladi. Ular gap boshida turganda o'zidan oldingi gap bilan o'zi qatnashgan gapni birlashtiradi. Bog'lovchi so'zlar sirasiga *fakat, lakin, ancak, yalnız, ama (amma)* va eskirgan *lik, velik, veli* kabi bog'lovchilar kiradi. Ular, odatda, bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'noda qo'llanadi. *Fakat, lakin, ama* bog'lovchilari arab tilidan o'zlashgan, *ancak, yalnız* bog'lovchilari esa sof turkchadir. Bu bog'lovchilar zid ma'noli gap va birikmalarni bir-biriga bog'laydi va sodda gaplar orasida sabab-natija munosabatlari o'rnatadi: *Evlenmek istiyordu, fakat düğün yapmak için parası yok (Uylanmoqchi edi, lekin to'y qilish uchun puli yo'q edi). Okula zamanında gelmek istedim, ama trafik yoğun olduğu için geç kaldım (Maktabga vaqtida kelmoqchi bo'ldim, ammo yo'l tiqilinch bo'lgani uchun kechi qoldim). Ev satın aldık, lakin çok borçlandık (Uy sotib oldik, lekin juda qarzga botdik). Çok çalıştı, ancak bir türlü başarılı olamadı (Ko'p ishladi, lekin hecham ishi o'ngidan kelmadi). Bu işi yapacaksın, yalnız çok çalışman gerekir (Bu ishni uddalaysan, faqat juda ko'p ishlashing kerak).*

Turk tilida qo'llanib kelayotgan o'nlab bog'lovchilar sirasiga "eğer" ma'nosini ifodalovchi *şayet* va qadimda qo'llanilgan ger bog'lovchilarini, "gerçi" ma'nosini ifodalovchi *vakia, her ne kadar* va eski *egerçi* bog'lovchilarini, "çünkü" ma'nosini ifodalovchi *çünkü, zira* va qadimgi *çün, çü* bog'lovchilarini, *madem ki, madem* va qadimgi *çünkim, çünkü, madam* bog'lovchilarini, natija va izohni ifodalovchi *meğer (meger), bina-enaleyh, öyle ki, oysa ki, şöyleki, nitekim, halbuki, kaldı ki, üstelik, belki, hatta, yani, zaten, bari, hakeza, bilhassa, demek, demek ki, öyleyse, özellikle* bog'lovchilarini ham kiritish mumkin. Sanab o'tilgan bog'lovchilardan oxirgilari kuchaytiruv va izoh bog'lovchilari ham deyiladi.

Turk tilida bir guruh bog'lovchilar o'xshashlikni ifodalaydi: *adeta, sanki, nasıl ki, güya, nitekim* va qadimgiturkchada qo'llanilgan *nite ki, nice ki, san* bog'lovchilari shart va daraja ma'nosini ifodalaydi: *tek, yeter ki, meğer ki, velev, velev ki, ta ki, illa, illa ki* kabi.

Turk tilidagi **ta ki** bog'lovchisi **kadar** ma'nosini ifodalaydi. Shu bois uning *ta ki oraya gidinceye kadar (toki u erga ketgunga qadar)*

kabi birikmada (*kadar* ko‘makchisi bilan birga) qo‘llanishi noto‘g‘ri. Uning to‘g‘ri shakli *ta ki oraya gidelim, gidilsin (toki u yoqqa ketaylik, ketilsin)*dir. *Kadar* bog‘lovchisi qo‘llanganda *ki* bog‘lovchisi qo‘shilmaydi. Yoki “aksi halde” ma’nosida *yoksa, aksi halde, aksi taktirde* bog‘lovchilari va “hele” (*gel hele, hele gel*) bog‘lovchisi yozma va og‘zaki nutqda keng qo‘llanadi. Bog‘lovchilarning vazifasi ular qo‘shma gaplar ichida kelganda namoyon bo‘ladi: *Bugün size gelemem, çünkü çok işim var. (Bugun sizning yoningizga kela olmayman, chunki ishım juda ko‘p). O bugün geç kalmadı, hatta on dakika erken geldi. (U bugün kech qolmadi, hatto o‘n daqiqa erta keldi)* kabi.

KO‘MAKCHILAR (Son Çekim Edatlari)

Turk tilida bog‘lovchilarga o‘xshash vazifani bajaruvchi yana bir yordamchi so‘z turkumi ko‘makchilar (*son çekim edatlari*)dir. Bog‘lovchilar va ko‘makchilar qo‘llanish jihatdan bir-biriga juda o‘xshasa-da, ular orasida ba’zi farqliliklar bor. Bog‘lovchilar so‘z birikmalari, uyushiq bo‘laklar va sodda gaplar orasida, ko‘makchilar esa faqat so‘zlar orasida munosabat o‘rnatishga xizmat qiladi. Ba’zi yordamchi so‘zlar esa ham bog‘lovchi, ham ko‘makchi sifatida qo‘llanadi. Shu bois ba’zi tilshunoslar orasida bu borada farqli qarashlar bor. Bog‘lovchilar va ko‘makchilar orasidagi farqni yanada aniqlashtirish uchun quyidagi misollarga murojaat qilamiz: *Engin okula bisiklet ile gitti. (ile - ko‘makchi), Engin ile Ayşe okula gittiler (ile - bog‘lovchi)*. Shuningdek, bog‘lovchi va ko‘makchi orasidagi farqni aniqlash uchun so‘zni gap ichidan chiqarish kerak. Agar shunda gap buzilmasa, demak qo‘llanilgan yordamchi so‘z bog‘lovchi bo‘ladi, buzilsa - ko‘makchi bo‘ladi.

Umuman, nutqda vosita, sabab, zamon, makon va shu kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanadigan yordamchi so‘zlarga *ko‘makchilar (edatlar; son çekim edatlari)* deyiladi. Ba’zi grammatika kitoblarida ko‘makchilar *ilgeçler* deb ataladi.

Hozirgi zamon turk tilidagi asosiy ko‘makchilar sirasiga *için, gibi, kadar, göre, dolayı, ötürü, üzere, değil* yordamchi so‘zlari kiradi. Ba’zi ot, sifat, ravish turkumlariga mansub so‘zlar ham ko‘makchi sifatida qo‘llanadi: *nazaran, ait, beri, gayri, böyle, önce, evvel, sonra*.

karşı, doğru, yana, başka, dair, rağmen, dek, öte kabi. Qadimgi turkcha matnlar, shuningdek, badiiy adabiyotda uchrab turadigan *naşi, birle, tek, sari, içre, ara, içeri, dışarı, özge* kabi soʻzlarni ham koʻmakchi sifatida namoyon boʻlishi mumkin.

Koʻmakchilar oʻzgarmaydigan (turlanmaydigan va yasalmaydigan) yordamchi soʻzlardir. Nutqda qoʻllanishlari, otlarning ayrim kelishik shakllarini boshqarishlariga koʻra koʻmakchilar quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Bosh kelishikda turgan ot va qaratqich kelishikda turgan olmosh bilan birga qoʻllanadigan koʻmakchilar: *ile, için, gibi, kadar (su ile, bal gibi, benim gibi, Ayşe için)* kabi.

2. Bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan feʼl (harakat nomi) bilan birga qoʻllanadigan koʻmakchilar: *üzere, diye, sıra, içre, ara (yani sıra, gelmek üzere, cihan içre, mutluluk diye)* kabi.

3. Joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi olgan ot bilan birga qoʻllanadigan koʻmakchilar: *kadar, göre, nazaran, ait, karşı, doğru, dair, rağmen, dek (eve kadar, bana göre, bize ait, sabaha karşı, tatlı dile dair, her şeye rağmen, bugüne dek)*.

4. Chiqish kelishigi qoʻshimchasi olgan ot bilan birga qoʻllanadigan koʻmakchilar: *dolayı, ötürü, beri, gayri, böyle, önce, evvel, sonra, geri, yoʻna başka, öte (gelmemenizden dolayı (kelmaganingiz sabab), gecikmesinden ötürü (kechikkani tufayli), bir aydan beri (bir oydan beri), kahvaltıdan önce (nonushtadan oldin), yemekten sonra (ovqatdan keyin), babasından yana (otasi tomonida), Ahmet ten başka (Ahmaddan boshqa)*.

Koʻmakchilar: **birgalik:** *ile, birle;* **sabab:** *için, üzere, dolayı, ötürü, naşi, diye;* **oʻxshashlik:** *gibi, bigi, tek;* **farqlilik:** *başka, özge, gayri;* **holat:** *göre, nazaran, dair, ait, rağmen;* **miqdor:** *kadar;* **payt. zamon:** *beri, önce, evvel, böyle, sonra, geri;* **oʻrin, yoʻnalishni:** *kadar, değin, dek, karşı, doğru, yana, sıra, içeri, içre, ara, öte* ifodalaydi.

Sanab oʻtilganlardan tashqari, turk tilida *halde, karşılık, mukabil, nisbet, bedel* kabi soʻzlar ham koʻmakchilar sifatida qoʻllanadi: *çalıştığı halde, buna mukabil, buna karşılık, buna bedel* kabi. Shuningdek, *hakkında, yüzden, yüzünden, üzerine, yandan, taraftan, tarafından, bakıma, bakımdan, bakımından, yönden, yönünden, süretle, süretiyle,*

sebeple, sebebiyle, dolayısıyla kabi mustaqil soʻzlar ham gapda koʻmakchilar vazifasida kelishi mumkin.

YUKLAMALAR (*Sona Gelen Edatlar*)

Nutqda mustaqil soʻzlardan keyin kelib, ularga qoʻshimcha maʼno yuklovchi yordamchi soʻzlarga yuklamalar (*sona gelen edatlar* - *soʻzning oxirida keluvchi yordamchi soʻzlar*) deyiladi. Ular, baʼzan, koʻmakchilar singari gap ichida bir soʻzni undan oldin yoki keyin kelgan unsurlar bilan bogʻlab maʼnoni kuchaytirishga xizmat qiladi: *dahi, da (de), ise, ki* (eski turkchada - *kim*), *bile, deęil, fakat, ancak, sadece, yalnız, sanki, tıpkı* va h.: *Bana dahi güvenmiyor* (*Menga ham (hatto) ishonmaydi*). *Seni bile unuttum* (*Seni hatto unutdim*) kabi. Yuklamalar soʻzga baxsh etadigan qoʻshimcha maʼnolariga koʻra, soʻroq va taajjub, kuchaytiruv va taʼkid, ayiruv va chegara, aniqlik, gumon va inkorni ifodalanishiga yordam beradi.

Soʻroq va taajjub yuklamasi, asosan, *mi* va *ya* shaklida boʻlib, ular nutqda soʻroqni (*gelecek mi?*), taajjubni (*Acaba, söylemedi mi? ya şunu alsam?*) ifodalaydi. Shuningdek, nutqda buyruq, iltimos, qistov maʼnolarini ifodalovchi *haydi, de (da), -e (a)* yuklamalarini ham ushbu guruhga kiritish mumkin (*haydi, sen gel de, görelim; söylesen-e, otursan-a*).

Ya yuklamasi taʼkid maʼnosini ifodalashga yordam beradi: *Ahmet var ya, işte o senin dayın* (*Ahmad bor-ku, ana oʻsha sening togʻang*).

De (da) va *ki (kim)* yuklamasi taʼkid va kuchaytiruv maʼnolarini ifodalaydi: *Kaç kere geleceğim dedim de, hiç fırsat olmadı* (*Necha marta kelaman dedim-u, hech fursat boʻlmadi*). *O kadar kurnaz ki, ...* (*Shunchalik ayyorki, ...*) kabi.

UNDOV SOʻZLAR (*Ünlem Edatları*)

Turk tilida his-hayajon, sevinch, iztirob, qoʻrquv, hayrat kabi insonga xos ruhiy holatlarni ifodalovchi, shuningdek, birini chaqirish, biror fikrni tasdiqlash yoki rad etish, soʻrash, koʻrsatish, tabiatdagi tovushlarni taqlid shaklida ifodalash uchun qoʻllaniladigan, nutqda gapdan alohida, mustaqil holda qoʻllanganda yozuvda undov belgisi qoʻyiladigan yordamchi soʻzlarga undov soʻzlar (*ünlem edatları; ünlemler*) deyiladi. Nutqda undov soʻzlarning ifoda qobiliyati benihoya

kuchlidir. Undov soʻzdan keyin u tuygʻu va tilakni izohlovchi bir gap keladi: *Oh! Hava biraz serinledi (Oh, Havo biroz salqin boʻldi). Hah! Tam istediğim gibi (Ana, xuddi istaganimday). Haydi! İşinize bakın (Qani, hamma oʻz ishiga qarasin)* kabi. Undov soʻzlar gap oxirida ham kelishi mumkin: *Lafi uzatmayalım, haydi! (Gapni choʻzmang, qani), Fazla konuşuyorsun, be! (Koʻp gapirayapsan, ey)* kabi.

Turk tilshunosligida undov soʻzlar besh kichik guruhga ajratiladi: *undov soʻzlar (ünlemler), xitob va chaqiriqni ifodalovchi soʻzlar (seslenme edatları), soʻroqni ifodalovchi undov soʻzlar (sorma edatları), koʻrsatish, ishorani ifodalovchi undov soʻzlar (gösterme edatları), javobni ifodalovchi undov soʻzlar (cevap edatları).*

Undov soʻzlar (ünlemler). Undov soʻzlar his-hayajonni (*ah, vah, eyvah, ay, vay, oy, püf, aferin, hah, sakın, haydi, aman*), atrofimizdagi olam, jonli tabiatdagi turli tovushlar, hayvonlar chiqaradigan turli saslar (*pat, küt, çat, miyav*)ni taqlid shaklida ifodalovchi, mustaqil soʻz turkumlariga yaqin turuvchi yordamchi soʻzlardir. Buni, ushbu soʻzlardan baʼzilarining nutqda qoʻllanishi (undov soʻzlardan yasalgan feʼllar) misolida koʻrish mumkin: *of-lamak (uflamoq), püf-lemek (puflamoq), çat-lamak (chatnamoq), miyav-lamak (miyovlamoq)* kabi.

Xitob va chaqiriqni ifodalovchi soʻzlar (seslenme edatları) hech qanday maʼnoga ega boʻlmay, faqat vosita vazifasini bajaradi va kuchli urgʻu berib talaffuz qilinadi: *a, ey, ah, hey, ya, yahu, be, hu* kabi.

Xitob (*seslenme*) kishilar orasida oʻzaro aloqa taʼminlanishi uchun bir vaziyat yaratilishida (ogohlantiruv, diqqatni tortuv vazifasida) qoʻllanadi. Bir shaxs boshqasiga xabarni yetkazar ekan, oldin uni chaqiradi, keyin bu xitob vositasida munosabat qurish uchun suhbartga tortib, maʼlumot beradi. Xitobni kuchaytirish va taʼkidlash maqsadida baʼzan imo-ishora, baʼzan esa imo-ishorasiz qoʻllaniladigan undov soʻzlar xitob soʻzlar bilan birgalikda qoʻllanadi. Undov soʻzlar va xitoblar orasidagi bunday munosabat yozma yoki ogʻzaki nutqqa quyidagi tuzilishga ega boʻladi:

Undov soʻz yoki birikma + xitob soʻz (birikma): *Ey bu toprak için toprağa düşmüş asker!*

Undov soʻz yoki birikma + xitob soʻz (birikma) + xitob qoʻshimchasi (yuklamasi): *A, kardeşim şu yaptığın doğru mu senin?*

Undov soʻz yoki birikma + 0.: *Hey, kim var orada?*

0 + xitob (yoki birikma): *Dostlar, mahrem dip ilge raz iksha kilmangʻiz (Ali Shir Nevai). Said, sen soʻzünü cahile deme.*

0 + xitob (yoki birikma) + xitob yuklamasi: *Allahʻim, neydi günahım!*

Soʻroqni ifodalovchi undov soʻzlar (*sorma edatlari*) sirasiga *hani, acaba, acep*, shuningdek, *nasıl, neden, niçin* soʻzlari kiradi.

Koʻrsatish, ishorani ifodalovchi undov soʻzlar (*gösterme edatlari*) bir shaxs yoki predmetni koʻrsatishga xizmat qiladi. Ular sirasiga shevalarda saqlanib qolgan *aha, daha, deha, te, nah* kabi undov soʻzlar kiradi. Ishora maʼnosidagi eski *ta* undov soʻzi oʻzbek tilidagi *To uygacha yayov ketdim (Eve kadar yaya (yürüyerek) geldim)* misolidagi *to* soʻziga mos keladi.

Javobni ifodalovchi undov soʻzlar (*cevap edatlari*) tasdiq yoki inkorni ifoda etadi: *evet, hayır, yok, değil, peki, hay hay, efendim, tabii, elbette* kabi. Bularndan *efendim* soʻzi nutqda xitob, murojaat, savolni ham ifodalab keladi. Turk tilida *iyi, güzel, olur, olmaz, oldu, gerçekten (hakikaten), kuşkusuz (şüphesiz), belki, demek* kabi mustaqil soʻzlar ham javobni ifodalovchi undov soʻz sifatida qoʻllanishi mumkin. Shuningdek, aslida mustaqil soʻz boʻlgan, lekin nutqda undov vazifasida qoʻllanib kelayotgan *aferin; Allah, Allah; Tanrım, Yarabbi, yazık, sakın* soʻzlaridan tashqari, *Allah aşkına, Aman Tanrım, Aman Yarabbi, Allahını seversen, haydi canım sen de, haydi oradan* kabi turgʻun birikmalar ham nutqda undov maʼnosida qoʻllanishi mumkin.

Savol va topshiriqlar – Sözlü ve Yazılı Sınav Soruları

1. Turk tilida yordamchi soʻz turkumlari (*Görevli kelimeler*)
2. Bogʻlovchilar (*bağlaçlar; bağlam edatlari*)
3. Koʻmakchilar (*Son çekim edatlari*)
4. Yuklamalar (*Sona gelen edatlar*)
5. Undov soʻzlar (*Ünlem edatlari*)

2-BO‘LIM

SINTAKSIS

Grammatika ikki qismdan iborat: Morfologiya va sintaksis. Morfologiya tilning lug‘at tarkibida mavjud barcha so‘zlarni ularning morfologik xususiyatlari asosida o‘rganadi. Sintaksis, qisqacha qilib aytganda, gap haqidagi ta‘limotdir. Sintaksisning asosiy vazifasi so‘zlar, so‘z birikmalarining sintaktik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat. Shu bois, sintaksisning tadqiqot obyekti gap, gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gap tasnifi, gapning (tuzilishiga ko‘ra, ifoda maqsadiga ko‘ra, modallikka ko‘ra, emotsionallikka ko‘ra va h.) turlari hisoblanadi.

Sintaksis so‘zlarning va gaplarning o‘zaro aloqasini, so‘z birikmalari va gaplarni tashkil etgan bo‘laklarning xususiyatlarini o‘rganishi jihatidan morfologiyadan farqlanadi. Morfologiya so‘zlarning tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishini tekshiradi. Bu shakliy tekshirish ma‘no asosida bo‘ladi. Sintaksis ayni shakllarning vazifasini, ma‘lum fikrni ifodalashdagi rolini o‘rganadi.

Morfologiya va sintaksis bir-biri bilan to‘ldiruvchi, o‘zaro munosabatda bo‘lgan sohalardir. Gap turlarining bir-biri bilan farqlanishi, asosan, kessimlarning qanday so‘z turkumi orqali ifodalinishiga bog‘liq. Umuman, har bir sintaktik kategoriya morfologiya bilan bog‘langan holda, ko‘pincha unga asoslangan holda tahlil qilinadi va belgilanadi.

2.1.SO‘Z QO‘SHILMASI. SO‘Z BIRIKMASI VA UNING TURLARI

Mavzuning o‘quv maqsadi: turk tilidagi so‘z qo‘shilmasi va qo‘z birikmasi atamalariga oydinlik kiritish, so‘z birikmasi, erkin birikma, turg‘un birikmalar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash; turk tilidagi so‘z birikmasi turlari va ularni shakllantiruvchi usullarni izohlash.

Tayanch so‘z va iboralar: *so‘z birikmasi (tamlama), so‘z birikmasining turlari (tamlamalarin çeşitleri), otli birikma (ad tamlaması), fe‘lli birikma (fe‘l tamlama), so‘z birikmalarining bog‘lanish usullari.*

Soʻz qoʻshilmasi va soʻz birikmasi

Ikki va undan ortiq soʻz tenglashtirish yoki tobelanish aloqasi orqali bogʻlanadi. Tenglashtirish aloqasi orqali bogʻlangan til birliklariga **soʻz qoʻshilmasi** deyiladi. Tenglashtirish aloqasi sanash ohangi, **ve – va, ile (-la, -le) – bilan** yordamchi soʻzlari orqali yuzaga chiqadi. Masalan: *annem ve babam – onam va otam; kitapla defter – kitob bilan daftar; İyiyile kötü – yaxshi bilan yomon; Yastık ve yorgan – yastiq va koʻrpa*

Ikki va undan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzlarning grammatik, semantik va ohang nuqtai nazaridan bogʻlanishidan hosil boʻladigan til birliklariga **soʻz birikmasi** (*tamlama*) deyiladi. Soʻz birikmalari tobelanish aloqasi orqali hosil qilinadi. Masalan: *dönemin başlaması - davrning boshlanishi; altı yaş - olti yosh* kabi.

Soʻz birikmasining shakllanishi uchun har ikki soʻz mustaqil maʼnoli boʻlishi shart. Agar ikki oʻzaro maʼno va grammatik jihatdan birikkan til birligidan biri mustaqil maʼnoli boʻlib, ikkinchisi yordamchi maʼnoli boʻlsa (koʻmakchi), bunday til birliklari soʻz birikmasi hisoblanmaydi. Masalan, *vatan hakkında – vatan haqida, kız kardeşim için – singlim uchun* birliklari soʻz birikmasi boʻlishi uchun quyidagi shaklda boʻlishi kerak: *vatan hakkında şarkı söylemek – vatan haqida kuylamoq, kız kardeşim için hediye – singlim uchun sovgʻa* kabi. Bir mustaqil maʼnoli soʻz va bir yordamchi maʼnoli soʻzning birikishidan hosil boʻlgan birkuvlarga **soʻz birikuvlari** deyiladi. Masalan, *hayatla ilgili – hayotga aloqador, senin için – sen uchun, bana ait – menga tegishli* soʻz birikuvlariga misol boʻladi.

Soʻz birikmalari ikki qismdan tashkil topadi:

Bosh soʻz (hokim soʻz) – maʼnosi izohlanayotgan soʻz.

Ergash soʻz (tobe soʻz) – izohlovchi soʻz, yaʼni bosh soʻzning maʼnosini izohlovchi soʻz.

Yuqorida keltirilgan misollarda (*dönemin başlaması – davrning boshlanishi, altı yaş – olti yosh*) *başlama – boshlanish, yaş – yosh* soʻzlari bosh soʻz, *dönem – davr, altı – olti* soʻzlari tobe soʻzlar hisoblanadi. Chunki mazkur soʻz birikmalarida asosiy eʼtibor va asosiy mazmun ayni hokim soʻzlarga taalluqli boʻlib, tobe soʻzlar bosh soʻzlarning maʼnosini izohlab, toʻldirib kelgan.

Shu bilan birga, takroriy soʻzlar, juft soʻzlar va qoʻshma feʼllar morfologik nuqtai nazardan bir soʻzga teng hisoblanadi. Takroriy soʻzlar bir soʻzning takroridan yasaladi hamda maʼnoni kuchaytirish uchun qoʻllaniladi. Masalan: *hızlı hızlı yürümek – tez-tez yurmoq, tatlı tatlı gülümsemek – shirin – shirin kulimsiramok* kabi.

Juft soʻzlar ikki soʻzning juftlashishidan yuzaga keladi. Juft soʻzlar biron-bir umumiy maʼnoni bildirishga xizmat qiladi. Masalan: *kitap defter satın almak – kitob-daftar sotib olmoq, anne babasının evine gitmek – ota-onasinikiga ketmoq*. Demak, takroriy va juft soʻzlar soʻz birikmasi tarkibida bir soʻzga tenglashtiriladi. Turk tilida takroriy va juft soʻzlar hech qanday tinish belgisiz yoziladi.

Shuningdek, soʻz birikmalarini qoʻshma feʼllar bilan aralastirmaslik kerak. Turk tilida qoʻshma feʼllar ikki xil boʻladi:

1. Ot va yordamchi feʼllardan iborat qoʻshma feʼllar.

2. Yetakchi feʼl va qoʻshma feʼldan iborat qoʻshma feʼllar.

Birinci tipdagi qoʻshma feʼllar tarkibida *olmak, bulunmak (boʻlmoq), etmek (etmoq), eylemek (aylamoq), yapmak, kılmak (qilmoq)* yordamchi feʼllari qatnashadi. Masalan: *zannetmek – oʻylamoq, taxmin qilmoq; iyi olmak – yaxshi boʻlmoq; namaz kılmak – namoz oʻqimoq; sabreylemek – sabr aylamoq*.

Yetakchi feʼl va qoʻshma feʼldan iborat qoʻshma feʼllar tarkibida koʻmakchi feʼllar sifatida *vermek, durmak, yazmak, bilmek, gelmek, koymak, kalmak, yatmak, görmek, gitmek* feʼllari qoʻllanilishi mumkin. M-n: *hakakalmak – qarab qolmoq; yazadurmak – yozib turmoq; söylenegelmek – aytilib kelmoq; söyleyivermek – aytib yubormoq*.

Demak, qoʻshma feʼllar soʻz birikmasi boʻla olmaydi. Soʻz birikmasi tarkibida takroriy soʻzlar, juft soʻzlar va qoʻshma feʼllar bir komponent – bir boʻlakka teng hisoblanadi.

Soʻz birikmasining tarkibiga koʻra turlari

Soʻz birikmalari bosh soʻzning morfologik xususiyatiga, yaʼni qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanishiga koʻra ikki xil boʻladi: 1. Otli birikma; 2. Feʼlli birikma.

Tarkibidagi bosh soʻz ot, sifat, son, olmosh, ravish turkumlari bilan ifodalangan soʻz birikmalariga *otli birikma* deyiladi. Masalan: *mutlu* (sifat) *insan* (ot) – *baxtli inson; gelenlerin* (otlashgan sifatdosh)

hepsi (olmosh) – kelganlarning hammasi; *konuşanların* (otlashgan sifatdosh) *akıllısı* (sifat) – *gapirayotganlarning aqllisi*; *herkesten* (olmosh) *hızlı* (ravish) – *hammadan tez* kabi.

Tarkibidagi bosh soʻz feʼning harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalangan soʻz birikmalari *feʼlli birikma* boʻladi¹⁰. Masalan: *eve ulaşarak* (ravishdosh) – *uyga yetib, sinemaya gidenler* (sifatdosh) – *kinoga borgan (kishi)lar, roman okumak* (harakat nomi) – *roman oʻqimoq, herkesle gülenler* (sifatdosh) – *hamma bilan birga kulayotganlar* kabi.

Soʻz birikmalarining bogʻlanish usullari

Soʻz birikmalarining hosil boʻlish usullari uch xildir: 1. *Boshqaruv*. 2. *Bitishuv*. 3. *Moslashuv*.

Bosh soʻzning talabi bilan ergash soʻzning zarur grammatik vositalarning olishiga **boshqaruv** deyiladi. Ikki va undan ortiq soʻzning tushum, chiqish, joʻnalish, oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchalari yoki koʻmakchilar yordamida birikishidan yuzaga keladigan soʻz birikmalari boshqaruv yoʻli bilan hosil qilingan soʻz birikmalari hisoblanadi. Boshqaruvning ikki turi bor: 1. *Kelishikli boshqaruv*. 2. *Koʻmakchili boshqaruv*.

Ikki va undan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzning tushum, chiqish, joʻnalish, oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchalari yordamida birikishiga **kelishikli boshqaruv** deyiladi. Masalan: *tushum kelishigi qoʻshimchasi vositasida vasalgan soʻz birikmalari: kitabi satın almak – kitobni sotib olmoq; mektubu yazmak – maktubni yozmoq.*

Tushum kelishigi qoʻshimchasi yordamida hosil qilingan soʻz birikmalarida tushum kelishigi belgili (qoʻshimchali) yoki belgisiz (qoʻshimchasiz) qoʻllanilishi mumkin:

Qiyoslang: *resim(i) çizmek – rasm(ni) chizmoq; televizyon(u) seyretmek – televizor(ni) tamosha qilmoq;*

oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchasi vositasida vasalgan soʻz birikmalari: evde kalmak – uyda qolmoq; sokakta kalmak – koʻchada qolmoq;

¹⁰ Soʻz birikmasi tarkibida tuslangan feʼllar hokim boʻlak sifatida kelmaydi. Chunki tuslangan feʼllar gapni shakllantiruvchi asosiy vositadir. Birgina tuslangan feʼlning oʻzi ham bir gapni shakllantiradi. Masalan: *Gittim. – Ketdim*. Mazkur gap bir bosh boʻlakli darak gapdir.

jo'nalish kelishigi qo'shimchasi vositasida vasalangan so'z birikmalari: okula gitmek – maktabga bormoq; sokağa çıkmak – ko'chaga chiqmoq;

chiqish kelishigi qo'shimchasi vositasida vasalangan so'z birikmalari: dıřarıdan girmek – tashqaridan kirmoq; ađađtan almak – daraxtdan olmoq.

Ikki va undan ortiq va so'zning ko'makchilar yordamida birikishiga **ko'makchili boshqaruv** deyiladi. Masalan: *annem için hediye* – onam uchun sovg'a; *vatan hakkında kitap* – vatan haqida kitob; *seninle ilgili dedikodu* – senga aloqador mishmish; *trenle gelmek* – poezd bilan kelmoq.

Ergash so'z (tobe so'z) va bosh so'zning (hokim so'z) shaxs va sonda moslashishidan hosil bo'ladigan so'z birikmasi moslashuv usuli yordamida hosil bo'ladigan so'z birikmasidir. Demak, qaratqich kelishigi qo'shimchasi va egalik qo'shimchalari yordamida so'z birikmalarining hosil bo'lish usuli **moslashuv**dir. Bunda qaratqich kelishigi qo'shimchasi tobe so'zga, egalik qo'shimchasi hokim so'zga qo'shiladi. Masalan: *bunun nedeni* – buning sababi; *köprüünün uzunluğu* – ko'prikning uzunligi, *olayların akışı* – voqealarning davom etishi (oqimi, yo'nalishi)

Moslashuv yo'li bilan birikkan so'z birikmalarida qaratqich kelishigi belgili (qo'shimchali) yoki belgisiz (qo'shimchasiz) qo'llanilishi mumkin: *İstanbul+tren* = *İstanbul treni*, *öğrenci+kitap* = *öğrenci kitabı*, *öğrenci+çanta* = *öğrencinin çantası*, *okul+doktor* = *okulun doktoru*.

Erkin va turg'un so'z birikmalari

So'z birikmalari qo'llanilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Erkin birikmalar.
2. Turg'un birikmalar.

Erkin birikmalar nutq jarayonida tuziladi va ularning tarkibidagi so'zlarning o'rmini almashtirish, boshqa so'z bilan o'zgartirish mumkin. Tilshunoslikning sintaksis bo'limining tadqiqot obyektlaridan biri aynan erkin birikmalardir.

Turg'un birikmalar esa doimiy qolipga ega. Ularning uzvlari barqaror bo'lib, o'zgarmas shaklga kelib qolgan bo'ladi. Turg'un

birikmalar tilshunoslikda **iboralar** (*frazeologizmlar*) deb ham yuritiladi. Tilda ikki yoki undan ortiq soʻzdan tarkib topgan va bir soʻz kabi yaxlit maʼno ifodalovchi leksik birliklar **iboralar** deb ataladi. Turgʻun birikmalar koʻpincha koʻchma maʼnoni bildiradi va biron-bir narsaning belgisini, harakatini obrazli, ifodali, taʼsirchan aks ettirishga va ifodalashga yordam beradi. Masalan, ***ağzından bal akmak – ogʻzidan bol tommaq*** iborasi “shirin gapirmoq, fikrini chiroyli bayon etmoq, maqtamoq” maʼnolarini anglatadi. Iboralar birdan ortiq soʻzdan tarkib topishi bilan soʻz birikmasi yoki gap shaklida boʻlsa-da, ular nutq birligi boʻlgan bu birikmalardan tamoman farqlanadi va lugʻaviy birlik sifatida koʻp jihatdan soʻzlarga yaqin turadi, Masalan, ***ödü kopmak – oʻtakasi yorilmoq*** iborasi ikki soʻzdan iborat, lekin «qoʻrqmoq» maʼnosida bir soʻzga teng.

Soʻz birikmalarining tuzilishiga koʻra turlari

Turk tilidagi soʻz birikmalari tarkibidagi soʻzlar miqdoriga koʻra ikki xil boʻladi: 1. *Oddiy soʻz birikmasi*. 2. *Murakkab soʻz birikmasi*.

Oddiy soʻz birikmasi odatda ikki soʻzdan tashkil topgan boʻladi. Shu bilan birga, juft soʻzlar, takroriy soʻzlar, orttirma darajadagi soʻzlar, qoʻshma soʻzlar, tobe soʻz vazifasidagi iboralar ham bir soʻzga teng deb olinadi. Masalan:

ilginç olay – qiziqarli voqea – ot + ot

en büyük inşaat – eng katta bino – orttirma darajadagi sifat + ot

hızlı hızlı gitmek – tez-tez ketmoq – takroriy ravish + ot

sözüne bağlı dost – soʻzida turadigan doʻst – ibora + ot

çabuk gidivermek – tez ketib qolmoq – ravish + qoʻshma feʼl

ayakkabı dolabı – oyoq kiyim shkafi – qoʻshma ot + ot

Murakkab soʻz birikmasi uch va undan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzlardan iborat boʻladi. Bunday soʻz birikmalari yana kamida ikki soʻz birikmasini yuzaga keltiradi.

Masalan, ***kırmızı kazaklı esmer kız – qizil sviterli qoracha qiz*** birikmasi murakkab birikma boʻlib, uning tarkibida ikkita oddiy birikma mavjud: ***kırmızı kazaklı kız – qizil sviterli qiz; esmer kız – qoracha qiz***

ILMIY AXBOROT

Turk tilshunoslarining tadqiqotlari tahlil qilinganida, sintaksisning o'rganish obyekti sifatida ikki til birligi – gap (cümle) hamda so'z guruhi (kelime grubu, kelime öbeği) tilga olinadi. O'zbek tilshunosligida esa, ma'lumki, sintaksis doirasida gap hamda so'z birikmasi tadqiq etiladi. Mantiqan qaralganida, "so'z birikmasi" va "so'z guruhi" sintaktik birlik sifatida mutanosib bo'lmog'i darkor, ammo «kelime gruplari» – so'z guruhlari atamasi ostida beriluvchi til birligini tasniflash, ta'riflashda farqli yo'nalish asosida ish ko'rilishi ma'lum bo'ladi.

Turk tilshunosligida ikki va undan ortiq so'zlarning qo'shimcha, yordamchi so'zlar yoki ohang yordamida birikishidan hosil bo'ladigan, tugallanmagan hukm bildiruvchi, gap tarkibida bir gap bo'lagi vazifasini bajaruvchi til birligiga «so'z guruhi» nomi beriladi. Bunda quyidagi farqlar namoyon bo'ladi: O'zbek tilida so'z birikmasi kamida ikki mustaqil ma'noli so'zdan tashkil topmog'i lozim. Turk tilida so'z guruhi ixtiyoriy ikki so'z turkumiga kiruvchi so'zlardan («mustaqil so'z + mustaqil so'z») yoki «mustaqil so'z + yordamchi so'z» shaklidan) iborat bo'ladi. So'z guruhi har doim ajralmas sintaktik konstruksiya hisoblanadi, ya'ni so'z guruhlari gapda bir gap bo'lagi vazifasida keladi.

Turk tilida so'z guruhlarning ba'zan sakkiz (T.Banguo'g'lu), asosan o'n to'rt turi (L.Karaxan) borligi ilgari surilsa-da, ba'zi ishlarda so'z guruhlarning o'n yettitagacha (M.Ergin) tipi tilga olinadi. Masalan, E.Yaman so'z guruhining quyidagi o'n to'rt turini tasniflaydi: ot birikma (isim tamlama), sifat birikma (sifat tamlama), sifatdosh guruhi (sifatfiil grubu), ravishdosh guruhi (zarffiil grubu), harakat nomi guruhi (isimfiil grubu), takror guruhi (tekrar grubu), bog'lovchili so'z guruhi (bağlama grubu), ko'makchili so'z guruhi (edat grubu), unvon guruhi (unvan grubu), qo'shma ot (birleşik isim), undov guruhi (ünlem grubu), son guruhi (sayı grubu), qo'shma fe'l (birleşik fiil), qisqartma guruhi (kısaltma grubu). So'z guruhlari, demak, umuman, ikki so'zning ohang yoki turli grammatik vositalar yordamida birikishidan hosil bo'lgan birliklarni qamrab oladi hamda sintaksisning o'rganish obyekti hisoblanadi. Holbuki, qo'shma ot va qo'shma fe'l, so'zlarning

takroriy hamda juft shakllari morfologik sathda o'rganilishi zarur, ko'makchili so'z guruhi gapdagina reallashuvchi sintaktik hodisa bo'lib, uni alohida so'z guruhi turi sifatida ajratish talab qilinmaydi va hokazo. Yuqorida keltirilgan tasnifdan ayon bo'ladiki, o'zbek tilidagi so'z birikmalariga mos keladigan so'z guruhlari ikkita – ot birikma va sifat birikmadir. Bu birikmalarning turini aniqlashda har ikki tilda bir-biriga zid mezonga asoslanadi. O'zbek tilida ma'nosi izohlanayotgan so'z – hokim so'z birikmaning turini belgilab beradi, turk tilida esa, aksincha, izohlayotgan so'z – tobe so'zga qarab birikmaning turi aniqlanadi. Masalan, **go'zal qiz – guzel kiz** birikmasi o'zbek tilshunosligida otli birikma hisoblansa, turk tilshunosligi nuqtai nazaridan sifat birikmadir. A.N.Baskakov asosli ta'kidlaganidek, turk tilidagi so'z guruhlari yoki birikmalari tasniflarida, morfologik va sintaktik kategoriyalarni qorishtirib yuborish holatlari ko'zga tashlanadi. Tasniflarning muayyan me'yorlarga asoslanmaganligi sababli birikmalar yoki so'z guruhlari tasnifi turli sintaktik konstruksiyalar va morfologik shakllarning yig'indisidan iborat bo'lib qolgan. Demak, turk tilshunosligida tilga olingan so'z guruhlarning gapda bir sintaktik vazifani bajarishi e'tirof etilgan. Natijada so'zga atributiv munosabat bilan bog'langan so'zlar gap bo'lagi sifatida ajratilmagan.

Turk tilshunoslarining fikrlariga qaraganda, keltirilgan so'z guruhlari gap tarkibida bir gap bo'lagi vazifasini bajarishga mo'ljallangan. Lekin yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ajratilgan so'z guruhlarning hammasi shakllan so'z birikmasi talablariga javob bermaydi, zero, juft, takroriy, qo'shma so'zlar birikuv usullariga ko'ra so'z birikmasining alohida turi bo'la olmaydi. Chunonchi, so'z birikmasi sifatida farqlanishi mumkin bo'lgan konstruksiyalarni gapda har doim bir gap bo'lagi vazifasida keladi, deb bo'lmaydi. So'z birikmalarining ajralmas sintaktik konstruksiyaga aylanganlarigina bir gap bo'lagiga teng keladi. Turk tilshunosligidagi so'z guruhlarning tasniflari va ularga bo'lgan yondashuv natijasida aniqlovchi gap bo'lagi tarzida tafovutlanmagan, tadqiq etilmagan. Holbuki, turk tilidagi manbalardan to'plangan misollar bu tilda aniqlovchi va uning ma'no turlarini ajratish uchun asos beradi. Shu bilan birga, turk tilshunosligida qayd etilgan ushbu vaziyat boshqa gap bo'laklarining

tavsifiga ham ta'sir qilgan, natijada so'z guruhlarining ega, kesim, ikkinchi darajali gap bo'laklari vazifasida kelishi qayd etilgan.

Nazorat uchun savollar

1. «Grammatika», «sintaksis», «morfoloqiya» atamalarini izohlang.
2. Sintaksisning asosiy tadqiq obyektlari haqida ma'lumot bering.
3. So'z qo'shilmasi, qo'shma so'z, so'z birikmasi, iboralarning o'xshash va farqli tomonlarini aytib bering.
4. So'z qo'shilmasi nima? Misollar vositasida tushuntiring.
5. So'z birikmasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini sanang.
6. So'z birikmasi, juft so'z va takroriy so'z, qo'shma so'z. Ularning o'ziga xos xususiyatlari.
7. So'z birikmasining ifoda materialiga ko'ra turlarini aytib bering.
8. So'z birikmasining turlari.
9. So'z birikmasining bog'lanish usullari.
10. "Tobe so'z" va "hokim so'z" tushunchalari.
11. So'z birikmasi tarkibida qo'shimchalarning belgili va belgisiz qo'llanishiga misollar keltiring va sababini izohlang.
12. So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlari: oddiy va murakkab birikmalar.
13. Erkin va turg'un birikmalarning umumiy va farqli jihatlari.
14. Turk tilshunosligida so'z birikmasining tasnifi masalasi.

2.2.GAPNING BOSH BO'LAKLARI

(cümlenin esas ögeleri)

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi so'zning bosh bo'laklari – ega va kesim, uning turlari, ifodalanish materiallari haqida tushuncha hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *gapning bosh bo'laklari (cümlenin esas ögeleri), ega(özne), kesim(yüklem).*

Gapning yadrosini, asosini, markazini gapning bosh bo'laklari tashkil etadi. Gapning bosh bo'laklariga ega va kesim kiradi.

2.2.1.KESIM VA UNING IFODA MATERIALLARI

Tayanch soʻz va iboralar: *kesim, sodda kesim, tarkibli kesim, murakkab kesim, kesimning ifoda materiallari*

Kesim ega haqidagi maʼlumotni bildiruvchi gap boʻlagidir¹¹. Kesimlar **ne** **yapti?** – **nima qildi?**, **ne** **yapıyor?** – **nima qilyapti?**, **ne** **yapacak?** – **nima qiladi?**, **nima qilmoqchi?**, **kim?** – **kim?**, **ne?** – **nima?**, **nere?** – **qayer?**, **nasıl?** – **qanday?** kabi savollarga javob beradi.

Odatdagi tartibdagi gapda kesim gapning oxirida joylashadi. Masalan: *Kapı açıldı* (na **yapti?**). – *Eshik **ochildi***. *Bizim amacımız iyi **okumaktır*** (ne?). – *Bizning maqsadimiz yaxshi **oqishdir***. *İnanmak zor* (nasıl?). – *Ishonish **qiyin***.

Keltirilgan gaplarning birichisida asosiy eʼtibor eshikning ochilganligiga, ikkinchi gapda maqsadning oʻqish ekanligiga, uchunchi gapda esa ishonishning qiyinligiga qaratiladi. Yani yuqorida keltirilgan gaplarda belgilangan soʻzlar gaplarning kesimlaridir.

Gapning kesimi bir soʻz bilan yoki soʻz birikmasi yoki soʻz qoʻshilmasi bilan ifodalanishi mumkin.

Soʻz bilan ifodalangan kesimlarga yuqorida misollar keltirilgan.

Soʻz birikmasi bilan ifodalangan kesimlar: *Halbuki **ben, daha bu dünyadayım***. – *Vaholanki, men hali bu dunyodaman. Siz Rodosʼta **Vacit Paşanın kızı değİlmİşsiniz***. – *Siz Rodosdagi **Vajit pashaning qizi emasmİhsiz***. *Öteki şeyler hep **hayalİmden silİndİ***. – *Qolgan narsalarning hammasi xayolİmdan oʻchib ketdi*.

Bunda soʻz birikmasi tuzilishiga koʻra oddiy yoki murakkab, shuningdak, erkin yoki turgʻun boʻlishi mumkin. Yuqorida keltirilgan misollarning birinchisida kesim oddiy birikma bilan (***bu dünyadayım***), ikkinchisida murakkab birikma bilan ifodalangan (***Vacit Paşanın kızı***). Bu kesimlar erkin soʻz birikmalari bilan ifodalangan. Ke-

¹¹ Turk tilshunosligida kesim gapning eng asosiy boʻlagi hisoblanadi. Turk tilshunosligida kesimni faqat ifoda materialiga koʻra tasniflash masalasiga bir-muncha eʼtibor qilinganini koʻrish mumkin. Masalan, M.Ergin, L.Karaxan kabi tilshunoslarda kesim tuzilishiga koʻra ham, ifoda materialiga binoan ham tasniflanmaganligini koʻrishimiz mumkin. Faqat T.Banguoʻgʻlu va E.Yamanning tadqiqotlaridagina ot kesim bilan feʼl kesim farqlanadi. Ammo bu vaziyatda ham faqat atama nomi qayd etiladi va umumiy xususiyatlari qayd etiladi, xolos.

yingi gaplardagi kesimlar turg'un birikma – ibora bilan ifodalangan (*hayalinden silinmak, gözleri açılmak*).

So'z qo'shilmasi bilan ifodalangan ega: *Vaziyet gülünç ve kabaydı. – Vaziyat kulguli va qo'pol edi.*

Kesimlar, shuningdek, qo'shma so'lar yoki juft so'lar bilan ifodalanishi mumkin: *Hamit Bey «güzel eserim» diye onunla iftihar ediyor. – Hamitbey “go'zal asarim” deb u bilan faxrlanyapti.* (“ot + yordamchi fe'l” tarkibli qo'shma fe'l). *Fakat ben zengin oldukça nasıl emin olabilirim?* (“ot + yordamchi fe'l + ko'makchi fe'l” tarkibli qo'shma fe'l)

Bunların hepsi için bütün kabahat anne babasında. (juft so'z)

Gaplarning kesimi savol berish yo'li bilan aniqlanadi.

Kesimning tuzilishiga ko'ra turlari. Turk tilidagi kesimlarni tuzilishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin: 1. *Sodda kesim.* 2. *Tarkibli kesim.* 3. *Murakkab kesim.*

Sodda kesim va uning ifodalanishi

Bir mustaqil leksik ma'noli sintetik so'z formasi bilan ifodalangan va sodda tushuncha anglatadigan bo'lak **sodda kesim** hisoblanadi. Sodda kesimning tuzilishiga ko'ra ikki turi mavjud: 1. *Sodda ot kesim.* 2. *Sodda fe'l kesim.*

Sodda ot kesim. Turk tilida sodda ot kesim quyidagicha ifodalanadi:

Turk tilidagi ot kesimlar bosh kelishikdan tashqari o'rin-payt hamda chiqish kelishigi shaklida bo'lishi mumkin. Ot kesim ko'pincha bosh, kamroq o'rin-payt, chiqish, jo'nalish kelishigida bo'ladi.

Bosh kelishikdagi ot kesimlar: *Sen benim güvnenen arkadaşımın. – Sen mening ishongan do'stimsan.*

O'rin-payt kelishigidagi ot kesimlar: *Bizim neslimiz her nesilden ziyade faziletli olmak ve daima her şeyden feragatın müessesem timsali kesilmek mecburiyetindedir. – Bizning avlodimiz boshqa avlodlardan ziyoda fazilat egasi bo'lish va hamisha hamma narsadan farog'atning mujassam tajallisni namoyon etish majburiyatidadirlar.*

Chiqish kelishigidagi ot kesimlar: *Riza Bey de öğle yemeğine çıkmayan memurlardandır. – Ali Rizobey ham tushki ovqatga chiqmaydigan xizmatchilardan.*

Turk tilida jo'nalish kelishigidagi so'z bilan ifodalangan ot kesim nihoyatda kam uchraydi: *Fakat bütin zülmü karısına idi.* – *Uning butun zulmi xotiniga yo'naltirilgan edi.*

Sodda ot kesim quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

–ot bilan: *Zira sevdiği için ölmek, aşıkta en şerefli bir vazifedir*

. – *Zero, sevgilisi uchun o'lish oshiq uchun eng sharaflı vazifadir.*

–sifatlar bilan: *Bu gece her zamandan, her zamandan ziyade himayeye muhtacım.* – *Bu kecha har doimgidan, har doimgidan ziyoda himoyaga muhtojman.*

–olmoshlar bilan: *Evet, Pinar'a yol gösteren, akıl öğretene odur.*
Ha, Pinarga yo'l ko'rsatgan, aql o'rgangan ham o'sha.

–ravish bilan: *Fakat bu gölgenin vazifeleri, mecburiyetleri çoktur* (Y.K.K.). – *Faqat bu ko'lankaning vazifalari, majburiyatlari ko'p.*

–sifatdosh bilan: *Üstünde harita yayılıdır.*– *Ustiga xarita yoyilgan.*

–harakat nomi bilan: *Evet, bu korkunç bir aldanış.* – *Ha, bu dahshatli aldanish.*

–sodda son bilan: *İki çarpı iki dört. İkki karra ikki to'rt.*

–modal so'zlar bilan¹²: *Lakin benim bu işte zerre kadar taksiratım yoktur.* – *Lekin mening zarrachalik gunohim yo'q. Benim de kabahatlarım var. Mening ham ayblarım bor.*

Sodda fe'l kesim. Turk tilida sodda fe'l kesimlar quyidagicha ifodalanadi:

¹² Turk tilshunosligida modal so'zlar alohida so'z turkumi sifatida farqlanmagan. Lekin modal so'z sifatida ajratilishi zarur bo'lgan so'zlar, o'zbek tili-dagichalik ko'p bo'lmasa-da, mavjud. Masalan, **zarur, kerak, shart, darkor, lozim, mümkün** kabi so'zlar uchun turk tilida **gerek, lazım, mümkün** so'zlari qo'llaniladi. Bunga sabab esa turk tilida fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarish zarurligi, kerakligini bildiruvchi **-malı, -meli** ko'rsatkichli keraklilik maylining, shuningdek, **gerekmek /kerak bo'lmoq** fe'lining mavjudligidir. Qiyoslang: *Rakibe hükmetmemek, baskı kurmak için bilinçsizce saldırmak yerine ayağa pas va depar kulvarlarını iyi kullanmak gerekir.* – *Raqibga imkon bermaslik, ustma-ust hujum uyushtirish uchun ongsiz harakat qilish o'rniga pas va start usullaridan o'rinli foydalanish kerak. Şairler zeka ve iktidarlarını göstermelilerdir.* – *Shoirlar o'z qobiliyatlari va bilimlarini ko'rsatishlari kerak. Biroq bunday kesimlar fe'l kesim hisoblanadi.*

Xabar maylidagi fe'llarning sodda zamon shakllari bilan:

• **-di, -di, -du, -dū/ -ti, -ti, -tu, -tü** shaklli o'tgan zamon fe'llari bilan: *Herkes, şaşırdı* (R.N.G.). – *Hamma hayron qoldi.*

• **-miş, -miş, -muş, -müş** shaklli o'tgan zamon fe'llari bilan: *Annesine her şeyi olduğu gibi söylemiş* (R.N.G.). – *Onasiga hamma narsani qanday bo'lsa, shundayligicha so'zlab bergan*

• **-(i)yor, -(i)yor, -(u)yor, -(ü)yor, -makta, -mekte** qo'shimchali hozirgi zamon fe'llari bilan: *Eğlenmeye, avuç dolusu para yemeğe gidiyorlar.* – *Ko'ngilxushlik qilishga, hovuch-hovuch pullarni sovurishga ketishyapti.* – *Sabah aydınlığı gittikçe artmaktadır.* – *Tong otmoqda.*

• **-r, -ar,-er, -ır, -ir, -ur, -ür//-maz, -mez** affiksli hozirgi-kelasi zamon fe'llari bilan: *Ne de gipten bana haber vermeni dilerim* (Y.K.K.). – *Qanday qilib bo'lsa-da, g'oyibdan menga xabar berishingni so'rayman.*

• **-(y)acak, -(y)ecek** shaklli kelasi zamon fe'llari bilan: *Şevket, seninle yerimizi değiştireceğiz.* – *Shevket, sen bilan joyimizni o'zgartiramiz.*

Sodda fe'l kesim, shuningdek, quyidagi mayl shakllari bilan ifodalanishi mumkin:

• shart maylidagi fe'llar bilan: *Cevap versene.* – *Javob bersang-chi!*

• buyruq maylidagi fe'llar bilan: *Sus! Jân bo'!*

• istak maylidagi fe'llar bilan: *Bu evden beraber gidelim.* – *Bu uydan birga ketaylik.*

• keraklilik maylidagi fe'llar bilan: *Bundan sonra alışverişi bu saatlerde yapmalı.* – *Bundan keyin bozor-o'charni shu soatlarda qilishi kerak.*

Tarkibli kesim. Yetakchi va yordamchi so'zlarning birikishidan tashkil topgan, tarkibi leksik va grammatik ma'no markazlariga ajraladigan analitik konstruksiyalar bilan ifodalangan bo'lak **tarkibli bo'lak** hisoblanadi. Tarkibli bo'laklarning asosiy ma'nosi yetakchi komponentdan, grammatik ma'nosi yordamchi komponentdan anglashiladi. Yordamchi komponent aslida o'z leksik ma'nosiga ega bo'lib, gap bo'lagi vazifasini bajargan, bugungi tilda o'z leksik

ma'nosini butunlay yoki qisman yo'qotib, formal qismga aylangan, tarkibli bo'lak tarkibida yordamchi komponent funksiyasida keladigan so'zlardir. Yordamchi komponentning ifoda materiali quyidagilardan iborat bo'ladi:

a) o'z leksik ma'nosini butunlay yo'qotgan leksik-grammatik vositalar (ko'makchi, bog'lama, yordamchi fe'llar);

b) leksik ma'nosini saqlagan, biroq tarkibli bo'lak tarkibida kelib, vaqtincha uning yordamchi funksiyasida qo'llaniladigan birliklar (ko'makchi fe'llar).

ILMIY AXBOROT

Turk tilidagi fe'llarni leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiq: 1. Mustaqil fe'llar. 2. Yordamchi fe'llar.

Yordamchi fe'llar ham o'z ichida yana uch gruppaga bo'linadi:

1) yordamchi fe'llar. Bu fe'llarga **olmak, bulunmak /bo'lmoq, etmek /etmoq, eylemek /aylamoq, yapmak, kilmak/qilmoq** fe'llari kiradi (bu fe'llar ot, ot xarakteridagi so'zlar bilan qo'llanilib, kesim vazifasini bajarishi mumkin):

2) ko'makchi fe'llar. Bu fe'l guruhiga **vermek, durmak, yazmak, bilmek, gelmek, koymak, kalmak, yatmak, gormek, gitmek** fe'llarini kiritish mumkin:

3) to'liqsiz fe'llarga **idi, imis, ise** so'zlari kiradi.

“Yetakchi komponent + yordamchi komponent” tipidagi birikuvlar bilan ifodalangan tarkibli kesimlarni tarkibiga ko'ra ot kesim va fe'l kesimga ajratish mumkin.

Tarkibli ot kesim. Turk tilidagi “yetakchi komponent + yordamchi komponent” tipidagi birikuvli tarkibli ot kesimlar tarkiban quyidagicha ifodalanadi.

Ikki komponentli tarkibli ot kesimlarning asosiy ko'rinishi quyidagichadir:

–“chiqish kelishigidagi so'z+**ibaret/iborat**” shaklli konstruksiyalar

–“harakat nomi + **lazim – lozim, gerek – kerak** modal so'zlari”dan tashkil topgan konstruksiyalar

– “harakat nomi + **mümkün/ mumkin**” shaklli konstruksiyalar
– “ot, ot xarakteridagi so‘z + yordamchi fe‘l” tarkibli qo‘shma fe‘llar

– “ot, ot xarakteridagi so‘z + to‘liqsiz fe‘l” tarkibli qo‘shma fe‘llar

• “chiqish kelishigidagi so‘z + **ibaret/iborat**” shaklli konstruksiyalar bilan: *Benim halim de yalnız senin **bildiğinden ibaret değildir.** – Mening holim ham faqat sening bilganingdan iborat emas edi.*

• harakat nomi va **lazım – lozim, gerek – kerak** modal so‘zlaridan tashkil topgan konstruksiyalar bilan: *Onu orada sayısı elliyi geçen en mükemmel musiki aletlerinden, güzel sanatkarların seslerinden **dinlemek lazım.** – Uni elliğdan oshiq musiqa asboblaridan, mohir san’atkorların ovozlaridan **tinglash kerak.** Bunday tarkibli kesim tarkibida **-mak, -mek, -ma, -me** affiksli harakat nomlari qo‘llaniladi.*

• “harakat nomi + **mümkün/ mumkin**” shaklli tarkibli kesim fe‘ldan anglashilgan voqea-hodisaning ro‘y berish imkoniyati mavjudligi yoki mavjud emasligini bildiradi: *Bununla beraber bahar gibi yazdan da **istifade edememeleri pek mümkün.** – Shu bilan birga, bahar singari yozdan hamı foydalana olmaslıkları juda mümkün-da.*

• **“ot, ot xarakteridagi so‘z + yordamchi fe‘l” tarkibli qo‘shma fe‘llar.** Turk tilida yordamchi fe‘llar ot, sifat, son, olmosh, ravish kabi so‘z turkumlariga kiruvchi so‘zlar ishtirokida qo‘llanilishi va gapda tarkibli ot kesim vazifasini bajarishi mumkin. *İhtiyar dayısını çığneyip geçmek vicdansız bir **hareket olurdu.** – Keksa tog‘asını yanchib o‘tish vıjdonsızlık alomatıdır. Biroq bu yordamchi fe‘llar bilan boshqa so‘zning birikuvi har doim ham qo‘shma fe‘llarnı hosil qilavermaydı. Masalan, quyıdagi gapda **olmak /bo‘lmoq** fe‘li sodda fe‘l kesim bo‘lib kelgan: *Benim de saatlerce karanlığa kapandığım, saatlerce kendimi ihtiyarı bir körlüğe vakfettiğim **oluyor.** – Mening ham soatlarcha qorong‘ulikka berkinib olgan, shu muddat davomida o‘zimni ixtiyoriy ravishda ko‘rlikka baxsh etgan paytlarım bo‘lardı.**

Turk tilida **kılmak/ qilmoq** yordamchi fe‘li faqat ayrim so‘zlar ishtirokidagina kelishi mumkin: *Namazımızı **kıldınız** mı? – Namozingizni o‘qingizmi?*

Turk tilida **qilmoq** fe'liga muqobil ma'noda **yapmak** fe'li qo'llaniladi. **Yapmak / qilmoq** fe'li boshqa yordamchi fe'llar singari **bajarmoq, amalga oshirmoq** fe'llari ma'nosida qo'llanilishi va gap tarkibida sodda kesim vazifasini bajarishlari mumkin: *Bu kichik afacan kızın her kahrını çeker, her dediğini yapardı.* – *Bu kichik ofatijon qizning har qanday gapini ko'tarar, aytganidan chiqmas edi.* **yapmak / qilmoq** fe'llari ot, ot xarakteridagi so'zlar bilan birikib, qo'shma fe'lni hosil qiladi va gapda tarkibli ot kesim bo'lib keladi: *Dede, senelerce çalışmış, çabalamış, servinin iki yanına iki odalı bir taş kule yaptırmış.* – *Buva yillar davomida ishlagan, harakat qilgan, sarv daraxtining ikki yoniga ikki xonali qala qurdirgan(qildirgan).*

Turk tilidagi tarkibli kesimning katta qismini **etmek/ etmoq** yordamchi fe'llari vositasida hosil qilingan qo'shma fe'llar tashkil etadi: *Maamafih üzümle sanayi-i nefise arasındaki münasebet inkar edilmez.* – *Shuningdek, uzum bilan nafasat san'ati o'rtasidagi aloqa inkor etilmaydi*

Turk tilidagi **bulmak /topmoq** fe'lining majhul nisbat shakli **bulunmak /bo'lmoq** yordamchi fe'l vazifasida qo'llanilishi mumkin. **bulunmak** fe'li **bo'lmoq** fe'li singari bog'lama vazifasini bajarishi mumkin: *Nihayet Münir Bey, sefaret katibliğiyle birçok seneler Londra'da bulunmuştu.* – *Nihoyat, Munirbey elchilik kotibligi lavozimida bir necha yillar davomida Londonda yashagan edi(bo'lgan edi).* Shuningdek, **bulunmak /bo'lmoq** yordamchi fe'li ot, ot xarakteridagi so'zlar ishtirokida qo'llanilib, gap tarkibida tarkibli kesim bo'lib keladi: *Hüseyin Kenan, iki gündən beri burada, dayısının bağında misafir bulunuyor* – *Kenan ikki kundan beri shu yerda, tog'asining bog'ida mehmon bo'layapti.*

“ot, ot xarakteridagi so'z + to'liqsiz fe'l” tarkibli qo'shma fe'llar. Turk tilida **idi, imiş, ise**¹³ to'liqsiz fe'llari, shuningdek, **değil**

¹³ Bu to'liqsiz fe'llardan **ise** so'zi gap tarkibida shart holi yoki shart ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi ergash gapning kesimi bo'lib kelishi mumkin. Masalan: *Aklına esenini yapan tek sensen (sen isen)*, *o zaman sana söylememe artık lüzüm yok.* – *Xayoliga kelganini qiladigan odam faqat sen bo'lsang, unda senga ortiqcha gapirishning hojati yo'q.* Mazkur gap ergash gapli qo'shma gap bo'lib, bosh gap: *Aklına esenini yapan tek sensen (sen isen)*, shart ergash gap: *o zaman sana söylememe artık lüzüm yok.* Bunda olmosh va **ise** to'liqsiz fe'lidan iborat **sensen (sen isen)** birikuvi tarkibli ot kesimdir.

– **emas** soʻzi ot, ot xarakteridagi soʻzlar bilan birikib kelganida, **tarkibli ot kesim** hisoblanadi: *Hasılı, ben o zaman fakir fakat mesut bir çocuk idim. – Xullas, men oʻsha payt kambagʻal, ammo baxtli bola edim. Musikiyi sevenler mutlaka düşmeğe, mutlaka kerizci olmağa mahkummuş. – Musiqani sevganlar mutlaqo maʻnan kambagʻallashishga, mutlaqo koʻcha musiqachisi boʻlishga mahkum emish. Sen benim istediğim birisi değılsin. – Sen men orzu qilgan odam emassan.* Bu toʻliqsiz feʻllardan **ise yoki** “**ise + idi, imiş** toʻliqsiz feʻli” birikuvi soʻzi istak, xohish maʼnosini anglatuvchi gaplarning kesimi boʻlib keladi: *Keşke bu dünyaya kelmeseydım. – Koshki bu dunyoga kelmagan boʻlsam edi.*

Tarkibli feʻl kesim. Turk tilidagi ikki komponentli tarkibli feʻl kesimlarning asosiy koʻrinishi quyidagichadir: 1. “yetakchi feʻl+koʻmakchi feʻl”; 2. “yetakchi feʻl + toʻliqsiz feʻl”

Turk tilida koʻmakchi feʻl sifatida **vermek, durmak, yazmak, bilmek, gelmek, koymak, kalmak, yatmak, görmek, gitmek** feʻllari qoʻllaniladi. Bulardan soʻnggi oltitasi ayni vazifada kam qoʻllaniladi. Koʻmakchi feʻllar yetakchi feʻllarga **-(y)ip, -(y)ıp, -(y)up, -(y)üp** yoki **-(y)a, -(y)e**, xususan, **-(y)i, -(y)ı, -(y)u, -(y)ü** ravishdosh yasovchilari vositasida birikadi. Yetakchi feʻl hamda koʻmakchi feʻldan tashkii topgan feʻlning analitik shakli gapda tarkibli feʻl kesim vazifasini bajaradi: *Bey olduđu yerde dönüp kaidi. – Bey turgan joyida qotib qoldi. Yuvamız dağılıp gidecek. – Oilamız buzilib ketadi.*

olmak /boʻlmoq yordamchi feʻli boshqa yordamchi feʻllardan sifatdosh shakllari bilan qoʻllanilish imkoniga egaligi bilan farqlanib turadi. **olmak** feʻli **-miş, -miş, -muş, -müş** shaklli oʻtgan zamon, **-r, -ar, -er, -ır, -ir, -ür, -ur, -(y)acak, -(y)ecek, -(y)ıcı, -(y)ici, -(y)ucu, -(y)ücü** affiksli kelasi zamon sifatdoshlari ishtirokida kelishi mumkin: *Böylece hem ağabeyisinin gönlünü almış hem de şehirde bulunan çocuklarını eğlendirmiş olurdu. – Shu tarzda ham akasining koʻnglini olgan boʻladi, ham shaharda zerikkan bolalarini vaqtini chogʻ qilgan boʻlardı. Mektep hocalarından utanır oldum. – Maktab oʻqıtuvchilarıdag uyaladıgan boʻlib qoldım. Vah biçare Kınalı Yapın-cak kırk yılda bir benden bir şey isteyecek oldu. – Voy bechora Kınalı Yapınjak qırq yılda mendan bir narsa soʻraydıgan boʻldı.*

Turk tilidagi zamon yoki mayl shaklidagi fe'llar **idi**, **imiş**, **ise**, **değil** so'zlari bilan kelganida, tarkibli fe'l kesim hisoblanadi. Turk tilida **ekan** so'zi yo'q¹⁴, uning o'rniga **imiş** / **emish** to'liqsiz fe'li ishlatiladi. Demak, tarkibli fe'l kesimlar biron fe'l zamoni yoki maylidagi fe'l va to'liqsiz fe'llarning birikuvi bilan ifodalanishi mumkin.

Masalan: *Siz bir prenesle evleniyormuşsunuz.* – *Siz bir malika bilan turmush qurayotgan ekansiz* (hozirgi zamon fe'li + **imiş** to'liqsiz fe'li). *Sevda keşke her kadına böyle faydalı şeyler ilham etseydi...* – *Ishq savdosi koshki har bir ayolga bunday foydali narsalar uchun ilhom bag'ishlasa edi...* (shart maylidagi fe'li + **idi** to'liqsiz fe'li). *Bu sözleri o söylemiş değil.* – *Bu gaplarni u aytgan emas.*

ILMIY AXBOROT

Turk tilidagi ikki komponentli tarkibli kesimlarning asosiy ko'rinishi "ot, ot xarakteridagi so'z + yordamchi fe'l", "ot, ot xarakteridagi so'z + to'liqsiz fe'l" va "yetakchi fe'l+to'liqsiz fe'l", "yetakchi fe'l + ko'makchi fe'l" qolipiga egadir. Turk tilida bu qoliplarning asosan birinchi uch ko'rinishi keng tarqalgan bo'lib, "yetakchi fe'l + ko'makchi fe'l" ko'rinishli ayrim qo'shma fe'llar faol qo'llaniladi. Turk tilida uch komponentli tarkibli kesim asosan "yetakchi komponent (ot yoki ot xarakteridagi so'zlar) + yordamchi komponent (yordamchi fe'l) + to'liqsiz fe'l" qolipidagi yoki "yetakchi komponent (yetakchi fe'l) + yordamchi komponent (ko'makchi fe'l) + to'liqsiz fe'l" ko'rinishida bo'ladi: *Namus sözü bu kadında her vakit büyük bir tesir yapardı.* – *Nomus so'zi bu ayolga har doim qattiq ta'sir qilardi.* "yetakchi komponent (yetakchi fe'l yoki ot yoki ot xarakteridagi so'zlar) + yordamchi komponent (ko'makchi fe'l) + ko'makchi fe'l" qolipli uch komponentli kesimlar kam qo'llaniladi: *Biraz gün geçtikten sonra Lutfi Dede bize veda edip gitti.* – *Bir necha kun kechikkandan so'ng Lutfi Buva biz bilan xayrlashib ketdi.*

¹⁴ Turk tilida **ekan** so'zining muqobili **iken** so'zi mavjud bo'lsa-da, uning to'liq yoki qisqa shakli (**-ken**) **-r** affiksli sifatdosh yoki otlar, ot xarakteridagi so'zlar bilan qo'llanilib, asosan payt holi yoki payt ergash gapning kesimi vazifasida kelishga xoslangan. Masalan: *Çocukken ihtiyarlar gibi yorgundu*(R.N.G.). – *Bolaligida qariyalar kabi horg'in ko'rinardi.*

Murakkab kesim. Murakkab kesim ikki va undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlardan tashkil topgan ajralmas sintaktik konstruksiyalar, aniqlovchili birikmalar, frazeologik birikmalar bilan ifodalanishi mumkin. Ularni ham tarkibiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. Murakkab ot kesim. 2. Murakkab fe'l kesim.

Ajralmas sintaktik konstruksiyalar, aniqlovchili birikmalar va ot xarakteridagi iboralar bilan ifodalangan kesimlar **murakkab ot kesimlardir**. Masalan, quyidagi gaplarning kesimlari aniqlovchili birikma bilan ifodalangan: *Yoksa kendilerinin gelip gelmemesi **bizim elimizdedir**.* – *Bo'lmasa kelib kelmasligi bizning qo'limizdadir. Ben hemen hemen bu çocuğun **babası olacak yaştayım**.* – *Men bu bolaning otasi bo'ladigan **yoshdaman**.*

Fe'l tipidagi iboralar bilan ifodalangan kesim **murakkab fe'l kesimlardir**. Masalan: *Babam arzularını **yerine getirdi**.* – *Otam orzularını **amalga oshirdi**.* *Mirza Ulugbey onun dillere destan güzelliği, şahane güzelliği karşısında adete **dili tutulmuştu**.* – *Mirzo Ulug'bek uning bo'lakcha husnidan, xayoliy go'zalligidan **tol qolgan edi**.*

2.2.2. EGA VA UNING IFODA MATERIALLARI

Tayanch so'z va iboralar: *ega, sodda ega, tarkibli ega, murakkab ega, eganing ifoda materiallari*

Ega gapdagi fikr, hukm o'ziga qaratilgan predmetning – nutq predmetining nomidir. Demak, ega fikr obyektini, gap, fikr o'zi haqida borayotgan predmetni bildiradi. Bunda predmet keng ma'noda tushuniladi va u narsa, shaxs, voqea-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat, son-miqdor va hokazolarning nomini ham o'z ichiga oladi. Ega **kim? – kim?, ne? – nima?, nere? – qayer?** savollariga javob beradi. Masalan:

Insan (kim?) Allah'in en büyük yaratığıdır. – Inson Allohning eng buyuk mavjudotidir.

Hayat (ne?) güzeldir. – Hayot go'zaldir.

Taşkent (nere?) Özbekistan'ın başkentidir. – Toshkent O'zbekistonning poytaxtidir.

Ega bir so'z yoki so'z birikmasi yoki so'z qo'shilmasi bilan

ifodalanishi mumkin. Yuqorida keltirilgan gaplarning egalari bir soʻz bilan ifodalangan.

Soʻz birikmalari bilan ifodalangan egalar:

Necmünnisa, paşa baban(kim?) seni insan içine çıkarmaya büsbütün vahşi etmiş. – Nejmunnisa, poshsho dadang seni odamlar orasiga chiqarishga qattiq kirishibdi.

Köşkte bir sonbahar eğlencesi (ne?) yapılmış. – Ko'shkda bir kuzgi ko'ngilxushlik bayrami o'tkazilibdi.

Üç gün evvel Bandırma'ya annemin bir mektubu (ne?) geldi. – Uch kun avval Bandirmaga onamning bir maktubu keldi.

Ega vazifasida kelgan soʻz birikmalari tuzilishiga koʻra oddiy yoki murakkab, erkin yoki turgʻun boʻlishi mumkin. Yuqorida keltirilgan gaplardagi egalar erkin birikma bilan ifodalangan.

Quyidagi misollarda ega turʻgun birikma – ibora bilan ifodalangan.

Bu köyde bir bakışla kuşları ağaçtan düşürenlar varmış. – Bu qishloqda osmondagi oyni benarvon uradiganlar bor emish.

Sabiha'cığim, debdebeyi, saltanatı sevip de hali, vakti pek yerinde olmayanlar dışarlarda yaşamalı. – Sabihaginam, dabdabani, saltanatni sevsa ham, o'ziga to'q bo'lmaganlar tashqarida yashashlari kerak.

Soʻz qoʻshilmasi bilan ifodalangan ega: **Bir kadın ve bir erkek doktorun özel muayenehanesine giderek vizite ücretin öderler ve muayene olmak istediklerini söylerler.** – *Bir ayol va bir erkak vrachning shaxsiy poliklinikasiga borib, tashrif haqqini to'lashadi va tekshiruvdan o'tish niyatlari borligini aytishadi.*

Ega juft soʻz bilan ham ifodalanishi mumkin: **Karı koca seyahata gitmişler.** – *Er-xotin sayohatga ketishibdi.*

Egani tuzilishiga koʻra uch guruhga ajratish mumkin: 1. Sodda ega. 2. Tarkibli ega. 3. Murakkab ega.

Sodda ega. Sodda ega faqat bosh kelishik formasida shakllanib, ega funksiyasida qoʻllaniladigan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan predmet (substantiv) yoki predmetlashgan – predmet tasavvuridagi (substantivlashgan) boʻlakdir. Turk tilidagi sodda ega quyidagicha ifodalanadi:

• ot bilan: *Niçin **kalbim** bu kadar uzun zaman susmuştu. – Nima uchun galbim bu qadar uzoq sukut saqlagan edi.*

• olmosh bilan: *Fakat **bunlar** benim ihtiyar kafamın alacağı şeyler değil. – Ammo bular menday keksa odamning aqli yetadigan narsalar emas.*

• **-(y)ış, -(y)iş, -(y)uş, -(y)üş, -mak, -mek, -ma, -me** affiksli harakat nomlari bilan: Bu qo‘shimchalardan birinchi ikkitasi yordamida hosil qilingan harakat nomining ega vazifasida ishlatilishi uchinchisiga nisbatan ancha faol: *İşte yanınızda bendenizi mahcup eden **gecikişim**, hiç olmazsa uğradığım ziyanların birazını olsun kurtarmak içindir. – Hozir oldingizda kaminani uyaltirgan kechikishim hech bo‘lmaganda duchor bo‘lgan ziyonlarimning bir qismini bo‘lsa-da o‘rnini qoplash uchundir. **Yaşamak, yaşamak** bu bir alçaklıktır. – Yashamoq, yashamoq bir pastkashlikdir.* Shuningdek, harakat nomlarining barcha ko‘rsatkichlari bo‘lishsizlik elementini olib ega vazifasida keladi. Bunda harakat nomi affikslari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi: **-mayış, -meyiş; -mamak, -memek; -mama, -meme: Beğenmemek** mümkün mü? – Yoqtirmaslik mumkinmi?

• otlashgan sifat bilan: *Küçüklerin arasında kocaman **gençler** vardı. – Kichiklar orasida kap-katta yoshlar ham bor edi.*

• otlashgan **-miş, -miş, -muş, -müş, -dık, -dik, -duk -dük/-tık, -tik, -tuk -tük, -an, -en, -r, -ar, -er, -ır, -ir, -ur, -ür/-maz, -mez, -ecek, -acak** affiksli sifatdoshlar bilan: *Fakat onun böyle yaptığını **söyleyenler** vardı. – Ammo uning shunday qilganini aytganlar bor edi. Fakat **sevdiğim** benim için öldü. – Faqat sevgilim men uchun o‘lgan. **Söyleyeceğim** bunlardan ibaret(R.N.G.). – Aytadiganlarim shulardan iborat. Burada bizi ne kadar **seven** varmış(R.N.G.). – Bu yerda qancha bizni sevadiganlar (sevayotganlar) bor emish.*

• otlashgan son bilan¹⁵: *Modern ve bazı güzel meyvelerle tertip edilmiş olan bir sofraya başında **dördü** birlikte oturdular(E.N.).*

¹⁵ Turk tilshunosligida son alohida so‘z turkumi sifatida farqlanmagan. Predmetning miqdorini, tartibini bildiruvchi so‘zlar sifatning ma’no turlaridan biri tarzida, ya’ni **son sifatlari** deb o‘rganiladi. Xususan, o‘zbek tilida jamlovchi sonning yasovchilari bo‘lmish **-ov, -ovlon, -ala** affikslarining muqobillari turk tilida yo‘q. Bu vaziyatda sanoq sonlarga murojaat qilinadi.

– Zamonaviy ko‘rinishda va ayrim ajoyib mevalar bilan tuzalgan dasturxon atrofida to‘rtovi birgalikda o‘tirishdi. Fakat ilk sözünden sonra bir **ikincisi**, bir **üçüncüsü** lakirdiya karıştı (R.N.G.). – Ammo ilk gapidan so‘ng avval birinchisi, keyin ikkinchisi suhbatga qo‘shildi.

• otlashgan ravish bilan: *Lakin mevsim icabı oralar, pekçok kimselerin rağbet ederek gittikleri ve toplandıkları yerdı. – Lakin mavsum talabi bilan u yerlar juda ko‘pchilikning rag‘bat ko‘rsatib borgan va to‘plangan joylari edi.*

• bir tovush, bo‘g‘in, affiks, yordamchi so‘z turkumlari ham ilmiy uslubdagi matnlarda ega bo‘lib kelishi mumkin: **-ler** coğul ekidir. – *-lar ko‘plik qo‘shimchasidir. İçin edat sayılır. – “uchun” ko‘makchi hisoblanadi.*

Tarkibli ega. Turk tilida **tarkibli ega** so‘zning analitik formasi yoki analitik konstruksiya bilan ifodalangan ega ko‘rinishidir. Tarkibli ega “yetakchi komponent + yordamchi komponent” ko‘rinishiga ega bo‘lishi mumkin. Bunda tarkibli ega quyidagicha bo‘lishi mumkin:

• yetakchi fe‘l va yordamchi fe‘ldan iborat tarkibli egalar: **Susup kalması**, “*sen haklısın*” demeye gelirdi. – Jimib qolganligi “*Sen haqsan*” degan ma‘noni bildirardi.

• keng ma‘nodagi ot va yetakchi fe‘ldan iborat tarkibli egalar¹⁶: *Kocadere‘den buralara gelip de çiftçilik yapmak kartı kızın harcı değil. – Ko‘jadaradan bu yerlarga kelib dehqonchilik qilish xotin-xalajning ishi emas.*

Turk tilidagi ega vazifasidagi “yetakchi komponent + yordamchi komponent” tipidagi fe‘llarni o‘rganish natijasida ma‘lum bo‘ldiki, turk tilida asosan keng ma‘nodagi ot va yordamchi fe‘llar qatnashuvidagi tarkibli egalar qo‘llaniladi: *Bey baban hakikaten böyle düşünüyorsa, benim ona minnettar olmam lazım gelir. – Otang haqiqatdan shunday o‘ylayotgan bo‘lsa, men undan minnatdor bo‘lishim kerak.* Turk tilida ko‘makchi fe‘lli qo‘shma fe‘llarning kesim vazifasida qo‘llanilishi anchagina nofaol.

Murakkab ega. Ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlarning birikishidan tashkil topgan, gap bo‘lagi funksiyasida bir butun

¹⁶ Turk tilidagi ko‘makchi va yordamchi fe‘llar xususida “Tarkibli kesim” bo‘limida batafsil ma‘lumot berildi.

holda qo'llanilib, hozirgi tilda qisman leksikalizatsiyalashgan, frazeologiyalashgan leksik qo'shilmalar va tarkibi mustaqil hamda yordamchi komponentlarga ajralmaydigan sintaktik birliklar gapning kim yoki nima haqda ekanini bildirib kelsa, murakkab ega hisoblanadi¹⁷. Masalan, quyidagi gaplarning birinchisida aniqlovchili birikma musiqa nomi ("**Şarkın Ufukları**"). ikkinchisida ibora (**elini kolunu bağlayan**) murakkab ega vazifasini bajargan: *Nihayet "**Şarkın Ufukları**" meydana geliyor. – Nihoyat, "Sharq ufqlari" asari yaratiladi. **Elini kolunu bağlayan** yok ya. – Qo'l-oyog'ingni bog'layotganlar yo'q-ku!*

EGA – KESIMNING MOSLASHUVI

Gapning bosh bo'laklari ega va kesim o'zaro shaxs hamda sonda moslashadi. Turk tilida ega bilan kesim o'zaro quyidagi moslashuv vositalari yordamida bog'lanadi.

Ko'plikdagi ega ko'plikdagi kesim bilan moslashadi: ***İnsanlar ancak ehemmiyet verdikleri kimselere kızarlar değil mi? – Odamlar faqat o'zlari e'tibor beradigan odamlardan ranjiydilar, shunday emasmi? Ba'zan ega birlikda, kesim ko'plikda bo'lishi mumkin: **Konuşan onlar, susan ötekilerdi. – Gaplashayotgan ular, sukut saqlayotgan boshqalar edi.** Shuningdek, ega ko'plikda, kesim birlikda bo'lishi mumkin: **İstasyonun arkasında iki süvari ile bir atlı subay duruyordu. – Stansiyaning orqasida ikki suvoriy bilan bir ot mingan zobit turardi.*****

So'zlovchining gap subyektiga nisbatan hurmati, ehtiromini ifodalashda ega birlikda, kesim ko'plikda bo'ladi: ***İzmir'de iken bu parçayı besteleyen bey daima bunu çalıyordı. – Izmirdaligimda bu musiqa parchasini bastalagan afandi doimo shuni chalar edilar.***

¹⁷ O'zbek tilidan farqli ravishda turk tilidagi ega vazifasini bajargan so'zlar **-dır, -dir, -dür, -dur, -tır, -tir, -tür, -tur** affiksini olgan bo'lishi mumkin. Bu holat turk tilida keng tarqalganligi sababli alohida eganing turi o'laroq ajratilishiga ham sabab bo'lgan. Ammo **-dir** affiksi egaga qo'shilib kelganida, undan anglashilgan ma'noni kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatish uchungina xizmat qiladi. Demak, stilistik maqsadlarda qo'llanuvchi bu so'zshaklini eganing alohida turi deb farqlashga asos yo'q. Bunday egalar sodda ega hisoblanadi. Masalan: *Daha geçen sonbaharda içime bir **ateştir** düştü*(R.N.G.). – *O'tgan kuzdayoq ichimda shunday otash yona boshladiki.*

Predmet, narsa-buyum bildiruvchi soʻzlar koʻplikda qoʻllanilib, gapda ega vazifasida kelganida, kesim birlikda boʻladi: *Günler, aylar geçiyordu. – Kunlar, oylar oʻtayotgan edi.*

-di, -dı, -du, -dü, -ti, -tı, -tu, -tü shaklli oʻtgan zamon feʼli bilan ifodalangan yoki **idi** toʻliqsiz feʼli ishtirokidagi kesim¹⁸ **-m, -n, 0, -k, -nız, -niz, -nuz, -nüz, -lar, -ler** koʻrinishidagi shaxs-son affikslari vositasida moslashadi: *Hatta ben halamın köşkündeki mehtap hakkında sana şairane bir tasvir bile yapmışım. – Hatto men xolamning qoʻshkida chiqadigan oyni shoirona tasvirlangan ham edim. Hasılı, sen iki günde ikisinin de kalbini kazandın. – Xullas, ikki kunda ikkisinin ham qalbini egallading.*

-(y)ım, -(y)im, -(y)um, -(y)üm; -sın, -sin, -sun, -sün; -dır, -dir, -dur, -dür, -tır, -tir, -tur, -tür; -(y)ız, -(y)iz, -(y)uz, -(y)üz; -sınız, -siniz, -sunuz, -sünüz; -dırlar, -dirler, -durlar, -dürler, -tırlar, -tirler, -turlar, -türler shaxs-son affikslari noaniq oʻtgan zamon. hozirgi zamon, kelasi zamon, hozirgi-kelasi zamon feʼllariga qoʻshilib, harakat bajaruvchi shaxsni va uning miqdorini bildiradi: *Öyle amma hepimiz müşkül vaziyette kalıyoruz Vedat Bey. – Shunday-ku-ya, ammo hammamız mushkul vaziyatda qolyapmız, Vedatbey.*

Ot kesim bilan ega **-(y)ım, -(y)im, -(y)um, -(y)üm; -sın, -sin, -sun, -sün; -dır, -dir, -dur, -dür, -tır, -tir, -tur, -tür; -(y)ız, -(y)iz, -(y)uz, -(y)üz; -sınız, -siniz, -sunuz, -sünüz; -dırlar, -dirler, -durlar, -dürler, -tırlar, -tirler, -turlar, -türler** shaxs-son koʻrsatkichlari orqali moslashadi: *Biz kardeşimizi baba ocağına kabule hazırız. – Biz singlimizni ota uyiga qabul qilishga hozirmiz.*

Harakat nomi ishtirok etgan murakkab kesim ega bilan egalik affikslari vositasida moslashadi **-(ü)m; -(ı)n, -(i)n, -(u)n, -(ü)n; -(s)ı, -(s)i, -(s)u, -(s)ü; -(ı)mız, -(i)miz, -(u)muz, -(ü)müz; -(ı)nız, -(i)niz, -(u)nuz, -(ü)nüz; -ları, -leri): Biz bir şeyi anlamamız lazım (R.N.G.). – Biz bir narsani tushunib olishumuz kerak.**

Jamlovchi olmosh yoki birdan ortiq shaxslar guruhini bildiruvchi soʻzlar, soʻz birikmalari ega boʻlib kelganida, kesim birlikda ham, koʻplikda ham boʻlishi mumkin: *Çocuğu kurtardığımız için aile, size teşekkür etmek istemez mi? – Bolani qutqarganligingiz uchun oilasi sizga minnatdorchilik bildirishni istamaydimi?*

¹⁸ 0 belgisi qoʻshimchasi yoʻq, degan maʼnoni bildiradi.

Ega va kesim son jihatdan har doim ham moslashavermasligi mumkin. Masalan, ega uchinchi shaxs ko'plik formasida bo'lganida, kesim birlikda bo'lishi mumkin: *Karşularındaki yeni tamir edilmiş eve kiracılar taşınıyordu.* – *Ro'paralaridagi yangi ta'mirlangan uyga ijarachilar ko'chayotgan edi.*

Kesim **var, yok** so'zlari bilan ifodalanganida ham, ega va kesim ko'plikda moslashmaydi: *Küçüklerin arasında kocaman gençler vardı.* – *Kichiklar orasida kap-katta yigitlar ham bor edi.*

So'zlovchining kamtarligi, xokisorligi ma'nosini ifodalashda maxsus so'zlar birinchi shaxs, birlik tushunchasini beruvchi kishilik olmoshi o'rnida qo'llanilishi mumkin: *Bendeniz belki bir çeyreğe kadar gider gelirim*(E.N.). – *Kaminai kamtarin balki o'n besh daqiqada borib kelarman.*

Turk tilida birgalik nisbatining ko'rsatkichi mavjud **-(i)ş, -(i)ş, -(u)ş, -(ü)ş** bo'lsa-da, ega bilan kesimning son jihatdan moslashishi uchun asosan ko'plik qo'shimchasidan foydalaniladi. Chunki **-(i)ş, -(i)ş, -(u)ş, -(ü)ş** ko'rsatkichida asosiy urg'u fe'ldan anglashilgan harakat-holatning ko'pchilik tarafidan birgalikda bajarilganligi ma'nosiga beriladi. Shuning uchun turk tilidagi birgalik nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesim ko'plik shaklida bo'lishi mumkin: *Yeni komşular taşınma ve yerleşme yorgunluğuna rağmen o akşam birçok gülüştüler, güürültü ettiler.* – *Yangi qo'shnilar ko'chish va joylashishdan charchaganliklariga qaramay, o'sha oqshom rosa kulishdilar, shovqin-suron ko'tardilar.* Umuman, turk tilida birgalik nisbatdagi kesim o'zbek tilidagi singari faol qo'llanilmaydi. Shu bois tarjima qilish jarayonida uchinchi shaxsdagi birgalik nisbatdagi fe'l uchun ham odatda uchinchi shaxs aniqlik nisbatidagi fe'lning ko'plik qo'shimchasi bilan ishlatilganligi kuzatiladi.

Turk tilida fe'lning mayl va sodda zamon shakllarining to'liqsiz fe'llar bilan birikishidan hosil bo'lgan analitik shakl tarkibidagi ko'plik ko'rsatkichi yetakchi komponentga ham, yordamchi komponentga ham qo'shilib kelishi mumkin. Masalan quyidagi gaplarning birinchisida ko'plik qo'shimchasi zamon affiksiga qo'shilgan, ikkinchisida to'liqsiz fe'lga qo'shilgan: *Yolcular geceyi geçirmek için otellere dağılacaktı.* – *Yo'lovchilar tunni o'tkazish uchun mehmonxona-*

larga tarqalishlari kerak edi. Keyingi misolda esa, aksincha, to'liqsiz fe'lga birikib kelgan: *Biraz sonra Lamia ile Vedat yalnız kalmıştılar.*— *Birozdan so'ng Lamia bilan Vedat yolg'iz qolishgan edi.*

Nazorat uchun savollar

1. Gapning bosh bo'laklariga nimalar kiradi?
2. Gapning asosiy bosh bo'lagi nima?
3. Ega nima, u qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?
4. Kesim nima? Bu gap bo'lagining ifodalanish usullarini aytib bering.
5. Turk tilidagi qaysi vositalar ega va kesimning moslashuvida ishtirok etadi? Har bir vositaning qo'llanishidagi o'ziga xoslikni izohlang.
6. Eganing tuzilishiga ko'ra qanday turlari mavjud?
7. Tarkibli va murakkab eganing ifodalanishidagi farqlarni misollar asosida izohlab bering.
8. Kesimning tuzilishiga ko'ra turlari.
9. Kesimning ifoda materialiga ko'ra turlari. Ot kesim, fe'l kesim.
10. Tarkibli ega va tarkibli kesimning tuzilishida yordamchi fe'llarning o'rni.
11. Murakkab ega va murakkab kesimning ifodalanish yo'llari.
12. Turk tilida fe'llarning ma'no turlari va ularning gapdagi vazifalari.

2.3.GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol, ularning ifodalanish usulari, semantik va tuzilishiga ko'ra turlari haqida ma'lumot hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *gapning ikkinchi darajali bo'laklari (cümlemin yardımcı öğeleri), aniqlovchi (tamlayan), to'ldiruvchi (tümleç), hol (belirteç tümleci).*

Ega va kesimning ma'nosini izohlab, to'ldirib keladigan gap bo'laklariga **ikkinchi darajali gap bo'laklari** deyiladi. Turk tilida gapning ikkinchi darajali bo'laklari uch xildir:

1. To'ldiruvchi.
2. Aniqlovchi.
3. Hol.

ILMIY AXBOROT

Turk tilidagi gap bo'laklari yuzasidan turk tilshunoslari va rus turkologlari tomonidan amalga oshirilgan tasniflarda farqli qarashlar borligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Rus turkologlarining aksariyati gapning bosh bo'laklari ega va kesim, ikkinchi darajali bo'laklar to'ldiruvchi, aniqlovchi, holni tafovut etishadi, ammo atroficha, mukammal tahlil qilishmaydi.

Turk tilshunoslari o'rtasida ega va kesimni farqlashda hamda ta'riflashda yakdillik mavjud. Lekin gapning ikkinchi darajali bo'laklarini ajratishda, nomlashda har xilliklar uchraydi. Turk tilshunosi M.Ergin vositasiz to'ldiruvchi (nesne), hol (zarf) va o'rin aniqlovchisini (yer tamamlayıcı) gapning ikkinchi darajali bo'laklari sifatida farqlagan. Turk tilidagi to'ldiruvchi o'zbek tilidagi ayni gap bo'lagi singari harakatni o'ziga bevosita yoki bivosita qabul qilgan, harakat o'ziga o'tgan, harakat yo'nalgan predmetni anglatadi. O'rin-joy aniqlovchisi kesimdan anglashilgan harakat-holatning bajarilish o'rni va yo'nalishini ko'rsatuvchi gap bo'lagidir, ya'ni jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalarini olgan so'zlarning gapda o'rin-joy aniqlovchisi vazifasini bajarishi qayd etiladi. Ammo tilga olingan kelishik qo'shimchalarini olgan so'zlar gapda ish-harakatning bajarilish o'rnini yoki harakat yo'nalgan predmet tushunchasini ifodalashi ham mumkin. Ya'ni to'ldiruvchiga xos bo'lgan grammatik shakl o'rin-joy aniqlovchisiga ham oid bo'ladi. Natijada to'ldiruvchi va o'rin-joy aniqlovchisi deyarli bir grammatik tushunchadek tasavvur uyg'otadi. M. Erginning e'tiroficha, hol kesim bildirgan ish-harakatning bajarilish sharti hamda vaqtini bildiradi. Ko'rish mumkinki, M.Erginning mulohazalaridagi muayyan cheklanganliklar natijasida gap bo'laklarining tasnifi va tahlilida kamchiliklar yuzaga kelgan. Avvalo, gap bo'laklarining ayni tasnifi grammatik shakllarning barchasini qamrab olmagan. Masalan, qaratqich kelishigidagi so'zlar, turli ko'makchilar ishtirokida kelgan so'zlarning gapda sintaktik vazifa

bajarish-bajarmasligi qayd etilmagan. Shuningdek, birgina hol atamasi orqali shart mayli formasidagi soʻz va payt maʼnosini bildiruvchi soʻz hamda ravishlar tushuniladi. Predmetning belgisini bildiruvchi soʻzlar gap boʻlagi statusiga ega emas.

T.Banguoʻgʻlu vositasiz toʻldiruvchi (nesne), vositali toʻldiruvchi (isimleme), hol (zarflama) ega, kesimdan anglashilgan maʼnoni aniqlashtiruvchi gap boʻlaklari qatoriga kiritgan. H.Dizdaroʻgʻlu va R.Toparli turk tilida toʻldiruvchining toʻrt turi mavjudligi xususidagi fikrni ilgari surgan: vositasiz toʻldiruvchi (nesne (düz tümleç), vositali toʻldiruvchi (dolayli tümleç), koʻmakchi toʻldiruvchi (ilgeç tümleci), ravish toʻldiruvchisi (hol) (belirteç tümleci). Tilshunoslar ega va kesimdan boshqa barcha gap boʻlaklarining vazifasi gapni mantiqan toʻldirish deb hisoblaganliklari sababli barcha ikkinchi darajali gap boʻlaklarini toʻldiruvchi deb atashadi. Mazkur tasniflardagi toʻldiruvchi M.Erginning ishida taʼriflangan toʻldiruvchining aynan oʻzi. Vositali toʻldiruvchi otlarning joʻnalish, chiqish, oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchalarini olgan hamda kesimga bogʻlangan gap boʻlagidir. Turk tilida, tilshunoslarning eʼtiroficha, tilga olingan kelishik shaklidagi barcha otlar vositali toʻldiruvchi, degan xulosa kelib chiqadi. Natijada ish-harakatning bajarilish oʻrni, yoʻnalishini bildiruvchi gap boʻlaklari ham asossiz ravishda vositali toʻldiruvchi qatoriga kiritiladi. Masalan, *Okula gidiyor – Maktabga ketyapti* jumlasidagi joʻnalish kelishigidagi soʻz turk tilshunoslarining nazdida vositali toʻldiruvchidir. Aslida harakatning yoʻnalishini koʻrsatgan gap boʻlagi hol vazifasida kelishi eʼtirof etilishi lozim edi. Demak, vositali toʻldiruvchiga berilgan taʼrif aniq va mukammal boʻlmaganligi sababli gap boʻlaklarini tahlil etish borasida ayrim zidliklar koʻzga tashlanadi.

Oʻzbek tilidan farqli oʻlaroq turk tilida koʻmakchi toʻldiruvchi tafovutlanadi. Koʻmakchi toʻldiruvchilar yordamchi soʻz turkumlari-ga oid soʻzlar yoki ushbu soʻzlar qatnashgan soʻz birikmasi bilan ifodalanadi. *Bu işi ancak sen yapabilirsin – Bu işni faqat sen qila olasan* gapidagi *ancak – faqat* soʻzi gapda yordamchi toʻldiruvchi boʻlib kelgan. Lekin, ayonki, yordamchi soʻz turkumlari mustaqil leksik maʼno anglatmaydi va gapda yakka oʻzi sintaktik vazifa bajarmaydi. Shu bois koʻmakchi toʻldiruvchining ajratilishi yetarlicha asoslanma-

gan. Tilshunoslarning tasnifida ham, ta'riflarida ham atributiv yo'l bilan bog'langan, predmetning belgisini bildiruvchi so'zlar gap bo'lagi sifatida ajratilmagan. Xususan, ushbu tasniflarda asosiy e'tibor so'zlarning grammatik shakllariga va qaysi so'z turkumiga oidligiga qaratilganligi tufayli ayrim grammatik shakllar diqqatdan chetda qolgan, gap bo'laklarining ta'rifi aniq va to'liq emasligi sababli muayyan chalkashliklar va ziddiyatlar yuzaga kelgan. Ikkinchi darajali bo'laklarning barchasini to'ldiruvchi atamasi bilan berish ham gap bo'laklarini tushunish va ajratishda qiyinchilik tug'diradi.

Turk tili bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda keltirilgan gap bo'laklarining tasnifi talabga to'la javob bermaydi. Chunki tasniflarda asosan so'zlarning grammatik shakllari hamda qaysi so'z turkumiga oid so'zlar bilan ifodalanganligi me'yor qilib tanlanadi. Natijada turk tilidagi ayrim grammatik shakllarning sintaktik vazifasi haqida ma'lumot berilmaydi. Shu bois, shuningdek, atama qo'llashdagi har xilliklar ayni masalani bo'lak tartibda tadqiq etishni taqozo etadi. Demak, turk tilidagi gapning ikkinchi darajali bo'laklarining uch turi mavjud: to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol.

2.3.1. TO'LDIRUVCHI VA UNING TURLARI

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi to'ldiruvchi sintaktik birligiga ta'rif berish, vositali vositasiz to'ldiruvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash, gap tarkibidagi to'ldiruvchilarni va ularning turlarini aniqlash ko'nikmasini shakllantirish.

Tayanch so'z va iboralar: *to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi.*

To'ldiruvchi harakat-holatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi predmet ma'nosini bildiruvchi gap bo'lagidir. Turk tilida to'ldiruvchining ikki turini ajratish mumkin:

1. Vositasiz to'ldiruvchi.
2. Vositali to'ldiruvchi.

VOSITASIZ TO'LDIRUVCHI

Tayanch so'z va iboralar: *vositasiz to'ldiruvchi, belgisi vositasiz to'ldiruvchi, belgisiz vositasiz to'ldiruvchi, vositasiz to'ldiruvchining tuzilishiga ko'ra turlari, sodda vositasiz to'ldiruvchi, tarkibli vositasiz to'ldiruvchi, murakkab vositasiz to'ldiruvchi.*

Vositasiz to'ldiruvchilar harakat bevosita o'ziga o'tgan predmetni ko'rsatadi (harakatning bevosita obyektı shu predmetdir, harakat shu obyektıni to'la ravishda o'z ta'siriga oladi) hamda tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi. Vositasiz to'ldiruvchi **kimi?** – **kimni?**, **neyi?** – **nimani?**, **nereyi?** – **qayerni?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Masalan:

Sizi (kimi?) görmeye geldim.

Sizni ko'rgani keldim.

İşbu gömleği (neyi?) satın alın.

Mana shu ko'ylakni sotib oling.

Taşkent'i (nereyi?) seviyorum.

Toshkentni sevaman.

Turk tilida tushum kelishigi qo'shimchasi to'rt fonetik variantga ega bo'lib (-i, -ı, -u, -ü). singarmonizm qonuniga muvofiq ayni affikslardan mosi ishlatiladi. Bu affikslar undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi. Unli bilan yakunlangan so'zlarga tushum kelishigi affiksi birikkanda, negiz va qo'shimcha o'rtasida y undoshi orttiriladi. Masalan: *Neriman bu meseleyi açıklamak için benden on beş gün izin istedi.* – *Narimon mendan bu masalaga izoh berish uchun o'n besh kunga ruxsat so'radi.*

Ma'lumki, tushum kelishigi ham qaratqich kelishigi singari belgili va belgisiz formada qo'llaniladi, shunga ko'ra har xil ma'no va stilistik ottenkalarga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy nutqda shoir va yozuvchilar tushum kelishigidagi so'zni turlicha mazmuniy va stilistik talablarga ko'ra goh belgili formada, goh belgisiz formada qo'llaydilar. Tushum kelishigi belgili (qo'shimchali) qo'llanganda, asosan, so'zlovchi va tinglovchilarga ilgaridan ma'lum bo'lgan narsa haqida gap boradi. Bunday vositasiz to'ldiruvchilar **belgisiz vositasiz to'ldiruvchi** sanaladi. Tushum kelishigidagi so'z belgisiz (qo'shimchasiz) formada qo'llanganda, ko'pincha umumiy ma'noni bildiradi. Bunda so'zlovchi va tinglovchining tasavvur va tushunchasida bo'lgan umumiy predmet va voqea-hodisa haqida gap boradi. Masalan: *Neriman, bütün kadınlığı, sevgi ve mutluluğu temsil eden Neriman. dinlenme ve sessizlik veriyor ve hep verecek!* – *Narimon, bütün ayollikni, sevgi va baxt-saodatni tamsil etgan Narimon sokinlik va osuda hayot baxsh etmoqda va hamisha baxsh etadi.*

Turk tilida stilistik talab bilan harakat nomi bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchilarning ko'proq belgisiz qo'llanilishi ko'zga tashlanadi: *Artik hayatta, her şeyde bir olduk demek istiyor. – Endi hayotda, har narsada bir bo'ldik, demoqchi. Avrupa'yi görmek ne kadar istedim. – Ovro'pani ko'rishni qanchalik orzu qilgan edim.*

Tushum kelishigi qo'shimchasi tushirib qoldirilmagan vositasiz to'ldiruvchilar **belgili vositasiz to'ldiruvchilardir.**

Masalan: *Ben çaresini bulur gelirim. – Men chorasini topib yoningga kelaman.*

Vositasiz to'ldiruvchi tuzilishiga ko'ra uch xil bo'ladi:

1. Sodda vositasiz to'ldiruvchi.
2. Tarkibli vositasiz to'ldiruvchi.
3. Murakkab vositasiz to'ldiruvchi.

Sodda vositasiz to'ldiruvchi. So'zning sintetik shakli gapda sodda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajarib keladi:

Vositasiz to'ldiruvchi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

• ot bilan: *Ben senin istediğin hediyeyi getireceğim. – Men sen istagan sovg'ani olib kelaman.*

• harakat nomi bilan: bunda **-(y)ış, -(y)iş, -(y)uş, -(y)üş, -ma, -me** affiksli harakat nomlarining vositasiz to'ldiruvchi vazifasida faol qo'llanilishi kuzatiladi: *Senin bize hafta başında geldiğin zamanlar onların gezmeğe gidişini görmek için bazen çıkardık. – Ba'zan hafta boshida biznikiga kelgan paytlaring ularning sayrga ketishini tamosha qilish uchun chiqardik. Arkasında görmemi istiyordu. – Ko'ylakni kiyganida ko'rishimni istayotgan edi.*

• olmosh bilan: *Bir gün Handan seni tarif ettiydi, onu düşünüyorum. – Bir kuni Xandan seni ta'riflagandi, o'sha haqda o'ylayapman.*

• otlashgan sifatlar bilan: *Fakat sen bilirsin ya, ben gençleri sevmem. – Ammo sen bilasan-ku, men yoshlarni yoqtirmayman.*

• otlashgan son bilan: *Kapınızın sarmaşıklar altında başınız açık, birisini bekliyordunuz. – Eshigingiz yonidagi chirmovuqlar ostida bosh kiyimsiz, birovni kutayotgan edingiz.*

• otlashgan sifatdoshlar bilan:

• **-dik, -dik, -duk, -dük, -tık, -tik, -tuk, -tük** shaklli o'tgan zaman sifatdoshlari: *Ben herkesin sevdiğini hiç de sevmem, Neriman. – Men har kim sevganini sira sevmayman, Narimon.*

• **-miş, -miş, -muş, -müs** shaklli o‘tgan zamon sifatdoshlari: *Yaratilishi* hoş gördük *Yaratandan* ötürü. – *Yaratilganni xush ko‘rdik, Yaratguvchi sababli.*

• **-(y)acak, -(y)ecek** shaklli kelasi zamon sifatdoshlari: *Ama ben nasıl diyeceğimi bilmiyorum.* – *Ammo men qanday aytishni bilmayman.*

• **-(y)an, -(y)en** shaklli hozirgi zamon sifatdoshlari: *Henüz pusuya yatmış geleni, gideni pusuya düşürüyor.* – *Hali ham pistirmada yotgancha, o‘tayotganni, ketayotganni tuzoqqa tushiryapti.*

• **-(y)ıcı, -(y)ici, -(y)ucu, -(y)ücü** shaklli sifatdoshlar: *Elinizdeki malinizin isteyicisini bulursanız satarsınız.* – *Qo‘lingizdagi molingizning oluvchisini (oladiganni) topsangiz, sotasiz.*

Tarkibli vositasiz to‘ldiruvchi. Tarkibli vositasiz to‘ldiruvchi so‘zning quyidagi analitik shakllari bilan ifodalanadi:

“Ot + yordamchi fe’l”, “yetakchi fe’l + ko‘makchi fe’l” tipidagi birikuvlar vositasiz to‘ldiruvchi bo‘lib kelganida, shakllan **tarkibli** sanaladi. Masalan:

• “ot + yordamchi fe’l” bilan ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchilar: *Halam da onun güzel olmadığını söylemişti.* – *Xolam ham uning go‘zal emasligini aytgan edi.*

• “yetakchi fe’l + ko‘makchi fe’l” bilan ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchilar: *“Düşmanı”nın bakakaldığını görünce çok sevindi.* – *“Dushmani”ning qarab qolganini ko‘rib rosa quvondi.*

Murakkab vositasiz to‘ldiruvchi. Vositasiz to‘ldiruvchilar aniqlovchili birikmalar, izohlovchili birikmalar, frazeologik birikmalar, murakkab so‘zlar, teng bog‘lanishli qo‘shilmalar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar bilan ifodalanishi mumkin. Bunda vositasiz to‘ldiruvchilar murakkab to‘ldiruvchi hisoblanadi: *Akşamları Cemal Bey’in salomunda genç kızlar ve ihtiyar kadınlar arasında kumaş ölçüyor, moda gazetesine bakar, genç kızların dikiş dikmelerini seyrediyordum.* – *Oqshom paytlari Jemalbeyning zalida yosh qizlar va keksa ayollar orasida mato o‘lchar, moda jurnallarini ko‘zdan kechirar, yosh qizlarning tikish-bichishlarini tamosha qilardim. Genç kız onun için her şeyi göze alacağını yazıyordu.* – *Yosh qiz u uchun har qanday fidokorlikka tayyorligini yozibdi.*

VOSITALI TO‘LDIRUVCHI

Tayanch so‘z va iboralar: *to‘ldiruvchi, vositali to‘ldiruvchi, kelishikli va ko‘makchili vositali to‘ldiruvchi, sodda vositali to‘ldiruvchi, tarkibli vositali to‘ldiruvchi, murakkab vositali to‘ldiruvchi.*

Harakat-holat, belgi bilan obyekt o‘rtasidagi turli grammatik-semantik munosabatlarni ifodalaydigan gap bo‘laklariga **vositali to‘ldiruvchi** nomi beriladi. Vositali to‘ldiruvchi anglatadigan ma‘no munosabati uning materialiga, grammatik formasiga va to‘ldirilmishning leksik xususiyatiga bog‘liq. Bosh, qaratqich, tushum kelishigidan boshqa kelishikdagi so‘zlar orqali yoki ko‘makchili so‘zlar bilan ifodalangan gap bo‘laklari vositali to‘ldiruvchi hisoblanadi. Shunga ko‘ra vositali to‘ldiruvchining ikki turi farqlanadi:

1. Kelishikli vositali to‘ldiruvchi.
2. Ko‘makchili vositali to‘ldiruvchi.

Kelishikli vositali to‘ldiruvchi jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi shakllaridan biriga xos affikslarni oladi. Kelishikli vositali to‘ldiruvchilar **kime? – kimga?, neye? – nimaga?, kimden? – kimdan?, nenden? – nimadan?, kimde? – kimda?, nerede? (predmetlar uchun) – nimada?** so‘roqlaridan biriga javob beradi.

Ko‘makchili vositali to‘ldiruvchi vosita, qurol kabi munosabatlarni ifodalovchi ko‘makchilar ishtirokida keladi. Vositali to‘ldiruvchi ko‘pincha fe‘lga bog‘lanib keladi, lekin bu gap bo‘lagi boshqa turkumdagi so‘zlarga ergashib kelishi mumkin. Vositali to‘ldiruvchi shu jihatdan vositasiz to‘ldiruvchidan ajralib turadi. Zero, vositali to‘ldiruvchi doim fe‘l, fe‘lning vazifadosh shakllari bilan ifodalangan gap bo‘laklariga bog‘lanadi.

Ko‘makchili vositali to‘ldiruvchilar **kim haqqida? – kim haqida?, ne haqqida? – nima haqida?, nere haqqida? – qayer haqida?, kiminle? – kim bilan?, neyle? – nima bilan?, kime karshi? – kimga nisbatan (qarshi)?, neye karshi? – nimaga nisbatan(qarshi)?, kime ait? – kimga oid?, neye ait? – nimaga oid?**¹⁹ kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Vositali to‘ldiruvchilarni tuzilishiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

¹⁹ Ko‘makchili vositali to‘ldiruvchilar turk tilidagi bundan boshqa bir qator ko‘makchilar bilan kelishi mumkin.

1. Sodda vositali to'ldiruvchi.
2. Tarkibli vositali to'ldiruvchi.
3. Murakkab vositali to'ldiruvchi.

ILMIY AXBOROT

Turk tilida vositali to'ldiruvchini ta'riflash va nomlashda turk tilshunoslari o'rtasida ayrim tafovutli nuqtalar ko'zga tashlanadi. Turk tilshunoslarining vositali to'ldiruvchi xususidagi fikrlarini tahlil etish natijasida ayon bo'ladiki, turk tilida vositali to'ldiruvchi qayd etilgan kelishik formalarida bo'lishiga qaramay, o'rin, payt, joy, maqsad, sabab kabi ma'nolarni ham ifoda etishi mumkinligi e'tirof etiladi. Ya'ni so'zlarning shakli asosida gapda holning turli ma'no turlari vazifasida keluvchi gap bo'laklarini ham vositali to'ldiruvchi sifatida tafovutlashadi. Bu vaziyat esa, hol vazifasida asosan faqat ravishlargina qo'llanadi, degan xulosa sababli qaror topgan. Shuningdek, turk tilshunoslarining fikr-mulohazalarida ziddiyatli qarashlar, yetarli asoslanmagan, dalillanmagan xulosalar keltiriladi. Vositali to'ldiruvchilarning tasniflarida ayrim hollarda muayyan tizimga tayanilmaganligi ko'rinadi. Natijada vositali to'ldiruvchi o'laroq tadqiq etilishi lozim bo'lgan ko'makchili so'zlar to'ldiruvchining alohida turiga aylanib ketgan. Gap tarkibidagi vositali to'ldiruvchilarni farqlashning asosiy mezonini muayyan kelishiklar yoki ko'makchilar ishtirokidagi so'zlarning predmet yoki shaxs tushunchasini tashishiga bog'liq.

Sodda vositali to'ldiruvchi. Sodda vositali to'ldiruvchilar so'zning sintetik shakli bilan ifodalanadi hamda quyidagi shaklga ega bo'ladi:

Jo'nalish kelishigi ko'rsatkichini olgan, harakat-holatning ta'siri bevosita yo'nalmagan predmet, shaxs tushunchasini tashuvchi va **kime? – kimga?, neye? – nimaga?** so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Jo'nalish kelishigining ikki fonetik varianti (-a, -e) mavjud bo'lib, undoshlar bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *Cemal Bey resmimi nişanlanacađım kız Neriman'a bizzat göstermiş ve fikrini sormuş. – Jemalbey rasmimni men bilan nishonlanadigan qiz Narimonning shaxsan o'ziga ko'rsatibdi va fikrini so'rabdi.* Unli bilan yakunlangan so'zlarga birikkanda

negiz va affiks o'rtasida y undoshi orttiriladi: *Fakat ben hala biraz eskiye bađlıyım. – Ammo men hali ham biroz eskicha urf-odatlarga amal qilaman.* Turk tilidagi jo'nalish kelishi qo'shimchasi **k** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda, **ğ** ga aylanadi: *O, kurumaz, bitmez bir kaynađa benziyor. – U qurimaydigan, tugamaydigan chashmaga o'xshaydi.*

Vositali to'ldiruvchi o'rin-payt kelishigidagi **kimde?** – **kimda?**, **nerede (predmetlar uchun)?** – **nimada?** so'roqlaridan biriga javob bo'luvchi so'z bilan ifodalanishi mumkin. Turk tilidagi o'rin-payt kelishigining to'rt fonetik varianti (**-da, -de, -ta, -te**) mavjud bo'lib, unlilar, undoshlar uyg'unlashuvi qoidasiga ko'ra qo'llaniladi: **Gözle-rinde** anlayan: *katılan bir şefkat var ki bana onu hemen sevdirdi. – Ko'zlarida meni anglagan, hamdard bo'lgan bir shavqat bor ediki, darhol uni menga sevdirdi.*

Chiqish kelishigi qo'shimchasini olgan, predmet tushunchasini bildiruvchi hamda **kimden?** – **kimdan?**, **neden?** – **nimadan?** so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar gapda vositali to'ldiruvchi bo'lib kela-di. Chiqish kelishigi ham to'rt fonetik variantlidir(**-dan, -den, -tan, -ten**): *O da benden çok memnun görünüyordu. – U ham mendan juda xursanddek ko'rinardi.*

Vositali to'ldiruvchi **-deki, -deki** qo'shimchalarini olgan va **kimdeki?** – **kimdagi?**, **neredeki (predmetlar uchun)?** – **nimada?** so'roqlaridan biriga javob bo'luvchi so'z bilan ifodalanishi mumkin: *Birisi romanlarımdaki vakaları kendimden mi uydurduğumu, yoksa sahiden olmuş şeyler mi yazdığımı öğrenmek istedi. – Bittasi romanlarımdagi voqealarni o'zim to'qib chiqarganmanmi yoki rostdan bo'lgan voqealar haqida yazganmanmi – shuni bilishni istadi. Sendeki şefkat, muhabbet ihtiyacı su ihtiyacından daha fazladır. – Sendagi safqat, muhabbat ehtiyoji suvga bo'lgan ehtiyojdan ham ortiqdir.*

Vositali to'ldiruvchilar quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

• ot bilan: *Büyük emellere, büyük fikirlere bağlanmađa ruhu musait deđildi. – Buyuk maqsadlarga, buyuk g'oyalarga e'tiqod qilishga ruhan mos emas edi.*

• otlashgan sifatlar: **Cahile** söz anlatmak deveye hedek

anlatmaktan güçtür.— **Ahmoqqa** aql o'rgatmoq toshga don sepgan bilan barobar.

• otlashgan sonlar: *Kaç gündür **ikinize** de öyle acıyorum. — Necha kundan beri ikkalangizga achinib ketyapman.*

• olmoshlar bilan: *Eğer zatınıza çok geliyorsa **size** ben de yardım ederim. — Agar sizga ko'pdek tuyulayotgan bo'lsa, men ham yordam beraman.*

• harakat nomi bilan: *Biraz sonra beni yeteri kadar güzel bulmamış ki **bakmaktan** vaz geçti. — Birozdan keyin meni yetarlicha go'zal degan xulosaga kelgan bo'lsa kerakki, qarashdan voz kechdi. Turk tilida vositali to'ldiruvchi vazifasida ko'pincha **-me, -mek** affiksli harakat nomlari qo'llaniladi: *Nimet Hanım, küçük kızı kolundan tutarak **yürümesine** yardım ediyordu(R.N.G.). — Nimet Xonim kichik qizni qo'ldan tutib, yurishiga yordam berardi. Sana **yazmama** kendi izin verdi. — Senga yozishinga o'zi ruxsat berdi.**

• otlashgan sifatdoshlar bilan²⁰: **-dik, -dik, -duk, -dük, -tık, -tik, -tuk, -tük** affiksli sifatdoshlarning bu vazifani ado etishi uchun egalik qo'shimchalari ishlatilishi zarur. Masalan: *Böylece İstanbul hayatından **sıkıldığıma** inanmaya başladı. — Shunday qilib, İstanbul hayotidan zerikkanimga ishona boshladi. Turk tilidagi **-(y)acak, -(y)ecek** shaklli sifatdosh ayrim vaziyatlarda otlashib, harakat nomiga xos ma'noda ishlatiladi: *Bu genç adam **öleceğine** o saniye kanaat getirmişti. — Bu yosh odam o'lishiga o'sha soniyada ishonchi komil bo'lgan edi.**

Tarkibli vositali to'ldiruvchi. Tarkibli vositali to'ldiruvchi quyidagicha ifodalanadi:

Tarkibli vositali to'ldiruvchi yetakchi hamda yordamchi komponentlardan tashkil topadi. Fe'ning analitik shakllari bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchilar tarkibli sanaladi: *Fakat benim için bunun bile hiç bir zaman **mümkün olamayacağına** acı bir kanaatım vardı. — Faqat men uchun buning hech qachon iloji bo'lmasligiga ishonchim komil edi. Ondan bu kadar uzun boylu **bahsedişinden** anlıyorum. — U haqda bu qadar uzundan-uzoq gapirishidan angladim.*

Tarkibli vositali to'ldiruvchi muayyan ko'makchilar ishtirokidagi so'zlar bilan ifodalanadi.

²⁰ **-miş, -miş, -muş, -müştü** shaklidagi sifatdoshlar vositali to'ldiruvchi vazifasida ishlatilmaydi.

Fe'ldan anglashilgan ish, harakatni amalga oshirishda bilvosita qatnashadigan predmet ma'nosini tashuvchi gap bo'laklari ko'makchilar ishtirokidagi so'zlar bilan ifodalanadi. Turk tilshunosligida ko'makchilar ba'zan alohida o'zi, ba'zan esa o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ko'makchi to'ldiruvchi atamasi bilan tadqiq etilgan. Ammo to'plangan faktik materiallar ko'makchili birikuvlar ko'makchining ma'nosiga va gapdagi o'rniga ko'ra yoki vositali to'ldiruvchi yoki holning ma'no turlaridan biri vazifasini bajaradi: *Bilakis, bu bahis üzerine konuşalım. – Aksincha, shu muammo to'g'risida gaplashaylik.*

Tarkibli vositali to'ldiruvchi quyidagi ko'makchilar vositasida shakllantiriladi:

Hakkında, üzerine – haqida²¹, dair – doir, ait – oid, ilişkin – aloqador, tegishli ko'makchilari ishtirokidagi gap bo'laklari harakat-holatga bivosita aloqador predmet ma'nosini anglatadi. Masalan: *Şüpheli kıyafetli adamların benim hakkımda inceleme yapmakta olduklarını söyledi. – Shubhali kiyingan odamlarning men haqqımda surishtirib yurganliklarini aytdi.*

Turk tilidagi **üzerine – ustiga** ko'makchisi ham kontekstga ko'ra to'g'risida, **haqida** so'zlarining semantik-funksional ekvivalenti sifatida namoyon bo'lishi mumkin: *Bilakis, bu bahis üzerine konuşalım. – Aksincha, shu muammo to'g'risida gaplashaylik.*

Turk tilidagi **için /uchun** ko'makchisi o'zbek tilidagi **haqida, xususida** ko'makchilariga xos ma'no va vazifada ishlatilishi, gapda vositali to'ldiruvchi bo'lib kelishi mumkin: *Sizin için kadın düşmanı diyorlar. – Siz haqingizda ayol dushmani deyishadi.*

ile (-le/-la) /bilan ko'makchisi²² o'zi bog'langan so'z ishtirokida

²¹ **hakkında/ haqida** ko'makchisi chiqish kelishidagi so'zlar bilan sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin: *Cemal Bey, Handan'ın ta küçüklüğünden beri üstünlüklerinden, hikayelerinden, Neriman onun kabiliyetlerinden ve güzelliğinden söz ediyordu. – Jemalbey Xandanning to kichikligidan beri ko'zga tashlangan fazilatları haqidagi hikoyalardan, Narimon uning qobiliyatlaridan, go'zalligidan gapirardi*

²² Shu bilan birga, **ile** ko'makchisining bog'lovchi vazifasida kelishi kuzatiladi: *Handan'ın yüzünde insan sadce gözleriyle saçlarını görür; başka yerlerini düşünemez bile. – Xandanning yüzida odam faqat ko'zlari bilan sochlarini ko'radi.* Lekin bu vaziyatda gap vositali to'ldiruvchi xususida emas, balki boshqa gap bo'laklari to'g'risida keta-

fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishida bilvosita ishtirok etadigan predmet tushunchasini bildirganida, gapda vositali to'ldiruvchi bo'lib keladi: *Hatta benim alafraqalığın aşırılığını sevmediğimi onlara anlatmış ve bunda Cemal Bey'in karısı Sabira Hanımı kendisiyle aynı düşüncede bulmuştur. – Hatto mening g'arbiga mu-taassiblikning haddan ziyodligini yoqtirmasligimni ularga aytgan va bunda Jemalbeyning xotini Sabira xonimni o'zi bilan bir xil fikrda ekanligini sezgan.*

ile (-le/-la) / bilan ko'makchisi o'zbek tilidagi muqobilidan farqli holda **-da** kelishigiga monand ma'no va vazifada qo'llanilishi mumkin: *Görünüşte beni koketlikle itham ettirecek hiç bir şey yok. – Chetdan qaraganda, meni tannozlikda ayblashga mutlaqo asos yo'q. Üç genç kız beyaz kısa elbiseleriyle, başörtüleriyle birbirlerine toplarını fırlatıp duruyorlardı. – Uch yosh qiz oq qisqa liboslarda, ro'mollarda bir-birlariga to'p otib, o'ynashardi.*

karşı / nisbatan ko'makchisi muayyan so'zlar ishtirokida qo'llanilib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Fakat bende mübarek büyükbabalarımızın bu sözüne karşı da bir itimsızlık uyanmaya başladı. – Ammo menda tabarruk ota-bobolarimizning bu so'ziga nisbatan ishonchsizlik tuyg'usi paydo bo'ldi. karşı so'zi o'zbek tilidagi qarshi so'zi singari ma'noda qo'llanilishi ham mumkin: Homongolos'a karşı mücadelede mağlup oldum. – Xomongolosga qarshi kurashda mag'lub bo'ldim.*

Murakkab vositali to'ldiruvchi. Vositali to'ldiruvchi ajralmas sintaktik konstruksiyalar, iboralar, aniqlovchili birikmalar, murakkab so'zlar, juft va takroriy so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. Bunday vositali to'ldiruvchilar tuzilishiga ko'ra murakkab vositali to'ldiruvchilar sirasiga kiritiladi. Masalan, quyidagi gapda vositali to'ldiruvchi ibora bilan ifodalangan: *Arzularımı getirmeye mecbursunuz. – Istaganimni amalga oshirishga majbursiz.*

Aniqlovchili birikmalar bilan ifodalangan murakkab vositali to'ldiruvchilar: *Fakat canavarın büyüğüne, yani kendime nasıl laf anlatırsın. – Ammo jonivorlarning kattasiga, ya'ni o'zimga qanday gap tushuntirasan.*

di. Keltirilgan misolda ajratib ko'rsatilgan so'z qo'shilmasi vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajargan.

Frazeologik birikmalar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar vositali to'ldiruvchi qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha shakllarda qo'llanilib, murakkab vositali to'ldiruvchi bo'lib keladi. Bunda ayni til birliklari predmet tushunchasini anglatadi va o'rin-payt, chiqish, jo'nalish kelishigi shaklida yoki yuqorida qayd etilgan ko'makchilar ishtirokida keladi.

Nazorat uchun savollar

1. "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari" tushunchasini izohlang.
2. Turk tilidagi gapning ikkinchi darajali bo'laklarini ajratishning asosiy mezonlari haqida gapirib bering.
3. To'ldiruvchi va uning xususiyatlari. To'ldiruvchining turlari.
4. Vositasiz to'ldiruvchi, uning ifoda materiallari. Belgili va belgisiz vositasiz to'ldiruvchilar.
5. Vositali to'ldiruvchi, uning ifoda materiallari.
6. Turk tilshunosligida "vositali to'ldiruvchi"ning ta'rifi va tasnifi masalasi.
7. Vositali to'ldiruvchilarning tuzilishiga ko'ra turlari.
8. Kelishikli vositali to'ldiruvchining o'ziga xosliklari.
9. Ko'makchili vositali to'ldiruvchining o'ziga xosliklari.
10. Vositasiz to'ldiruvchilarning tuzilishiga ko'ra turlari.

2.3.2. ANIQLOVCHI VA UNING TURLARI

Mavzuning o'quv maqsadi: aniqlovchi terminini tavsiflash, turk tilidagi aniqlovchi va ularn shakllantiruvchi grammatik vositalar haqida tushuncha hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *aniqlovchi, aniqlovchining turlari, sifatlovchi-aniqlovchi, qaratqich-aniqlovchi, izohlovchi-aniqlovchi, aniqlovchilarning tuzilishiga ko'ra turlari, sodda aniqlovchilar, tarkibli aniqlovchilar, murakkab aniqlovchilar.*

ILMIY AXBOROT

Turk tilida predmet, shaxsning belgi, xususiyatini anglatuvchi gap bo'lagiga munosabat butunlay boshqacha. Turk tilshunoslari gapning ikkinchi darajali bo'laklari sifatida to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi, ravish to'ldiruvchisi, ko'makchi to'ldiruvchisini tafovutlashadi. Ya'ni

aniqlovchi formal jihatdan gap bo'lagi statusiga ega emas. Rus turkologlarining ishlarida ushbu mavzuga yo'l-yo'lakay tushuncha berilgan bo'lsa-da, aniqlovchining turlari, ifoda materiallari tadqiq etilmagan. Biroq olib borilgan tadqiqot turk tilida aniqlovchining gap bo'lagi sifatida ajratishga asos borligini ko'rsatdi.

Aniqlovchi predmetning belgisini, ya'ni biror sifati, xususiyati, miqdori yoki kim yo nimaga qarashlilikini bildiruvchi gap bo'lagidir.

Aniqlovchilarni tuzilishiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin: 1. Sodda aniqlovchi. 2. Tarkibli aniqlovchi. 3. Murakkab aniqlovchi.

Turk tilida aniqlovchining uch ma'no turi mavjud: 1. Sifatlovchi-aniqlovchi. 2. Qaratqivch-aniqlovchi. 3. Izohlovchi-aniqlovchi.

Sifatlovchi-aniqlovchi. Sifatlovchi-aniqlovchi sifatlanmishning biror xususiyatini aniqlab keladi, sifatlanmish bildirgan ma'noni aniqlashtirishga xizmat qiladi va **nasil? – qanday?, qanaqa?, hangi? – qaysi?** so'roqlaridan biriga javob beradi. Masalan: *Ayipsiz yar arayan yarsiz kalar. – Aybsiz yor qidiringan yorsiz qolar.*

Sifatlovchi quyidagi so'z turkumi bilan ifodalanadi:

• sifat: *Eski itiyadımın verdiği açıklıkla kalbime baktım. – Eski odatımdan qolgan ochiqlik bilan qalbinga quloq soldim.*

• son bilan: *İlk iki mektubunuza cevap vermediğim için beni mazur görüyorsunuz değil mi? – İlk ikki maktubingizga javob bermaganligim uchun meni avf etasiz, shunday emasmi?*

• vazifasiga ko'ra sifatga o'xshash olmoshlar bilan ifodalanishi mumkin: *Çocukluğunun bütün haklarından kendi ihtiyarıyle feragat etmişti. – U o'z ixtiyori bilan bolalikning barcha imtiyozlaridan voz kechgan edi.*

• belgi anglatuvchi ot bilan: *Güneşin altın ateşi içinde kaynaşan mavi suların üstünde sandalı aldım götürdüm. – Quyoshning oltin otashi ta'sirida qaynagan moviy suvlarning ustida qayiqni yeldirdim.*

• ravish bilan: *Bu sözler Leyla'ya olan aşkının ilk ve son itiraftıydı. – Bu so'zlar Layloga bo'lgan muhabbatining ilk va so'nggi e'tirofi edi.*

-miş, -miş, -muş, -müş, -dik, -dik, -duk -dük/ -tik, -tik, -tuk -tüğ, -an, -en, -r, -ar,-er, -ır, -ir, -ur, -ür/-maz, -mez, -(y)ecek, -(y) cak shaklli sifatdoshlar sifatlovchi vazifasida ishlatiladi.

Masalan:

• **-r, -maz** shaklli sifatdoshlar: *Antatılır şey değil. – Tushuntirib beradigan narsa emas. Birbirlerine anlaşılmaz bir şeyler söyleyerek güliştiyorlardı. – Bir-birlariga tushunarsiz narsalar haqida gaplashib kulishayotgan edilar.*

• **-dik, -dik, -duk, -dük, -tık, -tik, -tuk, -tük** shaklli sifatdosh ot va sifatga xos vazifada ishlatilishi mumkin, biroq yakka o'zining bo'lishli shaklda aniqlovchi vazifasida ishlatilishi kam uchraydi. Shu bilan birga, **-dik** affiksli sifatdoshning bo'lishsiz shakli sifatlovchi tarzida faol qo'llaniladi. Masalan: *Olmadık yerde karşıma çıkıyordu. – Kutilmagan joylarda ro'paramdan chiqardi. Ammo qayd etilgan shakldagi sifatdoshlarning egalik qo'shimchasidagi ko'rinishlarining aniqlovchi vazifasida keng ishlatilishi kuzatiladi. Masalan: Mukaddes maksadımın çehresi, senelerce beklediğim yüzü sendin, Handan. – Qutlug' maqsadimning chehrasi, yillar davomida kutgan maqsadimning yuzi sen eding, Xandan. Demak, -dik, -dik, -duk, -dük, -tık, -tik, -tuk, -tük qo'shimchali sifatdoshning aniqlovchi sifatida nutqda reallashuvi uchun egalik qo'shimchalari talab etiladi: Gördün mü yaptığın işi! – Qilib qo'ygan ishingni ko'rdingmi?*

• **-miş, -miş, -muş, -müş** affiksli o'tgan zamon sifatdoshi gapirilayotgan vaqtdan ilgari ro'y bergan muayyan hodisa, holatning nutq onidagi natijasi asosida predmet belgi-xususiyatini ifoda etadi. Masalan: *Havada sulanmış toprak kokuyordu. – Havoda ho'l tuproqning isi taralayotgan edi.*

• **-(y)an, -(y)en** affiksli sifatdosh kontekstga ko'ra predmet belgisini o'tgan zamonda yoki hozirgi zamonda bajarilgan-bajarilmagan ish-harakat yordamida izohlaydi: *Bizi seyreden insan ve tabiat mühitini hissediyorduk. – Bizni kuzatayotgan insonlar va tabiat muhitini his qilayotgan edik.*

• **-(y)acak, -(y)ecek** shaklli sifatdoshlar (majhul darajadagi ko'rinishlaridan tashqari) aniqlovchi vazifasini bajarganida, egalik shaklida bo'ladi: *Gideceğiniz yer buradan çok mu uzak? – Boradigan joyingiz bu yerdan uzoqmi? Shu bilan birga, egalik ko'rsatkichlari aniqlanmish so'zga ham qo'shilishi mumkin: Oturacak yeriniz var mı? – Yashaydigan joyingiz bormi?*

• **-(y)ıcı, -(y)ici, -(y)ucu, -(y)ücü** ko'rsatkichli sifatdoshlar boshqa affiksli sifatdoshlarga qaraganda kam qo'llaniladi. Bu tipdagi sifatdoshlar odatiy tus olgan, doimiy yoki takroriy xarakterdagi ish-harakatni ifodalash orqali predmet belgisini izohlaydi. Masalan: *Ama Fransa yaratıcı, tanıtıcı bir alemdir. – Ammo Fransiya yaratuvchi, tanıtuvchi bir olamdır.*

Qaratqich-aniqlovchi. Bir predmetning ikkinchi predmetga qarashliligi, xosligi ma'nosini ifodalovchi va **kimin? – kimning?, neyin? – nimaning?, nerenin? – qayerning?** so'roqlaridan biriga javob beruvchi gap bo'lagiga **qaratqich-aniqlovchi** deyiladi. Bunda qaratuvchi qaratqich kelishigi qo'shimchasini, qaralmish egalik affiksini oladi: *Sonra artık dakikaların, saatlerin geçmesini beklemekten başka çare yoktu. – So'ngra daqiqalarning, soatlarning o'tishini kutishdan boshqa chora qolmagan edi.*

Qaratqich-aniqlovchi belgili yoki belgisiz ishlatilishi mumkin. Quyidagi misollarda qaratqich kelishigining qo'shimchasi tushib qoldirilgan: *Ev sahibi karşılık verdi(R.N.G.). – Uy egasi javob berdi.*

Qaratqich-aniqlovchi eng avvalo ot yoki ot xarakteridagi olmosh bilan ifodalanadi: *Bir sonuçlansa da ben de talihimi, hayatımın yolunu bilsem. – Qani endi, hammasi tugasa-yu, men ham taqdirimni, hayotimning yo'lini topsam.*

Qaratqich-aniqlovchi, xususan, quyidagi so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. Ot xarakteridagi olmosh bilan ifodalanadi: *Senin bir şeyden haberin yok mu? – Sening bir narsadan xabaring yo'qmi?*

Aniqlovchining bu turi otlashgan so'zlar bilan ifodalanish imkoniga ega. Masalan, otlashgan son gapda aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Dördün yarısı ikidir. – To'rtning yarmi ikkidir.*

Otlashgan sifat bilan ifodalanadi: *Tok açın halinden bilmez. – Qorni to'qning qorni ochdan xabari yo'q.*

Otlashgan sifatdosh yoki fe'lining harakat nomi shakli qaralmishning qaratuvchisi bo'lishi mumkin: *İsteyenin bir yüzü kara, vermeyenin iki yüzü. – So'raganning bir beti qora, bermaganning ikki beti.*

Harakat nomlari qaratqich kelishigi affiksini olib, o'zi bog'langan qaralmishdan anglashilgan narsa-predmetning kimga

yoki nimaga qarashli ekanini anglatadi: *Gördügünüz mü arayışın neticesini? – Qidiruvning natijasini ko'rdingmi?*

Qaratqich-aniqlovchi belgili (qo'shimchali) va belgisiz (qo'shimchasiz) shaklda qo'llanishi mumkin.

Masalan: Belgili qaratqich-aniqlovchiga misol:

*Uzun boylu **adamın** babama mektuplari getirdigi gun ben ayni yasta idim. – Baland bo'lyi odamning dadamga maktublarni kelturgan kunida men ayni yoshda edim.*

Belgisiz qaratqich-aniqlovchiga misollar:

*Gençligimin budalalıklarıyle dolu olan bu hatıra defterime son budalalıgımı da kaydettikten sonra onu yine bir **dolap** köşesine atacağım. – Yoshligimning ahmoqlıkları bilan to'la bo'lgan bu xotira daftarimga oxirgi ahmoqgarchiligimni yozganimdan so'ng, uni yana bir shkaf chetiga otaman.*

Izohlovchi-aniqlovchi. Aniqlovchning maxsus ko'rinishi **izohlovchi** bo'lib, u predmetga boshqa nom berish orqali aniqlanadi, ya'ni shu predmetga yana boshqacha nom beriladi²³: *Doktor Saffet, şimdi Berlinde değil, yanında olacaktı. – Doktor Saffet hozir Berlinda emas, yonida bo'lar edi.* Demak, izohlovchi bir ot vositasida ikkinchisini aniqlashga, izohlashga xizmat qiluvchi gap bo'lagidir: *Müjgarı **abla** benim taban taban zıddımdır(R.N.G.). – Mujgon opam mening tamomila ziddimdir.*

Izohlovchilar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

Izohlanmishdan anglashilgan predmet holatini bildiradi: *Komşumuz Ali **dede** sabahleyin erkenden yola çıktı. – Qo'shnimiz Ali buva erta saxardan yo'lga tushdi.*

Amal-unvonni bildiradi: *Bunda nişanlım **binbaşı** Hasan diye anlaşılmasını isteyen bir mana vardı(H.A.). – Bunda nishonligim leytenant Hasan deya anglashilishini istash ma'nosi bordi.*

Mashg'ulot, kasb, mutaxassislik ma'nolarini anglatishi mumkin: *Ben yeni **Göğrafya ve Resim hocanız** Feride'yim. – Men yangi geografya va rasm o'qituvchingiz Faridaman.*

²³ Turk tilida izohlovchi sintaksisning tadqiqot ob'ektlaridan biri – so'z guruhlari(so'z birikmalari)dan biri sifatida "unvon guruhi" deb nomlangan. Biroq to'plangan misollar turk tilida bu ko'rinishdagi so'z birikmalari tarkibidagi tobe so'zni izohlovchi sifatida o'rganish afzal ekanini ko'rsatdi

Izohlovchilar qarindosh-urug'chilik munosabatini ifodalashi mumkin: *Müjgan birkaç senede bir Ayşe teyzemle beraber İstanbul'a gelirdi. – Müjgon bir necha yilda bir bor Oysha xolam bilan İstanbul'ga kelardi.*

Laqab, taxallusni bildiruvchi soʻzlar ham izohlovchi vazifasini bajaradi: *Herkes ona Suyun Burgut diyor. – Hamma uni Suyun burgut deydi.*

Tarkibli aniqlovchilar. Aniqlovchilarning tarkibli turi soʻzning analitik shakllari, koʻmakchili soʻzlar bilan ifodalanadi. **Gibi / kabi** koʻmakchisi ot yoki ot xarakteridagi soʻzlar bilan kelib, oʻzi bogʻlangan soʻzning belgi-xususiyatini sifatlab, aniqlab keladi: *Bu Sörlər ya hakikaten melek gibi sabırlı insanlardı, yahut benim hoş bir taraftım vardı (R.N.G.). – Muallimalarimiz chindan ham malak kabi sabrli xotinlar edi yoki mening yaxshi tomonlarim bor edi.*

Turk tilida **kadar/qadar** soʻzi maʼlum soʻzlar yoki birikuvlar bilan qoʻllanilib, oʻzbek tilidagi **-chalik** yoki **-day, -dek** affiksilariga xos maʼno, yaʼni solishtirish, qiyoslash maʼnolarini bildiradi: *Demek ben herkes zannettiği kadar fena kız değilmişim. – Demak, men har kim taxmin qilganchalik yomin qiz emas ekanman. Zeytinliğimiz sahilden üç çeyrek kadar uzaktadır. – Zaytunligimiz sohildan uch soat oʻn besh daqiqalik uzoqlikda joylashgan.*

Tarkibli aniqlovchi “yetakchi komponent + koʻmakchi komponent” tipidagi birikuvlar bilan ifodalanishi mumkin: *Ben şimdi hem annesini, hem babasını kaybetmiş öksüzlere benzedim. – Men hozir ham otasidan, ham onasidan ayrilgan yetimlarga oʻxshab qoldim.*

Soʻzning analitik shakllari, koʻmakchili soʻzlar sifatlovchi-aniqlovchiga xos shaklda kelganida va predmet belgisini anglatganida, **tarkibli sifatlovchi-aniqlovchi** hisoblanadi. Soʻzning analitik shakllari, koʻmakchili soʻzlar qaratqich kelishigi qoʻshimchasini olib, predmet belgisini bildirsa, **tarkibli qaratqich-aniqlovchi** bajarib keladi.

Murakkab aniqlovchilar. Murakkab aniqlovchilar vazifasida ajralmas sintaktik konstruksiyalar, frazeologik birikmalar, aniqlovchili birikmalar, murakkab soʻzlar ishlatiladi. Masalan, aniqlovchi vazifasidagi iboralar: *Emme, dara düşen her anne öyle yapar, demiş. – Emme qiyin ahvolga tushib qolgan har bir ona shunday qiladi, debdi.*

Turk tilida “sifatlovchi + sifatlanmish” tipidagi birikmalarda **bir / bir** soʻzi ishtirok etishi hamda ayni soʻz birikmasiga taʼkidlash, kuchaytirish maʼnolarini yuklashi mumkin: *Bir aile kurmak onun gözünde yeni bir devlet kurmak kadar ehemmiyetli bir işti.* – Oila qurish uning nazarida yangi davlat qurishdek ahamiyatli bir ish edi. **bir / bir** soʻzi sifatlovchidan avval kelganida noaniqlik, nomaʼlumlik maʼnolarini beradi: *Fazla olarak evi bir güzel bahçenin ortasındaydı.* – Ustiga-ustak, uyi bir goʻzal bogʻning oʻrtasida joylashgan edi.

Frazeologik birikmalar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar sifatlovchi-aniqlovchi xos boʻlgan barcha shakllarda qoʻllanilib, predmetning belgisini bildirganida, **murakkab sifatlovchi-aniqlovchi** boʻlib keladi. Ayni til birliklari qaratqich kelishigi shaklida boʻlganida **murakkab qaratqich-aniqlovchi** hisoblanadi. Izohlovchi-aniqlovchilar soʻz birikmalari bilan ifodalanganida **murakkab izohlovchi-aniqlovchi** hisoblanadi.

1. **Nazorat uchun savollar**

2. Turk tilshunosligida va rus turkologiyasida aniqlovchi xususida qanday fikrlar bildirilgan. Siz bu fikrlarning qaysi biriga qoʻshilasiz? Nima uchun?

3. Aniqlovchi va uning turlari haqida gapirib bering.

4. Izohlovchi-aniqlovchi nima va uning ifodalanish usullari haqida nima deya olasiz?

5. Qaratqich-aniqlovchining belgili va belgisiz turlarini misollar asosida tushuntirib bering.

6. Sifatlovchi-aniqlovchining ifoda materiallarini misollar asosida izohlab bering.

7. Sodda aniqlovchilarning ifoda materiallarini misollar asosida izohlab bering.

8. Tarkibli aniqlovchilarning ifoda materiallarini misollar asosida izohlab bering.

2.3.3.HOL VA UNING TURLARI

Mavzuning oʻquv maqsadi: turk tilidagi hol birligiga taʼrif berish, holning semantik tiplari va tuzilishiga koʻra turlarini tavsiflash.

Tayanch soʻz va iboralar: *hol, holning maʼno turlari, holat holi, oʻrin holi. payt holi, sabab holi, maqsad holi, shart holi, miqdor-daraja holi, toʻsiqsizlik holi.*

Hol harakat-belgini xarakterlaydigan, harakatning bajarilishi, shu bilan bogʻlangan shart, sabab, maqsad, payt, oʻrin, miqdor-daraja maʼnolarini anglatadigan gap boʻlagidir. Hol feʼl bilan ifodalangan boʻlakka tobe boʻladi. Turk tilida holning sakkiz turi mavjud: 1. *Holat holi*. 2. *Oʻrin holi*. 3. *Payt holi*. 4. *Sabab holi*. 5. *Maqsad holi*. 6. *Shart holi*. 7. *Miqdor-daraja holi*. 8. *Toʻsiqsizlik holi*.

HOLAT HOLI

Tayanch soʻz va iboralar: *holat holi, sodda holat holi, tarkibli holat holi, murakkab holat holi.*

ILMIY AXBOROT

Turk tilshunosligida faqat kesimga bogʻlanib, uning xususiyatini anglatgan soʻzlargina holat holi hisoblanadi. Ammo faktik materiallar tahlili turk tilida harakat, holatning belgi, xususiyatini bildiruvchi gap boʻlaklari feʼl bilan ifodalangan boshqa gap boʻlaklariga bogʻlanishini hamda oʻzi bogʻlangan soʻzdan anglashilgan ish-harakatning maʼnosini aniqlashtirishga xizmat qilishini koʻrsatdi. Masalan: *Karşılıklı her tesadüfte birbirimize karşı kuvvetli kalabilmek için içten bir gayret sarfetmeye mecbur oluyorduk. – Har safar bir-birimiz bilan roʻbaroʻ kelganimizda, oʻzimizni qoʻlda tutish uchun ich-ichimizdan anchagina gʻayrat sarflashga majbur boʻlardik.* Ushbu gapda vositali toʻldiruvchi chiqish kelishigidagi soʻz – holat holini (**içten**) boshqarib kelgan.

Harakat, holatning belgisini bildiruvchi va **nasil? – qanday?, ne durumda? – qanday tarzda?, nasil vaziyette? – qanday holatda?** soʻroqlaridan biriga javob beruvchi gap boʻlaklariga **holat holi** deyiladi.

Holat holining tuzilishiga koʻra uch turi bor: 1. Sodda holat holi. 2. Tarkibli holat holi. 3. Murakkab holat holi.

Sodda holat holi. Sodda holat holi soʻzning sintetik shakllari bilan quyidagi shaklda ifodalanadi:

Ot soʻz turkumiga kiradigan soʻzlar **-dan, -den, -tan, -ten** chiqib **-dan** boshligi shaklida qoʻllanilib, sodda holat holi vazifasini bajaradi: *Bazen yumruklar **sahiden** biçarenin yüzüne, çenesine isabet ediyordu.* – *Baʼzan mushtlar chindan ham uning yuziga, ensasiga tegayotgan edi.*

Sodda holat ravishlari: *Lamia **çabuk** gideceğini söyledi.* – *Lamia tez ketishini aytdi.*

Sifatlar bilan: *Eğri otur, **doğru** söyle.* – *Egri yoʻldan yursang ham, toʻgʻri yur.*

Turk tilida holat holi vazifasini bajargan sifatlarning takroriy shaklda qoʻllanilishi nihoyatda koʻp uchraydi. Bu holat feʻldan anglashilgan harakat belgisini kuchaytirib, taʼkidlab koʻrsatish maqsadida ishlatiladi. Tarjima jarayonida esa turk tilidagi takroriy sifat bilan ifodalangan holat holi uchun turli grammatik shakl yoki sifatning orttirma darajasi yoxud muayyan soʻzlarga murojaat qilinadi: *Kendimi tutumayarak, **gizli gizli** eğlenmeye başladım.* – *Oʻzimni tutolmay, **yashirincha** zavqlana boshladım.*

-ce, -ca, -çe, -ça qoʻshimchali belgi-xususiyat maʼnolarini bidiruvchi soʻzlar – sifat yoki ravishlar sodda holat holi boʻlib keladi: *Kaşlarını **hafifçe** çattı.* – *Qoshlarini sal chimirdi.*

Turk tilida **-(y)a, -(y)e, -y)arak, -(y)erek, -(y)ıp, -(y)ip, -(y)up, -(y)üp, -madan, -meden, -maksızın, -meksizin, -dıkça, -dikçe, -dükçe, -dukça, -tıkça, -tikçe, -tükçe, -tukça, -cesine, -casine, -çesine, -çasına, -(y)alı, -(y)eli** affikslari bilan hosil qilinadigan ravishdoshlarning holat holi boʻlib kelishi kuzatiladi.

Turk tilida **-(y)a, -(y)e** affiksi bilan yasalgan ravishdoshlar gapda juft shaklda qoʻllanadi va sodda holat holi boʻlib keladi: *Artık **hıçkıra hıçkıra** ağlıyordum.* – *Endi oʻkirib-oʻkirib yigʻlayotgan edim.* Turk tilida esa **-a, -e** ravishdosh yasovchisi undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi. unli bilan tugagan soʻzlarga birikkanida oʻzak va qoʻshimcha oʻrtasida **y** undoshi orttiriladi: ***Damlaya damlaya** göl olur* (Atasözü). – *Toma-toma koʻl boʻlur*(Maqol).

-(y)arak, -(y)erek, -(y)ıp, -(y)ip, -(y)up, -(y)üp affiksli ravishdoshlar sodda holat holi vazifasini bajaradi: *Sütten ağzı yanan yağurdu **ñfleyerek** içer.* – *Sutdan ogʻzi kuygan qatiqni ham **pufılab** ichadi.*

Bu sabah annemin mezarını arayıp buldum. – Bugun tongda onamning mozorini izlab topdim. -(y)ip shaklli fe'lga nisbatan *-(y)arak* affiksli ravishdoshning shu ma'no va vazifada faol qo'llanilishi ko'zga tashlanadi.

Ma'nosiga ko'ra, turk tilidagi **-maksızın, -meksizin, -madan, -meden** affikslari **-masdan** qo'shimchasiga muvofiq keladi. **-maksızın, -meksizin, -madan, -meden** affiksli ravishdoshlar ham gapda sodda holat holi bo'lib keladi: *Evet, hastalıklı bir ihtiyar kadının bir gün evvelki yorgunluğunu dindlendirmeden uykudan uyanması zordur. – Albatta, kasalmand bir kampirning kechasi horg'inligi bosilmasdan uyg'onishi tabiiy. Cemil Bey gürültü etmeksizin yanına inmişti. – Jamilbey yana sharpa qilmay yonimga yetib keldi. -madan/ -meden* shaklli ravishdosh **-meksizin/ -maksızın** affiksiga nisbatan ancha faol qo'llaniladi.

-cesine /-casına /-çesine /-çasına qo'shimchali ravishdosh sodda holat holi bo'lib keladi: *Hatta çok zaman namaz kılariken Tanrı'ya, beni başkaları yerine hiç kurtulamamacasına yakınsın da onları kurtarsın diye yalvarmıştım. – Hatto ko'pincha namoz o'qiyotganimda, Tanrigiga meni boshqalar o'rniga qutula olmadigan darajada jazolasinda, ularni qutqarsin, deb yolvorgan edim.* Turk tilidagi bunday shaklli ravishdosh o'zak-negizdan anglashilgan harakat-holatga o'xshatish, mengzatish ma'nosini tashiydi. **-cesine /-casına /-çesine /-çasına** affiksi bevosita ot, sifat va shu kabi so'z turkumiga kiruvchi so'zlarga qo'shilishi mumkin. Bunda o'zbek tilidagi **-cha** yasovchili ravishga xos ma'no anglashiladi: *Ama delicesine, taşa kabara, şakır şakır, savurgan akış ne kadar keyiflidir. – Ammo telbalarcha, toshib, ko'pirib, shaqir-shuqur ovoz chiqarib istagancha oqish naqadar zavqli.*

-(y)ili, -(y)ılı, -(y)ulu, -(y)ülü affiksli ravishdosh ham o'zi bog'langan fe'ldan anglashilgan ish-harakat belgisini bildirishga xizmat qiladi hamda o'zbek tilidagi **-gancha** (yoki **-gan + shaxs-son qo'shimchasi + -cha**) shaklli fe'lga mutanosib mazmun tushiydi: *Karanlığın içinde kolları Kenan'in yüksek omuzlarına asılı, saatlerce dolaşıyordu. – Qorong'ulik og'ushida qo'llari Kenanning baland yelkalariga osilgancha, soatlarcha sayr qilardi.*

-miş, -miş, -muş, -müş shaklli sifatdosh yakka shaklda ish-harakatning belgisini bildirish uchun ishlatiladi va sodda holat holi hisoblanadi: *Bu sabah sütlü çayını götürdüğüm zaman onu **giyinmiş** buldum. – Tongda uning sutli choyini olib kirganimda, uni **kiyingan holda** ko'rdim.* Shu bilan birga, turk tilidagi **-r/ -mez** affikslari bilan yasaluvchi sifatdoshlar ham muayyan bog'lamalarsiz holat holi vazifasida kelishi mumkin: *Hiç bir insan bu kadar **güvenilir**, bu kadar hiç **değişmez** görünmemişti. – Hech bir inson bu qadar ishonchli, bu qadar o'zgarmas bo'lib ko'rinmagan edi.*

Turk tilida, shuningdek, bosh kelishikdagi ayrim otlar yakka yoki takroriy holda qo'llanilib, fe'ldan anglashilgan ish-harakatning qanday bajarilishini bildiradi. Bunday vazifada qo'llangan otlar o'zbek tilidagi yordamchi fe'lli konstruksiyalarga monanddir: *Nitekim bugün de hemen hemen **hasta** uyandım. – Masalan, bugün ham xasta bo'lib uyg'ondim.*

Tarkibli holat holi. Tarkibli holat holi boshqa tarkibli gap bo'laklari singari so'zning analitik shakli, ya'ni yetakchi va yordamchi komponentdan tashkil topgan birikuvlar bilan ifodalanadi. Bunda yordamchi komponent o'laroq ko'makchilar, yordamchi, ko'makchi fe'llar, muayyan so'zlar – holat holining bog'lamaları qo'llanilishi mumkin.

Tarkibli holat holi quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

Ayrim ko'makchilar bilan qo'llangan so'zlar ish-harakatning belgisini bildirish imkoniyatiga ega. Turk tilidagi **gibi – kabi** ko'makchisi shu maqsadda ishlatiladi. *Onu **dinler gibi** görünerek sahili seyrediyordum. – Uni **tinglayotganday** ko'rinsam-da, sohilni kuzatayotgan edim.*

Turk tilida **kadar** ko'makchisi ot turkumiga xos so'zlar ishtirokida kelishi va **kabi, singari, -day, -dek** yordamchi vositalar bilan qo'llangan holat holiga xos ma'no hamda vazifada ishlatilishi mumkin: *O dakikaya kadar saklambaç oynayan **iki çocuk kadar** çulgın ve manasız bir sevinçle birbirimizi arıyorduk. – O'sha daqiqaga qadar bekinmashoq o'ynagan ikki bola singari telbavor va ma'nosiz sevinch bilan bir-birimizni axtarayotgan edik.*

Otlar ko'pincha **ile/ bilan** ko'makchisi bilan kelib, tarkibli holat

holi vazifasini bajarishi mumkin: *O gün Nimet Hanım'la Kenan'ı göreceği saati **sabırsızlıkla** bekledi.* – *O'sha kuni Nimet xonim bilan Kenanni ko'radigan soatni **sabrsizlik bilan** kutdi.*

Muayyan soʻz turkumlari yoki soʻz birikmalari, ajralmas sintaktik konstruksiyalar maʼlum bir soʻzlar ishtirokida kelib, oʻzi bogʻlangan feʼldan ifodalangan harakat-holatning belgisini bildiradi. Turk tilida **tarzda, vaziyette, halde, surette, şekilde** soʻzlari ayni qolip tarkibida qoʻllanilib, holat holi vazifasida keladi. Masalan: *Telaş etme Hasan: seninle hiç **bu tarzda** yaşamak istemiyorum.* – *Tashvishlanma, Hasan, sen bilan bunday yashashni istamayman.*

Turk tilidagi holat holining bogʻlamalari – **tarz, vaziyet, hal, suret, şekil** kabi soʻzlar **ile / bilan** koʻmakchisi bilan ishlatilishi va holat holi boʻlib kelishi mumkin: *Saffet, Azize ailesinin doktoru **sıfatıyla** sadece hastasının sıhhatını soruyordu.* – *Saffet Azizalar oilasining **doktoru sifatida** faqatgina bemorining sogʻligʻini soʻrayotgan edi.*

Turk tilidagi **ol- / boʻl-** yordamchi feʼlining ravishdosh shakli (olarak) ayrim soʻz yoki birikmalar bilan holat holi vazifasida qoʻllanilib, oʻzbek tilidagi **sifatida, ravishda** kabi soʻzlarga xos maʼno va vazifada ishlatiladi: *İhtiyatsız **olarak** kollarım boynuna gitmiş, başım omuzuna düşmüştü.* – *Beixtiyor qoʻllarim uning boʻyniga osildi, boshim yelkasiga tushdi.*

Tarkibli holat holi “ot + yordamchi feʼl”. “yetakchi + koʻmakchi feʼl” tipidagi feʼlning analitik shakllari bilan ifodalanishi mumkin: *Başımla **tasdik ederek** sahili seyrediyordum.* – *Boshim bilan tasdiqlagancha, sohilni tamosha qilayotgan edim.*

Murakkab holat holi. Murakkab holat holi frazeologik iboralar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar, aniqlovchili birikmalar bilan ifodalanishi mumkin: *Bazıları da dalga serpintileriyle ıslanmayı **göze alarak** önümüzde piyasa ediyorlardı.* – *Baʼzilari dengiz toʻlqinlaridan hoʻl boʻlishini bila turib roʻparamizda bozor qilishardi.*

Frazeologik birikmalar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar tarkibli holat holi qoʻllanilishi mumkin boʻlgan barcha shakllarda qoʻllanilib, ish-harakatning bajarilish oʻrnini bildirganida, murakkab holat holi boʻlib keladi.

PAYT HOLI

Tayanch soʻz va iboralar: *payt holi, payt holining tuzilishiga koʻra turlari, sodda payt holi, tarkibli payt holi, murakkab payt holi.*

ILMIY AXBOROT

Turk tilida faqat kesim maʼnosini vaqt tushunchasi bilan aniqlash-tiruvchi gap boʻlagi payt holi hisoblanadi. Bu qoidada ayrim nuqson mavjudligi koʻrinadi. Chunki payt tushunchasini anglatuvchi gap boʻlaklari har doim ham kesimga bogʻlanib kelishi, unga tobe boʻlishi shart emas. Feʼning vazifadosh shakllari boshqa gap boʻlaklari vazifasini bajarganida ham ayni harakatning bajarilish vaqtini bildirgan soʻzlar unga tobe boʻlishi mumkin. Demak, payt holi faqat kesimgagina emas, balki feʼl yoki feʼning vazifadosh shakllari bilan ifodalangan boshqa gap boʻlaklariga ham bogʻlanib kelishi mumkin.

Payt holi feʼldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish vaqtini bildiradi **ne zaman? – qachon?, hangi vakitte? – qaysi paytda?, na zamana kadar? – qachongacha?, ne zamandan beri?, ne zamandır? – qachondan beri?** soʻroqlariga javob beradi.

Payt holi tuzilishiga koʻra uch xil boʻladi: 1. Sodda payt holi. 2. Tarkibli payt holi. 3. Murakkab payt holi.

Sodda payt holi. Sodda payt holi quyidagicha ifodalanadi:

Sodda payt ravishlari sodda payt holi boʻlib keladi: *Evet Kamran, Feride, yarın gidiyor. – Shunday, Komros, Farida ertaga ketadi.*

Zamon tushunchasini tashuvchi otlar yakka oʻzi yoki maʼlum bir kelishik shaklida, odatda, oʻrin-payt, chiqish kelishigi formasida payt holi vazifasini bajaradi: **Çocukluğumda bana hoyrat derlerdi. – Kichikligimda meni qiligʻi sovuq deyishardi.**

Sodda sonlar oʻrin-payt, joʻnalish, chiqish kelishiklari qoʻshimchalarini olib, ish-harakat bajarilishining soati, sanasi, vaqtini anglatishi mumkin. Bunda sodda son bilan ifodalangan payt holi sodda payt holi hisoblanadi²⁴: *Sen dörtte bana bir çay getir, bir şey istemem. – Sen toʻrtta menga choy olib kel, boshqa hech narsani xohlamayman.*

Feʼning ravishga xoslangan shakllari ham gapda sodda payt holi vazifasida qoʻllanilishi mumkin. **-(y)arak, -(y)erek** shakllii

²⁴ Qoʻshma son, murakkab shakldagi son bilan ifodalangan holat holi murakkab holat holi hisoblanadi.

ravishdoshlar ish-harakatning bajarilish vaqtini bildiradi: *Arabacının bizi beklemeye vakti yoktu; çantaları kapının önüne bırakarak bizden ayrıldı. – Aravakashning kutishga vaqti yo'q edi, yuklarimni eshik yonida qoldirib, biz bilan xayrlashib ketdi.*

Turk tilidagi **-(y)e**, **-(y)a** shaklli ravishdoshning payt ma'nosida qo'llanilishi nihoyatda kam uchraydi. Shuningdek, mazkur shakldagi ravishdosh o'zbek tilidagi **-ganda** shaklli fe'lga xos ma'no va vazifa ishlatiladi: *Nihayet evlenmelerine bir gün kala bir başına evden kaçmış, yabancı memleketlere gitmiş. – Shunday qilib to'ylariga bir kun qolganda yot-u begona yurtlarga boshini olib qochibdi.*

-(y)ali/- (y)eli qo'shimchasi bilan hosil qilingan ravishdosh ish-harakatning yuzaga chiqish paytini bildiradi: *Ben, Zeyniler'e geleli, aşağı yukarı, bir ay olmuş. – Bu qo'shimcha o'zbek tilidagi -gandan beri* shaklli fe'lga mutanosib ma'no anglatadi: *Zaynilarga kelganimga nari-berisi bilan bir oy bo'libdi. -ali/-eli* affikslari unli bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda negiz va affiks o'rtasida y undoshi orttiriladi (**-yalı/-yeli**): *Kadın beni görmeyeli on sene ihriyarlamış, yüzü buruşmuştu. – Ayol men ko'rmagandan beri o'n yoshga keksaygan, yuzlariga ajin tushgan edi.*

-madan, -meden affiksli ravishdoshlar ham gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish vaqtini bildirishi mumkin: *Ben yıldızlar solmadan dua edeceğim. – Men yulduzlar so'nmasdan (avval) duo qilaman.*

-(y)ince, -(y)ınca, -(y)unca, -(y)ünce affikslari bilan yasaluvchi ravishdosh ham o'zbek tilidagi **-ganida** shaklli fe'lga, demak, o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan sifatdoshga mutanosib ma'no bildiradi: *Seni bu kadar değişmiş, güzelleşmiş görünce kimbilir ne kadar beğenecek. – Seni bu qadar go'zallashgan, o'zgargan holda ko'rganida, kim biladi, qanchalik ko'ngli sust ketadi.*

O'rin-payt kelishigi shaklidagi, egalik affiksini olgan **-dık, -dik, -dük, -duk, -tik, -tük, -tuk** affiksli sifatdoshlar gapdan anglashilgan voqeaning ro'y berish vaqtini bildirishi mumkin: *Mercanay ise dokuzuncu sınıfı bitirip, onuncu sınıfa geçtiğinde gülleri açılvermiş. – Marjonoy bo'lsa, to'qqizinchi sinfni bitirib, o'ninchiga o'tganida, gulday ochildi. -(y)iş* affiksli harakat nomi o'rin-payt kelishigi qo'-

shimchasini olib, gapda payt holi vazifasini bajarishi mumkin: *Istanbul'a her inishinda bana hediye getiriyordu.* – *Istanbulga har borganida (borishida) menga sovg'alar olib kelardi.*

Turk tilidagi **-dikça, -dikçe, -dükçe, -dukça, -tıkça, -tikçe, -tükke, -tukça** affiksli ravishdosh ham zamon ma'nosini tashiydi. Bu ravishdosh shakli **-gan sari** yoki **-ganda** shaklli fe'lga mutanosib ma'no anglatadi: *Birbirimizi gördükçe yine memnun olacağız.* – *Birbirimizni ko'rganimizda yana xursand bo'lamiz.*

Turk tilida payt ma'nosini bildiruvchi otlar yoki ravishlar (yoxud so'z birikmalari)²⁵ bilan birikib kelgan **-dir, -dir, -dür, -dur, -tır, -tir, -tür, -tur** affikslari ish. harakat bajarilishining boshlanish muddatini ko'rsatadi va o'zbek tilidagi **-dan beri, -dan buyon** shaklli payt holiga mutanosib ma'noda ishlatiladi: *Çoktandır Cemal Bey'in kızı Paris'te pek hasta olduğunu söyledi.* – *Anchadan beri Jemalbeyning gizi Parijda juda qattiq kasalni boshidan o'tkazganligini aytdi.*

Turk tilida payt bildiruvchi **zaman – zamon, payt** so'zining takroriy shakli ish-harakat reallashuv vaqtini bildiradigan sodda payt holidir: *Fakat ona beni bağlayan zaman zaman gözlerinde tutuşan aşk temayülleri değildi.* – *Faqat meni unga ipsiz bog'lagan vaqti-vaqti bilan ko'zlarida yongan ishq nurlari emasdi.*

-r, -maz affikslari bilan yasaluvchi sifatdoshlarning juft holda qo'llash bilan voqea-hodisaning ro'y berish zamonini bildirish mumkin: *Bununla beraber zavallı, pis, çirkin Hüseyin'in bana Beyrut'a çıkar çıkmaz gönderdiği bir kutu hurma hiddetimi biraz yatıştırır gibi olmuştu(R.N.G.).* – *Shunday bo'lsa ham bechora "yomon, yaramas" Husaynning Bayrutga yetar-yetmas menga yuborgan bir quti xurmosi jahlimni pasaytirganday bo'ldi(R.N.G.).*

Tarkibli payt holi. Tarkibli payt holi quyidagicha ifodalanadi:

Turk tilida payt holi vazifasini bajaruvchi so'zlar muayyan ko'makchilarni yoki ko'makchi otlarni oladi. Bunday tipdagi payt hollari **tarkibli payt holi** hisoblanadi.

Turk tilida **-(y)e/ -(y)a kadar, -dek, -değin, -den/-dan/-ten/-tan beri (evvel, sonra, önce)** shaklidagi birikmalar ham gapda payt tushunchasini anglatishga xizmat qiladi: *O çilgin şeyi yaptığından beri*

²⁵ Bu shakldagi so'z birikmalari murakkab payt holi bo'ladi.

itina ile arzulari tatmin edilmek lazim gelen bir mahluk oldu(H.E.A.). – *O'sha ahmoqona ishni qilgandan buyon orzulari g'amxo'rlik bilan amalga oshirilishi zarur bo'lgan mahluqqa aylandi.*

Turk tilida gap tarkibida qo'llangan tarkibli payt hollari tarkibidagi ko'makchi so'zlar semantik jihatdan o'zbek tilidagi muqobillaridan farqlanadi. Masalan, **qarshi** ko'makchisi o'zbek tilida zidlik modal ma'nosini ifodalaydi: *Baxtga qarshi hozir ham bor.* Ushbu so'zning turkcha fonetik muqobili **karşı** ko'makchisi payt ma'noli so'zlar bilan qo'llanganda, o'zbek tilidagi **yaqin** so'ziga mutanosib keladi: *Büyük-annem sabaha karşı uyanıp da beni yatağında görmeyince çıldıracak gibi olmuş. – Buvim saxarga yaqin uyg'onganda yonida yo'qligimni ko'rib, shaytonlab qolayozibdi.*

Turk tilidagi **doğru** so'zi ham mazkur ma'noda ishlatiladi: *Ona akşama doğru bağıın arkasındaki ince yolda tesadüf etti. – U bilan oqshomga yaqin bog' orqasidagi tor yo'lakda uchrashdi.*

üzeri/ ustiga ko'makchisi ishtirokida kelgan so'zlar ish-harakatning yuz berish vaqtini bildirishi mumkin: *Akşam üzeri eve gittim. – Oqshomga yaqin uyga ketdim.*

ile/ bilan ko'makchisi ishtirokida kelgan so'zlar ham ish-harakatning yuz berish vaqtini bildirishi mumkin: *Bahçede akasyalar açar baharla. – Bog'da akatsiyalar ochilar erta bilan. ile /bilan* ko'makchisi ko'pincha harakat nomlari bilan kelib, bir harakat ketidan ikkinchisining tez boshlanishini anglatadi.

-(y)ince, -(y)inca, -(y)unca, -(y)ünce affikslari bilan yasaluvchi ravishdosh **kadar** ko'makchisi ishtirokida qoliplashib kelishi mumkin. Bunday tipdagi payt holi tuzilishiga ko'ra tarkibli hisoblanadi: *Sabah karanlığında uyanır, gece yorgunluktan baygın düşünceye kadar gürültü ve yaramazlık ederdim. – Saxar g'ira-shirasida uyg'onar, kechqurun charchab, horib-tolgunimga qadar bevoshliklar qilar edim.*

Turk tilidagi **-ken** affiksining **-r** affiksli sifatdosh bilan ishlatilishidan yuzaga kelgan fe'l shakli ham ish-harakatning bajarilish vaqtini ifoda etadi. *Düşerken başını yere çarpmış, sağ kaşının üstünde mor bir şiş hasil olmuştu*(R.N.G.). – *Yiqilayotganida boshini yerga urib olgan, o'ng qoshining tepasida ko'm-ko'k shish paydo bo'lgan edi.*

iken (-ken) ayrim o'rinlarda to'liqsiz fe'l sifatida e'tirof etilsa, ba'zi hollarda sifatdosh yasovchi deb ta'riflanadi. Bir jihatdan ayni so'z o'zbek tilidagi **ekan** to'liqsiz fe'lga o'xshasa-da, vazifasi, qo'llanilish doirasiga ko'ra anchagina farqlanadi. **iken (-ken)** so'zi faqat sodda gap tarkibida payt holi yoki ergashgan qo'shma gap tarkibida payt ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi. Bunda qo'shimcha tipidagi so'z o'zbek tilidagi hozirgi-kelasi zamon fe'li bilan qo'llanuvchi **ekan** to'liqsiz fe'lga mutanosib ma'no anglatadi. Turk tilida **ekan** to'liqsiz fe'lga xos ma'no va vazifada **imiş** so'zi ishlatiladi.

-ken affiksi umuman fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan kelib, payt holi vazifasini bajaradi, gapdan anglashilgan hodisaning ro'y berish vaqtini anglatadi.

– otga: *Kağıttan Japon yelpazeleriyle de çocukken oynardık. – Bolaligimizda qog'ozdan yasalgan yelpig'ichlarni ham o'ynardik.*

– sifatga: *Küçükken hammama Şüküre ile beni çıplak soktuklarını da unutmuş degildim. – Kichkinaligimda Shukura bilan meni qip-yalang'och hammomga olib kirganlarini ham unutmadim.*

– ravishga: *Berberken ikide birde onu kucaklamak, kucağıma alıp taşımak, vücudunu kollarımda ve göğsümün üzerinde duymak isteği veriyordu. – Birgaligimizda ba'zan uni bag'rimga bosish, quchog'imda ko'tarib yurish, vujudini qo'llarimda, ko'ksimda his qilish istagini berardi.*

– modal so'zga: *Ben yokken ne olacak? – Men yo'qligimda nima bo'ladi?*

Turk tilida sifatdoshli va ko'makchili birikmalar gapda tarkibli payt holi bo'lib kelishi mumkin. Bunday birikmalarda sifatdosh **vakit, zaman, sonra, evvel** so'zlari ishtirokida qatnashadi: *Odasına girdiği vakit kendisini zaptedemiyordu. – Xonasiga kirganida o'zini bosolmayotgan edi. Biraz sonra çiftin kenarından kendi bahçelerine atlayacağı zaman Kenan onu bir kere daha kollarına aldı. – Birozdan so'ng bog' chekkasidan o'z bog'iga sakrab o'tadigan paytida Kenan uni bag'riga bosdi.*

Murakkab payt holi. Turk tilida murakkab payt holi quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

Qo'shma shakldagi sonlar o'rin-payt, jo'nalish, chiqish kelishiklari qo'shimchalarini olib, ish-harakat bajarilishining aniq yoki taxminiy soati, sanasi, vaqtini anglatishi mumkin. Bunda juft, qo'shma sonlar bilan ifodalangan sonlar murakkab payt holi hisoblanadi: *Ben 2008'de ilk defa İstanbul'a gitmiştim. – Men 2008 yilda ilk bor İstanbulga borgan edim.*

Ajralmas sintaktik konstruksiyaga aylangan aniqlovchili birikmalar ham muayyan tarkibda qo'shimchasiz yoki ma'lum kelishik shaklida qo'llanganida, murakkab payt holi vazifasini bajaradi: *Lamia o akşam erkenden odasına çıkmıştı. – Lamia o'sha oqshom xonasiga ertaroq chiqqan edi. Lamia geçen sonbaharda bir gece bu ninniye gözlerinde yaşlarla bekleyerek uyumuştı. – Lamia o'tgan yili kuzda bir kecha shu allani ko'zlarida yosh bilan kutib uxlagandi.*

Chiqish kelishigidagi otlar va **-(y)e**, **-(y)a kadar** / **-gacha** shaklli otlarning juftlashishidan hosil bo'ladigan juft so'zlar voqeaning ro'y berish vaqti oralig'ini anglatadi hamda gapda murakkab payt holi vazifasini bajarib keladi: *Yedi gün her sabah sekizden on ikiye, hatta bire kadar Hasan Bey'le bu karlı ovada avlandık(H.E.A.). – Yetti kun har tonda sakkizdan o'n ikkigacha, hatto birgacha Hasanbey bilan bu qorli tekislikda ov qildik.*

Shuningdek, turk tilida payt ma'nosini anglatuvchi so'z yoki so'z birikmalarining **var** modal so'zi va **ki** bog'lovchisi ishtirokida kelishi natijasida ham murakkab payt holi yuzaga keladi: *Üç gün var ki bir kızım oldu. – Uch kun avval qizlik bo'ldim(Qizlik bo'lganimga uch kun bo'ldi).*

Murakkab payt holi frazeologik birikmalar, murakkab so'zlar, ajralmas sintaktik konstruksiyaga aylangan birikmalar, izofali birikmalar bilan ifodalanishi mumkin. Umuman, ajralmas sintaktik konstruksiya bilan ifodalangan murakkab payt holi faol qo'llaniladi: *Kendisi her sabah atla Musul'a iner. akşamları güneş battıktan sonra dönermiş. – O'zi har kuni ertalab otda Musulga tushar, kechqurunlari, kun botgandan keyin, yana qaytib kelar ekan.*

Turk tilidagi **-yali/-yeli** affiksi qo'shilgan so'zning o'tgan zamon fe'li shaklidagi ko'rinishi bilan juftlashib qo'llanishidan hosil bo'ladigan so'z shakli murakkab payt holi vazifasini bajaradi: *Bu*

kadın dünya kuruldu kurulalı hiç bir kadının sevmediği gibi beni seviyordu(H.E.A.). – *Bu ayol dunyo paydo bo'lgandan beri hech bir ayol sevmaganidek meni sevardi.* Bu formadagi juft so'z stilistik maqsad uchun qo'llaniladi. ya'ni ayni shakldagi payt holi ta'kid, kuchaytirish ma'nolarini ifoda etadi.

Frazeologik birikmalar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar tarkibli payt holi qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha shakllarda qo'llanilib, ish-harakatning bajarilish o'rnini bildirganida, murakkab payt holi bo'lib keladi.

O'RIN HOLI

Tayanch so'z va iboralar: *o'rin holi, o'rin holining tuzilishiga ko'ra turlari, sodda o'rin holi, tarkibli o'rin holi, murakkab o'rin holi.*

Harakat, holatning ro'y berish, boshlanish, yo'nalish o'rnini va bu yo'nalishdagi oxirgi punktini anglatuvchi gap bo'lagi **o'rin holidir.** O'rin hollari **nereye? – qayerga?, nereden? – qayerdan?, nerede? – qayerda?, nereye kadar? – qayergacha?, neredeki? – qayerdagi?** so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

O'rin hollari quyidagi ma'nolarni anglatishga xizmat qiladi:

1. Voqea-hodisaning ro'y berish o'rnini bildiradi. Bunda o'rin holi o'rin-payt kelishigi shakli (**-da, -de, -ta, -te**)da bo'ladi: ***Burada, bu Bozyaka bag'larinda biyyüdü. – Bu yerda, bu Bo'zyoqa bo'ylarida o'sib-ulg'aydi.***

2. Ish-harakatning boshlanish o'rnini bildiruvchi o'rin hollari chiqish kelishigi shaklidagi (**-dan, -den, -tan, -ten**) so'z bilan ifodalanadi: ***Diyabakir'dan Musul'a, Musul'dan Hanikin'a, oradan Bag'dat'a, Kerbela'ya gitmiş. – Diyobakirdan Musulga, Musuldan Xonikinga, u yerdan Bag'dodga, Karbaloga o'tgan.***

3. Harakat, holat yo'nalgan o'rin-joyini anglatuvchi o'rin hollari jo'nalish kelishigi shaklida (**-(y)a, -(y)e**) bo'ladi: ***Tam o sirada kadınli erkekli sekiz on kişilik bir grup bahçeye girdi (Y.K.K.). – Xuddi o'sha paytda ayol-erkakdan iborat sakkiz-o'n kishilik bir guruh odam boqqa kirdi.***

4. Ish-harakatning o'rnini chegarasini bildiruvchi o'rin holi jo'nalish kelishigidagi so'zning **kadar – qadar** ko'makchisi bilan

ishlatilishidan yuzaga keluvchi soʻzshakli bilan ifodalanadi: *Sürüne sürüne lambanın yanına kadar gittim. – Surinib-surinib lampaning yonigacha bordim.*

5. Ish harakatning bajarilish oʻrnini aniq koʻrsatuvchi oʻrin holi **-daki, -deki** qoʻshimchalarini oladi va **nerede**ki? – **qayerdagi**? soʻroqlariga javob beradi: *O vakit Yeşilköy'deki köşkümlükte oturuyorduk. – O'sha vaqtda Yashilko'ydagi ko'shkimizda yashar edik.*

Oʻrin holi tuzilishiga koʻra uch xil boʻlishi mumkin: 1. 1. Sodda oʻrin holi. 2. Tarkibli oʻrin holi. 3. Murakkab oʻrin holi.

Sodda oʻrin holi. Sodda oʻrin holi quyidagicha ifodalanadi:

Oʻrin ravishlari bilan ifodalangan oʻrin hollari joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shaklida boʻladi.

– joʻnalish kelishigidagi oʻrin ravishi bilan ifodalangan oʻrin holi oʻzi ergashgan feʼldan anglashilgan harakat-holat yoʻnaltirilgan joy, manzil maʼnosini bildiradi. Masalan, quyidagi gaplarda ishtirok etgan **ıçeriye** – **ıçkarıga** oʻrin ravishlari harakat bajaruvchining qaysi tarafga, joyga yoʻnalganini bildirgan: *İçeriye girdiğim vakit siyah önlüğüm islanmıştı. – Ichkarıga kirganimda qora fartugim ivib ketgan edi.*

– Turk tilida oʻrin ravishlarining joʻnalish kelishigi qoʻshimchasisiz ishlatilishi hollari koʻp uchraydi: *Ben üşümeye başladım. İçeri gidiyorum. – Sovqotib qoldim. Ichkarıga kirib ketyapman.* Mazkur gapdagi **ıçeri** - **ıçkari** leksemasi aslida **ıçeriye** - **ıçkarıga** shakliga ega boʻlishi lozim. Bu grammatik qonun-qoida meʼyori talabidir. Biroq turk tiliga xos boʻlgan fikr ifodalashda ixchamlik, qisqalikka boʻlgan intilish natijasida joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi tushirib qoldirilgan.

– chiqish kelishigidagi oʻrin ravishi bilan ifodalangan oʻrin holi ish-harakat bajarilishining boshlanish nuqtasi, joyi maʼnosini bildiradi. Masalan: *İçeriden bir nalın tıkırtısı gelmeye başladı. – Ichkarıdan yog'och kavushning taraqlab kelayotgani eshitildi.*

– oʻrin-payt kelishigidagi oʻrin ravishi bilan ifodalangan oʻrin holi oʻzi ergashgan feʼl bildirgan voqea-hodisaning roʻy berish oʻrni yoki ish-harakatning bajarilish joyini anglatadi: *İçerde kimse yok*

galiba(R.N.G.). – *Ichkarida hech kim yo'q, shekilli.*

O'rin holi o'rin, joy ma'nosini bildiruvchi hamda jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi shaklida bo'lgan otlar bilan ifodalanishi mumkin: *Çocuk gibi kendimi yere atmak istedim*(R.N.G.). – *Yosh boladay o'zimni yerga otgim keldi.*

Gapdan anglashilgan ish-harakatning yuz berish o'rnini bildiruvchi gap bo'lagi olmoshlar bilan ifodalanishi mumkin. So'roq, gumon, bo'lishsizlik, ko'rsatish olmoshlari o'rin-payt, chiqish, jo'nalish kelishigi qo'shimchalarini olib, o'rin holi vazifasida kelishi mumkin: *Bu salona ne yapmaya geldiğimi, nerede olduğumu unutmuştum.* – *Zalga nima uchun kelganimni, qayerda ekanligimni unutmagan edim.*

Turk tilida ko'rsatish olmoshlari va yer, joy kabi so'zlarning birikishidan hosil bo'lgan birikmalar uchun bir leksema mavjud. Masalan: **bu yer – bura, beri, o'sha joy – ora, u yer – öte** va sh.k. Mazkur so'zlar ham o'rin-payt, chiqish, jo'nalish kelishigi qo'shimchalarini olib, o'rin holi vazifasini bajaradi: *Şimdi öteye beriye baş vurup izin almaya çalışıyoruz*(H.E.A.). – *Hozir u yerga-bu yerga murojaat qilib, ruxsat olishga harakat qilyapmiz.*

Tarkibli o'rin holi. Tarkibli o'rin holi quyidagicha ifodalanadi:

O'rin holi ko'makchili hamda ko'makchi otli so'zlar bilan ifodalanganida, ish-harakatning bajarilish o'rnini yanada aniqroq bildirishga xizmat qiladi, shuningdek, qo'shimcha ustama ma'nolarga ega bo'ladi. Shu bilan birga, bu ikki konstruksiya gap bo'lagini ifodalovchi turli vositalar sanaladi. Zero, ko'makchilar va ko'makchi otlar ikki farqli leksik-grammatik hodisadir.

Ko'makchili so'zlar bilan ifodalangan o'rin hollari quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

doğru – to'g'ri ko'makchisi o'rin-joy ma'noli so'zlar ishtirokida kelganida yo'nalish ma'nosini bildiruvchi **qarab yoki to'g'ri** ko'makchisiga mutanosib ma'noni ifoda etadi. Masalan: *Allah esirgesin, hafifçe ayağı kaysa doğru dereye düşecek.* – *Xudo bir saqladi, yana bir qadam bossa to'g'ri jarga qulab ketardi.*

Ko'makchi otlar uch kelishik shaklida qo'llaniladi va vertikal yoki gorizontal yo'nalishni bildiradi Shuningdek, aralash yo'nalishni

(gorizontal va vertikal) bildiruvchi (**oʻrta, bosh, ora**) koʻmakchi otlar ham bor. Demak, turk tilidagi koʻmakchi otli konstruksiya bilan ifodalangan oʻrin hollarini quyidagicha qoliplashtirish mumkin:

◆ «ot + gorizontal yoʻnalishni bildiruvchi koʻmakchi ot (**ön – old, ard, peş – orqa, yan – yon, iç – ich**)» tipidagi oʻrin hollari: *Sonra iki arkadař gibi altın tarlaların arasından dalıp gezmeğe gidiyoruz. – Keyin ikki doʻst singari oltindek tovlangan dalalar orasiga singib sayr qilib ketyapmiz.* Ushbu gapdagi **tarlaların arasından - dalalar orasidan** birikuvi gapdan anglashilgan voqea-hodisaning roʻy berish oʻrnini anglatgan, bunda koʻmakchi ot makon tushunchasiga aniqlik kiritishga xizmat qilgan.

◆ «ot + vertikal yoʻnalishni bildiruvchi koʻmakchi ot (**alt – ost, üst – ust**)» tuzilishidagi oʻrin hollari: *Ben Kleopatraʼların eteği altında, zehir şişelerinin arasında ölmek isteyenlerden değılim (Y.K.K.). – Men Kleopatralarning etagi tagida, zaharli shisha idishlari orasida oʻlishni orzu qiladiganlardan emasman.* Mazkur gapdagi oʻrin holi vazifasida kelgan **eteği altında - etagi tagida** birikuvi tarkibidagi koʻmakchi otlar ish-harakatning bajarilishi joyini aniqroq koʻrsatish uchun qoʻllangan.

◆ «ot + aralash yoʻnalishni bildiruvchi koʻmakchi ot (**orta – oʻrta, baş – bosh, ara – ora**)» koʻrinishidagi oʻrin hollari: *Gecelik haliyle masanın başında kitap okuyor (Y.K.K.). – Tungi libosida stol boshida oʻtirib kitob oʻqiyapti.*

Murakkab oʻrin holi. Murakkab oʻrin holi ajralmas sintaktik konstruksiyalar, izofali birikmalar, murakkab soʻzlar bilan ifodalanadi: *Doktorlar tarafından Avrupa ülkelerine götürülmesi uygun görülmüş (E.N.). – Doktorlar tomonidan Ovroʻpa oʻlkaloriga olib borish muvofiq koʻrilibdi.*

Frazeologik birikmalar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar tarkibli oʻrin holi qoʻllanilishi mumkin boʻlgan barcha shakllarda qoʻllanilib, ish-harakatning bajarilish oʻrnini bildirganida, **murakkab oʻrin holi** boʻlib keladi.

ILMIY AXBOROT

Turk tilshunosligida joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi

affikslarini (-e, -de, -den) olgan soʻzlar, maʼnosidan qatʼiy nazar, **vositali toʻldiruvchi** hisoblanadi. Vositali toʻldiruvchilar uch guruhga boʻlinadi: oʻrin-joy toʻldiruvchisi (bulunma tmleleri), chiqish toʻldiruvchisi (ıkma tmleleri), yoʻnalish toʻldiruvchisi (yoʻnelme tmleleri). Masalan, quyidagi gaplarda qoʻllangan joʻnalish, oʻrin-payt. chiqish kelishigidagi soʻzlar aslida oʻrin holi, turk tili qonun-qoidasiga binoan vositali toʻldiruvchidir: **“Faklteye gittim”** – **“Fakultetga ketdim”**. **“Saati Amerikaʼdan getirmiş”** – **“Soatni Amerikadan keltirgan”**. **“Seni evde bekleyeceęim”** – **“Seni uyda kutaman”**. Ajratilgan soʻzlar **nereye, nereden, nerede** soʻroqlariga javob boʻladi hamda voqea-hodisaning roʻy berish oʻrnini bildiradi, binobarin, bunday gap boʻlaklarini vositali toʻldiruvchi deb ajratishga hojat yoʻq.

Baʼzan turk tilida sanoqli miqdordagina boʻlgan oʻrin ravishlari, ayrim sifatlardan boshqa soʻz turkumlari gapda oʻrin holi boʻlib kelmasligi, xususan, oʻrin hollari hech qanday qoʻshimchalarni olmasligi eʼtirof etiladi. Mazkur notoʻgʻri yondashuv oʻrin-payt, joʻnalish, chiqish kelishidagi hamma gap boʻlaklarini (mazmunidan qatʼiy nazar) vositali toʻldiruvchi qatoriga kiritilishi natijasida yuzaga kelgan. Vaholanki, tilga olingan kelishik qoʻshimchalari turk tilida oʻrin, manzil maʼnosini ifodalovchi soʻzlarga qoʻshilganida ish-harakatning bajarilish oʻrnini bildiradi. Demakki, turk tilidagi vositali toʻldiruvchi sanalgan gap boʻlaklarini mazmuni jihatidan farqlash hamda oʻrin holi vazifasini bajaruvchi gap boʻlaklari sifatida ajratish zarurati tugʻiladi.

SABAB HOLI

Tayanch soʻz va iboralar: *sabab holi, sabab holining tuzilishiga koʻra turlari, sodda sabab holi, tarkibli sabab holi, murakkab sabab holi.*

ILMIY AXBOROT

Turk tilshunosligida ish-harakatning bajarilish sababini bildiruvchi gap boʻlaklari holning turi sifatida farqlanmagan va tadqiq etilmagan. Birlamchi va asosiy mezon soʻzning shakli boʻlganligi bois koʻmakchilar yordamida hosil qilinadigan sabab holi **koʻmakchi toʻldiruvchi** deb atalgan. Binobarin, turk tilida koʻmakchi alohida

yoki muayyan tarkibda ko'makchi to'ldiruvchi vazifasini bajarishi e'tirof etiladi. Xususan, chiqish kelishigi formasidagi sabab holi ham shakli-tufayli vositali to'ldiruvchi sanaladi. Ammo turk tilidagi badiiy manbalardan to'plangan misollar turk tilida ham sabab holi sifatida o'rganilishi lozim bo'lgan gap bo'lagining mavjudligini ko'rsatdi.

Voqeaning yuz berish sababini bildiruvchi bo'lakka sabab holi nomi beriladi. Sabab holi fe'l bilan ifodalangan bo'lakka tobe bo'lib keladi va **niçin?** – **nima uchun?**, **neden?** – **nima sababdan?** so'roqlariga javob beradi.

Sabab holini tuzilishiga ko'ra uch turini farqlash mumkin: 1. Sodda sabab holi. 2. Tarkibli sabab holi. 3. Murakkab sabab holi.

Sodda sabab holi. Sodda sabab holi quyidagicha ifodalanadi:

Sodda sabab holi turdosh ot, olmosh. fe'lning vazifadosh shakllari hamda sabab ravishlarining sodda shakllari bilan ifodalanadi.

Sodda sabab holi sodda sabab ravishlari bilan ifodalanishi mumkin. Turk tilida sabab ravishlari farqlanmagan bo'lsa-da, **beyhude**, **çaresiz** so'zlarini sodda sabab ravishi sifatida farqlash mumkin: *Razı olmazlarsa gece vakti tek başıma yola düşmekten çekinmeyeceyimi söyledim. Çaresiz razı oldular. – Yo'q deyishsa, kechasi bo'lganiga qaramay, yayov jo'nashdan ham toymasligimni aytdim. Chor-nochor rozi bo'lishdi*(R.N.G.). – *Küçük bir kedi gibi arkasından gidiyor ve her gün, beyhude nişanlanmak teklifi, evlenme teklifi bekliyordum*(H.E.A.). – *Kichkina mushukday har kuni orqasidan yurardim va har kuni bekordan-bekorga nishonlanish taklifini, uylanish taklifini kutardim.*

Sodda sabab holi vazifasida kelgan so'zlar (sabab ravishlaridan tashqari) muayyan kelishiklar shaklida qo'llanadi:

Jo'nalish kelishigidagi sabab holi: *Gittigime benim de pişman olmadığımı mı zannediyorsun? – O'shanda ketib qolganimga o'zimni ham pushaymon bo'lmagan deysanmi?*

O'rin-payt kelishigidagi sabab holi nisbatan kam uchraydi. Chiqish va jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan ifodalangan sabab hollariga nisbatan o'rin-payt kelishigi shaklidagi sabab munosabatini ifodalovchi so'zlar faqat otlar bilan ifodalanadi: *Azize'nin yeğeniyle kayak yarışı yaptık, güneşte yandım, biraz spor yaptım*(H.E.A.).

– Azizaning jiyani bilan qayiqlarda kimo‘zarga musobaqasida bellashdik, **quyoshda** kuydim, biroz sport bilan shug‘ullandim.

Chiqish kelishigi shaklidagi sabab holi: Ish-harakatning ro‘y berish sababini bildiruvchi gap bo‘laklari chiqish kelishigidagi harakat nomi bilan ifodalanishi mumkin. Bunda **-ma, -me, -mak, -mek** affiksli harakat nomiga murojaat qilinadi. **-ma, -me** shaklli harakat nomlari egalik qo‘shimchalari bilan, **-mak, -mek** shakllilari esa egalik kategoriyasining affiksalarisiz qo‘llaniladi: *Elleriyle başımı okşamak istiyor, fakat **ürkütme**kten korkuyordu.* – *Qo‘llari bilan boshimni silagisi kelar, lekin **hurkishim**dan, yana oramizni buzadigan akslik qilishimdan qo‘rqar edi. Daha doğrusunu istersen senin de bana **bakmandan** korktum.* – *To‘g‘rirog‘ini bilisni istasang, menga qarashingdan qo‘rqdim.*

-(y)arak, -(y)erek, -(y)a...-(y)a, -(y)e...-(y)e affiksli ravishdoshlar ham gapda sabab holi vazifasida kelishi mumkin: *Nihayet fazla sıkıldığımı **gö**rererek beni evine davet etti.* – *Axiyri, qattiq zerikayotganimni ko‘rib, Hoji xalfa meni uyiga taklif qiladigan bo‘ldi. Hanimefendi besbelli bu doktorun yüzüne **baka baka** çocuğu güzel oldu.* – *Xonim afandi o‘sha doktorning yuziga ko‘p qaraganlari uchun (boqa-boqa, qaray-qaray) shunaqa chiroyli qiz tuqqanlar.*

Tarkibli sabab holi. Tarkibli sabab holi quyidagicha ifodalanadi:

Tarkibli sabab holi muayyan ko‘makchilar vositasida hosil qilinadi Turk tilida ushbu vazifada **ichin, ötürü – uchun, dolayı – sababli, yüzünden – sababli, sebepten – sababli, sababdan** ko‘makchilari qo‘llaniladi.

• **uchun – için** ko‘makchisi vositasida yuzaga kelgan sabab holi faol qo‘llaniladi: *Sör Aleksî onları yatıştırıp **teskin ettiği için** hayli sıkıntı çekmiştir.* – *Bechora Aleksî opa ularni tinchitgani uchun anchagina zahmat chekdi.* Bu vaziyatda **ichin – uchun** ko‘makchisi egalik qo‘shimchasini olgan **-dik, -dik, -duk, -dük, -tik, -tik, -tuk, -tük** shaklli sifatdoshlar bilan birga qo‘llaniladi.

• **dolayı, ötürü – sababli, yüzünden – sababli** ko‘makchili sabab hollari: *O senenin yazında bu ağaca çıkmak **illeti yüzünden** başıma bir şey daha geldi.* – *O‘sha yili yozda shu daraxtga chiqish illatim boshimga balo bo‘ldi(R.N.G.). **Bazı sebeplerden dolayı** Saip*

Paşa, kızkardeşini de, yeğenini de sevmiyordu(R.N.G.). – *Ba'zi sabablar tufayli Saip poshsho singlisini ham, jiyanini ham yoqtirmasdi. Önce bir gerdanyadan ötürü hatırlamaya başladı. – Avval sharqona bir qo'shiq sababli eslay boshladi.*

Nihoyatda sanoqli hollarda **sebepten / sababdan** so'zi qo'llanilishi kuzatiladi: *Eğer ona karşı fena zaafın varsa yahut herhangi bir sebepten bunu yapmayacak halde isen, evlerimizi ayırırız*(R.N.G.). – *Agar unga nisbatan ko'nglingda pastkashlik qilish niyating bo'lsa yoki biror bir sababdan bu ishni bajarmasang, qozontovog'imizni alohida-alohida qilamiz.*

dolayı, ötürü ko'makchilari chiqish kelishigidagi so'zlarni talab qiladi: *Mektupta sadece Azize'nin hastalığının aldığı ağır şekilden dolayı Boğaziçi'nde kaldığını ve buhran geçer geçmez geleceğini yazıyor. – Maktubda faqatgina Azizaning kasali kuchayganligi uchun Bo'g'ozichida qolganligini va krizis o'tishi bilan oq kelishini yozibdi.*

Ba'zan **dolayı – tufayli** ko'makchisi ham **ile – bilan** ko'makchisi bilan ishlatilishi mumkin: *Şükure bugün Ankarada zamanın büyüklerinden birinin karısı olmak dolayısıyla yüksek mevki sahibi, sosyete kadını, bolluk içinde*(R.H.K.). – *Shukura bugün Anqarada zamonasining kattalaridan birining xotini bo'lganligi bois yuksak ijtimoiy mavqe sohibasi, boy-badavlat ayol.*

Üzerine – ustiga ko'makchisi ham kontekstga ko'ra ish-harakatning bajarilish sababini bildirishi mumkin: *Araba vakası üzerine kocası tahkikat yaptı ve hakikati meydana çıkardı. – Arava voqeasi sababli eri tekshiruv o'tkazibdi va haqiqatni aniqlabdi.*

Shuningdek, turk tilida ba'zi so'zlar **ile – bilan** ko'makchisining to'liq yoki qisqa ko'rinishi bilan qo'llanilib, **sebebiyle – tufayli (sababli), bahanesiyle – bahonasi bilan** shaklida ishlatilishi va sabab holi vazifasini bajarishi mumkin: *O münasebetle tanıştık*(R.H.K.). – *O'sha sababli tanishdik.*

diye/ deb so'zlari yordamida ham ish-harakatning bajarilish-bajarilmaslik sababi ma'nosi anglashilishi mumkin. Bunday sabab hollari ham tarkibli sabab holi hisoblanadi: *Mişel diye bir vehme kapılmışım, boş yere kendimi Kanran'a rezil etmişim. – Mishel deb vahimaga tushibman, Komron oldida o'zimni bekorga sharmanda qilibman-a!*

Tarkibli sabab holi *ile – bilan* ko‘makchisi orqali hosil qilinishi mumkin. Bu ko‘makchi ko‘pincha bosh kelishikdagi otlar bilan birikib, ma‘lum sababni yuzaga keltirgan voqea-hodisa, ish-harakat yoki holatga shaxsning munosabatini bildiradi: *Güneşle tunçlaşmış yüzünde ikinci olarak dikkatı çeken şey yuvarlak, çocuk gülümsemesi taşıyan ağzıydı*(H.A.E.). – *Quyoshda qoraygan yuzida e‘tiborni jalb qiluvchi ikkinchi narsa bolalarcha tabassumi edi.*

Tarkibli sabab holi, shuningdek, “ot, ot xarakteridagi so‘z + yordamchi fe‘l”, “yetakchi fe‘l + ko‘makchi fe‘l” ko‘rinishidagi qo‘shma fe‘llar bilan ifodalanishi mumkin: *Bunu sana da gösterebildiğime memnunum.* – *Buni senga ko‘rsata olganimga xursandman.* Bunda qo‘shma fe‘llar bilan ifodalangan tarkibli sabab hollari muayyan kelishik shaklida yoki ma‘lum bir ko‘makchilar ishtirokida keladi.

Tarkibli sabab holi «ot, ot xarakteridagi so‘z + yordamchi fe‘l + sabab holini shakllantiruvchi vosita», «yetakchi fe‘l + ko‘makchi fe‘l + sabab holi bog‘lamasini shakllantiruvchi vosita» ko‘rinishidagi qo‘shma fe‘llar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, tubanda keltirilgan gapda ishtirok etgan sabab hollari tarkiban tuzilishi quyidagicha: «ot, ot xarakteridagi so‘z + yordamchi fe‘l + ko‘makchi (uchun - için)» konstruksiyali sabab holi: *Konuşmakta olduğundan dolayı saatine bile bakmayı unuttu.* – *Gaplashayotganligi sababli soatiga qarashni ham unutdi.*

Murakkab sabab holi. Mantiqan ikki va undan ortiq mustaqil ma‘noli so‘zning birikishidan hosil bo‘lgan, ajralmas sintaktik konstruksiyaga aylangan birikmalar – frazeologik birikmalar, aniqlovchili, izohlovchili birikmalar, izofali birikmalar, murakkab so‘z shakllari murakkab sabab holi vazifasini bajarib keladi. Bunda ayni til birliklari tarkibli sabab holini shakllantirishda ishtirok etadigan yordamchi komponentlar bilan yoki ayrim kelishik qo‘shimchalari shaklida qo‘llanilishi va ergashib kelgan fe‘ldan anglashilgan harakat, holatning bajarilish sababini anglatishi zarur.

Quyidagi misolda aniqlovchili birikma va ibora bilan ifodalangan sabab holi ishtirok etgan: *Şimdi gözlerini görmüyordum ama sesinin doluluğundan, boğazında kelimelerin tıkulmasından*

herhalde heyecanlandığımı, belki de ağladığımı sanıyordum. – Hozir ko'zlarini ko'rmayotgan edim, ammo o'pkasi to'lib, so'zlar bo'g'zida tiqilib qolayotganday gapirayotganidan har holda hayajonlanganini, balki yig'laganini taxmin qilayotgan edim.

MAQSAD HOLI

Tayanch so'z va iboralar: maqsad holi, maqsad holining tuzilishiga ko'ra turlari, sodd maqsad holi, tarkibli maqsad holi, murakkab maqsad holi.

ILMIY AXBOROT

Turk tilida holning maqsad holi deb atalmish turi turk tilshunoslari tomonidan ham, rus turkologlari tarafidan ham farqlanmagan va tadqiq etilmagan. Maqsad holiga muvofiq keluvchi gap bo'laklari esa shakliga ko'ra yoki vositali to'ldiruvchi yoki ko'makchili to'ldiruvchi sirasiga kiritilgan. Masalan, quyidagi gaplardagi ajratib ko'rsatilgan gap bo'laklarining birinchisi tarkibida ko'makchi qatnashganligi uchun ko'makchi to'ldiruvchi, ikkinchisi esa vositali to'ldiruvchining yo'nalish to'ldiruvchisi turiga oid hisoblanadi, chunki ayni so'z jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan: *Nihayet annemin hastalığı artınca babam, hiç olmazsa onu İstanbul'a götürmek için bir ay izin istemiş ve cevap beklemeden yola çıkmış.* – *Nihoyat, onamning kasali og'irlashgandan so'ng, otam hech bo'lmasa uni Istanbulga olib borib qo'yish uchun bir oyga ruxsat so'rgan-u, javobni ham kutib o'tirmasdan yo'lga chiqqan.* – *Fakat onlar küçük gönüllü çocuklardı. Gördükleri hakarete aldırmayarak, beni köşkten kaçırmaya gelirlerdi.* – *O'rtoqlarım ko'ngilchan bolalar edi; ko'rgan haqoratlarini pisand qilmay, meni chorbog'dan olib qochgani kelishardi.* Lekin aslida gap tarkibida ajratib ko'rsatilgan gap bo'laklari kesimdan anglashilgan ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiradi va maqsad holi vazifasini bajarib kelgan. Demak, turk tilidagi manbalardan to'plangan misollar tahlili natijasida o'zi bog'lanib kelgan fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiruvchi gap bo'laklarini ajratish zarurati mavjudligini ko'rsatdi.

Fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish maqsadini, niyatini bildiruvchi va **niçin?** – **nima uchun?**, **ne amaçla?** – **nima maqsadda?** so'roqlariga javob bo'luvchi gap bo'laklariga *maqsad*

holi deyiladi. Turk tilidagi maqsad holini tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin: 1. Sodda maqsad holi. 2. Tarkibli maqsad holi. 3. Murakkab maqsad holi.

Sodda maqsad holi. So'zlarning sintetik shakllari – muayyan kelishikdagi shakllari gapda **sodda maqsad holi** vazifasini bajaradi. Sodda maqsad holi quyidagicha ifodalanadi:

Sodda maqsad holi maqsad ravishlari bilan ifodalanadi. Turk tilidagi *mahsus*, *kasten* so'zlarini maqsad ravishi qatoriga kiritish mumkin: **Mahsus rica etti. – Atayin iltimos qildi. Fakat bana öyle geldi ki, yüzme bildiği halde kasten acemilik yapıyordu. – Ammo menga suzishni bilsa ham, ataylab bilmaganlikka solayotganday tuyuldi.**

Jo'nalish kelishigidagi so'zlar o'zi ergashgan fe'ldan anglashilgan harakatning bajarilish maqsadini bildirishi mumkin:

-ma, -me, -mak, -mek affiksli harakat nomlari jo'nalish kelishigi qo'shimchasi olishi va gapda maqsad holi vazifasida kelishi mumkin: *Annem beni görmeye gelmiş. – Onam meni ko'rgani kelibdi.*

Turk tilining ba'zi shevalarida **-mak, -mek** harakat nomi shakllari jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olganida, affiks tarkibidagi **k** undoshi **ğ** undoshiga aylanadi: *Senin bize hafta başında geldiğin zamanlar onların gezmeğe gidişini görmek için bazen çıkardık. – Biznikiga hafta boshida kelgan paytlaringda ularning sayr qilishga ketishini ko'rish uchun chiqardik.*

Ba'zan **-(y)ecek, -(y)acak** shaklli sifatdosh ham jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olib, o'zi bog'langan so'zdan anglashilgan harakatning bajarilish maqsadini ifoda etadi: *Bunu bu şekilde ona teslim edeceğine yemin et, dedi. – Buni qanday holda bo'lsa, shunday topshirishga (topshirajagingga) qasamyod qil, – dedi.*

Tarkibli maqsad holi. So'zlarning analitik shakllari bilan ifodalangan, tarkibida maqsad holining bog'lamalari yoki ma'lum ko'makchilar ishtirok etgan birikuvlar *tarkibli maqsad holi* hisoblanadi. Turk tilidagi tarkibli maqsad holi quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

İçin (uchun) ko'makchisi ishtirokida hosil qilingan maqsad holi fe'lning harakat nomi shakli bilan qo'llanilishi mumkin. Ko'pincha

-mak, -mek shaklli fe'llar **ichin** so'zi bilan ishlatilib, maqsad holi vazifasini bajaradi: *Kadıncağızın, beni, dedikodudan korumak için gösterdiği telaş, adeta kibrime dokundu. – Boyoqish xotinning gap-so'zga qolishimdan bezovta bo'lishi menda chuqur taassurot qoldirdi. Munise onu yolundan çevirmek için sazların öte tarafına koşmuş olacaktı. – Munisa uni qaytarib kelish uchun qamishzorning orqasiga o'tib ketgan bo'lsa kerak.*

Jumladan, **-ma, -me** affiksi bilan yasaluvchi harakat nomining **ichin** ko'makchisi ishtirokidagi so'z formasi bilan ifodalangan maqsad hollari uchraydi. Bunda mazkur harakat nomi shakllari egalik kategoriyasining qo'shimchalarini oladi: *Saffet'in sesinde Azize'nin hayatının benden dilenen Hasan'ı ona terk etmem için yalvaran bir mana tahayyül ettim. – Saffetning ovozida Azizaning hayotini mendan tilanib so'rgan, Hasanni unga berishim uchun yolvorgan bir ma'no borligini sezdim. Dört genç insanın mesut olması için, eğlenmesi için her şey vardı. – To'rt yosh odamning baxtli bo'lishi, ko'ngilxushlik qilishi uchun hamma narsa bor edi.*

Ot, olmosh yoki fe'ning harakat nomi shakllari **maksat (maqsad), azim, niyet (niyat, azm), zan (o'y), istek (istak)** kabi so'zlar va **ile (-la, -le)** / ko'makchisi ishtirokida qo'llanilib, tarkibli maqsad holi vazifasini bajaradi:

- “ot, olmosh yoki fe'ning harakat nomi shakllari **maksat, kast** so'zlari **ile** ko'makchisi” tipidagi tarkibli maqsad holi: *Sırf bu maksatla ömrü sürekli vapurlarda aşman kadınlar vardır. – Faqat shu maqsadda umrini to'xtovsiz paraxodlarda o'tkazgan ayollar bor.*

- “ot, olmosh yoki fe'ning harakat nomi shakllari + **azim, niyet / niyat, azm** so'zlari + **ile / bilan** ko'makchisi” tipidagi tarkibli maqsad holi: *Yani evlenme niyetiyle yola çıktım ama kimimle evleneceyimi henüz bilmiyorum. – Ya'ni turmushga chiqish niyatida yo'lga chiqdim, ammo kimga erga tegishimni hali bilmayman.*

Turk tilida **üzere** so'zi **-mek** affiksli harakat nomi bilan qo'llanilib, ish-harakatning bajarilish maqsadini bildirishi, o'zbek tilidagi **uchun** ko'makchisiga yoki “-moqchi bo'lib” ko'rinishidagi so'zshakliga monand ma'noni anglatishi mumkun. Bunday shakldagi hollar tarkibli maqsad holi vazifasini bajaradi.

Masalan: *Artık oradan Sariyer'e gitmek üzere bahçeden dışarı çıkarken şu vapurda karşılaştığımız faziletli adamın beni beklediği gözüme ilişti. – Endi Sariyerga ketmoqchi bo'lib, bog'dan tashqariga chiqqayotganimda shu paroxodda uchratgan fazilatli odamning meni kutayotgani ko'zimga chalindi.*

Maqsad holining fe'l bilan ifodalanishi turk tili uchun xarakterlidir. Bunda maqsad holi fe'l, fe'ning infinitiv, ravishdosh, sifatdosh formalari bilan ifodalanadi. Bunday so'zlar maqsad holi bo'lib kelganda, **diye /deya, için/ uchun** kabi so'zlar bilan qo'llanadi: ***Bitmesin diye çok ihtiyatlı kullanıyorum. – Ado bo'lib qolmasin deb juda tejab ishlatdim.***

Murakkab maqsad holi. Murakkab maqsad holi ajralmas sintaktik konstruksiyalar, gapga teng konstruksiyalar, izofali birikmalar bilan ifodalanishi mumkin: *Bir daha yüzünüzü görmemek üzere bu evden gidiyorum. – Boshqa qaytib kelmaslik, yuzingizni ko'rmaslik uchun bu uydan ketayapman.*

Frazeologik birikmalar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar tarkibli maqsad holi qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha shakllarda qo'llanilishi va murakkab maqsad holi bo'lib kelishi mumkin.

Turk tilida buyruq gapga teng olqish tipidagi konstruksiyalar jo'nalish kelishigi ko'rsatkichini olib, murakkab maqsad holi vazifasida kelishi mumkin: *Sen yarın öğleden sonra, bazı arkadaşlarıma Allahaismarladık'a gideceğim diye yengenden izin alırsın. – Sen ertaga peshindan so'ng ba'zi dugonalarim bilan xayrlashib kelay deb yangangdan ruxsat olasan.*

ShART HOLI

Tayanch so'z va iboralar: *shart holi, shart holining tuzilishiga ko'ra turlari, sodda shart holi, tarkibli shart holi, murakkab shart holi.*

Shart holi fe'l bilan ifodalangan bo'lakka bog'lanib, harakatning bajarilish shartini bildiruvchi gap bo'lagidir. Shart holi boshqaruv, bitishuv yo'li bilan hokim bo'lakka ergashadi.

Turk tilida shart holining tuzilishiga ko'ra uch turi mavjud: Sodda shart holi; Tarkibli shart holi; Murakkab shart holi.

Sodda shart holi. Sodda shart holi quyidagicha ifodalanadi:

Sodda shart holi asosan shart maylidagi fe'l bilan ifodalanadi:

Annen **görse** ne derdi Zeyno? – Onang ko'rsa, nima derdi, Zeyno?

-erek, -arak affiksi bilan yasaluvchi ravishdoshning bo'lishli va bo'lishsiz shakllari ham shart holi vazifasini bajarishi mumkin: *Dora, karim beni aldatsa, bilmeyerek bir şey diyemem, bileyerek nasıl tahammül ederim?* – *Dora, xotimim menga xiyonat qilsa, bilmasam bir narsa deya olmayman, bilsam qanday chidayman?*

Tarkibli shart holi. Tarkibli shart holi quyidagicha ifodalanadi:

Turk tilida negizga birikadigan **-sa, -se** affikslari shart maylining qo'shimchasi sanaladi. Masalan: *Kendisi için de aynı hakkı istemese çok iyi olacaktı.* – *O'zi uchun ham aynı huquqni talab qilmasa yaxshi bo'lardi.* Ammo fe'ning biron zamon shakliga qo'shilib, unga shart ma'nosini yuklashga xizmat qiluvchi to'liqsiz fe'ning qisqa shakli – **ise (-sa, -se)** ham gapda shart holi vazifasida kelishi mumkinligini qayd etib o'tish zarur. Turli zamon va mayl shakllariga qo'shilib keladigan ushbu to'liqsiz fe'l o'zbek tilidagi mazmunan yoyiq shakldagi fe'llar – perifrastik fe'llarga monanddir. Biroq misollar tahlili istalgan zamon yoki mayl shakli bilan qo'llangan **-sa, -se** shakllarining shart holi bo'la olmasligini ko'rsatdi. Asosan quyidagi zamon shakllari bilan kelgan to'liqsiz fe'l tarkibli shart holi vazifasida keladi:

• **-r /-maz, -mez** affiksli hozirgi-kelasi zamon fe'li + **ise (-sa, -se)** to'liqsiz fe'li: *İsterse ince, zarif kollarını Hasan'ın boynuna doluyor, saçlarının menekşe kokusu, dudaklarının kokulu harereti ile genç subayı kendinden geçiyordu*(H.E.A.). – *Istasa ingichka, nozik qo'llari bilan Hasanning bo'ynidan quchar, sochlaridagi binafsha isi, lablarining tafti bilan yosh zobitni behud qiladi.*

• **-yor** affiksli hozirgi zamon fe'li + **ise (-sa, -se)** to'liqsiz fe'li: *Sevmiyorsan Hasan'la her gün dolaşma.* – *Sevmasang Hasan bilan har kuni sayr qilma.*

• **-(y)acak, -(y)ecek** shaklli kelasi zamon fe'li + **ise (-sa, -se)** to'liqsiz fe'li: *Onu sevecekse niçin Don Joze 'yi nişanlısından ayırdı, aldı?* – *Uni sevsa nima uchun don Jozeni qaylig'idan ajratib oldi?*

• **-dı, -di, -dÜ, -du, -tı, -ti, -tü, -tu** affiksli o'tgan zamon fe'llari + **ise (-sa, -se)** to'liqsiz fe'li: *Ben seni nasıl sevdimse yine öyle sevmekte devam ediyorum.* – *Men seni qanday sevgan bo'lsam, ana o'shanday seveyapman.*

• **-miş, -miş, -muş, -müştü** affiksli oʻtgan zamon feʼllari + **ise** (**-sa, -se**) toʻliqsiz feʼli: *En garibi bu ihtiyarlarin choʻgu shimdiye kadar en çok neden korkmuşlarsa ona uğramışlardı. – Eng ajablanarlisi, bu qariyalarning koʻpchiligi hozirgacha eng koʻp nimadan qoʻrqqan boʻlishsa, oʻshanga duchor boʻlishgandi.*

Bunday shakldagi shart hollari uyushib kelganda, toʻliqsiz feʼlning qisqa shakli shart hollarining faqat soʻngisi tarkibida boʻlishi mumkin: *Zannediyordum ki Hasanʼin odasina habersiz girer ve onu bulursam esrarini öğreneceğim. – Hasanning xonasiga xabar bermasdan kirsam va koʻrsam, uning sirini bilib olaman, deb oʻylardim.*

ise (-sa, -se) toʻliqsiz feʼllari feʼldan boshqa mustaqil soʻzlarga qoʻshilib kelib, gapda tarkibli shart holi vazifasini bajarib kelishi mumkin. Bunda oʻzbek tilidagi **boʻlsa** ishtirokidagi birikmaga xos maʼno anglashiladi: *Biçare çocukları oyalamak için ne mümkünse yapıyorum*(R.H.K.). – *Bechora bolalarni chalgʻitish uchun nima kerak boʻlsa hammasini qilyapman.*

Shart holi oʻrniga qarab turdosh ot bilan ifodalanadi. Shart holi vazifasida kelgan turdosh ot **ile – bilan** koʻmakchisi bilan qoʻllanadi. Masalan: *Saffet ne tuhaftı görsen, gece on buçuktan fazla oturmamak şartıyla bize buraya gelmeye lütfen izin verdi. – Saffet qanchalik gʻalatiligini bir koʻrsang edi, kechki soat oʻn yarimdan keyin oʻtirmasligimiz sharti bilan kelishga lutfan ruxsat berdi.*

Tarkibli shart holi “yetakchi komponent + koʻmakchi komponent” tipidagi birikuvlar bilan ifodalanadi. Bunda yordamchi komponent vazifasida koʻmakchi, yordamchi feʼllar qoʻllaniladi: *Yalnız kalacak bir arşın yer bulabilsem, hatta mezar olsa sükünla uzanacaktım. – Yolgʻiz qolishim mumkin boʻlgan bir qarich yer topa olsam, hatto qabr boʻlsa ham jimgina choʻzilib olardim.*

Turk tilida oʻzbek tilidan farqli ravishda istak mayli ham ajratiladi. Istak maylidagi feʼllar toʻliqsiz feʼl bilan kelganida, shart maylidagi feʼlga monand maʼno va vazifada ishlatiladi. Yaʼni bunday shakldagi feʼllar gapdan anglashilgan ish, harakatning bajarilish shartini anglatishi mumkin. Tuzilishiga koʻra bu tipdagi shart hollari tarkibli boʻladi: *Adam olaydın da kızım bu hale düşürmemeydin! – Odam boʻlganingda, qizingni bu ahvolga solmas eding.*

Shart holi vazifasida, shuningdek, muayyan soʻz yoki soʻz birikmasi ishtirokida kelgan **takdirde/ taqdirda** soʻzlari vositasida hosil qilingan grammatik shakllar ham qoʻllaniladi: *Hayriye Hanım, kendisine itaat etmek istemediği takdirde çocuklarından herhangi biriyle yaşamaya gidebilirdi. – Xayriya xonim unga itoat qilishni istamasa farzandlaridan istagani bilan yashashi mumkin edi.*

Murakkab shart holi. Murakkab shart holi frazeologik birikmalar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar bilan ifodalanadi: *Biraz darda olmasam ben bu eşegi çoktan almıştım şimd. – Agar biroz qiynalib qolmagan boʻlsam, bu eshakni allaqachon sotib olgan boʻlardim.*

Frazeologik birikmalar, ajralmas sintaktik konstruksiyalar tarkibli shart holi qoʻllanilishi mumkin boʻlgan barcha shakllarda qoʻllanilishi va murakkab shart holi boʻlib kelishi mumkin.

TOʻSIQSIZLIK HOLI

Tayanch soʻz va iboralar: *toʻsiqsizlik holi, toʻsiqsizlik holining tuzilishiga koʻra turlari, sodda toʻsiqsizlik holi, tarkibli toʻsiqsizlik holi, murakkab toʻsiqsizlik holi.*

Harakatning bajarilishigatoʻsiq boʻlgan shartni (lekin harakatning oʻsha shartning boʻlishiga qaramay bajarilganligini) bildiruvchi gap boʻlagiga **toʻsiqsizlik holi** deyiladi. Toʻsiqsizlik holiga ega boʻlgan gap mazmunidan kutilgan (boʻlishi lozim boʻlgan) harakatning yuz bermasligi, kutilmagan harakatning yuz berishi anglashiladi. Yuz berishi lozim boʻlgan harakatning boʻlmasligi, amalga oshmasligi anglashilganda hol tasdiq, kesim inkor formada, yuz berishi lozim boʻlmagan, kutilmagan harakatning amalga oshirilishi anglashilganda hol inkor, kesim tasdiq formada qoʻllaniladi.

Toʻsiqsizlik holi tuzilishiga koʻra uch shaklda boʻladi: 1. Sodda toʻsiqsizlik holi. 2. Tarkibli toʻsiqsizlik holi. 3. Murakkab toʻsiqsizlik holi.

Sodda toʻsiqsizlik holi. Turk tilida maxsus toʻsiqsizlik ravishi sifatida farqlashga asos boʻladigan alohida soʻzlar yoʻq²⁶. Turk

²⁶ Lekin aslida ot yoki sifat turkumiga xos soʻzlardan tashkil topgan **güç bela, zar zor, zoru zoruna (arang, zoʻrgʻa)** turgʻun birikmalari toʻsiqsizlik maʼnosini bildiradi: *Ali kendini güç bela tuttu. – Ali oʻzini arang bosdi.* Mazkur turgʻun birikmalar bilan ifodalangan

tilida sodda to'siqsizlik holi shart maylidagi fe'l bilan ifodalanishi mumkin: *Bu karı koca, bir sene münakaşa etseler bu noktada anlaşılamazdılar*(R.N.G.). – *Bu er-xotin bir yıl bahslashsa ham, bu masalada kelisha olishmasdi.*

Tarkibli to'siqsizlik holi. Muayyan yuklamalar, yordamchi vositalarning "yetakchi komponent + ko'makchi komponent" tipidagi birikuvlar bilan kelib, to'siqsizlik ma'nosini anglatishi natijasida **tarkibli to'siqsizlik holi** hosil bo'ladi. Bunda to'siqsizlik holi "ot, ot xarakteridagi so'z + yordamchi fe'l + **da, de, bile** yuklamasi" "yetakchi fe'l + ko'makchi fe'l + **da, de, bile** yuklamasi" ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin. Asosan birinchi tipining ishlatilishi kuzatiladi: *Hasan'dan beş gün olsa bile ayrılmaktan o kadar mustarip oldum ki, çocuk gibi ağladım.* – *Hasandan besh kunga bo'lsa ham ajralishdan shu qadar ranjidimki, yosh boladek yig'ladim.*

Turk tilida shart maylidagi fe'lning to'siqsizlik holi bo'lib kelishi uchun **da, de, bile** yuklamalari ishtirok etishi lozim. Masalan: *Azize bir tuvalet, mavi şifon örtülerle altın saçları, mavi gözleri, biraz boyası fazla kaçan küçük yüzüyle çok kibar olmasa bile dikkati çekecek derecede güzel görünüyordu*(H.E.A.). – *Aziza libosi, moviy şifon şarfi-yu oltin sochlari, moviy ko'zlari, biroz rangi o'chinqiragan kichik yuzi bilan juda kibar bo'lmasa-da diqqatni jalb etadigan darajada go'zal ko'rinaridi.*

Turk tilidagi to'siqsizlik hollarining asosiy qismi **bile** – **ham** yuklamasi bilan hosil qilinadi: *Düşmesem bile gürültü edeceğim, yaprakları hıştırtacağım diye korkuyorum.* – *Yiqilib tushmaganimda ham, sharpa qilaman, yaproqlarni shitirlatib yuboraman, deb qo'rqar edim.*

O'zbek tilidagi muqobili – **ham** yuklamasidan farqli ravishda **bile** yuklamasi o'zi bog'langan fe'ldan oldin kelishi va gapdan anglashilgan ish-harakatning bajarilishiga yoki bajarilmasligiga mone'lik qiladigan harakat ma'nosini bildirishda yordam berishi mumkin: *Fakat ben baba bile desem az bulurum.* – *Faqat men uni ota deb chaqirsam ham kam.* Shuningdek, **bile** yuklamasining qo'shma fe'l bilan ifodalangan to'siqsizlik holi tarkibidagi yetakchi va ko'makchi

fe'l o'rtasida qo'llangan ko'rinishlarini ham uchratish mumkin: *Senin merhametli olmadigini, insnlara acı verecek kadar doğru ve dik olduğunu bildiğim için beni öldürücek bile olsa, hakikati söyleyeceğine inanıyorum.* – *Senin marhamat qilmasligingni, insonlarga achchiq bo'lsa ham haqiqatni aytishingni bilganligim uchun, meni o'ldirsa ham to'g'risini aytishingga ishonaman.*

da, de yuklamalari shart maylidagi fe'l bilan qo'llanilib, gapda to'siqsizlik holi bo'lib kelishi mumkin: *Beni çığneyip geçseniz de, evlenseniz de ne olsa daima benden kaçacak kadar bemi isteyeceksiniz.* – *Meni yanchib o'tsangiz ham, turmushga chiqsangiz ham, nima bo'lgandayam, doimo mendan qochadigan darajada meni istaysiz. da, de yuklamalari bile so'zi singari o'zi bog'langan so'zdan avval kelishi mumkin: Kamran düşmanım da olsa küzenim.* – *Komron dushmanım bo'lganda ham, har holda bo'lam.*

Turk tilidagi **da, de** yordamchi so'zlari shart maylidagi fe'ldan tashqari hozirgi zamon fe'li yoki hozirgi-kelasi zamon fe'lidan so'ng kelib, to'siqsizlik holi vazifasini bajarish imkoniga ega. Bunda ayni fe'l shakli o'zbek tilidagi ravishdosh vositasida ifodalanadigan to'siqsizlik ma'nosiga xos ma'noni anglatadi: *Sen her gün geçiyor da niçin uğramiyorsun? – Sen har kuni bu yerdan o'ta turib, nega kirmaysan?*

To'siqsizlik holi **da, de** yuklamalari va **-(y)ip, -(y)ip, -(y)up, -(y)üp** affikslari yordamida yasaluvchi ravishdoshlar ishtirokidan yuzaga keladigan so'z shakli bilan ifodalanishi mumkin: *Tuhaf, ben de vaktiyle birine anlatmak isteyip de anlatamadığım bir hikayeyi söylemek istiyorum.* – *G'alati, men ham o'z vaqtida biriga tushuntirishni istab ham anglatolmagan bu hikoyamni so'zlab berishni istayman.*

Turk tilida sifatdosh va muayyan so'zning birikishidan hosil bo'ladigan grammatik shakl to'siqsizlik ma'nosini tashiydi. Ya'ni **“-dik** affiksli sifatdosh + egalik affiksi + **halde**” so'zi” shaklidagi fe'l ham gapda ifodalangan voqeaning yuz berishiga mone'lik qiladigan harakat tushunchasini tashiydi: *Fakat ara sıra münasebetsizliğimi hissederek durmak istediğim halde bir türlü kendimi tutamıyordum.* – *Noo 'rin ish qilayotganimni sezib, tilimni shuncha tiyishga urinsam ham, hech epini qilolmay so'zlar edim.*

Murakkab to'siqsizlik holi. Murakkab to'siqsizlik holi quyidagicha ifodalanadi:

Shart holining buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanadi: *Fakat yeniden Ayastefanos hayotining ateşini hatırlamış, basit bakışla olsun bana temas etmekten kendini alamamış. – Faqat yana o'sha Ayastefanosda kechirgan hayotining otashli onlarini xotirlagan, oddiy nigoh bilan bo'lsa-da menga teginishdan o'zini tutolmagan.*

To'siqsizlik holi turli o'ramlar (oborotlar) bilan ham ifodalanishi mumkin. *Rağmen (qaramay, qaramasdan) ko'makchisining jo'nalish kelishigidagi so'z bilan qo'llanilishidan hosil bo'ladigan birikuv to'siqsizlik holi vazifasini bajaradi: Her şeye rağmen Saffet Beyle birbirinizi sevmediğimize eminim. – Hech narsaga qaramasdan Saffetbey bilan bir-biringizni sevmaganligingizga ishonchim komil.*

Shuningdek, turk tilida "harakat nomi + ile/ bilan ko'makchisi + beraber /baravar, birgalikda so'zi" ko'rinishidagi birikmalar gapdan anglashilgan voqea-hodisaning ro'y berishiga mone'lik qiladigan vaziyat, holat, narsa ma'nosini bildiradi: *Pek dikkatli olmamakla beraber oğlunu çok meyvus ve şaşkın görüyordu. – U unchalik e'tibor bermagan bo'lsa ham, o'g'lining juda g'amgin va ma'yusligini sezayotgan edi.*

Murakkabto'siqsizlik hollari ajralmassintaktikkonstruksiyalarga aylangan birikmalar, frazeologik birikmalar bilan ifodalanadi: *Ben galip gelsem de çayı pişiririm, azıcık kürekleri yavaşlatınız. – Men g'olib chiqsam ham choyni tayyorlayman, biroz eshkaklaringizni sekinlating.*

MIQDOR-DARAJA HOLI

Tayanch so'z va iboralar: *miqdor-daraja holi, miqdor-daraja holining tuzilishiga ko'ra turlari, sodda miqdor-daraja holi, tarkibli miqdor-daraja holi, murakkab miqdor-daraja holi.*

Harakatning bajarilishini miqdor-daraja jihatidan xarakterlaydigan, harakatning takrorlanishi, uzoq davom etishi yoki aksi, bajarilish darajasi va shu kabilarni bildiradigan gap bo'laklariga *miqdor-daraja holi* deyiladi. *Miqdor-daraja hollari kaç defa? – necha marta?, kaçınıcı? – nechanchi?, kaçınıcı defa? – nechanchi marta?, kaç? – qancha?, ne kadar? – qay darajada? so'roqlariga javob beradi.*

Mazkur soʻroq soʻzlari feʻlga beriladi. Masalan: *Seni ömrüm boyunca (ne kadar?) bekledim – Seni umr boʻyi kutdim. Size ikinci defa (kaçıncı defa?) tekrar ediyorum – Sizga ikkinchi marta takrorlayapman. Dikkati çekecek kadar (ne kadar?) güzelleşmişsiniz – Eʻtiborni tortadigan darajada goʻzallashibsiz.*

Turk tilidagi miqdor-daraja holining tuzilishiga koʻra uch turi mavjud: 1.Sodda miqdor-daraja holi. 2.Tarkibli miqdor-daraja holi. 3.Murakkab miqdor-daraja holi.

Sodda miqdor-daraja holi. Sodda miqdor-daraja hollari sodda miqdor-daraja ravishlari bilan ifodalanadi: *Çok düşün, az konuş*(Atasözü). – *Koʻp oʻyla, oz soʻzla*(Maqol). Shuningdek, sodda sonlar ham feʻlga bogʻlanib kelib, undan anglashilgan ish-harakatning bajarilish miqdorini bildiradi: *Bin ölç, bir kes*(Atasözü). – *Yetti oʻlchab, bir kes*(Maqol).

Turk tilida **-ce, -ca** affiksi bilan yasalgan ravishlar harakat-holatning bajarilish miqdorini bildiradi va gapda sodda miqdor-daraja holi vazifasini bajaradi: *Dede senelerce çalışmış, çabalamış, servinin iki yanına iki odalı bir kule yaptırmıştı. – Buva yıllar davomida ishlagan, ter toʻkkan, sarv daraxtining ikki yoniga ikki xonali qoʻrgʻon qurdirgan edi.*

Juft yoki takroriy sonlar ham feʻldan anglashilgan ish-harakatning bajarilish miqdorini bildirishi mumkin. Juft yoki takroriy sonlar bilan ifodalangan miqdor-daraja hollari tuzilishiga koʻra sodda hisoblanadi: *Saçlarım birer birer ağarıncaya kadar başkalarının çocuklarına, onların saadetlerine vakfetmek artık beni korkutmuyor. – Sochim tolama-tola (bitta-bitta) oqarganga qadar oʻzimni boshqalarning bolalariga, ularning baxtlari yoʻliga tikishdan endi qoʻrqmayman.*

Tarkibli miqdor-daraja holi. Tarkibli miqdor-daraja holi yetakchi hamda yordamchi komponentlardan tashkil topadi. Yetakchi komponentlardan faqatgina **“kadar”** koʻmakchisi yakka holda yoki **“-(y)a/ -(y)e kadar”** qolipida yoki boshqa shaklda guruhlashib, tarkibli miqdor-daraja holi vazifasini bajarishi mumkin: *Esmer yüzü karanlıkta belli olacak kadar kızarmıştı. – Qoracha yuzi qorongʻulikda seziladigan darajada qizargan edi.*

Turk tilidagi **kadar / qadar** soʻzi oʻzbek tilidagi **-cha** affiksiga yoki **davomida, mobaynida, ichida** soʻzlariga mutanosib maʼnoda ishlatiladi. Mazkur koʻmakchi miqdor-daraja maʼnosini bildiruvchi soʻz yoki birikmalar bilan ifodalanganida, bu gap boʻlagi ergashgan feʼldan anglashilgan harakat-holatning taxminiy bajarilish darajasi maʼnosini bildiradi: *Annem iki haftaya kadar İstanbul'a gelecekmış. – Onam ikki hafta ichida Istanbulga kelarmish.* Shu bilan birga turk tilida **içinde** soʻzi ayni vazifada qoʻllaniladi: *Rıza Bey ailesi iki gün içinde yeni komşularla canciğer ahbap oldu. – Rizobey oilasi ikki kun ichida yangi qoʻshnilari bilan qarindosh-urugʻlardek yaqin boʻlib ketdi.*

Murakkab miqdor-daraja holi. Murakkab miqdor-daraja hollari son va vaqt, payt tushunchasini bildiruvchi soʻzlardan iborat boʻlgan soʻz birikmalari bilan ifodalanishi mumkin. Bunda miqdor-daraja hollari oʻzi ergashgan soʻzdan anglashilgan voqea-hodisaning bildirilgan muddat mobaynida roʻy berganligini anglatadi: *Bir dakika sizinle görüşmek istiyorum. – Siz bilan bir daқиқа gaplashib olmoqchi edim.*

Murakkab miqdor-daraja hollari frazeologik birikmalar bilan ifodalanishi mumkin: *Göz açıp kapayıncaya kadar geçer. – Koʻz ochib yunguncha oʻtib ketadi.* Ajralmas sintaktik konstruksiyaga aylangan birikmalar murakkab miqdor-daraja holi vazifasini bajarishi mumkin: *Gökyüzünün senede dokuz ay geceli gündüzlü mezarıma döktüğü yaseminlere sen de birkaç beyaz çiçek ilave edersin. – Falakning yilda toʻqqiz oy kecha-yu kunduz qabrimga toʻkkan yasminlariga sen ham bir nechta gul qoʻshasan.*

Miqdor-daraja holi son hamda hisob soʻzlari birikivi bilan ifodalanishi mumkin. Bunda **defa, kez, kerre** soʻzlari ishtirok etishi mumkin: *Şimdiye kadar bir defa bile mahkeme ile vaz geçtikleri olmamış. – Hozirgacha bir marotaba ham mahkama bilan voz kechgan hollari boʻlmagan.*

Miqdor-daraja hollari “miqdor-daraja ravishi + ot” shaklidagi birikmalar bilan ifodalanishi mumkin: *Çok zaman kan içinde başımın ay yıldızlı başlığı altında yanık ve kavi yüzü bir tablo gibi duruyor. – Oy-yulduz tangʻali bosh kiyimi ostidagi alaqanday nur taratayotgan qonga belangan yuzi uzoq payt bir portretga oʻxshab turdi.*

2.3.4.GAP BO‘LAKLARI TARTIBI

Mavzuning o‘quv maqsadi: turk tilidagi bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni gapga tartib berishda jolashish o‘rni haqida bilim hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: *gap bo‘laklari tartibi, gap bo‘laklarining odatiy tartibi, gap bo‘laklarining noodatiy tartibi (inversiya).*

Gapni tashkil etuvchi asoslari – bo‘laklari tartibi uning nutqda joylashishini ko‘rsatuvchi sintaktik hodisadir. Turk tilida gap bo‘laklarining joylashish o‘rni erkin bo‘lsa-da, ayrimlari gapning turli o‘rinlarida, ba‘zilari faqat muayyan o‘rinlarda keladi. Umuman, shu asosda so‘zlarning to‘g‘ri (odatiy) va teskari (noodatiy) tartibi farq qilinadi. Gap bo‘laklarining noodatiy tartibi – inversiya hodisasini yuzaga keltiradi. Gap bo‘laklarining odatiy va noodatiy tartibi turk tilida to‘g‘ri va ters gap turlarini vujudga keltiradi. Turk tilida **to‘g‘ri gap** deyilganda hukm unsuri – kesimning gap oxirida kelishi tushuniladi. To‘g‘ri gapning ziddi **ters gap** kesimi gap oxiridan oldinga ko‘chirilgan gapdir. Ters gap to‘g‘ri gap singari xabar, istak bildirish turi bo‘lib, o‘ziga xos tartibga va qonun-qoidaga ega. Turk tilidagi til materiallarini to‘plash va tahlil qilish mobaynida inversiyaga uchragan gap qofiyali, vaznli nutqdagina emas, bayoniy tipdagi matnlarda ham keng yoyilganligini ko‘rsatdi. Inversiyali gaplar maqol, matallarga ham xos: *Inanma dostuna saman doladurur postuna. – Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga.*

Turk tilida gap bo‘laklarining odatdagi tartibi quyidagichadir:

“ANIQLOVCHI + EGA + TO‘LDIRUVCHI + HOL + KESIM”

Turk tilida odatda ega gapning boshida, kesim gapning oxirida keladi: *Ben evleniyorum. – Men uylanayapman.* Bunda egaga tobe so‘zlar egadan oldin, kesimga taalluqli so‘zlar kesimdan avval turadi. Ega va kesimning o‘rin almashinib ishlatilishi, ya‘ni bosh bo‘laklarning inversiyasi keng qo‘llanadi. Masalan: *Pek de gercek olmayacak hülya değil bu...– Juda ham haqiqatga o‘xshamaydigan xayol emas bu...*

To‘ldiruvchi fe‘lga bog‘lanib kelib, undan anglashilgan harakat-holat bevosita yoki bivosita o‘tgan predmet tushunchasini bildiradi. To‘ldiruvchi odatda to‘ldirilmishdan avval keladi. Turk tilida to‘ldiruvchining inversiyasi faol qo‘llaniladi. To‘ldiruvchi va

to'ldirilmishning o'rin almashishi to'ldirilmish kesim vazifasini bajarganda ro'y beradi: *Birbirimiz için, birbirimizin olmak için ölüyoruz. İstiyoruz birbirimizi!* – *Bir-birimiz uchun, bir-birimizniki bo'lish uchun o'lyapmiz. Istayapmiz bi-birimizni!*

Ma'lumki, vositasiz to'ldiruvchi odatdagi tartibli gapda belgili va belgisiz qo'llanishi mumkin. Ya'ni tushum kelishigining qo'shimchasi tushirib qoldirilishi mumkin. To'ldiruvchi va to'ldirilmishning inversiyasi ro'y bergan gaplarda vositasiz to'ldiruvchi doim belgili ishlatiladi: *Garip, ne izlemeler, ne öldürmek istemeleri korkutuyor artık beni.* – *G'alati, endi na ta'qiblar, na sui'qasd orzusi qo'rqityapti meni.* To'ldirilmish va to'ldiruvchining joylashuv o'rnining o'zgarishi ko'pincha buyruq gaplarda ro'y beradi: *Öyleyse, bırak o kadını.* – *Unday bo'lsa, tashla u xotinni.*

Vositali to'ldiruvchi ham aslida to'ldirilmishdan ilgari keladi: *Kendi gözlerimle şahit olduğum olaylardan bahsediyorum.* – *Men o'z ko'zim bilan ko'rgan narsalarim haqida gapiryapman.* Vositali to'ldiruvchining to'ldirilmishdan keyin kelish hollari ko'p uchraydi: *Bir iş istiyorum senden.* – *Sendan bir ishni iltimos qilyapman.*

Hol harakat-holatning belgisi, bajarilish o'rni, vaqti, sababi, maqsadi, miqdor-darajasi kabi ma'nolarni ifodalaydi va hollanmishdan avval keladi: *Senin üstelik hem tavrın, hem sözün birden değişiverdi.* – *Ustiga-ustak, sening xatti-harakating, gap-so'zing birdaniga o'zgarib ketdi.* Bir hollanmishga bog'liq bir nechta hol quyidagicha joylashadi.

Tarz holi va miqdor-daraja hollari hollanmishga yaqin joylashadi. Payt va o'rin hollari hollanmishdan avval, gap boshida keladi: *Gece yarısı asfaltı iki buklüm, yarım saat kadar aradılar.* – *Tun yarmidan oqqanda asfalt yo'lning ustida ikki bukchayganча yarim soatcha qidirishdi.* Bu gapda iki buklüm – bukchayganча tarz holi, yarim saat kadar – yarim soatcha miqdor-daraja holi, gece yarısı – tun yarmidan oqqanda payt holidir. Turk tilida hol hamda hollanmishning inversiyasi hollanmish gapda kesim vazifasini bajarganda yuzaga keladi: *Gelmeseymiş keşke, düşmeşeymiş bu kuyuya.* – *Koshki kelmasa edi, tushmasa edi bu quduqqa.* Birinchi navbatda o'rin holining hollanmishdan keyin kelishi ko'p uchraydi. Keyingi o'rinda tarz holining inversiyasi turadi: *Claudia da gönlümü çaldı işvesiyle.*

– *Klavdiya ham ko'nglimni ishvasi bilan o'g'irladi.* Holning boshqa ma'no turlari inversiyasi bu tiplarga qaraganda kam ishlatiladi.

Aniqllovchi va aniqlanmishning odatdagi tartibi “aniqllovchi + aniqlanmish” shaklida bo'ladi: *Fesatçı komşular kabahatı bana bulurlar.* – *G'iybatchi qo'shnilar aybri mendan ko'rishadi.* Bu tartib sifatlovchi va sifatlanmish uchun qat'iy bo'lib, qaratuvchi va qaralmishda, ba'zan izohlovchi va izohlanmishda o'zgarishi mumkin. Umuman, aniqllovchi va aniqlanmishning o'rin almashuvi hodisasi boshqa gap bo'laklariga nisbatan ancha kam qo'llaniladi: *Bir büyük tesellileri vardır onların.* – *Ularning ko'nglini yupatadigan tasallilari bor.* Sifatlovchi va sifatlanmishning inversiyasi asosan she'riy nutqda yuzaga keladi.

Gap bo'laklarining noodatiy tartibi asosan poetik nutqqa xos bo'ladi: *Pür ateşim açtırma benim ağzımı zinhar, Zalim beni söyletme, derunumda nelar var.* – *Bag'rim o'ti, ochtirma mening og'zimni zinhor, Zolim, meni so'ylatmaki, qalbimda nelar bor?*

Adabiy tilda nutqning ta'sirchanligini, emotsionalligini oshirish uchun gap bo'laklarining o'rni almashishi mumkin. Bu ko'proq buyruq va undov gaplarga xos. Biroq turk tilida inversiya fikr ifodalashning o'ziga xos, spesifik shakliga aylangan. Bu tur gapning ahamiyati gapdan anglashilgan ma'noni kuchaytirish, talaffuziga alohidalik berishdadir: *Çalikuşu, haydi yat artık*(R.N.G.). – *Choliquşu, yot endi*(R.N.G.).

Turk tilidagi inversiyali gaplarning qo'llanishi o'zbek tilidagidan nisbatan ancha keng yoyilgan. Masalan, turk tilida tartibi o'zgargan gaplar publisistik uslubdagi matnlarda ham ishlatiladi: *Selme Ekrem ise 7 Haziran 1986'da dünyadan ayrılmıştır artık.* – *Selme Ekrem esa 1986 yilning 7 iyunida dunyodan o'tgan.*

Nazorat uchun savollar

1. Hol nima, uning o'ziga xos xususiyatlari nimatardan iborat?
2. Turk tilidagi hol va vositali to'ldiruvchini bir-biridan qanday ajratish mumkin?
3. Hollarning turlari haqida umumiy ma'lumot bering.
4. Holat holi va uning ifodalanish usullarini misollar bilan izohlang.

5. Payt holining ifoda usullari, materiallarini tavsiflang.
6. Sabab holi va uning ifodalanish usullarini tushuntirib bering.
7. Miqdor-daraja holining ifodalanish usullarini misollar bilan izohlang.
8. To‘siqsizlik holi va uning ifoda materiallari haqida ma’lumot bering.
9. Shart holi va uning ifoda usullarini tavsiflang.
10. Maqsad holining ifodalanish usullarini misollar bilan izohlang.
11. O‘rin holi va uning ifoda usullarini tavsiflang.
12. Turk tilidagi hollarning tuzilishiga ko‘ra turlarini misollar bilan izohlang.
13. Tarkibli hol va uning ifodalanish usullarini tavsiflang..
14. Murakkab hol turlariga misollar keltiring.

2.4.GAP. GAP TURLARI

Mavzuning o‘quv maqsadi: turk tilidagi gap (cümle), gapning asosiy belgilari haqida ma’lumot berish, gapning tuzilishiga ko‘ra turlari, gapning emotsionallikka ko‘ra turlari, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gapning modallikka ko‘ra turlar, gap bo‘laklari ishtirokiga ko‘ra gap turlari haqida tushuncha hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: *gap (cümle), gapning asosiy belgilari (cümledenin özellikleri), modallik, predikativlik, hukm, gap tasnifi, gapning tuzilishiga ko‘ra turlari, gapning emotsionallikka ko‘ra turlari, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gapning modallikka ko‘ra turlar, gap bo‘laklari ishtirokiga ko‘ra gap turlari.*

Fikr ifodalash, munosabat bildirishning asosiy vositasi gap hisoblanadi. Gap nisbiy hukm bildiradi. Gapning asosiy belgilari – unda nisbiy fikr tugalligi va predikativlikning mavjud bo‘lishi. grammatik jihatdan ma’lum qonun va qoidalar asosida shakllanishi. tashqi tomondan o‘ziga xos tugallangan ohangga ega bo‘lishi shart. Har bir gapda ma’lum fikr maqsad yoki his-hayajon ifodalanadi, aks holda u so‘z birikmasi bo‘lib qoladi. Bu maqsad yoki his-hayajon soddaxoxud qo‘shma shaklda ifodalanishi ham mumkin.

Gapning asosiy belgilaridan yana biri predikativlikdir. Predikativlik – gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalashdir. Gap orqali soʻzlovchi biror voqea, hodisa yoki xususiyatning mavjudligi yoki biror zamonda roʻy berishi, realligi yoki norealligi, xohishi yoki noroziligi kabi munosabatni ham ifodalaydi. Bu munosabat, yaʼni predikativlik modallik va zamon, shaxs kategoriyalari orqali roʻyobga chiqadi. Bu kategoriyalar turli morfologik, sintaktik, intonasion va boshqa yoʻllar bilan ifodalanadi.

Turk tilidagi gaplarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Gapning tuzilishiga koʻra turlari: 1. Sodda gap. 2. Qoʻshma gap.

2. Gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari:

1. Darak gaplar;
2. Soʻroq gaplar;
3. Buyruq gaplar.

3. Gapning emotsionallikka koʻra turlari:

1. His-hayajonli gaplar;
2. His-hayajonsiz gaplar.

4. Gapning modallikka koʻra turlari:

1. Tasdiq gaplar;
2. Inkori gaplar.

5. Gapning gap boʻlaklari ishtirokiga koʻra turlari:

5.1. Gapning bosh boʻlaklari ishtirokiga koʻra turlari:

1. Bir bosh boʻlakli gaplar;
2. Ikki bosh boʻlakli gaplar.

5.2. Gapning ikkinchi darajali boʻlaklari ishtirokiga koʻra turlari:

1. Yigʻiq gap;
2. Yoyiq gap.

5.3. Gapning zarur gap boʻlaklari ishtirokiga koʻra turlari:

1. Toʻliq gap;
2. Toʻliqsiz gap.

5.4. Gapning gap boʻlaklari tartibiga koʻra turlari:

1. Toʻgʻri gap;
2. Ters gap.

2.4.1. GAPNING TUZILISHIGA KO'RA TURLARI

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi gapning tuzilishiga ko'ra turlari haqida ma'lumot berish.

Gaplar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. Sodda gap. 2. Qo'shma gap.

SODDA GAP

Sodda gap bir hukmni, bir tushunchani, bir fikrni bildiradi.

Masalan: *Bugün araba ile Üsküdar'dan dönüyordum. – Bugün araba bilan Uskudordan qaytayotgan edim.*

Mazkur gap orqali so'zlovchi yangi bir ma'lumotni xabar qilmoqda. Sodda gap bir so'zdan, bir so'z birikmasidan yoki predikativ munosabatga kirishgan birlikdan tashkil topadi. Bir so'zdan iborat gaplarga misollar: *Bahar. Gece. Karanlık. – Bahor. Tun. Qorong'ulik.*

So'z birikmasidan iborat gaplarga misollar: *Sonbahar akşamı. Kimsesiz sokaklar. – Kuz oqshomi. Kimsasiz ko'chalar.*

So'z yoki so'z birikmasidan iborat gaplar tugal ohangga ega bo'ladi. So'z yoki so'z birikmalari tugal ohang bilan talaffuz qilinsagina, gapga aylanadi. Qiyoslang: *köşe başındaki ev – Köşe başındaki ev. – Ko'cha boshidagi uy.*

Bir so'zning turli ohang bilan talaffuz qilinishi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turli turlarini shakllantirishi mumkin. Masalan:

Hayret! – his-hayajonli gap (his-hayajon ohangi)

Defol! – buyruq gap (buyruq ohangi)

Sen? – so'roq gap (so'roq ohangi)

Gap predikativ munosabatga kirishgan birlik bilan ifodalanishi mumkin. Predikativ munosabat ega va kesimning moslashishi orqali ro'yobga chiqadi. Ega va kesimning moslashishi shaxs-son ko'rsatkichlari vositasida ro'y beradi. Masalan: *1. Ben insanım. – Men insonman. 2. Sen nereye gidiyorsun? – Sen qayerga ketyapsan? 3. Onlar buraya gelmeliydiler. – Ular bu yerga kelishlari kerak edi.*

Birinchi misolda ega va kesim **ben – men** kishilik olmosh va **-ım** shaxs-son qo'shimchasi vositasida moslashgan. Ikkinchi misolda **sen – sen** egasi **-sun** shaxs-son ko'rsatkichi orqali kesim bilan moslashgan. Uchunchi misolda **onlar – ular** olmoshi bilan

ifodalangan ega **-ler** qo‘shimchasi orqali kesim bilan moslashgan²⁷.

Har bir gap biron-bir narsa, hodisa, harakat, belgining mavjudligi tasdig‘i yoki inkorini bildirishi mumkin. Yuqorida keltirilgan misollarning barchasi tasdiq ma‘nosini anglatadi. Inkor ma‘nosi inkor ko‘rsatkichlar (bo‘lishsizlik elementlari) ishtirokida yuzaga chiqadi²⁸. Masalan, quyidagi misollarda bo‘lishsizlik, inkor ma‘nolari ifodalangan:

*Ama sakın **unutma**.* – Ammo tag‘in unutmagin.

*Vücutunda hiçbir ağırlık ve ağrı **hissetmezdi**.* – Vujudida hech qanday og‘irlik va og‘riq sezmayotgan edi.

Sodda gapning bu belgisi “modallik” tushunchasi bilan ifodalanadi. Demak, sodda gapning shakllanishida to‘rtta asosiy belgi bor – mazmun tugalligi, ohang tugalligi, predikativlik, modallik.

QO‘SHMA GAP

Ikki va undan ortiq sodda gapning birikishidan hosil qilingan gaplarga **qo‘shma gap** deyiladi.

Masalan: *Fakat, bana ettiğiniz fenalık, sade bundan ibaret kalmıyor: yalan söylemek, başkalarına fenalık etmek kabiliyetini benden çekip kopararak ahlakımı da bozuyorsunuz!* – *Faqat menga qilgan yomonligingiz bundangina iborat bo‘lib qolmayapti, yolg‘on gapirish, boshqalarga yomonlik qilish qobiliyatini mendan tortib olib axloqimni ham buzyapsiz!*

Ayni paytda qo‘shma gaplarni murakkablashgan sodda gaplardan farqlay bilish zarur.

Qo‘shma gaplarda ikki va undan ortiq alohida hukm, alohida habar ma‘nosi anglashiladi. Masalan: *Buna rağmen o. on dört günden beri bu odada yatıyor; ne vakit çıkacağını, nereye gideceğini kimse bilmiyor.* – *Bunga qaramay u o‘n to‘rt kundan beri bu xonada yotibdi, qachon chiqishini, qayerga ketishini hech kim bilmaydi.*

Birinchi gapning grammatik asosi – *o yatıyor* – *u yotibdi*, ikkinchi gapning grammatik asosi – *kimse bilmiyor* – *hech kim*

²⁷ Ega va kesimning moslashishida ishtirok etadigan vositalar darslikning II bo‘limidagi “Ega – kesimning moslashuvi” qismida berilgan.

²⁸ Bu vositalar haqida mazkur bo‘limning “Gapning modallikka ko‘ra turlari” faslida batafsil to‘xtalamiz.

bilmaydi. Demak, bu gapda ikkita xabar, ikkita hukm ma'nosi mavjud. Murakkablashgan sodda gaplarda, misol uchun, uyushiq bo'lakli gaplarda bir eganing bir necha harakati aks etadi yoki bir necha shaxsning bir necha harakati ifodalanadi²⁹.

Masalan, quyidagi gapda so'zlovchining ikki harakati ifodalangan bo'lib, bu gap **murakkablashgan sodda gapdir**: *Artik sizi kaybetmiş, hatta unutmuştum. – Endi sizni yo'qotgan, hattoki unutgan edim.*

Qo'shma gaplar ikki gapdan iborat bo'lganida tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ikkita predikativ munosabat asosida shakllangan sodda gap qo'shma gapni shakllantirishi mumkin: *Bir masada yemek yiyor, el ele tutuşup kirlarda geziyorsunuz ki* (1-sodda gap) *işte bunu aklıma sığdıramıyorum* (2-sodda gap). – *Bir stolda ovqatlanayapsiz, qo'lmaqo'l qirlarda kezyapsizki, mana shuni hech aqlimga sig'dira olmayapman.* Birinchi gapning egasi *siz – siz* so'zi bo'lib, yashiringan, kesimi – *geziyorsunuz – kezyapsiz*, ikkinchi gapning egasi *ben – men* so'zi bo'lib, u ham yashiringan, kesimi – *aklıma sığdıramıyorum – hech aqlimga sig'dira olmayapman.*

- qo'shma gap bir so'zdan iborat sodda gap va predikativ munosabat asosida shakllangan sodda gapdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, quyidagigi qo'shma gap³⁰ qo'shma fe'l bilan ifodalangan sodda gap va sodda gapdan tuzilgan: *İtiraf ederim ki* (1-sodda gap), *hayalimde sizi büsbütün kaybettığım dakikalar da var* (2-sodda gap).

- qo'shma gap "so'z birikmasidan iborat sodda gap + predikativ munosabat asosida shakllangan sodda gap" yoki "predikativ munosabat asosida shakllangan sodda gap + so'z birikmasidan iborat sodda gap" tuzilishiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, quyigadi qo'shma gap predikativ munosabat asosida shakllantirilgan sodda gap va so'z birikmasidan iboratdir: *Hayalimin artık siyah bir geceden ibaret kalan semasında tek bir yıldız kaliyordu* (sodda gap); *sizin*

²⁹ Murakkablashgan sodda gaplar xususida Y bo'limda to'liq ma'lumot berilgan.

³⁰ Qo'shma fe'llar gapda bir suntaktik vazifani bajarganligi sababli bir bo'lakka, bir komponentga teng hisoblanadi.

güzelliğiniz, sizin her felakete karşı duran nezih ve yüksek feragatiniz Perihan Hanimefendi(soʻz birikmasidan iborat sodda gap).

Qoʻshma gaplar ikki va undan ortiq sodda gapdan tashkil topishi mumkinligi yuqorida qayd etildi. Uch sodda gapdan iborat qoʻshma gapga misol keltiramiz: *Büyük bir felakete uğramış, sevmediğiniz bir adamla evlenmişsiniz; fakat felaketiniz bu kadarla kalmamıştı, kocanız, sizi aldatıyor, servetinizi avuç avuç etrafa dağıtıyor, isminizi adi kokotların ağzına bir eğlence sermayesi yapıyordu. – Büyük falokatga uchragan, sevmagan odamingizga turmushga chiqqandingiz, ammo falokatingiz bu bilan cheklanib qolmagandi, eringiz sizni aldar, boyligingizni hovuch-hovuch sarflar, ismingizni oddiy koʻcha ayollarining oʻrtasida masxara bilan tilga olinishiga sabab boʻlayotgan edi. Mazkur qoʻshma gap uch gapdan iborat.*

1. *Büyük bir felakete uğramış, sevmediğiniz bir adamla evlenmişsiniz. – Büyük falokatga uchragan, sevmagan odamingizga turmushga chiqqandingiz.*

2. *Fakat felaketiniz bu kadarla kalmamıştı. – Ammo falokatingiz bu bilan cheklanib qolmagan edi.*

3. *Kocanız, sizi aldatıyor, servetinizi avuç avuç etrafa dağıtıyor, isminizi adi kokotların ağzına bir eğlence sermayesi yapıyordu. – Eringiz sizni aldar, boyligingizni hovuch-hovuch sarflar, ismingizni oddiy koʻcha ayollarining oʻrtasida masxara bilan tilga olinishiga sabab boʻlayotgan edi.*

Birinchi va ikkinchi sodda gap oʻzaro **fakat – ammo** bogʻlovchisi bilan boʻgʻzlangan. Uchinchi gap uyushiq boʻlakli murakkablashgan sodda gap boʻlib, bu gap ikkinchi gapga ohang yordamida birikkan.

Qoʻshma gaplarning hosil boʻlish usullari

Qoʻshma gaplar quyidagicha shakllantiriladi:

1. Ikki va undan ortiq sodda gapning oʻzaro ohang orqali bogʻlanishidan qoʻshma gaplar hosil qilinadi. Bunda tenglashtirish, zidlash, izohlash, qiyoslash kabi maʼnolar ifodalanadi. Ohang yordamida yasalgan qoʻshma gaplar oʻzaro vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta kabi tinish belgilar orqali bogʻlanadi. Masalan: *Yaşlı adam emretti(1-sodda gap), köleyi denize attılar(2-sodda gap). – Qariya amr etti, qulni dengizga otdilar. (izohlash maʼnosi). Kendime güvenimi*

yitirmek üzereydin(1-sodda gap), siz *çika* geldiniz(2-sodda gap). – O'z-o'zimga bo'lgan ishonchni yo'qotish arafasida turgandim, siz kelib qoldingiz. (vaqt ma'nosi)

2. Ikki va undan ortiq sodda gaplar o'zaro ma'lum bir bog'lovchilar vositasida birikishi mumkin. Bog'lovchi vazifasida **ve, fakat, ama, lakin, ki, bu yuzden** so'zlari qo'llanishi mumkin.

Masalan, **ve – va** bog'lovchisi yordamida shakllangan qo'shma gap: *Dükkanda yig'inla müşteri vardı(1-sodda gap) ve kız hepsine tek başına koşuşturuyordu(2-sodda gap).* – *Do 'konda bir dunyo mushtariy bor edi va qiz hamma bilan bir o'zi gaplashayotgan edi.*

Ama – ammo bog'lovchisi orqali shakllangan qo'shma gap: *Avutmak için çok uğraştılar(1-sodda gap), ama o bir türlü sakinleşmedi(2-sodda gap).* – *Ovutish uchun ko'p harakat qildilar, ammo u hech sokinlashmadi.*

Quyidagi gap **ki** bog'lovchisi orqali birikkan qo'shma gapdir: *Tam vezir de toparlanıyordur ki padişah yolunu keser.* – *Ayni vazir ham narsalarini to'playotgan ediki, podshoh uni to'xtatibdi.*

3. Ikki va undan ortiq sodda gaplar ma'lum bir grammatik shakllar vositasida bog'lanishi va qo'shma gaplarni shakllantirishi mumkin.

Masalan, ma'lum bir fe'l shakllari (masalan, shart mayli, istak mayli, fe'ning ravishdosh, sifatdosh shakllari) ikki va undan ortiq sodda gapni biriktirib, qo'shma gapni hosil qiladi. Masalan, quyidagi qo'shma gapning tarkibidagi sodda gap hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi va **-ken** vositasida birikkan: *Yıllar önce hastanede çalışırken(1-sodda gap), ağır hasta bir kız getirdiler (2-sodda gap).*

Quyidagi gap shart mayli kor'satkichini olgan fe'l orqali bog'langan: *Eğer kurtulacaksa (1-sodda gap), veririm kanımı (2-sodda gap).* – *Agar tirik qolsa, qonimni beraman.*

Keyingi gap o'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olgan **-dik** shaklli sifatdosh vositasida yasalgan: *Hemşire yanıma geldiğinde (1-sodda gap) onun da gözleri yaşlıydı (2-sodda gap).* – *Hamshira yonimga kelganida, uning ko'zlari jiqqa yosh edi.*

QO'SHMA GAP TURLARI

Qo'shma gaplarni ular tarkibidagi sodda gaplar – komponentlarning bog'lanish usuliga ko'ra uch turga ajratish mumkin:

1. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap.
2. Bog'langan qo'shma gap.
3. Ergashgan qo'shma gap.

Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap. Ikki va undan ortiq sodda gapning o'zaro ohang orqali bo'lanishidan hosil bo'ladigan qo'shma gapga **bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap** deyiladi. Ohang yordamida yasalgan qo'shma gaplar o'zaro vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta kabi tinish belgilar orqali bog'lanadi. Masalan: *Doğru söyle Nejat* (1-sodda gap), *hiç mi zihninden çıkmıyorum* (2-sodda gap)? – *To'g'risini ayt, Nejat, hech xayolingdan chiqmayapmanmi?*

Bir hazin hakikati ben size söyleyeyim (1-sodda gap); *bir kalbe malik olmak, sevebilmek hakkını kazanmak için her şeyden evvel zengin, mühim, meşhur bir adam olmak lazım* (2-sodda gap). – *Bir g'amgin haqiqatni men sizga aytay, bir qalbgga molik bo'lmoq, sevmog haqqiga ega bo'lish uchun hamma narsadan avval boy, muhim, mashhur odam bo'lish kerak.*

Bog'langan qo'shma gap. Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro ma'lum bir bog'lovchilar vositasida birikishidan hosil bo'ladigan qo'shma gaplarga **bog'langan qo'shma gap** deyiladi. Bunday qo'shma gaplar **ve, fakat, ama, lakin** kabi bog'lovchilar orqali shakllantiriladi. Masalan, quyidagi gap **fakat** – **ammo** bog'lovchisi orqali birikkan ikki sodda gapli qo'shma gapdir: *İstemiyordum* (1-sodda gap); *fakat size küçük bir serzenişte bulunmaktan kendimi menedemeyeceğim* (2-sodda gap). – *Istamayotgan edim, ammo sizga ozgina tanbeh berishdan o'zimni tiya olmayman.*

Keyingi gap **ama** – **ammo** bog'lovchisi orqali birikkan ikki sodda gapli qo'shma gapdir: *Saat ona geliyordu* (1-sodda gap) *ama Hannah'yi görmek için hemen yola çıktım* (2-sodda gap). – *Soat o'nga yaqinlashayotgan edi, ammo Hannahni ko'rish uchun darrov yo'lga chiqdim.*

Ergashgan qo'shma gap. Ikki va undan ortiq sodda gaplarning ma'lum bir grammatik shakllar vositasida yoki **ki, bu yuzden** kabi bog'lovchilar yordamida bog'lanishidan hosil bo'ladigan qo'shma gaplarga **ergashgan qo'shma gaplar** deyiladi.

Masalan, ma'lum bir fe'l shakllari (masalan, shart mayli, istak

mayli, fe'ning ravishdosh, sifatdosh shakllari) ikki va undan ortiq sodda gapni biriktirib, qo'shma gapni hosil qiladi. Masalan, quyidagi qo'shma gapning tarkibidagi sodda gap hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi va **-ken** vositasida birikkan: *Siz, bana zarif, şık şeyler anlatırken* (1-sodda gap), *ben, zihnimden hesaplar yapıyor, gelin elbisemi, evimin döşemelerini, düğüne kimleri davet edeceğimi düşünüyordum* (2-sodda gap). – *Siz menga nozik, ajoyib narsalarni gapirayotganingizda, men xayolimda hisob-kitob qilar; kelinlik libosimni, uyimning jihozlanishi, to'yg'a kimlarni taklif etishimni oy'layotgan edim.*

Quyidagi qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar shart mayli ko'rsatkichi (**-sa**) va **de** yuklamasi orqali bog'langan: *Bu vapuru kaybederseniz de* (1-sodda gap) *ehemmiyeti yok* (2-sodda gap). – *Bu paraxodni o'tkazib yuborsangiz ham, ahamiyati yo'q.*

Quyidagi gap shart mayli ko'satkichini olgan fe'l orqali bog'langan: *Kendiniz ne kadar benden kaçıyorsanız* (1-sodda gap) *hayaliniz bana o kadar musallat oluyor* (2-sodda gap). – *O'zingizni qanchalik menden olib qochsangiz, xayolingiz shu qadar jonimga tegyapti.*

Quyidagi gap **ki** bog'lovchisi orqali birikkan qo'shma gaplardir: *Herkes emin oluyor ki* (1-sodda gap), *insan, yalamı fazla ehemmiyet verdiği insana da söyleyebiliyor* (2-sodda gap). – *Hammaning ishonchi komil bo'lyaptiki, odam yolg'onni ko'proq ahamiyat bergan odamiga ham gapirishi mumkin.*

Ergashgan qo'shma gap tarkibida **bosh gap** va **ergash gap** farqlanadi. **Bosh gap** ergashgan qo'shma gap tarkibidagi mazmuni izohlanayotgan gapdir. **Ergash gap** bosh gap ma'nosini izohlovchi gapdir.

Masalan, quyidagi qo'shma gap tarkibida birinchi gap ikkinchi gapning ma'nosini izohlab kelgan: *Bu vapuru kaybederseniz de* (ergash gap) *ehemmiyeti yok* (bosh gap). – *Bu paraxodni o'tkazib yuborsangiz ham, ahamiyati yo'q.*

Keyingi gapda ikkinchi gap birinchi gapning ma'nosini to'ldirib izohlab kelgan: *Herkes emin oluyor ki* (bosh gap), *insan, yalamı fazla ehemmiyet verdiği insana da söyleyebiliyor* (ergash gap). – *Hammaning ishonchi komil bo'lyaptiki, odam yolg'onni ko'proq ahamiyat bergan odamiga ham gapirishi mumkin.*

Nazorat uchun savollar

1. Gaplarni tuzilishiga ko'ra turlari haqida umumiy ma'lumot bering.
2. Sodda gap va qo'shma gap o'rtasidagi farqlarni misollar bilan izohlang.
3. Qo'shma gap va uning turlarini ta'riflang.
4. Qo'shma gapning hosil bo'lish usullarini misollar bilan tushuntiring.
5. Bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gap nima? Uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
6. Bog'langan qo'shma gapni ta'riflang. Ularning shakllanish usullarini misollar asosida tushuntirib bering.
7. Ergashgan qo'shma gap va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha bering.

2.4.2. GAPNING IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARI

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida ma'lumot berish va ularni aniqlash ko'nikmasini hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, darak gaplar, otli darak gap, fe'lli darak gap, so'roq gaplar, buyruq gaplar.*

Turk tilidagi sodda gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin: 1. Darak gaplar. 2. So'roq gaplar. 3. Buyruq gaplar.

DARAK GAPLAR

Darak gaplar real voqelikdagi biror narsa-predmet, voqea-hodisa yoki jarayon to'g'risida xabar bildiradi. informatsiya beradi, biror faktni, belgini konstatatsiya qiladi, bayon etadi, tasdiqlaydi. Darak gaplar bir va ikki bosh bo'lakli bo'ladi³¹. Ikki bosh bo'lakli gaplarning kesimi, bir bosh bo'lakli gaplarning bosh bo'lagi yo ot bilan yo kesim bilan ifodalanadi. Shunga ko'ra turk tilidagi darak gaplarni ikki gu-

³¹ Bir bosh bo'lakli gaplar xususida keyinroq to'xtalamiz.

ruhga ajratish mumkin: 1) fe'lli darak gaplar; 2) o'tli darak gaplar³².

Fe'lli darak gaplarning kesimi tuslangan fe'l bilan ifodalanadi. Bunda har ikki tildagi kesim muayyan mayl, nisbat, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik shakllarida bo'ladi. Fe'lli darak gaplarning kesimi quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- xabar maylining zamon shakllari ko'rinishida. Bunda turk tilidagi o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, hozirgi-kelasi zamon fe'llari, bu zamon shakllarining to'liqsiz fe'llar ishtirokidagi qo'shma shakllari fe'lli darak gaplarni hosil qiladi. Masalan: *O gece delicesine dans etmiştik.* – *O'sha tunda telbalarcha raqs tushgan edik.* Kelasi zamon fe'li kesim bo'lib kelishi mumkin: *Belki bu heyecan operasına bile sirayet edecek.* – *Balki bu hayajon operasiga ham ta'sir qilar.* Kesimi keraklilik mayli bilan ifodalangan gaplar fe'lli darak gaplar hisoblanadi: *İnsan yalnızlığı hariçte değil, kendi içinde aramalı.* – *Inson yolg'izlikni tashqarida emas, o'zida izlashi lozim.* Shuningdek, fe'llarning barcha mayl ko'rinishlari ham fe'lli darak gapni hosil qiladi.

O'tli darak gaplarning kesimi quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- kesimi ot bilan ifodalangan gaplar: *Dünyada insanın en ziyade fenalık etmesine yegane vasite busedir.* – *Dunyoda insonning yomonlikka qo'l urishiga yagona vosita bo'sadir.*

- kesimi olmosh, ravish, son, sifat bilan ifodalangan gaplar: *Babası da görünüşte böyleydi.* – *Otasi ham ko'rinishda shunday edi.* *Ben size layık mıyım?* – *Men sizga loyiqmanmi?*

- kesimi modal so'zlar bilan ifodalangan gaplar: *Benim de senden vazgeçmeme imkan yok.* – *Sendan voz kechishimga imkon yo'q.* *Senin de sevilmeğe ihtiyacın var.* – *Senda ham sevilishga ehtiyoj bor.*

- kesimi harakat nomi yoki "harakat nomi + lazim – kerak, mümkün – mumkin" qolipidagi birikuvlar bilan ifodalangan gaplar: *Ben diyorum ki düşmanı evvela dışarıda yenmek lazım.* – *Men dushmani tashqarida yengish kerak, deyapman.*

Tarkibli yoki murakkab kesimli gaplar tarkibiga ko'ra yoki o'tli gap yoki fe'lli gap sanaladi³³. Masalan, ot, ot harakteridagi so'zlar,

³² Fe'l kesimlar fe'lli darak gaplarni, ot kesimlar o'tli darak gaplarni shakllantiradi.

³³ Kesimi tarkibli yoki murakkab ot kesim bilan ifodaqlangan gaplar o'tli darak gaplar

modal soʻzlar, harakat nomi, toʻliqsiz feʻllar ishtirok etgan, feʻlning “ot + yordamchi feʻl” tipidagi analitik shakli bilan ifodalangan tarkibli kesimli gaplar oʻtli gaplarni yuzaga keltiradi: *Benim bütün olup bitenden haberim olmalıdır.* – Men boʻlib oʻtayotgan voqealardan xabardor boʻlishim kerak.

SOʻROQ GAPLAR

Tayanch soʻz va iboralar: *soʻroq gaplar, soʻroq gaplarni shakllantiruvchi vositalar, soʻroq yuklamalari.*

Soʻzlovchiga nomaʼlum boʻlgan narsa, hodisa, xususiyatni savol berish yoʻli bilan aniqlash uchun ishlatiladigan gaplarga **soʻroq gaplar** deyiladi. Soʻroq gaplar soʻroq olmoshlari vositasida tuziladi: *Bu gece acaba neye benziyor?* – *Ajabo, bu tun nimaga oʻxshaydi?* *Kim ona karşı durmaya cesaret edebilir?* – *Kim unga qarshi chiqishga jasorat qila oladi?*

mi (toʻrt fonetik varianti: **mi, mī, mü, mu**) soʻroq yuklamalari ham soʻroq gaplarni shakllantirishda faol qoʻllaniladi. *Lütfen bir kere bakar misiniz?* – *Marhamat qilib, bir qarab yuborasizmi?* Oʻzbek tilidagi **-mi** soʻroq yuklamasidan farqli turk tilidagi **mi** yuklamasi ixtiyoriy gap boʻlagidan soʻng kelishi mumkin, bunda soʻroq maʼnosi yuklama bogʻlangan soʻzga taalluqli boʻladi. Masalan: *Bu sözü biraz edebi mi buluyorsunuz?* – *Bu soʻzni biroz adabiyroq deb hisoblayapsizmi?* Ayni gapda soʻroq yuklamasi holat holiga taalluqli. Keyingi gapda soʻroq yuklamasi miqdor-daraja holiga tegishli: *Bu sözü biraz mü edebi buluyorsunuz?* – *Bu soʻzni biroz adabiyroq deb hisoblayapsizmi?* Quyidagi gapda soʻroq yuklamasi toʻldiruvchidan keyin turibdi va tinglovchining eʼtiborini suhbat predmetiga jalb etmoqda: *Bu sözü mü biraz edebi buluyorsunuz?* – *Bu soʻzni biroz adabiyroq deb hisoblayapsizmi?* Soʻroq yuklamasi aniqlovchidan keyin ham joylashishi mumkin: *Bu mu sözü biraz edebi buluyorsunuz?* – **Bu** soʻzni biroz adabiyroq deb hisoblayapsizmi?

Turk tilida soʻroq yuklamalari alohida soʻz turkumi sifatida farqlanmagan. Mustaqil soʻz turkumlari qatorida, odatda, yordamchi soʻz turkumlari sifatida koʻmakchi va bogʻlovchi tilga olinadi. Bu

hisoblanadi. Aksincha, kesimi tarkibli yoki murakkab feʻl kesim bilan ifodalangan gaplar feʻlli darak gaplardir.

yordamchi soʻzlardan soʻroq-taajjub yuklamalari qatoriga **acaba**, **ya**, **ha** soʻzlarini kiritish mumkin.

Turk tilidagi **ya** yuklamasi **-chi** yuklamasiga xos maʼno va vazifada qoʻllaniladi. Qiyoslang: *Peki ya **şimdi**? Ya bu sözleri işitince ne diyecekti? – Lekin **endi-chi**? Bu gapni **eshitsa-chi**?*

ha yordamchi soʻzi yoki **değil mi/ shunday emasmi** soʻzshakli oʻzidan avval **kelgan** gapdan anglashilgan fikrni suhbatdoshiga, tinglovchiga maʼqullatish, tasdiqlatib olish uchun qoʻllaniladi: *Pek fena adam **değil** zavallı, **ha**? – Juda ham yomon odam emas bechora, a? Kadınlar daima ince, emin bir himaye altında olmalıdır, **değil mi** Neriman? – Ayollar doimo nozik, ishonarli himoya ostida boʻlishlari kerak, **shunday emasmi**?*

ya yuklamasi oʻzbek tilidagi **-ya** yuklamasining fonetik muqobili boʻlishiga qaramay bu ikki yuklama oʻrtasida katta farq koʻzga tashlanadi. **ya** yuklamasi, avval qayd etilganidek, maʼnosi va vazifasiga koʻra oʻzbek tilidagi **-chi** yuklamasiga muvofiq keladi: *Yarın kendisini İstanbul'a götürüyorum. – Ya Handan? Yu Refik Cemal Bey? Onlar nerede? – Ertaga uni İstanbulga olib ketyapman. – Xandan-chi? Refik Jemalbey-chi? – Ular qayerda?*

acaba / nahotki yuklamasi odatda taajjub ottenkasini bildirish uchun xizmat qiladi. **acaba** soʻzi, odatda, soʻroq gaplarga qoʻshimcha ravishda taajjub maʼnosini yuklash uchun xizmat qiladi. *Acaba bu bahti kara halkı savunacak bir yiğit çıkmayacak mı? – Nahot bu shoʻrpeşona xalqni himoya qiladigan bir mard topilmasa? Acaba soʻzi logik urgʻu tushgan boʻlakdan avval qoʻllanilishi mumkin: **Acaba** utandı mı? – Ajabo uyaldimi?*

Ayrim vaziyatlarda soʻroq gaplar tarkibida soʻroq olmoshlari va soʻroq yuklamalari qatnashmaydi. Bunday vaziyatlarda soʻroq gaplar maxsus intonatsiya – soʻroq ohangi yordamida hosil qilinadi: – *Gelirken, denizde boğulma taklidi yaparak bizi aldatan bir sporcuya tesadüf etmiştik. **Sakin o olmasın**? – Kelayotganimizda dengizda oʻzini choʻkayotganday koʻrsatib, bizni aldagan bir sportchiga duch kelgandik. Tagʻin oʻsha boʻlmasin?*

BUYRUQ GAPLAR

Tayanch soʻz va iboralar: *buyruq gaplar, buyruq gaplarni shakllantiruvchi vositalar, buyruq gaplarning mazmun xususiyatlari.*

Buyruq gap tinglovchining biror narsaga, biror ishni bajarishga buyurish, qistash mazmunini, shu bilan bogʻlangan boshqa maʼnolarni ham ifodalaydi. Bu mazmunning turli koʻrinishlari bor (doʻq. qatʼiy buyruq, iltimos, yalinish, nasihat, taʼqiqlash, ogohlantirish, ruxsat, chaqirish, taklif, istak-tilak va boshqalar). Shunga bogʻliq ravishda buyruq gaplar – qatʼiy buyruqlarda ovozni keskin balandlatishdan tortib, nasihat va iltimoslarda ovozni pasaytirishgacha turli ohang bilan talaffuz qilinadi.

Turk tilidagi buyruq gaplar quyidagicha hosil qilinadi:

Turk tilidagi buyruq va istak maylidagi feʼllar buyruq, iltimos, taklif hamda istak, xohish mazmunli gaplarni shakllantirishda qoʻllaniladi. Ammo istak maylidagi feʼllar buyruq maylidagi feʼllarga nisbatan ancha kam ishlatiladi.

Turk tilida buyruq maylining I shaxs birlik formasi yoʻq. Chunki soʻzlovchi oʻz-oʻziga buyruq bera olmaydi, lekin oʻziga nisbatan istak, tilak bildirishi mumkin. Bu maʼno istak mayli I shaxs birligining **-ayım, -eyım** qoʻshimchalari vositasida yasaladi: *Tabii evvela seyahatimin nasil geçtiğini anlatayım. – Tabiiyki, avvalo senga sayohatim qanday oʻtganini soʻzlab beray.* Turk tilidagi **-ayım, -eyım** affikslari oʻzak-negizi undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi. Unli bilan tugagan soʻzlarga birikkanda negiz va affiks oʻrtasida y undoshi orttiriladi: *Size hakikati söyleyeyim. – Sizga haqiqatni soʻzlayin.*

Buyruq maylidagi feʼning ikkinchi shaxs birlik formasi nol koʻrsatkichlidir: *Nermin, biraz bekle. Nermin, biraz kut.* Uchinchi shaxs birlik shakli **-sin** affiksi yordamida yasaladi: *Son hadiselere dair bir şey biliyorsa ortaya at... Çeneleri açilsın. Soʻnggi hodisalarga doir xabarlardan gapir. – Chakaklari ochilsin.*

Turk tilida buyruq maylining birinchi shaxs birlik formasi yoʻq. Istak maylidagi feʼning **-(y)elim, -(y)alım** affikslari **-aylik** qoʻshimchasiga monand maʼno va vazifada ishlatiladi: *İsterseniz biraz şöyle yürüyelim. – Istasangiz, biraz shunday yuraylik.*

Turk tilida buyruq maylidagi II shaxs koʻplik formasi **-(y)in,**

-(y)ın, -(y)ün, -(y)un, -(y)iniz, -(y)ımız, -(y)ünüz, -(y)unuz affikslari vositasida yasaladi. Ammo ayni affikslar kontekstga ko'ra yakka tinglovchiga ham, ko'pchilikka ham nisbatan buyruq. iltimos, tilak, taklif ma'nolarini anglatishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin.

Yakka tinglovchiga qaratilgan buyruq gaplar: *Mektubunuzu yine elinizle postaya vermek istiyorsanız lütfen acele ediniz. – Maktubingizni yana o'z qo'lingiz bilan pochtaga topshirishni istasangiz, lutfan, biroz shoshiling.*

Ko'pchilikka qaratilgan buyruq gaplar: *Amca, Handan, geliniz size bir şey okuyacağım. – Amaki, Xandan, kelinglar, sizga bir narsa o'qib beraman.*

Keraklilik maylidagi fe'llar ham buyruq mazmunli gaplarni hosil qiladi: *Ne yapalım, onları bağışlamalısın. – Nima qilamiz, ularni kechirishing kerak.*

Shart maylidagi fe'llar ham buyruq gapni hosil qilishda faol qo'llaniladi: *Biraz anlatsana! – Biroz tushuntirib bersang-chi!* Bu tipdagi gaplarda buyruq ma'nosini ta'kidlab, kuchaytirib berish uchun **-a, -e** yuklamalariga murojaat qilinadi: *Kaptan, gavur musun? Vapuru çevirsene! – Kapitän, kofirmisan? Paraxodni bursang-chi!*

Istak maylining ikkinchi shaxs birlik formasi **-(y)esin, -(y)asin** ko'rinishiga ega. Masalan: *Yarın erken uyuyasin. – Ertaga ertaroq tur. Okula mutlaka gidesin. – Maktabga borishing shart.* Istak maylining III shaxs birlik shakli faqat **-(y)e, -(y)a** affikslari vositasida hosil qilinadi, ko'plik shakli esa ayni qo'shimchalarning ko'plik ko'rsatkichi bilan qo'llanishidan yuzaga keladi: *Allah cümlemizi islah eyleye. – Oллоhim, jumlai olamimizni o'zing asra.*

Istak maylidagi fe'llning II va III shaxs birlik, ko'plik shakllari turk tilida faol qo'llanmaydi. Ammo ushbu fe'l shakllari to'liqsiz fe'llar ishtirokida kelib, so'zlovchining o'tgan zamonda amalga oshishi mumkin bo'lgan, ammo ro'yobga chiqmagan kuchli istagi, orzusi ma'nosini bildirishi mumkin: *Keşke kardeşim de birlikte gideydi. – Koshki ukam ham birga ketgan bo'lsa.*

Turk tilida esa **-r/ -maz** affiksli hozirgi-kelasi zamon fe'li, **-(y)acak, -(y)ecek** affiksli kelasi zamon fe'llari ishtirok etgan gaplar so'zlovchining buyrug'i ma'nosini anglatishga xizmat qiladi: *Siz aşağı*

yoldan inmeye başlarsin. – Sen pastdagi yo'ldan tusha boshlaysan. Seni bu meclisten **ihraç ediyorum**. Şimdi **çıkacaksın**... – Seni bu yig'indan haydayapman. Hozir chiqasan.

Turk tilida to'liqsiz buyruq gaplar ham uchraydi. Ularda asosiy element sifatida maxsus intonatsiya bilan talaffuz qilinuvchi ravish yoki ot qatnashadi: *Haydi, aşağı, Neriman. Qani, pastga, Neriman. Hemşire, pamuk!* – *Hamshira, paxta!*

Buyruq gaplarning ayrim ma'nolariga misollar keltirib o'tamiz:

• buyruq: *Sus, lakırdıyı uzatma!* – *Jim bo'l, gapni cho'zma.*

• tilak: *Kışın burada oturanlara Allah imdat eylesin.* – *Qishda bu yerda yashaganlardan Olloh o'z yordamini ayamasin.*

• taklif: *Müsaade ederseniz sizi barıştırmak şerefi benim olsun.* – *Ruxsat bersangiz, sizlarni yarashtirish sharafi mening zimmamga tushsin.*

• da'vat: *Hava anamızın Adem babamızdan bir başkasıyla bir macerasını bilen varsa, meydana çıksın!* – *Havo onamizning boshqa biror erkak bilan aloqasi bo'lganini biladigan odam bo'lsa, o'rtaga chiqsin.*

• maslahat: *Hele biraz daha büyü... Tabiat hükmünü yapmakta gecikmez, sen de onlar gibi olursun.* – *Hech bo'lmaganda, biroz kattaroq bo'l. Tabiat hukmini chiqarishda kechikmaydi, sen ham o'shalarday bo'lasan.*

• iltimos: *Hiç olmazsa bir, iki haftaya İstanbul'a gel... sonra yine gidersin.* – *Hech bo'lmaganda, bir-ikki haftaga Istanbulga kel..., keyin yana ketasan.*

Nazorat uchun savollar

1. Gaplarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

2. Turk tilidagi gaplarni qaysi jihatlarga ko'ra tasniflash mumkin?

3. Sodda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida umumiy ma'lumot bering.

4. Darak gapni shakllantiruvchi vositalarga nimalar kiradi?

5. Darak gaplarning qanday turlari bor? Ularni shakllantiruvchi vositalar haqida ma'lumot bering.

6. So'roq gaplarga ta'rif bering.

7. So‘roq gaplarni shakllantiruvchi vositalarga nimalar kiradi?

8. Turk tilidagi so‘roq gaplarni shakllantiruvchi vositalarning o‘zbek tilidagi so‘roq gaplarni shakllantiruvchi vositalardan qanday farqi bor?

9. Buyruq gapni ta’riflang. Turk tilidagi buyruq gaplarni shakllantiruvchi vositalarga nimalar kiradi?

10. Buyruq gap orqali qanday mazmun ifodalanishi mumkin? Misollar bilan izohlang.

2.4.3.SODDA GAPNING

EMOTSIONALLIKKA KO‘RA TURLARI

Mavzuning o‘quv maqsadi: turk tilidagi gapning emotsionallikka ko‘ra turlari haqida ma’lumot berish va ularni aniqlash ko‘nikmasini hosil qilish.

Tayanch so‘z va iboralar: *sodda gapning emotsionallikka ko‘ra turlari, his-hayajon gap, his-hayajonsiz gap, his-hayajon gaplarni shakllantiruvchi vositalar, his-hayajon gaplarning mazmun xususiyatlari.*

Har bir gap turi o‘ziga xos mazmunga ega hamda ma’lum ohang bilan talaffuz qilinadi. Emotsional munosabat hamda inson emotsiyalari, his-tuyg‘ulari emotsional bo‘yoqdir, ya’ni undov gaplar yordamida ifodalanadi. Undov gaplar (ünlem tūmcesi) so‘zlovchining real voqelikka bo‘lgan emotsional munosabati yoki his-tuyg‘usini bildiradi. Bu gap turi alohida his-hayajon bilan talaffuz qilinadi, bu, yozuvda undov belgisi vositasida ifodalanadi.

Turk tilida his-hayajonli gaplarning quyidagi ikki turi farqlanadi:

1. **Hukm bildiruvchi his-hayajonli gaplar.**

2. **Hukm bildirmaydigan his-hayajonli gaplar.**

So‘zlovchining muayyan faktga bo‘lgan munosabatini anglatuvchi his-hayajonli gaplar (masalan, inkor, ta’na, tasdiq) **hukm bildiruvchi his-hayajonli gaplardir.** So‘zlovchining his-tuyg‘ularini anglatuvchi his-hayajonli gaplar (qo‘rquv, quvonch, baxt) **hukm bildirmaydigan his-hayajonli gaplardir.**

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra boshqa turlari – darak gap, buyruq gap, so'roq gap ba'zan his-hayajon bilan talaffuz qilinishi mumkin, bunda ayni gaplarga qo'shimcha his-hayajon ma'nosi yuklanadi. Ammo bu tipdagi gaplarda asosan buyruq, xabar va so'roq ma'nolari birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun bu gaplar his-hayajon gaplarga aylanmaydi. Masalan, quyidagi gap kuchli his-hayajon bilan talaffuz qilingan buyruq gapdir: *Git! Defol! Ket! Yo'qol!*

Quyidagi til birliklari his-hayajon gaplarni hosil qilishi mumkin: Birinchi navbatda undov so'zlar his-hayajonli gaplarni yuzaga keltirishi mumkin. Keltirilgan misollardagi his-hayajonli gaplar hukmsiz his-hayajonli gap hisoblanadi: *Hey! Buraya gel. – Hoy! Bu yerga kel!* His-hayajonli gaplar ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlar bilan ifodalinishi mumkin: *Türk! Övün, çalış, güven! – Türk! Faxrlan, ishla va ishon!* Olmoshlar bilan: *Bunlari kim karıştırdı? – Onlar! – Kim bu narsalarni qorishtirdi? - Ular! Fe'llar (asosan tuslangan fe'llar) bilan: Yapma! – Bunday qilma!*

His-hayajonli gaplar quyidagicha hosil qilinadi:

1) his-hayajon ohangi yordamida: *Aman Allahım! – Obbo, xudoyim!*

2) undov so'zlar va taqlid so'zlar ishtirokida: *Vay bacaklarım! –Voy-e, oyoqlarım-e!Haydi koş artık! – Qani, yugur endi!*

3) **ne – nima** olmoshi yordamida: *Babasından utanmak ne zor iş! – Otasidan uyalish naqadar sermashaqqat ish!*

4) undov so'zlar vazifasida ma'lum darajada birlamchi leksik ma'nosini yo'qotgan so'zlar (ko'pincha arab tilidan o'zlashgan so'zlar) his-hayajonli gapni hosil qilishi mumkin: *Maşallah! – Ko'z tegmasin! Mosholloh! Aman duymasin! – Ishqilib, eshitmasin. Estag'furullah, efendim! – Astag'furulloh, afandim!*

5) fe'lining shart mayli shakli bilan: *Ah, onu bir defa görseniz! – Oh, uni bir bor ko'rsangiz edi!*

6) buyruq maylidagi, keraklilik maylidagi, istak maylidagi fe'llar vositasida: *Allah esergesin! – Xudo asrasin! Hay, sinemaya gitmez olaydım! – Eh, kinoga ketmagan bo'lsam edi! Sakın bu kitaplara dokunma! – Tag'in bu kitoblarga teginma!*

Hukm bildirmaydigan his-hayajonli gaplar kesimsiz to'liqsiz

gap shaklida bo'ladi. Bunday his-hayajonli gaplar murojaat, undov, charqiriq, da'vat ma'nolariga ega bo'ladi: *Ordu, türk ordusu! İşte bütün milletin göğsünü itimat, gurur duygularıyla kabartan şanlı ad! – Qo'shin, türk qo'shini! Butun türk millatining qalbini e'tiqod, g'urur tuyg'ulari bilan to'lqinlantirgan shonli so'z!* Hukm bildiruvchi his-hayajonli gaplar tushunchasini tashuvchi gap turidir. Bu o'rinda shuni qayd etish zarurki, buyruq-istak maylidagi fe'l vositasida hosil qilingan his-hayajonli gap va buyruq gapni bir-biridan farqlash lozim. His-hayajonli gaplarda, kesim buyruq-istak maylidagi fe'l bilan ifodalanganligiga qaramay, buyruq, undash ma'nosi bo'lmaydi. Ayni mayl shaklidan so'zlovchi o'z hislarini effektiv shaklda ifodalash uchun foydalanadi: *Geçmiş olsun! – Olloh unga sog'liq bersin!*

His-hayajonli gaplar turli his-tuyg'ularni anglatishi mumkin. Ulardan asosiylari quyida keltiriladi:

Ayrim his-hayajonli gaplar so'zlovchining quvonchi, sevinchi ma'nosini bildiradi: *Ah yaşamak ne tatlı! – Oh, yashamoq naqadar lazzat! O'tmishga, o'tgan onlarga bo'lgan sog'inch ma'nosi ham his-hayajonli gaplar vositasida ifodalanadi Koltukta yalnız oturmak! Şu divanda uyumak! – Kresloda yolg'iz o'tirish! Shu divanda uxlash!* Afsus, taassuf, achinish ma'nosi ham turk tilidagi his-hayajonli gaplarning kontekstda reallashuvchi ma'nolaridan biri hisoblanadi: *Fakat yazık ki, yazıklar ki vurmadin! – Faqat, ming afsuski, urmading!*

So'zlovchining nafrati, g'azabi ham his-hayajonli gaplar yordamida anglashiladi: *Bitsin, bu beyhüde sonbahar! – Bitsin, tugasin behuda kuz!* His-hayajonli gaplar bajarilmagan ishdan ko'ngli to'lmaslik, norozilik ma'nolarini bildirish uchun ishlatiladi: *Gördün mü yaptığın işi! – Qilgan ishingni ko'rdingmi!* Ollohga yoki insonlarga duo qilish, iltijo qilish, o'tinish, yolvorish ma'nosi: *Allahım! Türk milletini koru! – Ollohim! Turk millatini o'z panohingda asra!*

Iftixor, faxr, ishonch: *Ordu, türk ordusu! Ne kadar şanlı ad! – Qo'shin, türk qo'shini! Naqadar sharafli nom!* Ayrim his-hayajonli gaplar vositasida xayrixohlik, yoqtirish ma'nosi anglashiladi: *Aman ne güzel, aman ne güzel! – O xudoyim, naqadar go'zal, naqadar dilbar!*

2.4.4.GAPNING MODALLIKKA KO'RA TURLARI

Mavzuning o'quv maqsadi: turk tilidagi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida ma'lumot berish va ularni aniqlash ko'nikmasini hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *sodda gapning modallikka ko'ra turlari, tasdiq gap, inkor gap, inkor gaplarni shakllantiruvchi vositalar.*

Turk tilida gaplar modallikka ko'ra ikki guruhga ajratiladi:

1.Tasdiq gaplar. 2.Inkor gaplar.

Inkor gapda maxsus inkor ko'rsatkichlari qatnashadi, tasdiq gap inkor vositalarining yo'qligi bilan xarakterlanadi. Ammo inkor formasidagi har bir gapda doim bo'lishsizlik ifodalanishi shart emas, shuningdek, tasdiq formasidagi gap ba'zan inkor mazmunida qo'llangan bo'lishi mumkin. Turk tilida inkor ma'nosi quyidagicha ifodalanadi:

Kesimi tuslanishli fe'l bilan ifodalangan inkor gaplar asosan **-ma/-me** affiksi vositasida hosil qilinadi. Masalan: *Benim için de başka kadın ve aşk olmayacak.* – *Men uchun ham undan o'zga ayol va ishq bo'lmaydi.* Shuningdek, **-makta, -mekte** affiksli hozirgi-kelasi zamon fe'li bo'lishsizlik ko'rsatkichi bilan qo'llanilishi mumkin: *Kendi adı bilinmemektedir.* – *O'zining asl ismi noma'lumdur.*

Tuslanishli fe'llardan faqat hozirgi-kelasi zamon fe'li va bu fe'l shakli bilan to'liqsiz fe'llar birikishidan yuzaga keladigan so'zshaklining bo'lishsiz shakli (ularning to'liq yoki qisqa ko'rinishi) **-maz/-mez (-mazdi/ -mezdi, -mazmış/ -mezmiş)** affikslari bilan yasaladi: *Çünkü biz Neriman'a bundan çok yaraşan şeyleri seçemedik.* – *Chunki bir Narimonga bundan ham yarashadigan narsalarni tanlay olmasdik.*

Kesim fe'ldan boshqa so'zlardan bo'lganda, **değil / emas** to'liqsiz fe'li bilan qo'llanilib, inkor gapni hosil qiladi: *Handan her şey olabilir, akıllı bir kızdır, fakat güzel değildir.* – *Xandan har qanday bo'lishi mumkin, aqlli qizdir. lekin go'zal emas.*

Tuslangan fe'l bilan ifodalangan kesim **değil / emas** to'liqsiz fe'li bilan qo'llanilishi va bo'lishsizlik ma'nosini ifodalashi mumkin: *Herkes türkü söylemek için senden izin alacak değil ya.* – *Har bir*

odam qo‘shiq aytish uchun sendan ruxsat olishi kerak emas-ku.

Turk tilida inkor ma‘nosini anglatuvchi **yok** so‘zidan tashqari **hayır / yo‘q** so‘zi ham mavjud. **yok** va **hayır** so‘zlari o‘zbek tilidagi muqobili singari, oldingi so‘roq gapning javobi bo‘lib kelishi mumkin. Ushbu so‘zlar sinonim sifatida almashinib qo‘llansa-da, asosan **hayır** so‘zidan foydalanish keng tarqalganligini ko‘rish mumkin: *Boylu? Etili? – Yok, yok, ne tuhafsınız! – Baland bo‘yli, to‘ladan kelganmi? – Yo‘q. yo‘q, qanaqa g‘alatisiz-a! – Handan‘ın resimleri seni rahatsız mi ediyor? – Hayır, hayır. Xandanning rasmlari seni bezovta qilyaptimi? – Yo‘q, yo‘q.*

hayır so‘zi **yo‘q** so‘zidan farqli ravishda tarkibli kesim tarkibida ham, alohida o‘zi ham kesim bo‘lib kelmaydi. **yok** so‘zi tarkibli kesimning tarkibiy elementi bo‘la olmasa-da, yakka o‘zi kesim vazifasini bajarib kelishi mumkin: *Seninle hayatta kazanılmayacak yarış yoktur, cesur çocuk. – Sen bilan birgalikda g‘olib bo‘lmaydigan musobaqa yo‘q, jasur bolakay. Fakat itiraf edeyim ki, bunda şikayet etmeğe hak-kım yoktu. – Faqat e‘tirof etishim kerakki, bundan shikoyat qilishga haqqim yo‘q edi.*

Uyushiq bo‘laklarning inkorida ba‘zan **ne...ne** yordamchisi qo‘llaniladi. Bu yordamchi har bir uyushiq bo‘lakning oldidan takrorlanib keladi, yakka holda qo‘llanmaydi: *Buna karşı yazık ki ne sen, ne ben bir şey yapamayız. – Bunga qaramay, afsuski, na sen, na men hech nima qilolmaymiz.*

Kesimi **-siz, -sız, -suz, -süz** affiksli so‘zlar bilan ifodalangan gaplar ham inkor gaplar sanaladi: *Öyle ki devam etmek imkansızdı. – Shu darajadaki, davom etish imkonsız edi.*

Ikkita bo‘lishsiz shakldagi fe‘lning yoki bo‘lishsizlik elementining kesim vazifasini bajarishi natijasida bo‘lishlilik ma‘nosi anglashiladi:

a) **-ma, -me** affikslarining qo‘sh qo‘llanilishi bilan: *Para! Diye yapmayacağız kalmaz. – Pul, deb qilmagan ishimiz qolmaydi.*

b) **“yo‘q/ yok + emas/değil”** qolipidagi kesim bilan: *Sade ve sadedil Şark Noktrünlerinde yer yer usulstüzlüklek, acemililikler, korku veren tereddütler, iptidailikler yok değil. – Sodda va oddiy usulda yozilgan “Sharq noktyurnlari”da o‘rni-o‘rni bilan usulsizliklar,*

oddiyliklar, qo'rquv beruvchi taraddutlar, ibtidoiyliklar yo'q emas.

Turk tilida bo'lishsizlik ko'rsatkichini olgan fe'l kesimlar **değil/emas** to'liqsiz fe'li bilan kelganida ham bo'lishlilik ma'nosini bildirishga xizmat qiladi. To'liqsiz fe'l o'tgan zamon, hozirgi zamon, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon fe'llarining bo'lishsiz shakli ishtirokida qo'llaniladi: **İşitmedi değil...** *Mahsus susuyor. – Eshitmadi emas. Atayin jim turibdi.*

Muayyan ohang tasdiq gaplarni inkor gaplarga aylantiradi. Ya'ni tasdiq xarakteridagi gap ohangining ma'lum tarzda o'zgarishi bilan inkor mazmuni anglashiladi. Bunda asosan ritorik so'roq gap ko'rinishidagi tasdiq gaplar inkor ma'nosini bildiradi: *Ayşe, şimdi on dördünü sürüyor, ablaları gibi güzel olmaya başlıyordu. Fakat onun bu ilkbaharını kimin gözü görüyordu? – Oysha, hozir o'n to'rt yoshga kiryapti, opalariday go'zal qiz bo'lib yetilyapti. Ammo uning bu go'zalligini kimning ko'zi ham ko'rardi(hech kim ko'rmayapti)?*

Va, aksincha, shakllan bo'lishsizlik elementi qatnashgan inkor gaplar muayyan ohang vositasida tasdiq gapga aylantiriladi. Bunda ko'pincha ayrim ritorik so'roq gap shaklidagi inkor gaplar tasdiq mazmunini tashiydi: *Tanimamak kabil mi? – Tanimay bo'ladimi(taniyman)?*

Ma'lum bir grammatik formalar shakllan tasdiq gaplarni mazmunan inkor gaplarga aylantiradi. Masalan **-miş** affiksli o'tgan zamon fe'li yoki hozirgi-kelasi zamon fe'lining uchinchi shaxs, birlikdagi bo'lishsiz shakli **olmak – bo'lmoq** yordamchi fe'lining so'roq shakli bilan qo'llanganida, shakllari inkor gap bo'lsa-da, tasdiq ma'nosini bildiradi. Bunda maxsus intonatsiya bilan talaffuz qilingan ayni gap aniqlik, konkretlik ottenkalariga ega bo'ladi: *– Anlamaz olur muyuz? – Tushunmay o'libmizmi?*

Nazorat uchun savollar

1. Sodda gapning emotsionalikka ko'ra qanday turlari bor?
2. Hukm bildiruvchi va hukm bildirmaydigan his-hayajonli gaplarning farqini tushuntiring.
3. His-hayajon gaplarni qanday vositalar shakllantiradi? Misollar bilan izohlang.
4. Sodda gapning modallikka ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.

5. Inkor gaplarni shakllantirishda qanday grammatik vositalar qatnashadi?

6. Ikkita bo'lishsizlik ko'rsatkichi ishtirokidagi gapdagi ishtirokiga misollar keltiring va ular orqali ifodalangan mazmuni uzohlang.

7. "yok" va "hayir" so'zlarining ma'nolarida va qo'llanishida qanday umumiylik va farqlar bor?

8. Tasdiq gaplar inkor mazmunini bildirishi mumkinmi? Fikringizni izohlang.

9. Inkor gaplar tasdiq mazmunini bildirishi mumkinmi? Fikringizni izohlang.

10. His-hayajonli gaplarning shakllanishida ohangning ro'li.

2.5.GAPNING BO'LAKLAR ISHTIROKIGA KO'RA TURLARI.

Turk tilidagi gaplarni gap bo'laklari ishtirokiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

• Gapning bosh bo'laklari ishtirokiga ko'ra turlari:

1. Bir bosh bo'lakli gaplar.

2. Ikki bosh bo'lakli gaplar.

• Gapning ikkinchi darajali bo'laklari ishtirokiga ko'ra turlari:

1. Yig'iq gap.

2. Yoyiq gap.

• Gapning zarur gap bo'laklari ishtirokiga ko'ra turlari:

1. To'liq gap.

2. To'liqsiz gap.

• Gapning gap bo'laklari tartibiga ko'ra turlari:

1. To'g'ri gap.

2. Ters gap.

Quyida ushbu mezonlarning har biri asosida gapning bo'laklari ishtirokiga ko'ra turlariga batafsil to'xtalamiz.

GAPNING BOSH BO'LAKLAR ISHTIROKIGA KO'RA TURLARI

BIR BOSH BO'LAKLI GAPLAR

Tayanch so'z va iboralar: *sodda gapning bosh bo'laklar ishti-*

rokiga ko'ra turlari, egasiz gaplar, kesimsiz gaplar, egasi topiladigan gaplar, egasi topilmaydigan gaplar, shaxsi aniq gaplar, shaxsi noaniq gaplar, shaxsi umumlashgan gaplar, nominativ gap, atov gap, baho ifodalovchi gaplar, so'z-gaplar.

Bosh bo'laklari ishtirokiga ko'ra gaplar avval ikki guruhga ajratiladi: 1. Bir bosh bo'lakli gaplar. 2. Ikki bosh bo'lakli gaplar.

Har ikkala bosh bo'lak – ega va kesim ishtirok etgan gaplar **ikki bosh bo'lakli gaplardir**. Masalan: *Yalmizligi seven bir ruhunuz vardi.* – *Yolg'izlikni sevguvchi ruhingiz bor edi.* Bu gapda ega (**ruhunuz**) va kesim (**vardi**) mavjud bo'lib, ikki bosh bo'lakli gapdir

Gapda bosh bo'laklardan faqat bittasi – ega yoki kesimning ishtirokidan **bir bosh bo'lakli gaplar** shakllantiriladi. Bir bosh bo'lakli gaplar ikki xil bo'ladi: 1. Egasiz gaplar. 2. Kesimsiz gaplar.

Egasiz gap struktura asosi – bosh bo'lagi kesimdan tashkil topgan gapdir. Shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, egasi topilmaydigan gaplar egasiz gaplarning ko'rinishlaridir. Kesimsiz gaplar nominativ, atov, baho ifodalovchi gaplar, tasavvur nomlari: so'z-gaplar shaklidagi gaplarni o'z ichiga oladi.

EGASIZ GAPLAR

Shaxsi aniq gap. Ega grammatik jihatdan shakllanmagan, harakat bajaruvchi kesimdan anglashilib turgan gaplarga **shaxsi aniq gap** deyiladi. Shaxsi aniq gaplar ifoda maqsadiga ko'ra so'roq, darak, buyruq gap bilan ifodalanishi mumkin: *Bes, altı ay dışını sık. Besh-olti oy tishingni-tishingga qo'yib chida.* Kesimi III shaxs shaklidagi fe'l bilan ifodalangan egasiz gaplarning shaxsi aniq tipi faol ishlatiladi: *Hava çok sıcak olduğu için camlarını açık bırakarak yatağına uzandı.* – *Havo juda issiq bo'lganligi uchun derazalarni ochib, yotog'iga cho'zildi.*

Shaxsi noaniq gaplar. Bunday gaplar egasi topiladigan bir bosh bo'lakli gaplarning ko'rinishlaridan biri bo'lib, kesimi fe'lning III shaxs shakllari bilan ifodalanadi. Bunday gaplarda ish-harakat bajaruvchi shaxs noaniq bo'ladi: *Ama en çok altı ay tutuyorlar hastanede.* – *Ammo eng ko'pi bilan kasalxonada uch oy ushlab turishadi.* Ya'ni tilga olingan gaplardagi harakat bajaruvchi shaxs – gap egasi kim ekanligi noaniq. Biroq kesimi III shaxsdagi fe'l bilan

ifodalangan bo'lsa-da, egani ushbu gapdan oldin yoki keyin kelgan gaplardan aniqlashtirish mumkin bo'lsa, bunday gaplar shaxsi aniq gap qatoriga kiritiladi.

Shaxsi umumlashgan gaplar. Bosh bo'lagidan anglashilgan harakat umumga qaratilgan gaplar, odat tusiga kirgan yoki takrorlanib turadigan harakatni ifoda qiluvchi gaplar **shaxsi umumlashgan gaplardir**. Bunday gaplar, odatda, maqol, hikmatli so'z shakliga ega bo'ladi: *Inanma dostuna, saman doldurur postuna. – Ishonmagin do'stingga, somon tiqar po'stingga.*

Egasi topilmaydigan gaplar. Egasi topilmaydigan gaplarning egasini kesimga savol berish orqali ham topib bo'lmaydi. Turk tilida bunday gaplarning kesimi vazifasida majhul nisbatdagi fe'l ishlatiladi: *Hiç benim yanımda böyle söz söylenir mi? – Mening yonimda hech shunday gapirib bo'ladimi? Olacağıñ önüne geçilmez. – Bo'ladigan voqeani to'xtatib bo'lmaydi. Ya'ni turk tilida egasi topilmaydigan gaplarning kesimi asosan majhul darajadagi fe'l bilan ifodalanadi.*

“Harakat nomi + lazım/ lozim, mümkün / mumkin” shaklidagi birlikning gapda kesim vazifasini bajarishi natijasida hosil bo'luvchi egasi topilmaydigan bir bosh bo'lakli gap turk tilida nisbatan ancha nafaol. **lazım, gerek, mümkün** so'zlari **-mak, -mek** affiksli harakat nomi ishtirokida keladi: *Kendini korumak, hasta olmamak lazımdı. – O'zini asrashi, kasal bo'lmasligi kerak edi. Namık Bey'e Bozkaya'yi göstermek lazım. – Namikbeyga Bo'zqoyani ko'rsatish kerak.* “harakat nomi + **lazım**” tarkibli kesimga xos ma'noni turk tilida ifoda etishda **-meli, -malı** affiksli fe'ldan foydalanilganligi sababli bunday tarkibli kesimlar turk tilida nisbatan kam ishlatiladi.

Egasi topilmaydigan gaplarning kesimi frazeologik butunlik shaklida bo'lishi mumkin: *Erlerin ağızları kulaklarında. – Yigitlarning og'zi qulog'ida.* Turk tilida shaxsi topilmaydigan gap kesimi **-(y)acağı gelmek, -(y)acı gelmek** shaklidagi fe'lning analitik shakli bilan ifodalanishi mumkin: *Sizleri çok göreceğim geldi. – Sizlarni juda ko'rgim keldi. Bırak ağlamayı diyesi gelirdi. – Qani, qani, bolalik qilma, yig'lashni qo'y, degisi keldirdi.*

KESIMSIZ GAPLAR

Bosh bo'lagi egadan iborat bo'lgan gaplar **kesimsiz gaplardir**.

Bunda ot yoki otlashgan soʻzlar biror boʻlak predmet yoki voqea-hodisa nomini atab, uning mavjudligini aniqlaydi.

Nominativ gaplar. Kesimsiz gaplarning turlaridan biri **nominativ gaplar** boʻlib, bosh boʻlagi substantiv xarakterda boʻladi: *Düğün gecesi... – Nikoh oqshomi... Güzel bir sonbahar günüydü. – Kuzning ajoyib kuni edi.* Nominativ gaplar odatda soʻz birikmasi shakliga ega boʻladi hamda voqea-hodisalarni nomlashga xizmat qiladi.

Atov gaplar. Atov gaplar turli sarlavhalar, gazeta, jurnal nomlaridir: *“Bir kadın düşmanı”*. – *“Ayol dushmanı”*.

Baho ifoda etuvchi gaplar. Baho ifoda etuvchi gaplarda soʻzlovchi biron predmetning mavjudligini tasdiqlash orqali ifoda etilayotgan tushunchaga boʻlgan bahosini ifoda etadi: *Zavallı Sara! – Bechora Sara!*

Soʻz-gaplar. Soʻz-gaplar bir soʻzdan tashkil topgan boʻladi. Ular odatda **evet – ha, hayır, yok – yoʻq, tabii – albatta, tamam – boʻpti, peki – yaxshi** kabi bir soʻzlardan tashkil topgan boʻladi. Bunday gaplarning biror soʻz yoki gap boʻlagi bilan toʻldirilishi talab etilmaydi: *Tamam. – Boʻpti.*

GAPNING IKKINCHI DARAJALI BOʻLAKLAR ISHTIROKIGA KOʻRA TURLARI

Tayanch soʻz va iboralar: *yoyiq gaplar, yigʻiq gaplar.*

Gaplar tarkibida ikkinchi darajali boʻlaklar ishtirok etishi yoki umuman ishtirok etmasligi mumkin. Baʼzida gaplar faqat ega va kesimdan tashkil topadi. Matn talabi bilan bunday gaplar aniqlovchi, toʻldiruvchi yoki hol bilan toʻldirilishi mumkin. Shu sababli turk tilidagi gaplar ikkinchi darajali boʻlaklar ishtirok etishi yoki etmasligiga koʻra ikki xil boʻladi: 1. Yigʻiq gaplar. 2. Yoyiq gaplar.

Yigʻiq gaplar. Agar gaplar faqat bosh boʻlaklardan tashkil topgan boʻlsa yoki bosh boʻlaklardan birigina gapni hosil qilgan boʻlsa, bunday gaplar **yigʻiq gaplar** hisoblanadi. Masalan: *Ders başladı (Dars boshlandi). Zil çaldı (Qoʻngʻiroq chalindi).* Bunday gaplar ega va kesimdan iborat. Keyingi gaplarda birinchisi va ikkinchisi bir soʻzdan – egadan tashkil topgan boʻlib, ular bir bosh boʻlakli yigʻiq gaplardir. Biroq uchinchi gap yoyiq sodda gapdir. Chunki ega (herkes),

qaratqich-aniqlovchi (deniz) va kesimdan tuzilgan (kuyisinda). *Yaz. Sıcak. Herkes deniz kıyısında.- Yoz. Issiq. Hamma dengiz qirg'og'ida.*

Yoyiq gaplar. Bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar ishtirokidan iborat gaplar **yoyiq gaplar** hisoblanadi. Bunda bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklardan birining ishtirokigina yetarli. Masalan, quyidagi gap ega, kesim, payt holi va o'rin holidan tashkil topgan yoyiq gapdir: *Kemran sabahleyin evine gitti. – Kamron ertalab uyiga jo'nadi.* Quyidagi gap vositali to'ldiruvchi va kesimdan iborat yoyiq gapdir: *Bana bakmadı bile. – Menga qaramadi ham.*

GAPNING ZARUR GAP BO'LAKLARI ISHTIROKIGA KO'RA TURLARI

Tayanch so'z va iboralar: *to'liqsiz gaplar, to'liq gaplar.*

Turk tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri og'zaki nutqda kuzatiladi. So'zlashuv tilida qisqalikka, ixchamlikka erishish uchun turklar gap tarkibidagi gap bo'laklarini tushirib qoldirishadi. Aslida gap tarkibida qatnashishi majburiy bo'lgan so'zlar tushib qolishi natijasida **to'liqsiz gaplar** yuzaga keladi. Masalan, quyidagi gapda to'liq savolga javob to'liqsiz gap sifatida qaytarilgan, ya'ni gapning kesimi, payt holi va egasi tushirib qoldirilgan:

- *Sen şu an nereye gidiyorsun?*
- *Enstitüye.*
- *Sen hazır qayerga ketyapsan?*
- *Institutga.*

Ya'ni keltirilgan misolda to'liqsiz gap "enstitüye" – "institutga" o'rin holidangina iborat. Demak, to'liqsiz gaplar zarur gap bo'laklarining tushib qolishi natijasida yuzaga keladi. Shuni ta'kidlash joizki, to'liqsiz gaplar tarkibidagi so'zlarni undan oldingi yoki keyingi gaplar vositasida to'ldirish mumkin bo'ladi.

To'liqsiz gaplarni tarkibiga ko'ra quyidagicha tasniflash ma'qul:

1. Bosh bo'laklari tushirilgan to'liqsiz gaplar.
2. Bosh bo'laklaridan biri tushirilgan to'liqsiz gaplar.

Bosh bo'laklari tushirilgan to'liqsiz gaplar. Bosh bo'laklari tushirilgan to'liqsiz gaplarda ega, kesim tushirib qoldiriladi. Gapda ikkinchi darajali bo'laklardan biri yoki bir nechtasi qatnashishi mumkin. Dialogik nutqqa oid to'liqsiz gapda ifodalanmagan gap

bo'laklari suhbatdoshning nutqidagi gapdan anglashiladi. Monologik xarakterdagi to'liqsiz gaplarda esa undan oldin yoki keyin kelgan gapdan, situatsiyadan aniqlashtiriladi. Bosh bo'laklari tushirilgan to'liqsiz gaplarning tarkibiga ko'ra quyidagi ko'rinishlari bor:

1. To'ldiruvchidan iborat to'liqsiz gaplar. Bunday to'liqsiz gaplar, odatda, dialogik xarakterda bo'ladi: – *Neyi o'g'rendin?* – **Emrinin geldigini.** – *Nimani bildingiz?* – *Buyrug'ing kelganini.* Mazkur misollarda javob tariqasida berilgan to'liqsiz gap faqat to'ldiruvchining vositasiz turidan tashkil topgan bo'lib, ega, kesimlar tushib qolgan.

2. Aniqlovchidan iborat bo'ladi. Quyidagi gapda kesim va ega tushirib qoldirilgan bo'lib, to'liqsiz gaplar sifatlovchi-aniqulovchidan iborat: – *Guzel terbiye usulu. Mektepte erkecocuk da var mi?* – **İki, üç tane.** – *Tarbiyaning ajoyib usuli! Bundan chiqdi, maktabingizda o'g'il bolalar ham bor ekan-da?* – *Ikkita-uchta.* Ushbu to'liqsiz gapda aniqlovchidan boshqa barcha zarur gap bo'laklari – o'rin holi, ega, kesim ifodalanmagan.

3. Holdan tashkil topadi: – *Kalfa annem bana çok mu benziyordu?* – **Çok.** – *Xalfa, onam menga juda o'xsharmidi?* – *Juda ham.* Bu to'liqsiz gap miqdor-daraja holdan iborat bo'lib, ega – **annem – onam**, kesim – **benziyordu – o'xshardi**, to'ldiruvchi **sana – senga** tushirib qoldirilgan. Keyingi to'liqsiz gapda ega va kesim ifodalanmagan, payt holdan tashkil topgan: – *Ne vakit geleyim?* – **İki üç gün sonra.** *Qachon kelay?* – *İkki-uch kundan keyin.*

Bosh bo'laklaridan biri tushirilgan to'liqsiz gaplar. To'liqsiz gaplarning bu tipi bosh bo'laklardan birining tushib qolishi natijasida yuzaga keladi: – *Kardeşlerinden ayrılacağına üzülüyor musun?* – **Üzülüyorum** *abacığım.* – *Aka-ukalaringdan ajralishingga xafamasmisan?* – **Xafa emasman**, *opajonim.* Bu holatdagi to'liqsiz gaplarda ega, to'ldiruvchi bo'lib kelgan so'zlar ifodalanmagan, kesimning o'zigina qatnashgan. Keyingi to'liqsiz gaplarda ega bor, kesim tushirilgan: – *Ne kadar talebeniz var?* – **On üç kız, dort erkek çocuk.** – *Qancha o'quvchingiz bor?* – **O'n uchta qiz, to'rtta o'g'il bola.** Shu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, to'liqsiz gap tarkibida qatnashayotgan so'z yoki so'zlar shaxs, predmet, joy tushunchasini bildirganida, ushbu tushunchalarning belgi-xususiyatini sifatlovchi gap

bo'lagi – aniqlovchisi o'z o'rnida qolishi mumkin. Misollarni tahlil etish jarayonida e'tibor qaratilgan bo'lak to'liqsiz gapni vujudga keltirsa ham. uning aniqlovchisi gap tarkibida ishlatilish qobiliyatiga ega-
ligini ko'rsatdi: – *Huriye hanım kim efendim?* – **Geliboludan gelen öteki hoca.** – *Huriya xonim kim, afandim?* – *Gelibo'lidan kelgan muallima.*

Dialogik xarakterdagi to'liqsiz gapning ma'nosi ikki so'zlovchi-
ning savol-javobi asosida aniqlashtiriladi. To'liqsiz gapli dialoglar
shakliy jihatdan quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin:

1. Savol ham, javob ham to'liqsiz gaplardan tuzilishi mumkin.
Lekin bunda to'liqsiz gapning mazmunini aniqlashtirish, gap nima
haqda ketayotganini bilish uchun nisbatan avvalgi savol-javoblarga
e'tibor qaratilishi kerak. Masalan, quyidagi to'liqsiz gaplardan tashkil
topgan dialogning ma'nosini aniqlashtirish uchun suhbatning avvalini
ham keltirish kerak. – **Erkek mi?** – **Bir kadın arkadaşı.** – **Erkakmi?** –
Bir dugonam. Dialogning boshini berish orqali gap so'zlashuv xususi-
da ekani ayon bo'ladi: – *Kiminle konuştun?* – **Bir arkadaşla.** – **Erkek**
mi? – **Bir kadın arkadaşı.** – *Kim bilan gaplashding?* – *Bir do'stim*
bilan. – **Erkakmi?** – *Bir dugonam.*

Dialog tarkibidagi so'roq gap to'liqsiz gap shaklida bo'lishi mum-
kin. Bunda savol zarur bo'laklari qatnashgan gapga nisbatan beriladi:
– *Evet, çünkü Yusuf Efendi ömründe hiç bir gün bugünkü kadar mesut*
ve aynı zamanda bedbaht olmadı. – **Niçin?** – *Ha, Yusuf afandi umrida*
hech mahal shu bugungidek baxtiyor, ayni paytda baxtsiz bo'lgan emas.
– **Nega?** To'liqsiz gaplarning bu tipi boshqalaridan farqli o'laroq yana
bir ko'rinishga ega. Stilistik maqsadda, bildirilgan fikrning diqqat qara-
tilgan bo'lagi savol tariqasida qaytarib beriladi: – *Bu gece acayip rüya*
görmüşüm. – **Rüya? Nasıl rüya?** – *Bu kecha antiqa tush ko'ribman.*
– **Tush? Qanaqa tush?** To'liqsiz gaplarning bu formasi qayd etilgan
voqea-hodisani so'rovchining to'la anglab yetmaganligi, tushunma-
ganligi ma'nosini bildirishi hamda shu ma'noni aniqlashtirishga yo'-
naltirilgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, mazkur to'liqsiz gap turi
muayyan xatti-harakatning amalga oshganligiga ishonmaslik yoki bu
holatning tinglovchi uchun kutilmaganda yuzaga chiqqanligi ma'nosi-
ni tashishi mumkin: – *Sınır tanımazmış.* – **Tanımazmış?** – *Chegara*

tanimas emish. – Tanimasmish? Soʻzlovchining salbiy munosabatini, kinoyasi, kesatigʻi yoki mensimaslik hollarini ifoda etishda ham toʻliqsiz gapning shu koʻrinishidan foydalaniladi: – *Araba evimizde konulur. Herhangi zaman kullunacağiz. – “Kullanacağiz”?* Boşuna araba kullanıp, altı günde mi eskiteceksiniz? – *Mashina bagʻrimizda boʻladi, vaqt-bevaqt lip etib minib ketaveraman. – “Minib ketaveraman”?* Boʻlar-boʻlmasga mashina minib, olti kunda shalogʻini chiqarasizmi? Agar xuddi shunday takror savolga javob shaklida boʻlsa, qoʻshimcha stilistik maʼno yuklanmaydi.

Dialogik xarakterdagi taalluqli toʻliqsiz gaplar zarur boʻlaklari ishtirok etgan soʻroqqa javob tarzida boʻlishi mumkin: – *Ne kadar uyudum? – On yedi gün kadar. – Qancha uxladim? – Oʻn yetti kuncha.*

ILMIY AXBOROT

Turk tilshunoslaridan M. Ergin, T. Banguoʻgʻlu, H. Dizdaroʻgʻlu va M. Hengirmenlar umuman sintaksis masalalariga toʻxtalgan boʻlsalar-da, faqat H. Dizdaroʻgʻlu, M. Hengirmenning ishlarida toʻliqsiz gap (kesik cumle) haqida maʼlumot beriladi. Rus tilshunoslaridan A.N.Kononov bu mavzuga qisman, A.N.Baskakov anchagina keng eʼtibor qilganligini koʻrish mumkin. Demak, turk tilshunosligida toʻliqsiz gaplar hamma vaqt ham ajratilavermaydi. H.Dizdaroʻgʻluning taʼrificha, koʻpincha kesimi, baʼzan boshqa gap boʻlaklari ishlatilmagan gapga **toʻliqsiz gaplar** (kesik tımce) atamasi beriladi. M.Hengirmen esa toʻliqsiz gaplarga nisbatan toʻliqroq va aniqroq izoh beradi: Ifodada takrorni qoʻllashdan qochish uchun baʼzan gapda ega, kesim, toʻldiruvchilar (ikkinchi darajali boʻlaklar)ning tushirib qoldirilishiga **soʻz tushishi hodisasi** deyiladi. Ayni oʻrinda qavs ichida bu shakldagi gapga **toʻliqsiz gaplar** nomi ham ilova qilinadi. H.Dizdaroʻgʻlu toʻliqsiz gaplarning ikki turini belgilaydi: kesimli toʻliqsiz gaplar, kesimsiz toʻliqsiz gaplar. Nomlanishidan maʼlumki, toʻliqsizning bu tiplaridan birida kesim ishtirok etadi, ikkinchisida esa qatnashmaydi. M.Hengirmen bu masalada sal ilgariroq ketadi va toʻliqsiz gaplarda ega, kesim, bosh boʻlaklarning tushishi hodisasini farqlaydi.

Umuman, turk tilidagi toʻliqsiz gaplarni ishlatilish sharoiti, spesifikasi xususiyatlari, tarkibi kabilarga koʻra tasniflash mumkin. Dastlab

to'liqsiz gaplarning monologik va dialogik xarakterda bo'lishini yodda tutish kerak. Monologik nutqqa xos bo'lgan to'liqsiz gaplar xususiyatlari, qo'llanish sharoitida qaysi omilning asosiy va yetakchi rol o'ynashiga qarab quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

a) kontekstual to'liqsiz gaplar;

b) situativ to'liqsiz gaplar;

v) mustaqil to'liqsiz gaplar.

Quyida shu gap turlarining ko'rinishlariga to'xtalamiz.

To'liqsiz gaplarda ifodalanmay qolgan, yashiringan bo'lak yoki bo'laklar kontekst orqali, ya'ni shu to'liqsiz gapdan oldin yoki keyin kelgan qo'shni gaplar orqali aniqlanuvchi gaplarga **kontekstual to'liqsiz gap** deyiladi. Masalan: *Ümit edeyim, tahammül edeyim, güzel. Fakat niçin, neyi beklemek için? – Xo'p, umid qilayin, chidayin, men bunga roziman. Faqat nima evaziga, nimani kutish evaziga?* Keltirilgan misoldagi to'liqsiz gap sabab holidan tashkil topgan bo'lib, kesim – **ümit edeyim – umid qilayin, tahammül edeyim – chidayin** ifodalanmagan. To'liqsiz gapning mazmuni avvalgi jumla vositasida tiklanadi.

Gapda ifodalanmagan gap bo'laklari nutq vaziyatidan, situatsiyadan anglashilib turuvchi to'liqsiz gaplarga **situativ to'liqsiz gap** deyiladi. Agar situativ to'liqsiz gaplar o'z vaziyatidan ajratib, uzib olinsa, to'liq, asosiy ma'no anglashilmaydi. Masalan: *Ayşe: (Kolyesiyle uğraşır) – Bu da durmuyor. Bozuk mu? – Cy-ha: (Kolesi bilan mashg'ul bo'lib) Bu ham tutmayapti. Buzuqmi?* Bu holda **buzuqmi** kesimidan iborat to'liqsiz gap turli predmetlar tushunchasini talab etishi mumkin. Kontekstdan anglashilishi uchun esa qo'shni gaplar bo'lishi lozim edi. Bunda kolening buzuqligi situatsiyadan anglashiladi.

Mustaqil to'liqsiz gaplar kesimsiz to'liqsiz gaplarning maxsus ko'rinishidir. U o'ziga xos xususiyatlari bilan kesimsiz to'liqsiz gaplarning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Bunday to'liqsiz gaplarda fe'l kesim ifodalanmay qoladi va uni aniqlashda kontekst, nutq vaziyati emas, balki shu gapning umumiy mazmuni va shakli asosiy, yetakchi rol o'ynaydi. Masalan: *Patrona da selam. – Boshlig'ingga ham salom. Salim, iki kahve! – Salim, ikkita qahva!* Mustaqil qo'llanuvchi to'liqsiz gaplarda asosan kesim bo'lmaydi. Quyidagi jumlada **keling**

fe'li qatnashmasa ham, chaqirish, taklif qilish, chorlash ma'nolari mavjud: *Buraya baba buraya! Bu yoqqa, dada, bu yoqqa!*

GAPNING BO'LAKLAR TARTIBIGA KO'RA TURLARI

Tayanch so'z va iboralar: *to'g'ri gap, ters gap.*

Turk tilidagi gaplar gap bo'laklari tartibiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. To'g'ri gap. 2. Ters gap.

Qo'llanmaning "Gap bo'laklarining tartibi" bo'limida turk tilidagi gap bo'laklarining odatdagi tartibi va noodatiy tartibi haqida so'z yuritdik. Mazkur bo'limda gap bo'laklari noodatiy tartibda joylashgan gaplarni inversiyaga uchragan gaplar tarzida ko'rsatiladi.

To'g'ri gap. Turk tilidagi gap bo'laklari odatdagi tartib asosida joylashgan gaplarga **to'g'ri gap** deyiladi. Masalan, "aniqlovchi + ega + to'ldiruvchi + hol + kesim" shaklidagi gaplar to'g'ri gaplar hisoblanadi.

Ters gap. Yuqorida keltirilgan gap bo'laklari tartibining o'zgarishi, ya'ni biron bir bo'lakning kesimdan keyin joylashishi natijasida **ters gaplar** hosil bo'ladi. Demak, turk tilidagi gap bo'laklari noodatiy tartibda joylashgan gaplarga **ters gaplar** deyiladi. Ters gaplar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

- "aniqlovchi + ega + to'ldiruvchi + kesim + hol" (Güzel (aniqlovchi) kız (ega) şarkı (vositasiz to'ldiruvchi) söylüyordu (kesim) yüksek sesle (holat holi) - Go'zal qiz baland ovozda qo'shiq aytardi.

- "to'ldiruvchi + hol + kesim + ega" (Şarkı (vositasiz to'ldiruvchi) söylüyordu (kesim) yüksek sesle (holat holi) kız (ega).

- "to'ldiruvchi + hol + kesim + aniqlovchi + ega" (Şarkı (vositasiz to'ldiruvchi) söylüyordu (kesim) yüksek sesle (holat holi) güzel (aniqlovchi) kız (ega).

- "aniqlovchi + ega + hol + kesim + to'ldiruvchi" (Güzel (aniqlovchi) kız (ega) yüksek sesle (holat holi) söylüyordu (kesim) şarkı (vositasiz to'ldiruvchi).

Keltirilgan ters gaplarning tartibi quyidagicha bo'lganida, to'g'ri gap sanaladi: Güzel (aniqlovchi) kız (ega) yüksek sesle (holat holi) şarkı (vositasiz to'ldiruvchi) söylüyordu (kesim).

Nazorat uchun savollar

1. Gapning gap bo'laklari ishtirokiga ko'ra qanday tasniflash mumkin?
2. Gapning bosh bo'laklar ishtirokiga ko'ra qanday tasniflash mumkin?
3. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarni farqini izohlang.
4. Egasiz gaplar va ularning turlari
5. Shaxsi aniq gap, shaxsi noaniq gaplar, shaxsi umumlashgan gaplar, egasi topilmaydigan gaplarning farqini misollar bilan tushuntiring.
6. Kesimsiz gaplar va ularning turlari.
7. Nominativ gaplar, atov gaplar, baho ifoda etuvchi gaplar, so'z-gaplarning farqini misollar bilan tushuntiring.
8. Sodda gapning ikkinchi darajah bo'laklar ishtirokiga ko'ra qanday tasniflash mumkin?
9. Yig'iq va yoyiq gaplar haqida ma'lumot bering.
10. Gapning zarur gap bo'laklari ishtirokiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering.
11. Bosh bo'laklari tushirilgan to'liqsiz gaplarni misollar bilan tushuntirib bering.
12. Bosh bo'laklaridan biri tushirilgan to'liqsiz gaplar tarkibiga ko'ra qaysi gap bo'laklaridan tashkil topadi? Misollar bilan tushuntiring.
13. Gap bo'laklari tartibiga ko'ra gapning qanday turlari bor?
14. Ters gap qanday shakllantiriladi?

2.6.MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR

Tayanch so'z va iboralar: *murakkablashgan sodda gaplar, uyushiq bo'lakli gaplar, kiritma konstruksiyalar, undalmali gaplar.*

Uyushiq bo'laklar, kiritma konstruksiyalar, kirish konstruksiyalar yoki undalmalar ishtirokidagi sodda gaplar murakkablashgan sodda gaplar hisoblanadi. Quyida sodda gapni murakkablashtiruvchi ushbu bo'laklarning har biriga alohida to'xtalamiz.

UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR VA ULARNING BOG'LANISH USULLARI

Uyushiq bo'lakli gaplar va gap bo'laklarini uyushtiruvchi vositalar

ILMIY AXBOROT

Hozirgi turk tilshunosligida gapning uyushiq bo'laklariga munosabat, bu sintaktik hodisani baholash farqli ekanini ko'rish mumkin. Aksariyat turk tilshunoslarining tadqiqotlarida umuman gap bo'laklarining uyushib kelishi alohida sintaktik hodisa tarzida ajratilmagan. Ilmiy manbalarning ayrimlarida uyushiq bo'lakli sodda gaplarni qo'shma gapning turli shakllari deb tushuntirish hollari uchraydi. Ammo nisbatan keyingi ishlarda **eşit ögeler – teng bo'laklar** atamasi bilan gapning uyushiq bo'laklari tahliliga yo'l-yo'lakay to'xtalib o'tilganligini ko'rish mumkin.

Turk tilida uyushiq bo'laklar o'zaro tenglashtirish ohangi orqali yoki teng bog'lovchilar orqali bog'lanadi. Bog'lovchisiz qo'llangan uyushiq bo'laklar faol ishlatiladi. Masalan: *Fatma'nın burnunda, yanaklarında, bileklerinde dövmeden süsler vardı. – Fotimaning burnidan, betlaridan, qollaridan g'urralar arimas edi.* Bu gapda **burnunda – burnida, yanaklarında – betlarida, bileklerinde – qollarida** vositali to'ldiruvchilari uyushiq holda qo'llangan, ayni hollarda sanash ohangi uyushtiruvchi vosita sifatida maydonga chiqqan.

Uyushib qo'llangan gap bo'laklari bog'lovchi yordamida birikkanida, teng bog'lovchilarning ma'no turlaridan biri ishlatiladi. Agar uyushib kelgan gap bo'laklarida tenglashtirish, birliktirish munosabati bo'lsa, turk tilidagi biriktiruv bog'lovchisi (**ve / va**) yoki ushbu bog'lovchi vazifasida qo'llanuvchi **ile / bilan** ko'makchisi ishlatiladi. Masalan: *Arabi ve Farsiden başka İngilizce ve Fransızca'yi biliyordu. – Arabcha va forschadan tashqari inglizcha va fransuzchani bilardi.* Bu misolda vositasiz to'ldiruvchilar uyushib kelgan bo'lib, o'zaro **ve/ va** yordamchi so'zi vositasida birikkan.

ILMIY AXBOROT

Bilamizki, o'zbek tilidagi uyushiq bo'laklarni bog'lashda **ham** bog'lovchisi ishlatiladi. Masalan: *Aytmasangiz sizga ham. menga ham yomon bo'ladi.* Turk tilida o'zbek tilidagi **ham** yuklamasining ma'nodosh ekvivalenti sifatida **hem, bile, da/ de** so'zlari ishlatiladi. Masalan: *Kızları hem onlara, hem kendisine silinmeyecek leke surmuştu.* – *Qızları ham ularga, ham o'ziga o'chirib bo'lmaydigan dog' tushirgan edi.* *Bazi sebeblerden dolayı Saip Paşa kızkardeşini de, yeğenini de sevmiyordu.* – *Ba'zi sabablar tufayli Saip Poshho singlisini ham, jiyanini ham yoqtirmasdi.* Bunda **hem** yuklamasining **da/ de** so'ziga qaraganda kam ishlatilishi kuzatiladi. Bu holatning sababini quyidagicha izohlashimiz mumkin: **Ham** yuklamasi semantik jihatdan turk tilidagi **bile** so'zining ekvivalentidir, biroq **bile** so'zi uyushiq bo'laklarni bog'lamaydi, balki ayrim qo'shimcha ma'noni yuklaydi, ya'ni bu so'z faqat shart maylidagi fe'llar ishtirokida keladi hamda gapda kontekstga ko'ra, yoki ta'kid, kuchaytirish yoki to'siqsizlik ma'nosini anglatadi. Masalan, quyidagi gapda **bile** so'zi o'zi bog'lanib kelgan birikuvga ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolarini yuklagan: *Hasan'dan beş gün olsa bile ayrılmaktan mustarip oldum.* – *Hasandan besh kunga bo'lsa ham ajralishdan ranjidadim.*

Mazmunan bir-biriga zid tushunchalarni bildiruvchi uyushgan gap bo'laklarini bog'lash uchun zidlov bog'lovchilariga murojaat qilinadi. Turk tilida **ama, lakin, fakat, ancak** so'zlari qarama-qarshi mazmun tashuvchi gapning uyushiq bo'laklarini bog'laydi. Masalan, quyidagi gapda aniqlovchilarni uyushtiruvchi vosita sifatida **fakat** so'zi qo'llangan: *Yarı meczup, fakat rint, ehli dil bir adamdı.* – *Yarım telba, ammo quvnoq va dilcash bir odam edi.*

Turk tilida **ya, yahut, veya, veyahut** – **yoki, yo, yoxud** kabi ayiruv bog'lovchilari sanalayotganlardan birining bo'lishini anglatadi. Masalan, keyingi jummalarda ayiruv bog'lovchisi ishtirok etgan bo'lib, uyushib kelgan gap bo'laklaridan anglashilgan holatlardan faqat birining amalda bo'lishini bildirgan: *Sonra onun inatçı ve dalgın sukutu karşısında sadece duygusuz, ya da aptal olduğunu hükmederek artık üstüne düşmedi.* – *So'ngra Lamianing qaysar va tushkun sukuti qarshisida u faqat hissiz yoki ahmoq, degan qarorga kelib, ortiq bezovta qilmadi.*

bazan... bazan – ba'zan... ba'zan, kah... kah – goh... goh, / bir... bir, bir gün... bir gün – bir... bir, birde... birde singari takroriy bog'lovchilar tilga olinganlarning galma-gal amalga oshirilishini bildiradi. Quyidagi gapda *kah... kah* uyushtiruvchi elementlari gapdan ifodalangan voqea-hodisaning yuzaga chiqish tarzi bir necha usulda va galma-galdan reallashgani mazmunini bildirishga xizmat qilgan: *Kah yalvararak, kah darilarak günlerce onu sıkıstırdı. – Goh yolvorib, goh ranjib ancha kun uni siqishtirdi.*

Ne inkor yuklamasi gapning uyushiq bo'laklarini bog'laydi: *Bende, artık ne ses vardı, ne hareket. (Menda endi na tovush, na harakat bor edi.*

Turk tilidagi uyushiq bo'laklarni bog'lashda, shuningdek, muayyan so'z yoki so'zlar birikmasidan uyushtiruvchi element o'laroq foydalaniladi. Masalan, quyidagi gapda **gerek** so'zi takroriy shaklda kelgan bo'lib, gapning uyushgan egalarini bog'lashga xizmat qilgan: **Gerek o gerek başkası gelsin.** – *Kerak bo'lsa u, kerak bo'lsa boshqasi kelsin.* Turk tilidagi **istemek** fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli uyushiq bo'laklarni bog'lovchi vosita sifatida qo'llaniladi: *Hava ister sıcak olsun, ister soğuk.* Bu vosita o'zbek tilidagi **xoh** so'ziga muvofiq bo'ladi: *Havo xoh issiq bo'lsin, xoh sovuq.*

Gapning uyushiq bo'laklari

Tayanch so'z va iboralar: *gap bo'laklarining uyushishi, uyushiq ega, uyushiq kesim, uyushiq aniqlovchi, uyushiq to'ldiruvchi, uyushiq hol, yig'iq uyushiq bo'laklar, yoyiq uyushiq bo'laklar.*

Turk tillaridagi uyushuvchi elementlar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

1. Gapning bosh bo'laklari uyushib keladi:

a) ega uyushadi: *Hatta günden güne cüret ve cesareti artıyordu.*
– *Hatto kundun-kunga jur'ati va jasorati ortayotgan edi;*

b) kesim uyushadi: *Ayrılık gününün faciasını hala hatırlar ve gülerim.* – *Ayriliq kunining fojeasini hamuzgacha xotirlayman va kulaman;*

v) bosh bo'laklarning har ikkalasi uyushib qo'llanadi: **Babamlar ile dayımlar dağdan keklik avlayıp gelirlermiş ve kebab pişirirlermiş.**
– *Otamlar va tog'amlar tog'dan kiyik otib kelar va kabob pishirar ekanlar.*

2. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari uyushiq holda ishlatiladi:

a) To'ldiruvchining vositali va vositasiz shakllari uyushib keladi.

Masalan, quyidagi gapda ajratib ko'rsatilgan uyushgan vositasiz to'ldiruvchilar ohang yordamida birikkan: *Fakat onun ne çektigini, senin için ne yaptığını yalnız ben bilirim. – Faqat uning qanday azob chekkanini, sen uchun nima qilganini yolg'iz men bilaman;*

b) aniqllovchining qaratqich va sifatlovchi turlari uyushib keladi.

Keltirilgan misollarda gapning sifatlovchi-aniqllovchilari uyushgan: *Bana bu doğu denilen sihirli ve esrarlı memleketi biraz anlatır mısınız? – Menga bu Sharq deb atalgan sehrli va asrorli mamlakat haqida biroz gapirib berasizmi?*

v) hol uyushiq shaklda ishlatiladi. Quyidagi gapda holat holi uyushgan: *Ömrümde hiç bir insan gözü bana bu kadar hayretle ve yakınlıkla bakmadı. – Umrimda hech bir inson ko'zi menga bu qadar hayrat va yaqinlik bilan boqmadi.*

Undalmalar uyushib ishlatilishi mumkin. Uyushgan undalmalar yoyiq va yig'iq shaklda bo'ladi: *Sen de beni affet, Allah'in alnıma yazdığı helelligim. bu dünyada bulduğum helel nasıbım, bahtım, değerli cevherim, altınım, bir tanem!.. Affet...affet...affet... – Sen ham kechir, Olloh o'zi qovushtirgan xasmim, justı halolim, bu dunyoga kelib topgan birdan-bir baxtim, bebaho Marjonim, duri gavharim, kechir, kechir, kechir... Ushbu misolda uyushib kelgan undalmalar yoyiq shakldadir, ya'ni undalmalar sifatlovchilari bilan ishlatilgan.*

Gapning bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklaridan ayrimlari bir gap tarkibida uyushib kelishi mumkin. Masalan, quyidagi jumlada qaratqich-aniqllovchilar va holat hollari uyushgan: *O halde bir, dostun, arkadaşın kızı olarak, misafir gibi gel. – Unday bo'lsa, bir do'stning, o'rtoqning qizi sifatida, bir mehmon kabi kel.*

Uyushiq bo'laklar tarkiban yoyiq yoki yig'iq bo'ladi. Masalan, quyidagi gapda vositasiz to'ldiruvchi uyushib kelgan bo'lib, aniqllovchilar orqali ulardan anglashilgan predmet, shaxs tushunchalari izohlangan: *Sevgili Taşkentim'i, okuduğum okulumu, sınıf arkadaşlarımı, jimnastik salonumu hepsini çok özliyorum, çok hatırlıyorum. – Sevikli Toshkentimni, o'qigan maktabimni, sinfdosh dugonalarimni, gimnastikaga qatnaydigan stadionimni, barcha-barchasini ko'p*

eslayman, ko'p sog'inaman. Quyidagi gap esa yoyiq uyushiq to'ldiruvchili jumladir: *Yalnız onun ardi arkası kesilmeyen kıskançlık kavgasından, Hasan'a düşkünlüğünden başka bir şeyden bahsetmeyen konuşmalarından çok sıkılmışım. – Faqat uning boshi-oxiri ko'rinmagan rashk g'avg'osidan, Hasanga bo'lgan ehtirosidan boshqa narsa haqida bo'lmagan gaplaridan juda zerikdim.*

Uyushiq bo'lakli gaplar tarkibida uyushib kelgan gap bo'laklariga oid bo'lgan grammatik shakllar ularning har birida yoki so'ngisidagina ishtirok etishi mumkin. Masalan, quyidagi gapda uyushib kelgan so'zlarning barchasida grammatik ko'rsatkich ishtirok etgan, ya'ni qaratqich-aniqlovchining ko'rsatkichi har bir uyushiq bo'lak tarkibida mavjud: *Hiç olmazsa Hasan'ın, Azize'nin ebedi iskencelerinden kurtulacaktım. – Hech bo'lmasa, Hasanning, Azizaning abadiy iskanjalaridan qutilardim.*

Quyidagi gaplardagi umumiy ko'makchilar uyushgan so'zlarning har biriga taalluqli, bunda birinchi gapda ko'makchili vositali to'ldiruvchi, ikkinchi gapda maqsad holi uyushiq holda qo'llangan bo'lib, bu gap bo'laklari tarkibidagi ko'makchilar (**hakkında – haqida, için – uchun**) har bir uyushgan bo'lakka tegishli: *Ahmet çocukluğunda bu dereler, karanlık mağaralar hakkında çok korkunç dedikoduları duymuştu. Ahmed kichikligida bu daralar, qorong'i g'orlar haqida vahimialı gaplarnı ko'p eshitardi. Çok yürümek, çok yorulmak için zaman kazanmak istiyorum. – Ko'p yurish, ko'p charchash uchun vaqtdan yutishni istayman.*

Muayyan affikslar yoki ko'makchilarning uyushiq bo'laklarning har biri tarkibida bo'lishi matnga qo'shimcha stilistik bo'yoq beradi, gapdagi ohangdorlik, obrazlilikni bo'rttiradi.

Umumlashtiruvchi bo'laklar

Gapdauyushiq bo'laklarni jamlab ko'rsatuvchi umumlashtiruvchi birliklar qo'llanilishi mumkin. Umumlashtiruvchi bo'laklar bir so'z yoki so'z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin: *Söylenenleri kabul ediyor mu etmiyor mu hiç bir şeyi anlamak mümkün değildi. – Ularning gaplariga rozimi, rozi emasmi – hech narsani bilib bo'lmas edi.* Keitirilgan misolda umumlashtiruvchi bo'lak so'z birikmasi bilan ifodalangan.

ILMIY AXBOROT

Turk tilshunosligida uyushiq bo‘laklar anglatgan tushunchalarni umumlashtirib beruvchi gap bo‘laklari alohida ajratilmagan va o‘rganilmagan. Turk tili bo‘yicha to‘plangan faktik materiallar ushbu tilda ham umumlashtiruvchi gap bo‘laklari ishlatilishini ko‘rsatdi. Ammo o‘zbek tilidagidan farqli ravishda ayni gap bo‘laklari har doim ham maxsus tinish belgilar bilan ajratilmaydi (Ayonki, o‘zbek tilida uyushiq bo‘laklarni jamlab beruvchi gap bo‘laklari tire, vergul, ikki nuqta kabilardan birini qo‘llash orqali ajratiladi). Shunga muvofiq tartibda o‘zbek tilidagi umumlashtiruvchi bo‘laklar qisqa pauza bilan uyushiq bo‘laklardan yoki o‘zidan avval kelgan so‘zlardan ajratilgani holda, turk tilida talaffuz vaqtida bunday ayrimlik ohangi deyarli sezilmaydi: *Kare shaklindaki kucucuk odanın dört bir yanına monte edilen raflar, pencere önleri ve hatta masanın üzerine varıncaya kadar her taraf kitaplarla doluydu. – Kichikroq chorburchak xonaga gir aylana qilib o‘rnatilgan javonlar, deraza tokchalari, stol-stullar – hammayoq kitobga to‘lib ketgandi.* Ushbu gapda uyushgan egalarning ma‘nosini umumlashtiruvchi bo‘lak (**her taraf – hammayoq**) qatnashgan.

UNDALMALI GAPLAR

Undalmalar so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmet tushunchasini ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasidir. Undalma bosh kelishikdagi ot yoki ot ma‘nosidagi so‘zlar bilan ifodalanib, gapning umumiy mazmunini to‘ldiradi, gapning kimga qarashlilikini bildiradi.

Undalmalar dialogik nutqda ham, monologik nutqda ham ishlatiladi: *Bu güzel ve temiz çocuğu ne kadar sevseniz azdır, Remzi Bey. – Bu go‘zal va sof qizchani qanchalik sevsangiz ham oz, Ramzibey.*

Undalmalar otlashgan so‘zlar bilan ham ifodalanishi mumkin: *Rölünü iyi oynadın, küçük. – Rolingni yaxshi o‘ynading, kichkina.*

Undalmalar ishtirokidagi sodda gaplar murakkablashgan sodda gap turlaridan biri – undalmali gaplar hisoblanadi.

KIRISH VA KIRITMA KONSTRUKSIYALI GAPLAR

Tayanch so‘z va iboralar: *kiritma konstruksiya, kirish konstruksiya, kirish so‘zlar, kirish birikmalar, kirish gaplar.*

ILMIY AXBOROT

Turk tilshunosligida gapga sintaktik jihatdan bog'lanmagan so'z birikmalari va gaplar har doim ham sintaktik hodisa tarzida farqlanmagan. Turk tilshunoslari M.Hengirmen, T. Banguo'g'lu, H. Dizdar-o'g'lu gap bo'laklari, gap turlari kabi sintaksis obyektlarini atroflicha tadqiq etishgan bo'lsalar-da, gapga sintaktik bog'lanmagan so'z, birikma, gaplarni ajratishmagan. Keyingi paytlarda paydo bo'lgan ishlarda turk tilidagi bu til hodisalari – kirish so'z va birikmalar "cümle dışı unsurları" (gapdan tashqari bo'laklar) atamasi ostida birlashtirilmoqda.

To'plangan materiallar tahlili natijasida kirish birikmalar va kirish so'zlar turk tilida faol qo'llanilishi ayon bo'ladi. Ammo turk tilida kirish so'z va kirish birikmalar har doim ham zarur tinish belgilari bilan ajratib berilmaydi. Shu bois gapning umumiy mazmuniga ko'ra gapga sintaktik jihatdan bog'lanmagan so'z va birikmalarni ajratish mumkin.

Gaplarni murakkablashtiruvchi, fikr materialiga yangi material qo'shmaydigan, o'sha fikrning o'ziga doir qo'shimcha ma'no (so'zlovchining shu fikrga qanday qarashi: ma'qullashi-noroziligi, ishonishi-ishonmasligi kabi modal ma'nolar, shu fikr bilan bog'liq ravishda tug'ilgan emotsional ma'nolar) orttiruvchi so'zlarga, birikmalarga, gaplarga **kirish konstruksiya** deyiladi. Aytiluvchi fikrga qo'shimcha yangi ma'lumot, fikr orttiruvchi kiritma so'zlar, gaplar esa **kiritma konstruksiyalardir**. Avval kirish konstruksiyalarni, so'ngra kiritma konstruksiyalarni ko'rib chiqamiz.

KIRISH KONSTRUKSIYALAR

Tayanch so'z va iboralar: *kirish so'zlar, kirish birikmalar, kirish gaplar, holli kirish birikmalar, sifatlovchili kirish birikmalar, kiritma konstruksiyali gaplar.*

Turk tilidagi kirish konstruksiyalarni tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin: 1. Kirish so'zlar. 2. Kirish birikmalar. 3. Kirish gaplar.

Kirish so'zlar. Kirish so'zlar bir so'zdan iborat bo'lib, ular morfologik tarkibiga ko'ra biror so'z turkumi bilan bog'lanadi. Ot tipidagi kiritma bo'laklarga quyidagi so'zlar kiradi: *hâsılı, velhasıl -- xullas, hayret – taajjub, genelde -- odatda, halbuki – holbuki.*

madem(ki) – modomiki, hakikaten, gerçekten – darhaqiqat, herhalde – aftidan, özellekle – ayniqsa, örneğin – masalan. Masalan: Örneğin, yunusbalığı çok sık esner. – Masalan, delfin juda ko'p esnaydi.

Ot tipidagi kirish so'zlar asosan bosh kelishik shaklida bo'ladi, ayrim kirish so'zlar yo chiqish yoki o'rin-payt kelishigi shaklida bo'ladi: **Gerçekten**, *size bu kadar gerekiyor muyum? – Haqiqatan, sizga shunchalik kerakmanmi?*

Olmosh tipidagi kirish so'zlarga *bence – benimcha, işte – mana, öyle – o'shanday* kabi so'zlar misol bo'lishi mumkin: **Onlar bence çok mutlu insanlardır. – Ular: benimcha, juda baxtli insonlardır.**

Sifat tipidagi kirish so'zlarga quyidagi so'zlar kiradi: *tabii – tabiiy, kısacası – qisqasi, şüphesiz – shubhasiz, daha doğrusu – to'g'rirog'i, belli ki – ma'lumki. Masalan: Tabii sen de babana yardım edeceksin. – Tabiiyki, sen ham otangga yordam berasan.*

